Scholar Zheng Zhibiao indicated that as a Muslim country originating from Central Asia, Baburid Dynasty eventually grew into a great empire covering the entire South Asian subcontinent through the efforts of successive emperors. During Babur's time, Baburid Empire's base was mainly in northern India. However, northern India was not peaceful at that time, and Babur faced many opponents, the most important of which were Rajput princes and Afghans. Therefore, Babur concentrated his firepower to defeat the Rajputs, and then defeated the Afghans. In just a few years, Babur had conquered most of northern India.

The subsequent emperors of the Baburid Empire implemented policies of conquering the south at different times, and their performances were divergent. Overall, the policy of conquering the South had continuity[39].

The Baburid Rule And Its Impact Upon The British Rule in India, written by professor Zhuang Wanyou, made several specific explanations on some characteristics and achievements of Baburid people in political rule and their influence on modern British people in India. This article argued that one of the significant contributions of Baburid people to India was the effective administrative and military system established by Babur's grandson— Akbar, from central to local, from administration, military, judiciary to taxation, forming a complete 'Baburid system'.

The most important in this system, and also one of the crucial measures taken by Baburid government to strengthen centralization, is the Mansabdari System, which integrated numerous feudal lords with the centralized bureaucratic hierarchy[40].

In terms of military affairs. Lin Yue agreed that Babur was an outstanding military strategist whom spent his entire life in war, and these various difficult environments gave him great training. In India, Babur began to build his own power and fight for the throne of India. He made clear plans and actively sought supporters. Gradually, Babur

[37] Shang Quanyu. The Baburid Empire-The Last Glory of Medieval India. Beijing: China International Broadcasting Press, 2022.
[38] Zhao Weibang. Zamindars in Baburid Empire of India. South Asian Studies Quarterly, 1985(3), p60-71.
[39] Zheng Zhibiao. Research on Baburid Empire's Policy of Conquering the South. Master Dissertation of Guizhou Normal University, 2020, p26.
[40] Zhuang Wanyou. The Baburid Rule And Its Impact Upon The British Rule in India. South Asian Studies Quarterly, 1994(1), p1-10.

set up an invincible army. Finally, with this army and his own increasingly improved command art, he successfully overthrew the Delhi Sultanate and fulfilled dream[41].

In his article *The Mansabdari System of Baburid Empire*[42], Zhang Yintong introduced the reasons why the Mansabdari System was implemented in the early Baburid Empire. In order to strengthen the centralized monarchy, reform the military organization, reorganize the national bureaucracy, and achieve a national direction of integrating Islamic and Hindu traditions in the military and bureaucratic political systems, Babur's grandson Akbar created and promoted Mansabdari System in 1573.

According to Mansabdari System, commanders commanding 10 to 10,000 cavalry were divided into 33 levels, with the top three levels (commanding 7,000, 8,000 and 10,000 people) reserved for three princes. There were 1,388 commanders commanding 10 to 150 people, and 412 commanders commanding 200 to 500 people. This system effectively improved the combat effectiveness of the army and administrative efficiency.

In terms of architectural art. Babur and other Baburid emperors inherited their instinctive love for natural landscapes from their ancestors. They rationally focused on seeking tranquility, which was based on the establishment of various orders. They persevered in exploring how to achieve this goal perfectly. At the same time, Baburid Empire also brought Persian-style gardens to India. Rambagh Garden, built in 1528, is the best example[43].

Xu Jing's article *Analysis of Urban Development in The Early Period of Baburid Empire*[44] investigated basic conditions of cities in the early period of Baburid Empire from a macro perspective, mainly involving the signs of prosperity of urban development. In the part specifically discussing the cities of Baburid Empire, Xu Jing focused on the functions, layout and architectural art of cities of the Empire, and made a comprehensive summary of Baburid cities at a macro level, which had important reference value for grasping the integral urban conditions during Baburid Empire.

In the Baburid period, many Islamic buildings were built, mainly in Delhi, Agra and other places. The main types of Baburid architecture included castles, palaces, mosques, mausoleums. The buildings were characterized by the combination of architectural components such as pointed arches, minarets, large domes, small dome pavilions, etc. The architectural style of Baburid Empire was mainly influenced by Persian Islamic architecture, while also incorporating elements of traditional Indian architecture. The buildings used Indian red sandstone and white marble as the major building materials making the magnificent appearance and solidity of Baburid architecture surpassed those of Central Asian glazed tile buildings, which forming a

[41] Lin Yue. The Rise and Fall of Baburid Empire. Beijing: Beijing Institute of Technology Press, 2009.
[42] Zhang Yintong. The Mansabdari System of Baburid Empire. South Asian Studies, 1986(2), p15-22.
[43] Li Li, Zhou Xilin. History of Landscape Architecture of Chinese and Foreign Gardens. Wuhan: Wuhan University of Technology Press, 2022, p128.
[44] Xu Jing. Analysis of Urban Development in The Early Period of Baburid Empire. Journal of Ludong University (Philosophy and Social Sciences Edition), 2011, 28(05), p4-7.

simple, bright decorated style that representing the greatest achievement of Indian Islamic architectural art[45].

In terms of literary works. *Babur's 'Memoirs'* translated by famous professor Wang Zhilai narrated historical events that Babur personally experienced from the time he inherited the throne of Ferghana in 1494 until the author's death in the year of 1530. As a chronicle of contemporary events written by contemporary people, it was a direct reflection of Babur's military and political activities, and was an important first-hand document. Although the author Babur was a feudal ruler, he paid attention to historical facts and recorded specific historical events.

Compared with other historical works, the events described in *Babur's 'Memoirs'* had exact specific times, which helped descendants understood ethnic relations, religious and political situations between China and today's Central Asia, India, Afghanistan and other places in history, as well as the historical roots of various social contradictions[46].

Babur's 'Memoirs' and His Writings About China and Communication between China and Western Regions[47] by Buaishamu Aji was based on the review of Babur, the founding monarch of Baburid Dynasty and his representative work. The article provided a further analysis of the book's understanding of China at that time, as well as its historical account of interactions between Central Plains and the Western Regions of China. Many of Babur's maternal relatives lived in cities such as Kashgar, Turpan, and Alimali in China at the time, so his book devoted considerable space to describing these areas. In addition, it also described relevant content about Tibet regions of China. More importantly, *Babur's 'Memoirs'* contained a large amount of information related to China and friendly communication between China and the West. In short, the exquisite language and rich resources of this masterpiece are extremely valuable first-hand materials for historians, geographers, linguists and ethnologists studying Central Asia.

Conclusion

Babur was not only a great emperor and an outstanding military strategist, but also an excellent scholar. Babur's experience makes people believe that even in difficult circumstances, great goals can be achieved through tenacious efforts and profound wisdom. Many people in later generations who have the courage to face challenges and pursue their dreams have found inspiration and strength in Babur's story.

References

1. Gu Kuixiang. Ten Greatest Reforms in Asian History. Shenyang: Liaoning University Press, 1994, p118-121.

2. Chen Hansheng. The Baburid Dynasty of India. Beijing: Commercial Press, 1979.

[45] Zhou Jing, Li Tian. Chinese And Foreign Architectural Art And Appreciation. Xi'an: Xi'an Jiaotong University Press, 2020, p135.

[46] Wrote by Babur, translated by Wang Zhilai. Babur's 'Memoirs'. Beijing: Commercial Press, 1997.

[47] Buaisham Aji. Babur's "Memoirs"and His Writings about China and Communication Between China and Western Regions. Northwest Nationalities Forum, 2018(2), p27.

3. Shang Quanyu. The Baburid Empire-The Last Glory of Medieval India. Beijing: China International Broadcasting Press, 2022.

4. Zhao Weibang. Zamindars in Baburid Empire of India. South Asian Studies Quarterly, 1985(3), p60-71.

5. Zheng Zhibiao. Research on Baburid Empire's Policy of Conquering the South. Master Dissertation of Guizhou Normal University, 2020, p26.

6. Zhuang Wanyou. The Baburid Rule And Its Impact Upon The British Rule in India. South Asian Studies Quarterly, 1994(1), p1-10.

7. Lin Yue. The Rise and Fall of Baburid Empire. Beijing: Beijing Institute of Technology Press, 2009.

8. Zhang Yintong. The Mansabdari System of Baburid Empire. South Asian Studies, 1986(2), p15-22.

9. Li Li, Zhou Xilin. History of Landscape Architecture of Chinese and Foreign Gardens. Wuhan: Wuhan University of Technology Press, 2022, p128.

10. Xu Jing. Analysis of Urban Development in The Early Period of Baburid Empire. Journal of Ludong University (Philosophy and Social Sciences Edition), 2011, 28(05), p4-7.

11. Zhou Jing, Li Tian. Chinese And Foreign Architectural Art And Appreciation. Xi'an: Xi'an Jiaotong University Press, 2020, p135.

12. Wrote by Babur, translated by Wang Zhilai. Babur's 'Memoirs'. Beijing: Commercial Press, 1997.

13. Buaisham Aji. Babur's "Memoirs"and His Writings about China and Communication Between China and Western Regions. Northwest Nationalities Forum, 2018(2), p27.

MAQSUD ŞEYXZADƏNİN "BABUR VƏ NƏVAİ" MƏQALƏSİ VƏ ONUN ŞƏRHİ

Almaz ÜLVİ BİNNATOVA

Filologiya elmləri doktoru, professor

AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun
"Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi
əlaqələr" şöbəsinin müdiri,

Xülasə: Məqalədə, Babur və Əlişir Nəvai arasında əlaqələrə və onların qarşılıqlı təsirinə fokuslanır. Babur atasının Nəvai, Firdovsi və Mövlana Rumi kimi klassiklərin əsərlərini oxuduğunu xatırlayır və Nəvai ilə olan məktublaşmalarından bəhs edir. Məqalə həmçinin Baburun Nəvai məktəbinin davamçısı kimi onun ideyalarını davam etdirməsindən, Nəvainin təsirini poeziyasına gətirməsindən bəhs edir. Məqalə Babur və Nəvainin bənzər mövzulara olan yanaşmalarını, dostluq, vətənpərvərlik və azad düşüncəyə dair görüşlərini müqayisə edir.

Açar sözlər: *Babur, Əlişir Nəvai, məktublaşma, poeziya, klassik ədəbiyyat, dostluq, vətənpərvərlik, azad düşüncə, Firdovsi, Mövlanə Rumi.*

MAQSUD SHAYXZODANING
"BOBIR VA NAVOIY" MAQOLASI VA UNING SHARHI

Xulosa: Maqola Bobur va Alisher Navoiy o'rtasidagi aloqalar va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirga bag'ishlangan. Bobir otasining Navoiy, Firdavsiy va Mavlono Rumiy kabi klassiklarning asarlarini o'qiganini yodga oladi va Navoiy bilan bo'lgan yozishmalari haqida gapiradi. Maqolada shuningdek, Bobirning Navoiy maktabining davomchisi sifatida uning g'oyalarini davom ettirishi va Navoiy ta'sirini o'z she'riyatiga singdirishi muhokama qilinadi. Bobir va Navoiyning do'stlik, vatanparvarlik va erkin fikr haqida qarashlari taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: *Bobir, Alisher Navoiy, yozishmalar, poeziya, klassik adabiyot, do'stlik, vatanparvarlik, erkin fikr, Firdavsiy, Mavlono Rumi.*

MAQSUD SHEYKHZADE'S
ARTICLE "BABUR AND NAVOI" AND ITS COMMENTARY.

Abstract: The article focuses on the relationship and mutual influence between Babur and Alisher Navoi. Babur recalls his father reading works by Navoi, Firdawsi, and Mawlana Rumi, and discusses his correspondence with Navoi. It also explores how Babur continued Navoi’s literary school, integrating his ideas into his own poetry. The article compares Babur and Navoi's views on friendship, patriotism, and free thought, and examines Navoi's influence on Babur's poetic development.

Keywords: *Babur, Alisher Navoi, correspondence, poetry, classical literature, friendship, patriotism, free thought, Firdawsi, Mawlana Rumi.*

“BABUR VƏ NƏVAİ” MƏQALƏSİ:

Öz xatirələrində Babur atasına (Umarşeyx Mirzəyə) rəhmət oxuyanda, onun Firdovsinin "Şahnamə"sini, Mövlanə Ruminin (Cəlaləddin Rumi) "Məsnəvi"sini və Nəvainin "Xəmsə"sini həmişə oxuduğunu xatırlayır. Əlbəttə, ailə mühitində Nəvaiyə olan bu maraq kiçik uşağın beynində böyük və bərəkətli təsir qoymuşdu. Sonralar Babur hökmdar olub, Şeybanixanla etdiyi müharibələrdə çox sürgün günlər yaşasa da, qılıncla yanaşı qələmi də özü ilə daşıyırdı. Ədəbi yaradıcılığını heç vaxt dayandırmadı.

Babur 19 yaşında ikinci dəfə Səmərqəndi aldığında onunla Nəvai arasında məktublaşma başlayır: "O tarixdə mən on doqquz yaşında idim... İkinci dəfə Səmərqəndi aldığımda Əlişir bəy sağ idi. Bir dəfə mənə kitabı da gəlib çatmışdı. Mən də ona bir kitab göndərdim, arxasında türkcə beyt yazmışdım". ("Baburnamə", Kazan nəşri, səh.16). Buradan görünür ki, Nəvai ömrünün son ilində Baburdan xəbər tutaraq ona maraq göstərir və məktub vasitəsilə əlaqə qurmaq təşəbbüsünü özü irəli sürür.

On doqquz yaşlı fərqanəli gənc şairin parlayan ulduzunu uzaq Heratdan görə bilən Nəvai bütün dahiyanə şairlər kimi bir fövqəladə xüsusiyyətə malik idi, o da həqiqi istedadı tapmaq və görmək bacarığıdır. Baburla Nəvai arasındakı məktublaşmanın məzmunu, təəssüf ki, bizə məlum deyil.

"Baburun Nəvaiyə göndərdiyi türk dilindəki baytının hansı bayt olduğu demək çətindir. O da var ki, Nəvaiy öz dövrünün böyük-kiçik bütün şairləri haqqında məşhur 'Məcalisun-nəfais' əsərində məlumat vermişdir. Lakin Babur haqqında bircə sətir də yazmamışdır. Əvvəl baxışda qəribə görünən bu hal əslində təəccüblü deyil. Çünki 'Məcalisun-nəfais' 1490-cı ildə, yəni Babur hələ yeddi yaşında uşaq ikən yazılmışdır. Baburu isə Nəvai şair kimi ancaq 1501-ci ildə, yəni Babur on doqquz yaşına çatdığı vaxt tanımış ola bilərdi. Hər halda, Nəvainin Babura yazdığı məktub və Baburun cavab məktubu bu iki böyük şəxs arasında gec də olsa dostluğun başladığını göstərir. Güman ki, Baburla Nəvai arasındakı əlaqə bununla sona çatmışdır. Çünki Baburun dediyinə görə, 'cavab gələnə qədər qarışıqlıq və ixtilaf baş verdi'. Məlumdur ki, Şeybanixanın hücumundan az sonra Əlişir vəfat etmişdir.

Babur, Əlişir Nəvai məktəbinin böyük davamçısıdır. Beləliklə, o, Nəvaini hər zaman öz ustadı kimi qəbul etmişdir. Həqiqətən də, Nəvainin bizim ədəbiyyatımıza etdiyi xidməti heç kim Babur qədər hikmətli və dərindən qiymətləndirməmişdir: 'Əlişir bəy nadir şəxsiyyət idi, türkcə dilində belə gözəl şeirlər yazan kimsə olmamışdır, heç kim onun qədər çox və gözəl yazmamışdır'. Bu qiymətləndirmədə Nəvainin yaradıcılığına həm kəmiyyət, həm də keyfiyyət baxımından yüksək qiymət verilir. Bundan başqa, Babur bir çox yerlərdə Nəvainin uca şəxsiyyəti haqqında dəyərli xatirələr təqdim edir.

Babur, poeziyamızda Nəvainin epik deyil, lirik xəttini davam etdirdi. Nəvainin uca ideyalarını, dostluq, vətənpərvərlik, azad düşüncə, həyatsevərlik kimi mövzuları yeni və sadə lirikası ilə davam etdirdi. O, uzaq Hindistanda hətta imperator tacını başına qoyduğu vaxtlarda belə vətən üçün darıxır və Nəvaidən ilham alırdı. Bəzi rübailərində Nəvainin təsiri Babur üzərində o qədər güclü olub ki, bu şeirləri bir-birindən ayırmaq çətin olur. Məsələn:

Nəvai

Qürbətdə qərib şad olmazmış,
El ona şəfqətli və mehriban olmazmış,
Qızıl qəfəs içində əgər qızılgül bitsə də,
Bülbülə tikanlı yuva kimi görünərmüş.

Babur:

Xatırlamazmış qürbətdə adam adamı,
Şad etməzmiş könlü məhəbbətə ehtiyacı,
Könlüm bu qəriblikdə şad olmadı, ah,
Qürbətdə sevinməzmiş, əlbəttə, insan.

Bu iki parçanın hər biri orijinal olsa da, birincinin ikinciyə təsiri şübhəsizdir. Beləliklə, Babur öz rübai və qəzəldəki yaradıcılıq bacarığını artırmaqda Nəvaidən öyrənmiş və lirikamızı daha da irəli aparmışdır. (*«Qizil Uzbekiston», 26 dekabr 1940 y.*

ƏSƏRİN ŞƏRHİ: Maqsud Şeyxzadənin bu məqaləsi Əlişir Nəvai və Zahirəddin Babur arasındakı mənəvi əlaqəyə, Baburun Nəvaiyə olan heyranlığına və onun təsiri altında inkişaf edən ədəbi yaradıcılığına dair dərin məlumat verir. Məqalənin əsas məqamları belədir:

Baburun ailə mühiti və təsirləri: Baburun atası Ömərşeyx Mirzə daim Firdovsinin "Şahnamə"sini, Ruminin "Məsnəvi"sini və Nəvainin "Xəmsə"sini oxuyurdu. Bu mütaliə mühiti Babur üzərində əhəmiyyətli təsir qoymuş, hələ kiçik yaşlarından Nəvaiyə olan marağını artırmışdı.

Babur və Nəvai arasındakı məktublaşma: Səmərqəndi 19 yaşında ikinci dəfə alarkən, Babur və Nəvai arasında məktublaşma başlayır. Baburun öz xatirələrində yazdığına görə, məktublaşmanın məzmunu bizə məlum olmasa da, bu əlaqənin Baburun həyatında və onun ədəbi yaradıcılığında dərin izlər buraxdığı aydın olur. Nəvai gənc Baburda istedadı görərək onunla maraqlanır, ona olan ehtiramını məktub-kitab vasitəsilə ifadə edir. Bu məktublaşma, hər iki şəxsiyyətin bir-birinə olan ehtiramının və Baburun Nəvaiyə olan tükənməz heyranlığının simvoludur.

Baburun Nəvaiyə verdyi dəyər: Babur öz əsərlərində Nəvaini "nadir şəxsiyyət" olaraq xarakterizə edir, onun türk dilində poeziyaya etdiyi töhfəni qiymətləndirir. Babur Nəvainin yaratdığı əxlaqi və vətənpərvər motivləri öz əsərlərində əks etdirir, ədəbiyyat yaradıcılığını dayandırmadan Nəvainin irsini davam etdirir.

Nəvainin Babur üzərində təsiri və onun lirik yaradıcılıq xətti: Babur Nəvainin epik deyil, lirik xəttini davam etdirir, vətənpərvərlik, dostluq, azad düşüncə, sevgi və həyatsevərlik mövzularını daha sadə və səmimi bir tərzdə öz şeirlərində əks etdirir. Baburun uzaq Hindistanda imperator olduğu vaxtlarda belə vətən üçün darıxması və Nəvainin təsirini hiss etməsi məqalədə xüsusi vurğulanır.

***Şeirdəki səsləşmələr və bənzərliklər*:** Məqalədə Nəvainin bir rübaisinin Baburun oxşar rübaisinə təsiri göstərilir. Hər iki rübainin həm məzmun, həm də forma baxımından bir-birinə yaxın olması, Baburun Nəvainin lirikasına olan yaxınlığını və təsirini əks etdirir. Bu, Baburun öz yaradıcılığında Nəvainin təsiri altında inkişaf etdiyini və onun şeir üslubunu irs olaraq qəbul etdiyini göstərir.

NƏTİCƏ etibarilə, məqalə Baburun böyük Nəvai məktəbinin davamçısı olduğunu, onun təsiri ilə şair kimi yetkinləşdiyini və Nəvainin irsini ədəbi yaradıcılığında yaşatdığını vurğulayır. Baburun bu təsir altında vətənə olan bağlılığı və dostluq, səmimiyyət mövzularını davam etdirməsi, onun Nəvainin ideyalarını sadə və lirik bir üslubda yaşatması ilə izah olunur.

Ədəbiyyat:

1. Шайхзода, Максуд. Асарлар. 6 томлик. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Т. 4. Ғазал мулкининг султони. (Алишер Навоий Хакидаги тадкикот ва маколалар мажмуаси). Нашрга тайёрловчи Н. Маллаев. 1972, 372 б. 1. Навоий Алишер, унинг хакида. Шайхзада М. Сочинения. В 6-ти т. Т. 4. (Бобир ва Навоий. – бет.20-22).

2. Ulviy, Almaz. Bekmuhammad, Umid. Maqsud Shayxzoda va uning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi.: publitsistik ocherklar, drama./ A.Ulviy, U.Bekmuhammad. – Urganch: Ogahiy nashriyot-matbaa, 2023. – 176 b.

3. Ülvi Almaz (Binnətova). Azərbaycan - özbək (çağatay) ədəbi əlaqələri (dövrlər, simalar, janrlar, təmayüllər). – Bakı, “Qartal” nəşr., 2008. – 334 səh.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИНИНГ ЎЗБЕК, РУС ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДАГИ ЯНГИ НАШРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ

Ҳамидулла Болтабоев
Ўзбекистон Миллий университети
Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси мудири,
филология фанлари доктори, профессор

Буюк давлат арбоби, қарийб 350 йил давом этган Бобурийлар сулоласининг асосчиси, шавкатли подшоҳ ва саркарда, улуғ шоир ва аллома Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолияти ва беназир ижоди жаҳон афкори оммасининг эътиборида бўлиб келган. Айниқса, улуғ шоҳ ва шоирнинг ватандошлари ўзларининг буюк аждодларининг адабий-тарихий ва илмий меросини ўрганишда жаҳон зиёлиларига намуна бўлмоқда [Машрабов З., Б.56]. Шунинг натижаси ўлароқ “Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси”ни яратиш ғояси Халқаро фонд раиси, фидойи олим Зокиржон Машрабов томонидан 2007 йилда кўтарилган ва бу таклиф фаоллар йиғилишида маъқулланган эди. 2009–2010 йй. давомида проф. С.Ҳасанов ва доц. О.Жўрабоев томонидан энциклопедия сўзлигининг дастлабки варианти тайёрланган (1500 та сўз), проф. Ҳасан Қудратуллаев раҳбарлигида ишчи гуруҳ тузилган (2011) ва мақолалар йиғиш бошланган эди. 2-3 йиллик фидойи меҳнатнинг самараси ўлароқ БЭнинг биринчи нашри акад. Абдулла Аъзамов бош муҳаррирлигида “Шарқ” матбаа нашриёти томонидан чоп этилган (2014). “Қисқа муддат ичида тайёрлаб нашр этилгани сабабли биринчи нашрда муайян илмий, услубий, имловий ва полиграфик камчиликларга йўл қўйилгани учун” 2015-16 йй. давомида Халқаро Бобур фонди ҳайъати БЭнинг тузатилган ва қисман тўлдирилган иккинчи нашрини амалга оширишга киришди [Аъзамов А., Б.7].

БЭ иккинчи нашри (2017) Ўзбекистонда тайёрланган биринчи тарихий шахс қомуси сифатида илмий жамоатчилик ва кенг ўқувчилар томонидан йирик маънавий-маърифий воқеа сифатида кутиб олинди, ўнлаб хорижий мамлакатлар бобуршунослари унга фундаментал нашр дея баҳо бердилар. Бу нашрда асосий матн кирил алифбоси шаклида тартиб берилган 4000 дан зиёд мақола, 5 қисмга бўлинган 40 саҳифа расм (уч рангли харита) берилган. Орадан 7-8 йил ўтиши билан БЭ даги айрим мақолаларни янгилаш ва тўлдириш, жаҳон ва ўзбек бобуршунослиги эришган илмий ютуқларни БЭда акс эттириш ва халқаро стандартлар даражасида шакллантириш учун уни қайта ишланган, янгиликлар ҳисобига тўлдирилган, камчиликлари ислоҳ қилинган янги нашрга эҳтиёж туғилди. Ушбу БЭга бўлган талаб ва эҳтиёжларни ҳисобга олиб уни ўзбек, рус ва инглиз тилларида тайёрлаш ва нашр этиш ҳақида келишиб олинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январда “Буюк шоир ва олим, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 540 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарори эълон қилинди [ПҚ-20, Б.4]. Ушбу тарихий Қарорда улуғ шоҳ ва шоир ижодини тадқиқ ва тарғиб этиш режаларини кўрсатиш баробарида “Ўзбек, рус ва инглиз тилларида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижодига доир “Бобур энсиклопедияси”нинг тўлдирилган учинчи нашрини тайёрлаш ва чоп қилиш чоралари кўрилсин” деб ёзиб қўйилган эди.

Мазкур Қарор талабларини амалга ошириш мақсадида 2023 йили Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги “Ўзбек, рус, инглиз тилларида Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедиясининг янги нашрини яратиш” мавзусида амалий Грант танлови эълон қилди. Танловда 6 илмий-ижодий гуруҳ иштирок этди. Ниҳоят мазкур нашрнинг Таҳрир ҳайъати аъзолари томонидан ишлаб чиқилган ҳамда Республика Маънавият-маърифат маркази ва Бобур номидаги халқаро жамоат фонди тавсия этилган лойиҳа ғолиб бўлиб, вазирликнинг АЛ-7723061982-рақамли Гранти тасдиғига эришилди. Бу масъул вазифани амалга ошириш учун икки ҳамкор ташкилот белгиланган учун лойиҳага ҳар бир ташкилотдан ҳамраис тайинланди: Республика Маънавият-маърифат марказидан проф. Ҳ.Болтабоев, Халқаро Бобур фондидан проф. А.Мадраимов. БЭнинг учинчи ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги нашрини амалга ошириш учун иш муддати 2024 йилнинг 1 октябридан 2025 йилнинг 30 сентябригача деб белгиланди.

Таҳририят аъзолари ўта қисқа муддат ичида БЭ аввалги икки нашри тажрибаларини эътиборда тутиб, унинг мазмун-мундарижасини белгилашда қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратдилар:

- Бобур фаолиятининг муайян қиррасини акс эттирувчи проблематик мақолалар – мас., Бобур – тилшунос;
- Бобур асарларида тилга олинган тарихий шахслар хусусидаги мақолалар – мас., Юсуф Бадиий Андижоний;

• қўлёзма, тошбосма ва литографик нашрлар хусусидаги мақолалар – Бобурнома” қўлёзмалари;

• Бобур асарларининг янги нашрлари хусусидаги мақолалар – “Заҳириддин Муҳаммад Бобур куллиёти”;

• янги таржима нашрлари ва унга доир мақолалар – “Бобурнома”нинг италян тилига таржимаси;

• фаннинг турли соҳаларига оид мақолалар – 21 фан соҳасига оид;

• бобуршунослар ҳақидаги қисқа танитув мақолалари – мас., Билол Южел;

• “Бобурнома” асосида яратилган миниатюралар;

• Бобуршоҳ меросининг ўрганилиши ва Бобур давлати ҳамда бобуршунослик харитаси ва бошқалар.

Режага кўра Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси икки жилддан иборат бўлиб, ҳар бир жилднинг ҳажми 50 босма табоқ атрофида белгиланди. Унда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти, сиёсий ва ҳарбий фаолияти, адабий-бадиий ва илмий мероси, Бобурнинг авлодлари, Бобурийлар давлатчилиги ва унинг сулоласи билан боғлиқ моддий ва номоддий ёдгорликлар, тарихий шахслар, илмий-бадиий фактлар ва ҳодисалар ҳақида маълумот берилган. Энциклопедияни яратиш давомида унинг структурасини қайта илмий асосда тузиш, мавжуд мақолаларни қайта таҳрирдан ўтказиш ва ундаги эскирган фактларни янгилаш кўзда тутилди; 328 янги луғат-мақолалар киритилди, адабиётлар, харита, расм, чизма ва бошқа материаллар илова қилинди. Иш давомида кўрсаткичлар, қўшимча маълумотлар ҳамда муаллифлар бўйича жадваллар тузиш ва уларни энциклопедия талабларига мослаштириш; тарихий шахсларга доир мақола ва маълумотларни илмий муомалада бўлган адабиётлар, дарслик ва қабул қилинган жорий ёзув тизими, маълумотлар асосида қайта кўриб чиқиш; мавжуд мақолаларни сўнгги йилларда эълон қилинган илмий тадқиқотлар, чоп этилган луғатлар ва қомусий манбалар билан солиштириш асносида Бобур ва бобурийлар ҳақидаги илмдаги сўнгги маълумотлар билан тўлдириш каби вазифалар амалга оширилди.

Ушбу нашрни амалга оширишда беназир ёрдамини аямаган барча ҳамкор ташкилот ва олимларга, мақола муаллифлари ва таҳрир иштирокчиларига, “Маънавият” нашриёти раҳбарияти ва ижодий ходимларига ўз миннатдорчилигимизни билдирган ҳолда кейинги нашрларни мукаммаллаштириш йўлида айтилган фикр-мулоҳазаларни бажонидил қабул қилишга тайёрмиз.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январдаги ПҚ-20-сон “Буюк шоир ва олим, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 540 йиллигини Кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарори // Халқ сўзи. 2023. 21 январь.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2014, 2017.

3. Аъзамов А. “Бобур энциклопедияси” нашри ҳақида / Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2017. – Б. 6-8.
4. Машрабов З. Асрларни бўйлаган Бобур (С.Шокаримов билан ҳаммуаллифликда). Т.: Ёзувчи, 1997.
5. Қамчибек Кенжа. Бобурийлардан бири. Т.: “Шарқ” НМАК, 2003, 2015.

АМИР ТЕМУР, ТЕМУРИЙЛАР ВА БОБУРИЙЛАР ДАВРИ ТАРИХИ ЁЗМА МАНБАЛАРИДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР (АБУЛФАЗЛ АЛЛОМИЙНИНГ “ОЙИНИ АКБАРИЙ” КИТОБИ АСОСИДА)

Абдумажид Мадраимов
ЎзР ФА Темурийлар тарихи давлат музейи катта илмий ходими, т.ф.д., проф. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими
Аскарий Мадраимов
Шарқшунослик университети доценти,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Амир Темур, Темурийлар, Бобур ва Бобурийлар даври тарихи ёзма манбаларида жамоат хавфсизлигига оид муҳим маълумотлар мавжуд бўлиб, уларни алоҳида ўрганиш катта илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Амир Темур топшириғи билан ёзилган тарихчи Низомиддин Шомийнинг асарида соҳибқирон давлати ҳудудида ёш бола бошида савт тўла олтин кўтариб, салтанатнинг у четида бу четига боргунча унга ҳеч ким ҳалақит бера олмайди, деб ёзган эди. Бундан ташқари Амир Темурнинг улкан салтанат яратишдан мақсади эл-юрт тинчлиги, мамлакат фаровонлиги эканлигига ҳам алоҳида эътибор берилган, асосий шиор адолат ўрнатиш бўлган.

Амир Темур, Темурий, Бобурий ва Бобурийлар даврида кўплаб тарихга оид ёзма манбалар яратилган бўлиб, уларда жамоат хавфсизлигига махсус эътибор берилган. Бугунги маърузадан мақсад, буюк Темурий ёки Бобурий Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг набираси Жалолиддин Муҳаммад Акбарнинг топшириғига биноан яратилган вазир ва тарихчи шайх Аблуфазл Алломийнинг “Ойини Акбарий” китобидаги давлат тизимига оид қимматли маълумотлар тўғрисида ўз фикр-мулоҳазаларимизни тақдим этмоқчимиз.

Абулфазл Алломийнинг “Ойини Акбарий” асари Жалолиддин Муҳаммад Акбар тўғрисида ёзилган “Акбарнома” китобининг учинчи жилди ҳисобланиб, инглиз олими Ҳ.Блохманнинг фикрича, Ҳиндистондаги мусулмон ҳукмдорлари даврида бундай буюк асар ёзилмаган. Бу улкан асарнинг биринчи жилди Темурийлар хонадони тарихини қамраб олиб, Бобур, Сурийлар, Ҳумоюн ва Акбар даври тарихининг тахминан қирқ олти йил воқеаларини ўз ичига олади. Шу улкан асарнинг якунловчи жилди ҳисобланган “Ойини Акбарий” Акбар даври ҳумронлиги, асосан салтанат тизими ҳақидаги энг муҳим маълумотларни қамраб олиб, бу ажойиб давр тўғрисида мукаммал тасаввур беради. Биз ушбу мақолада

шу китоб тўғрисида унинг биринчи нашрига инглиз тилига таржима қилган олим Ҳ. Блохман фикри ҳам асар мундарижаси тўғрисида ьатафсил маълумот бермоқчимиз. Чунки улар тарихчиларнинг келгуси тадқиқотлар учун асос бўлиши мумкин.

Таржимоннинг фикрича, “Ойини Акбарий” асари Шайх Абулфазл Алломийнинг “Акбарнома” китоби учинчи жилди ҳисобланади. “Акбарнома” китоби Ҳиндистонда бутун мусулмон подшоҳлар даври тарихидаги энг буюк асардир. Улкан меҳнат самараси бўлгин китобнинг биринчи жилдида Амир Темур хонадони тарихининг Ҳиндистонлик ўқувчилар учун қизиқарли томони, ва Заҳириддин Муҳамма Бобур, Сурийлар сулоласи подшоҳлари ва Насириддин Муҳаммад Ҳумоюн тарихидан иборат бўлса, унинг иккинчи жилди бутунлай Буюк Подшоҳ Жалолиддин Муҳаммад Акбар ҳукмронлигининг деярли қирқ икки йиллиги тарихига бағишланган. Улкан китобнинг якунловчи жилди бўлмиш “Ойини Акбарий” Акбар давлат тизими тўғрисидаги мукаммал ва батафсил маълумотларни қамраб олган. Унда муаллиф изчил тарихий тартибда бўлмаса-да, ўша даврни тўғри тушуниш учун асосий зарур билимларни баён этган. Шунинг учун унда замонавий тушунчадаги маъмурий ҳисоботлар, статистик тушунтиришлар, ёки газета ахбоборотлари кабилар маълумотлар ҳам жамланган. Китоб Жалолиддин Муҳаммад Акбар давлатни бошқариш учун жорий “ойин” - бошқарув қонунидан иборат бўлиб, амалда Маъмурий ҳисобот ва Статистик Қайдлар 1590 йилларгача ҳукмронлигини ўз ичига олади. Асар мундарижаси, шундан келиб чиқиб, турли “Ойин”ларга табиий бўлинади ва ҳар бирининг тафсилотлари матнда берилади.

Бу асар бошланишидаги шартли беш китоб деб номланган қисмида Жалолиддин Муҳаммад Акбар хонадони ва саройига тааллуқли, ва подшоҳнинг ўзи тўғрисида ҳам маълумотлар мавжуд. Ҳар бир бўлим руҳи-моҳияти, кимнинг ҳаракати (performance), ўз вазифаларига илоҳий бурчдай қарашига боғлиқ, ва ким бошқарув тафсилотлари билан танишади, у барча вазифаларни ўзаро мутаносиб яхлитлик яратилганини кўради. Шунга ишониб давлат мулозимлари, подшоҳ Жалолиддин Муҳаммад Акбарнинг Аллоҳнинг ердаги нури деб, унинг шахсига ҳурматда бўлишлари таъкидланган. Асарнинг инглиз тилига қилинган таржимаси мундарижаси қуйидагича: таржимон Ҳ.Блоҳман томонидан ёзилган Абулфазл Алломийнинг таржимаи ҳоли келтирилган. Сўнгра асар асосий матни Абулфазл Алломий кириш сўзи – муқаддимаси билан бошланади.

Асарнинг биринчи китобида сарой аҳли (хонадони); Салтанат хазинаси; Қимматбаҳо тошлар; Салтанат зарбхоналари; Зарбхона хизматчилари; Банвори; Олтин ишлаб чиқариш усуллари; Кумуш ишлаб чиқариш усуллари; Бугравати ишлаб чиқариш усуллари; Кумушни олтиндан ажратиш усуллари; Кумушни қуйидаги кукунлардан ажратиш усуллари; Ушбу оламга машхур салтанатнинг тангалари; Олтин тангалар; Кумуш тангалар; Мис тангалар; Дирҳам ва динор; Олтин ва кумуш савдогарларининг фойдаси; Металларнинг хусусиятлари; Солиштирма оғирлик ҳақида; Салтанат ҳарами; Саёҳат пайтидаги қўналғалар; Ҳарбий юришлар пайтидаги қўналғалар; Безаклар хусусида; Подишоҳлик

яловлари (туғлари); Подшоҳлик муҳрлари; Фаррошхона; Абдорхона; Гиламлар; Салтанат ошхонаси; Таомлар учун масаллиқлар; Нон маҳсулотлари учун масаллиқлар; Парҳез кунлари; Муайян маҳсулотлар нархномалари; Баҳорги ҳосил; Кузги ҳосил; Сабзавотлар; Ҳайвонлар гўшт маҳсулотлари; Ёғ, қанд ва ҳоказолар; Зираворлар; Тузламалар; Мевалар; Турон мевалари; Ҳиндистон мевалари; Қуритилган мевалар; Сабзавотлар; Нордон мевалар; Янада нордонроқ мевалар; Хушбўй таьм хусусида; Атирлар хусусида; Атирлар рўйхати ва уларнинг нархлари; Хушбўй ифорли гуллар рўйхати; Чиройи билан донг таратган гуллар рўйхати; Баъзи атирларни тайёрлаш сирлари; Кийим-кечак ва кўрпа-тўшаклар; Рўмоллар ва матолар; Зардўзи матолар; Ипак ва бошқа матолар; Пахта матолар; Жун матолар (мовут); Ранглар табиати хусусида; Ёзув ва рангтасвир санъати; Рангтасвир санъати; Қурол яроғлар; Милтиқлар хусусида; Пилтали милтиқлар хусусида; Милтиқларни тозалаш қоидалари; Милтиқ турлари; Милтиқли аскарлар маошлари хусусида; Салтанатнинг филхоналари; Салтанат филларининг таснифлари; Филларга бериладиган ем-ҳашак; Филбоқарлар; Фавждорлар; Филларнинг эгар-жабдуқлари; Олий ҳазратларининг филлари; Хос филларни миниш сирлари; Жарималар (тўловлар) хусусида; Салтанат отхоналари; Отларнинг насллари; Салтанат отхоналари учун ем-ҳашак; Эгар-жабдуқлар хусусида; Салтанат отхоналарига бириктирилган масъуллар; Боргирлар (?); Отларни тамғалаш қоидалари; Отларнинг умумий миқдорини сақлаш қоидалари; Жарималар (тўловлар) хусусида; Отларнинг жанговар таркиби хусусида; Туҳфалар (инъомлар) хусусида; Жиловона қоидалари; Туяхоналар; Туяларнинг озуқалари; Туяларнинг эгар-жабдуқлари; Туяларни мойлаш ва уларнинг бурнига мой пуркаш қоидалари; Туяларнинг насллари ва туябоқарларнинг мансаб даражалари; Райбари (?); Говхона ёки сигирлар сақланадиган молхоналар; Кунлик ҳаражатлар ва озуқалар; Молхонага ёлланган хизматчилар; Хачирлар учун оғилхоналар; Хачирлар учун кунлик ҳаражатлар ва озуқалар; Хачирлар учун эгар жабдуқлар; Олий ҳазратларининг вақт ўтказиш тартиби; Саройда қабул қилиш тартиб қоидалари; Кўриниш ва Таслим деб номланган маросим қоидалари; Мулозамат қоидалари хусусида; Йиғин (ҳарбий кўрик ёки мулозимлар йиғини); Онҳазратларининг халққа маънавий етакчилиги; Дини илоҳийнинг тартиб таомиллари; Жалолиддин Муҳаммад Акбар подшоҳнинг диний қарашлари хусусида инглиз тили таржимони Ҳ.Блоҳман томонидан билдирилган мулоҳазалар; Филларнинг ҳарбий кўриги; Отларнинг ҳарбий кўриги; Туяларнинг ҳарбий кўриги; Қорамоллар кўриги; Хачирлар кўриги; Пагўшт қоидалари; Ҳайвон уруштириш хусусида ва гаров ўйнаш қоидалари; Кийиклар жанги; Бинокорлик хусусида; Қурилиш материалларининг нархлари ва ҳоказо; Ишчиларга бериладиган иш ҳақлари хусусида; Уй қуриш ҳаражатлари хусусида; Ёғоч чиқиндилари (тараша, пайраҳа) ни баҳолаш қоидалари ва турли ёғоч навларининг вазнлари хусусида маълумотлар жамланган.

Иккинчи китобда эса Ҳарбий қисмлар; Жанг ҳайвонлари хусусида; Мансабдорлар; (Таржимоннинг мансабдорлар ҳақидаги қайдлари); Ҳадис; Қўшиннинг бошқа турлари; Пиёда аскарлар; Бандуқчи ёки пилта милтиқли

аскарлар; Дарбонлар ёки навбатчилар; Ҳидматиййа; Мевра; Шамширбоз ёки гладиаторлар; Полвонлар ёки курашчилар; Чила ёки қуллар; Кухар ёки палки жангчилари; Доҳили аскарлар; Ҳайвонларга тамға босиш қоидалари; Белгини тайёрлаш хусусида; Отлиқ қоровуллар учун қоидалар; Воқеанавислар учун қоидалар; Санадлар хусусида; Фармони сабти; Муҳрларни сақлаш қоидалари; Фармони байози; Ҳақ тўлаш қоидалари хусусида; Мусаодат ёки сарбозлар мояналари; Инъомлар хусусида; Эҳсонлар хусусида; Байрам маросимида Олий ҳазратларининг вазнларини ўлчаш маросими; Суюғоллар хусусида; (Акбар давридаги садрлар хусусида таржимон мулоҳазалари); Олий ҳазратлари ихтиро қилган арава ва ҳоказолар хусусида; Ўн сер солиғи; Базмлар хусусида; Хушрўз ёки сара моллар бозори; Никох расм-русумлари; Таълим-тарбияга оид қоидалари; Денгизчилик; Ов қилиш қоидалари хусусида; Йўлбарс овлаш; Фил овлаш; Қоплон овлаш; Қоплонларга бериладиган озуқалар ва уларга қаровчилар маоши; Қоплонларни овлаш сирлари; Сиёҳгўш; Итлар; Кийиклар ёрдамида кийик овлаш; Ёввойи буқаларни овлаш; Қирғийлар ёрдамида ов қилиш; Озуқа тақсимоти; Лочинларнинг нархлари; Сув паррандалари; Бақалар; Ўйин-кулгулар хусусида; Чавгон ўйини (поло); Каптарга ишқибозлик; Хос кабутарларнинг ранглари; Чавпар ўйини; Чандал мандал ўйини; Карта ўйини; Салтанат зодагонлари (таржимон Ҳ. Блоҳманнинг тафсилотлари); Тархон мансабининг маъноси ҳақида; Осафхон мансаби ҳақида; Такарой ёки Мўғулмори жанги ҳақида; Барҳа саййидлари ҳақида (Саодати барҳа); Нуқтавиййа тариқати ҳақида; Усмон Лоҳаний вафоти ҳақида; Жалолиддин Муҳаммад Акбар подшоҳ мансабдорлари ҳақида таржимон Ҳ.Блохман хулосаси; Ўша давр илм аҳли; Шу асрда яшаган адиблар; Салтанат машшоқлари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Инглизча таржимага Қўшимча қайдлар; Хатоликлар рўйхати; Шахслар ва буюмлар рўйхати; Жўғрофий номлар рўйхати; Темур хонадонининг шажараси (китоб сўнггида) илова қилинган.

“Ойини Акбарий” китоби мундарижада келтирилган маълумотлардан шу нарса аён бўладики, буюк Бобурий Жалолиддин Муҳаммад Акбар салтанати асослари, қонунлари жуда мукаммал бўлган экан. Агар биз бу малумотларни Амир Темурнинг “Тузуклар” асари, Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлайи саъдайн ва мажмаи баҳрайн”, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарлари билан солиштирсак, соғибқирон асос солган улкан салтанат тизими ва ундаги тартиб қоидалар замон ўтиши билан ўзгариб боргани гувоҳи бўламиз. Тарихиан Бобурийлар Амир Темур авлодлари бўлса-да, лекин улар ўз даврида Темурийлар асос солган давлат тизимига анча-мунча ўзгартиришлар киритганини кўрамиз. “Бобурнома” асарида Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг Темурийлар давлатини Ҳиндистондаги маҳаллий шароитга мослаштиришга интилиш мавжудлигини кўрамиз. Насириддин Муҳаммад Ҳумоюн ҳам давлат тизимига ўзгаритиши керитишга ҳаракат қилиб кўрган. Лекин Жалолиддин Муҳаммад Акбар Темурийлар давлати тизимини янги шароитда мукаммал қилгани гуовҳи бўламиз. Ҳиндистоннинг йирик давлат арбобо Жавоҳарлал Неру, Жалолиддин Муҳаммад Акбар Бобурпийлар салтанатини шунчалик мустаҳкам этган эдики,

унинг давлати гарча кейинги ҳукмдорлар унчалик истеъдодли бўлмасалар ҳам яна юз йилча ўз шавкатини сақлаб қолган эди, деб ёзган эди.

Дарҳақиқат, Бобур асос солган давлат ва салтанат Ҳиндистон заминида 332 йил мавжуд бўлган экан, бунда буюк аждод Амир Темур асос солган давлатни бошқариш тамойиллари, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва айниқса Жалолиддин Муҳаммад Акбар даврида юксак даражада такомиллаштирилган эди.

“SHATRANJ” - TAKTIK NAZARIY BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH VOSITASIDIR.

Tolipov Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annatatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida shatranj o‘yini haqidagi ma’lumotlari va shatranj mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi vosita ekanligi o‘rganilgan. Kalit so‘zlar: shatranj, taktika, to‘g‘ri qaror qabul qilish, sarkarda.

Annotatsiya: В стате рассматриваются сведения Захириддина Мухаммада Бабура об игре в шахмати в «Бабурноме» и о том, что шахмати являются средством развития логического мишленИЙ. Ключевие слова: шахмати, тактика, правилное принятие решений, полководетс.

Annotation: The article discusses the information of Zahiriddin Muhammad Babur about the game of chess in "Baburnom" and that chess is a means of developing logical thinking.

Key words: chess, tactics, correct decision-making, commander.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asariada shatranj o‘yini haqida qimmatli ma’lumotlar keltilgan bo‘lib, Boburga zamondosh bo‘lgan bir necha shatranj ustasi zikr etiladi. “Zunnun Arg‘unning bir yo‘la ikki kishi bilan shaxmat o‘ynay olishi, Mirmurtozning qattiq ishqibozligi. Hirotda shatranj majlislari bo‘lib turgani va ularda Alisher Navoyi qatnashganligi “Boburnoma” asarida alohida qayd etib o‘tilgan. [1] Shatranj- shaxmat o‘yining qadimiy nomi, hind tilida “chaturanga” deb atalgan. Shatranj bir necha ming yillik tarixga ega. Markaziy Osiyoda qadimdan tarqalgan mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi o‘yindir. Surhondaryo viloyatidagi Dolvarzintepa yodgorligidan miloddan avvalgi II asrga oid shaxmat donalari topilgan. Aslida ham shaxmat o‘yinining taraqqiy etishida Markaziy Osiyo xalqlari muhim o‘rin tutgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai Sa’dayn va majmai bahrayn”, Alisher Navoiyning “Majolis unnafois”, “Lison ut-tayr”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si va boshqa tarixiy asarlarda shaxmatga doir qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Beruniy bergan ma’lumotlarga ko‘ra. Shatranj chaturanga deb atalgan va to‘rtta raqibb 64 xonali taxta ustida kurash olib borgan xar bir o‘yinchida bittadan shoh, rux, fil, ot va to‘rttadan piyoda bo‘lgan.

Bugungi kunda dunyoning hamma joyida bu o‘yinning qoidasi bir xil unda ikkita raqib bir- biriga qarshi kurashadi. (har bir o‘yinchida bittadan shoh, bilan farzan, bir juft fil, asp, va to‘ra 8 tadan piyoda bo‘ladi. 1851 yil ilk xalqaro turnir tashkil jtilgan. 1886 yildan jahon chimpionati 49 o‘tkazib kelinadi. Buyuk sarkardalardan Boburning bobokoloni Amir Temur ham shahmat ishqibozi bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur shatranj (shaxmat)ga shunchaki ermak yoki vaqtini xush o‘tkazish uchungina emas, balki hozirgi zamon tili bilan aytganda, taktik nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida ham qaragani manbalarda keltirilgan. Sarkarda shaxmat o‘ynashni zinhor kanda qilmagan, atrofidagilarni ham shunga undagan, o‘rgatgan. Temuriylar saroyidagi bu an’ana yillar o‘tib uning avlodlari hayotiga ko‘chgan. Amir Temur davrida esa kuchli shatranjchilar ro‘yi zamin sayqali — Samarqandda jamlangan, bir-birlari bilan dona surgan. Temur tashkil etgan musobaqalarda ko‘p bor g‘oliblikni qo‘lga kiritgan tabrizlik ash-Shatranjiy (Oloviddin at-Tabriziy) shatranj haqida kitob yozib, unda o‘zi hamda XIV asrgacha Markaziy Osiyoda yashagan ko‘plab oliya (grossmeyster)lar haqida ma’lumot bergan. U hattoki Sohibqironning o‘zi bilan ham shatranj o‘ynab turgan. Amir Temur harbiy yurishlari chog‘ida, jang jarayonini to‘laqonli va aniq idrok eta olish, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgani aytiladi. Darhaqiqat, Amir Temur shaxmat o‘yinining ishqibozi bo‘lgan, uni juda qadrlagan. U muhim masalalarni shaxmat taxtasi atrofida hal etgan. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha, buyuk sarkarda haddan ziyod band bo‘lishiga qaramay, doimo shaxmat uchun vaqt ajrata olgan. Misol uchun, davlat ishlari, oila tashvishlari bilan band bo‘lganida ham yoki olis mamlakatlarga safarlari, ayovsiz janglar oralig‘ida ham shaxmat bilan hamnafas bo‘lgan. Chunki shaxmat bilan mashg‘ul bo‘lgan vaqtlari o‘zida ruhiy xotirjamlik va ishonchni his qilgan, qolaversa, bo‘lajak taktik yurishlari reja hamda g‘oyasi ayni shu onlarda tug‘ilgan ekan. Manbalarda aytilishicha, Sohibqiron umrining so‘nggi kunlariga qadar deyarli har kuni shaxmatga vaqt ajratgan. Shaxmatga mehr unda yoshlikdan boshlangan. Dastavval “aql charxi”ning qonun-qoidalarini otasidan, keyinchalik ustozi shayx Shamsiddin Kuloldan qunt bilan o‘rganadi. Temurning kuchli xotirasi uning qisqa vaqt ichida shaxmatning mohir ustasi bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. U usullarni, qaysi raqib bilan qanday o‘ynash kerakligi va shaxmat 50 psixologiyasini kuchli o‘zlashtiradi. Shamsiddin Kulol yosh shogirdiga shaxmat orqali uzoqni ko‘ra olish, rejali, mulohazakor va tadbirkorlik bilan ish yuritish, shaxmat o‘yini va haqiqiy hayot o‘rtasidagi masofani ajrata olish va o‘z navbatida, ulardagi o‘zaro o‘xshash jihatlarni payqashni o‘rgatadi. Shu bois uning tarixiy g‘alabalarida shaxmatning o‘rni yuqori, deyish mumkin. Sohibqiron shaxmatda muhim yurish oldidan odatiga ko‘ra, quyuq soqolini o‘ychan siypalardi, bu odat unga kerakli kombinatsiyani tanlash, bor imkoniyatlarni chamalash va hisoblab chiqishda yordam bergan. E’tiborlisi, u har doim qora donalarda o‘ynagan. Sababi u “qora”larda o‘ziga xoslik va chuqur teranlikni his qilgan. Ma’lumki, Amir Temur biror dushmanga hujum qilish oldidan o‘sha yurt hukmdori bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishga, ziddiyatni tinchlik yo‘li bilan hal qilishga uringan. Chunki shaxmatda ham o‘yinni “qora”lar emas, aksincha, “oq”lar boshlaydi. Oq donalar tashabbus va imtiyozga ega bo‘ladi, “qora”lar esa ularning zarbasiga qarshi javob qaytaradi. Temurni bu holat

qanoatlantirgan. Shu bois u ko‘pincha oq dona surgan raqibiga hujum qilishiga, maqsadi va niyatini ochiq-oydin ko‘rsatishiga imkoniyat bergan. Sarkarda agarda qora donalar orqali mustahkam mudofaa yo‘lga qo‘yilsa, “oq”larning har qanday hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, deb hisoblagan. Xullas, shaxmat aqliy qobilyatni charhlab boruvchi o‘yin bo‘lib, mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi. Bugungi kunda doimo shaxmat o‘ynashni odat qilganlar xotira pasayishi kasalligi bilan kasallanmasligi isbotlangan. Bu sport darajasiga ko‘tarilgan mashg‘ulot idrokka ham ijobiy ta’sir etishi aniqlangan. Yaponiyada nafaqaxo‘rlar maxsus keksalar ijtimoiy bog‘larida shaxmat o‘ynab, undan ham ma’naviy zavk va g‘oliblar to‘plagan balliga karab rag‘bat sifatida mamlakatin bo‘ylab sayohatga bepul yo‘llanmalar tashkil qilgan. Buni ular samarasi shundaki, keksalarda alitsgemer kasalligi oldi olinadi, hamda sayohat ruhiyatini ko‘tarib, turizimni rivojlanishiga xissa qo‘shishini aytishadi. Shaxmat o‘yini aql mashqlari bo‘lib, mantiqiy tafakkur, idrokka va qaror qabul qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 51 Adabiyotlar ro‘yxati. 1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. “O‘qituvchi” nashriyoti. Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil V.Rahmon va K.Mullaho‘jayevalarniki. Toshkent, 2008, 61-bet. 2. Xalq harakatli o‘yinlari nazariyasi va amaliyoti darslik. – Toshkent, 2014. 3. Qoraboyev U, Abdurahmonov I. O‘zbek xalq o‘yinlari. –Toshkent, 2019. 4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent. 2014.

BABUR VA BOBURIYLARNING ARMIYASIDAGI SOVUQ QUROLLAR HAQIDA MA’UMOTLAR (“BOBURNOMA” VA “OYINI AKBARIY” ASARI ASOSIDA).



Turayeva S.R.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi professori, t.f.d. (DSc)

Annatotsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” va Abulfazl bin Muborak Alomiyning “Oyini Akbariy” asari ma’lumotlaridan foydalanib, Babur va Boburiylarning qo‘shin tuzilish tartiboti o‘rganilgan. Qo‘shindagi temuriylarga xos a’nanaviylik va vorisiylik jihatlari va qo‘shin jangavor shayligini oshirishga qaratilgan islohotlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘shin, qurol turlari, harbiy kiyimlar, dubulg‘a, sovut, cho‘qmor, qalqon, qilich, nayza, paykon, tig‘ nayza найза, qurol ishlab chiqarish hunari, shoh tamg‘asi.

Аннатоция. В данной статье, используя сведения из «Бобурнома» и «Айни Акбари» Абульфазла бин Мубарака Алами, исследуется порядок формирования армии Бабура и Бабуридов. Анализируются характерные для Тимуридов аспекты

традиционализма и преемственности в армии и реформы, направленные на повышение боеготовности армии.

Ключевые слова: войско, виды оружия, военная формашлемовый совут, зарбзан, щит, меч, копье, ланцет, лезвие-копье ремесло по производству оружия, царская печать.

Annatotsiya. In this article, using information from "Boburnom" and "Oyini Akbari" of Abulfazl bin Mubarak Alami, the order of formation of the army of Babur and Baburids is studied. The aspects of traditionalism and continuity in the army, characteristic of the Timurids, and reforms aimed at increasing the combat readiness of the army are analyzed.

Key words: army, types of weapons, military uniform, , helmeted sovut, zarbzan, flail, shield, sword, spearlancet, spear-blade, weapons craft, royal seal.

Shayx Abulfazl bin Muborak Alomiy Humoyunning o‘g‘li Akbarshoh (1542-1605) saroyida (1556 yil taxtni egallagan) siyosiy muhim lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan, 981 /1573 yildan ko‘zga ko‘ringan davlat namoyondasi edi. U 1011 /1602 yilda Akbarning vorisi Jahongir (Salim) (1605-1627) ning yollanma qotili tomonidan Dekan hududini bosib olib qaytayotganda o‘ldirilgan. “Akbarnoma” va “Oyni – i Akbariy” (Akbarning tartiboti) asari Akbarshohning topshirig‘i 1601 yilga qadar yozib tugallangan asar edi. Asarni yozilishi Akbarshoh hukmronligining 19 yilida boshlangan va asarning yozilishiga podshohning yonida yurgan, hukumdorning boshqa davlatlar arboblari bilan yozishmalarining qaydnomalarini yuritgan mulozimining kundaligi, ko‘rgan kechirganlari, siyosiy voqealar asos bo‘lgan. “Akbarnoma” 3-jildlik asar bo‘lib[1], uchinchi jildi “Oyni-i Akbari” deb nomlanadi va keng jamoatchilikka bu asar mustaqil asar sifatida tanilgan. “Oyni-i Akbari” asarida Akbarning Hindistondagi davlat boshqaruvi tartiboti, statistik ma’lumotlari, xazinadagi qimmatbaho javohirlar qiymati, harbiy qo‘shin tuzilishi va tarkibi, harbiy ta’minot, mansablar haqida qaydnomalari, qurol aslahalar kabi davlat ahamiyatidagi ko‘plab ma’lumotlar o‘rin olgan.

Biz foydalangan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutidagi №. 1721 raqamli qo‘lyozma bo‘lib, noma’lum xattot tomonidan Afg‘onistonda ko‘chirilgan [2]. Qachon ko‘chirilganligi aniq qayd etilmagan bo‘lsada, asarning so‘nggi varog‘iga yaqin tepa burchagida1018/ 1609 yil qora siyohda qayd etilgan. O‘rta Osiyo qo‘lyozmalarida aksariyat varaqlardagi satrlar soni olloh yakkaligiga ishorat tariqasida toq satrda yakunlanadi. Ammo ushbu qo‘lyozma an’anviy O‘rta Osiyo hattotligi maktablariga xos bo‘lmaganligini har bir varaqda satrlar soni 26 tadan ekanligi tasdiqlaydi.

Dunyoga mashhur buyuk imperiya tuza olgan jahongashta Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylarning qo‘shin tuzilishi masalasi va ular g‘alabalarining sababchilardan bo‘lgan harbiy tartiboti dunyoning ko‘plab tadqiqotchilarning e’tibor markazida bo‘lgan. Shunday tadqiqotlardan "Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy san’atini V. Irvinning “Hindiston Boburiylar armiyasi” (1903)[8] va ko‘plab san’atshunos olimlarning S. P. Vermaning “Akbar davri rasmlarida san’at va moddiy

madaniyat" (1978) kitoblarida, Hindistonning XVII-XVIII miniaturalarini o‘rgangan olimlar ishlarini alohida qayd etish lozim. Bunday tadqiqotlar bizni kursanrlarimizni qiziqtirsa batafsilroq ma’lumorlar olishi mumkin nashrlar ro‘yxatini keltiramiz [9].

“Ayni Akbariy” muallifi Abulfazl Allomiy Akbarshohning bosh vaziri va do‘sti edi. Hatto unga Akbarshoh “Mu’tamani davla” (“Davlatning ishonchli kishisi”) xitobini bergan edi. 1551 yil Agrada katta diniy ulomolar oilasida tug‘ilgan shaxs bo‘lib, u IX asrlardan mashhur bo‘lgan, Ray shahrida (Sivistan degan hududida) yashagan Muso shayxning 5 avlodi hisoblanadi. “Ayni Akbariy” asari fors tilida yozilgan.

Qilich turlari. Mahalliy ustalar tomonidan O‘rta Osiyoning ko‘p joylarida ikki turdagi qilich tayyorlangan bo‘lib, ularning birinchisi egik oysimon ko‘rinishida, ikkinchisi to‘g‘ri shaklga ega edi. Oysimon ko‘rinishdagi qilich Qo‘qon, Farg‘onada keng tarqalgan bo‘lib, bu turdagi qilichlar yengil va o‘tkir bo‘lib, zarba berishda aniqlik bilan harakat qilish imkoniyatini berar edi. U aynan shu sifati bilan Yevropa qilichlaridan ustun turar edi . Qilichlarning dastasi hayvon shohi, fil suyagi va daraxtlardan tayyorlangan. Qilich qinlari, odatda yog‘ochdan tayyorlanib uch qismiga metall qoplangan. Qilichlar sifati uning tayyorlanish muddatiga bog‘liq bo‘lgan. Sifatli qilichlar 15 kunda tayyorlangan bo‘lsa, sifat ko‘rsatkichi u qadar yuqori bo‘lmagan qilichlar 3-5 kunda tayyor bo‘lgan. Shamshirlarga qimmatbaho metall oltin bilan ham ishlov berilgan.

Buxoroning hukmdor sarbozlari va harbiy amaldorlari taqib yurgan “chiniy”, “rusiy”, “rumiy”, “farangi”, “sulaymoniy”, “hindiy”, “damashqiy” va boshqa nomli qilichlar ham uchraydi. Bundan tashqari mamlakatda, “farangiy”, “afg‘oniy”, “eroniy” nomlari bilan boshqa sovuq qurollar va hattoki, o‘tochar qurollardan ham foydalanishgan. Qilich bilan jang qilish o‘rta asrlardayoq Yevropa va rivojlangan davlatlarda kamdan kam hollarda uchrasa-da, O‘rta Osiyo hududida garchi o‘tochar qurollar bo‘lishiga qaramasdan to 1920 yilgacha qilichlar muomalada bo‘lgan.

O‘rta osiyoda qilichlar maxsus ustalar tomonidan yasalib, uning og‘irligi 1 kg dan to 5 kg gacha bo‘lgan. Amaldorlarning qilichlariga zargarlar tomonidan bezaklar berilgan .

“Abdullanoma” asrida XVI asrga oid bir ma’lumotda “dushman sipohidan ham o‘tkir shamshir va o‘t yog‘diruvchi o‘qlardan yaralangan va badani jarohatlanmagan kishi qolmadi” deb yoziladi. Manbalarda qilichlar bilan birga tabarzin kabi qurollar ham tilga olinadi.

Sovuq qurollarning asosiysi hisoblangan qilich qadimgi davrlardan boshlab janglarda asosiy rol o‘ynab, tadqiq etilayotgan davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va hattoki, nomlanishida ham IX-XIX asrlardagi o‘z nomlarini saqlab kelgan.

Qilich bilan birgalikda xanjar ham askarlarning an’anaviy quroli hisoblangan. XIX asr oxirlarida O‘rta Osiyoda ishlab chiqarilgan pilta miltiqlar uchiga ham Yevropa miltiqlari singari xanjarlar ilib qo‘yilgan .

Qadim zamonlardan beri janglarda qo‘llanib kelingan gurzi, oybolta va boshqa sovuq qurollar Samarqand, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Toshkent

hukmdorlarining o‘z davrida jang quroli bilan birgalikda harbiy amaldorlarning ramzi sifatida ham ishlatilgan.

O‘rta Osiyoda ko‘plab “assoi safari”, “assoi jihodi” deb nom olgan qurollar ishlab chiqarilganki, ular ham hassa, ham qilich vazifasini bajargan va undagi hassa g‘ilofida aslida qilich bo‘lib, mavhum tarzda joylashtirilgan zumrad va kumushlar bilan bezab ishlangan. Bu tarzdagi qurollar, sovuq qurollar yasash san’atining yorqin namunasidir .

O‘rta asrlarda qaysiki qal’a boshlig‘i hukmdor taslim bo‘lsa, qilich va sadog‘ini bo‘yniga osib kelib, taslimligini tan olgan. “Boburnoma”da shunday deyiladi: “(1494-1495 yil voqealarida)..... oxir Ibroxim sori (Isfara begi) ojiz bo‘lib, Xoja Mavloniy qozining tavassuti bila qullikni ixtiyor qilib, shovval oyida qilich va sadog‘ini bo‘yniga osib kelib, mulozamat qilib, qo‘rg‘onni topshirdi” .

“Boburnoma”da muarrix xotirlashicha, “...Kichik xon dodam kamtarin kishi edi, qilichsiz yurmas edi. U kishi bu qurol turiga bog‘lanib qolgan edi va shunday derdi: “**shashpar(gurzi), piyoziy, kistan (temir sovut turi) va tabarzin, bolta bo‘lsa, bir yerni majaqlaydi yoki ezadi, agar qilich kishi tanasiga tegsa, boshdan oyoq kesadi”.** Shuning uchun qilichni o‘zidan ayirmas, yo belida yoki iligi (panjasi)da olib yurar edi , deb yozadi.

Gurzi haqida. Amir Temur va temuriylar, Boburiylar davrida ham harbiy lashkarda, albatta gurzi bo‘lishi lozim edi. Gurzilarning eng mashhuri va ko‘p qo‘llaniladigan turi – bu oltiqirrali bo‘lib, “shashpar” deb atalgan .

Taxsh haqida. Taxsh –o‘qotar qurol bo‘lib, yog‘och qo‘ndoqqa o‘rnatilgan po‘latdan ishlangan va kamon ipi chig‘ir bilan tortilgan. Miltiqqa o‘xshab otilgan va uning o‘qi kamon o‘qidan qisqa bo‘lgan. Taxsh otuvchilar **taxshandoz** deyilgan. Manbada “Avvalg‘i kun urushda Xudoyberdi atkamga taxsh o‘qi tegib o‘ldi. Chun yaroqiz urush olilib edi, ba’zi yigit-yalang zoe bo‘lib, heyli kishi yaraliq bo‘ldi. Ibrohim soruning qoshida taxshandoz bor edi, bisyor yaxshi otar edi. Oncha taxshandoz ko‘rulmaydur erdi. Aksar elni ul yaralig‘ qildi” - deb, tilga olinadi .

“Boburnoma” asaridagi qurollar to‘g‘risidagi matnda “.....shashpar (olti qirrali gurzi), piyoziy va kistan va tabarzin va boltukim bor, tegsa bir eri korgardur (yarador), qilich agar tegsa, boshdin- oyog‘i korgardur, kesar” - degan so‘zlariga e’tibor qaratak, piyoziy ham (cho‘qmor bo‘lsa kerak) qurol yaroqlar orasida sanab o‘tiladi.

Kamonlar – moziydan qo‘llanilgan qurol turidir. XV asr muallifi Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha: “Harbiy safarda har bir zobit jang qilish usullarini yaxshi bilishi farz sanalgan bo‘lib, o‘zi bilan birga bir yilga etadigan oziq ovqat, qurol-aslaha, 30 ta o‘q bilan kamon, temir sovut, nayza va qalqon, bolta, temir kurak olib yurishi kerak bo‘lgan”.

Siyosiy qudrat ko‘p jihatdan mamlakat qurolli kuchlariga bog‘liq bo‘lgan. Bu holat hukmdorning qurol-yarog‘ yasash ishlariga alohida e’tibor berishiga sabab bo‘lgan.

Dastlab O‘rta Osiyoda qurol-yarog‘lari bo‘lgan sovuq qurollar va oddiy o‘q otar qurollarni asosiy qismini mahalliy ustalar tayyorlagan. Ular tayyorlangan qurollar orasida xanjar, qilich va nayza kabi qurollari ko‘pchilikni tashkil etgan tashkil etgan. Mahalliy ustalar tomonidan yasalgan bu qurollar, odatda otadan o‘g‘ilga meros o‘tgan.

O‘rta Osiyoning ba’zi manzillari ayrim qurol turlarini ishlab chiqarishda mashhurlikka erishgan. Samarqand qurolsozlik markaziga aylanib, sovutsozlar mahallasi qurilgan. Xususan, “Boburnoma” asarida Choch – Toshkentning mashhur kamonlari eslatib o‘tiladi. Ya’ni manbalarda “kamoniy chochiy” nomi bilan uchraydi. Kamongaron yoy yasovchilar ma’nosida bo‘lib, “eski zamonlarda ushbu qishloqda yoy yasaguvchilar o‘rnashganlari sababidan shu nom bilan atalgan” . XVI asrlarda o‘q yoydan otilgan tez uchadigan maxsus o‘q - “shiba” deb atalgan. Tadqiq qilingan tarixiy manba va adabiyotlarda kamonning o‘lchovi va o‘qining uzunligi muvofiq kelishi haqida fikr bildiriladi . Kamon va o‘qlarni olib yurish uchun ustalar “sadoq” yasaganlar. U kamalak o‘qlari turadigan o‘qdon edi. Ba’zan sadoqlar yupqa ishlangan metaldan tashqari, charmdan ham tayyorlangan. Neftga shimdirilgan matoni o‘qqa o‘rash orqali yong‘in chiqaruvchi o‘qlar ham tayyorlangan. Kamonlar har bir hukmdor qo‘shini uchun o‘ziga xos farqli qilib ishlangan.

“Boburnoma” asarida muallifning yozishicha, “.... Men darvozaning ustidin novak otadur edim. Yana ba’zi yovug‘umdag‘ilar o‘q otadur edilar”. **Novak** bu – 1. yoy o‘qchi 2. kiprik (majoziy ma’noda). Novak otmoq – o‘q otmoq, “novakdoz” – o‘q otuvchidir. Yana bu turdagi o‘q otuvchilarni ba’zi manbalarda “novakafkan”, “novakfikan” deb ham yuritiladi . **Novak** – kamonning o‘qidir. Kamon o‘qining uchi “charkas” deb atalgan.

Boburning yozishicha, “... Tanbalning duvulg‘asiga o‘q otdim, yana sadoqqa kaftimni cho‘zdim, xon dodam bir sarsabz go‘shagir berib edi. Ul chiqdi, tashlashga ko‘nglim bo‘lmadi, sadoqqa qayta oldim”. Sarsabz go‘shagir – yashil rangli kamonning tirkash bog‘lanadigan boshi (uchi) .

Zahiriddin Muhammad Bobur qo‘shinida neftli, Poroxli qurolar qo‘llanilib kelingan. Lekin miltiq bu yerda taxminan XVI asrning ikkinchi choragidan boshlab qo‘llanila boshlangan Bunday qurolarni Bobur davriga oid miniaturalarda jang manzaralari aks etgan lavhalarda ham ko‘rish mumkin.

“Boburnoma”da 1519-1520 yil Qobul voqealari haqida yozilganda “Bajavr eli, chun tufang unidin hech parvo qilmadilar, balki tufang unini (tovushini) eshitgach, tamasxur qilib, muqobalada sha’ni, harakatlar qilurlar edi. O‘shal kuni Ustod Aliquli besh kishini tufang bila yiqdi. O‘zga tufangdozlar ham tufang otmoqda bisyor jalolad ko‘rsatib yaxshi otdilar” . Bu davrda “tufang” deb atalgan miltiq, o‘q otar qurol bo‘lib, dorisi “porox” bo‘lgan. Mazkur davrga oid miniatura rasmlarida uzun va hozirgiga nisbatan qo‘polroq bo‘lgan qurol edi. To‘fang otuvchilar – “to‘fangdozlar” deb, yuritilgan. To‘fang/to‘fak (miltiq)- turkiy so‘z bo‘lib, to‘p – zambarak, ak- kichik ma’nosida keladi va bu atama “ kichik to‘p”ma’nosini anglatadi. Ko‘pchilik adabiyotlarda u miltiq nomi bilan uchraydi va forscha ikki so‘z: “mil”- “quvurcha”, “ichi g‘ovaktayoqcha” hamda “tiq”- quymoq, solmoq so‘zlaridan tashkil topgan. Muhammad Solih bergan ma’lumotlarga qaraganda, Shaybonixon qo‘shinlari Samarqandniuzoq muddat qamal qilgan paytda (1501) shaharni himoya qilib turgan Bobur askarlarida tufang va ra’dlar bo‘lgan. Bobur o‘z davrida to‘plardan ham foydalangan. “Qozon” deb ataluvchi toplar quydirdi va janglarda mohirona foydalandi.

Boburiylar saltanatining eng yirik vakili Akbarshoh davrida ham qurollar ananaviylik va vorisiylikka amal qilinganligini ko‘rish mumkin. Abul Fazl Allomiyning “Oyni Akbariy” (Akbar tartiboti) asarida Akbarshoh davridagi harbiy aslahalarning rasmlari keltirilgan. Ular yoniga qanday nomlanishdagi qurol ekanligi fors tilida yozib tanishtiriladi. Ma’lum bo‘lishicha, Zahiriddin Muhammad qo‘shinida foydalanilgan ba’zi qurollar nomi bu rasmlarda ham aks etgan.

Ma’lum bo‘lishicha ajdodlarimiz ma’lum bir qurollarning jarohatlash darajasini oshirish va u quroldan shikastlangan odam uzoq vaqt tuzala olmasligi maqsadida tig‘li qurollarni tayyorlashda maxsus texnaloyalar qo‘llagani ma’lum bo‘ldi. Shunday manbalardan biri Sayyid Odina Muhammad eshonning “Javohir us-sanoyi” (Hunarlar javohirlari)asarida aks etgan. [1] YA’ni asarda aytilishicha, “paykon va nayzani yasash va suv berish bayonidakim, agar dushman yarador bo‘lsa hech bir dori bilan tuzalmagay va halok bo‘lgay. Bu ikki navda bayon topadi. Boshqa nav. Tuproq (xok) va eshak tezagini olib, birga tuygaylar va har ikkovi miqdorida biranji aqrabiydan (manbada matn biranj “darunaj” deb o‘zgartirilgan, shunisi to‘g‘ri. Darunaji aqrabiy – bu chayonsimon dorunok o‘simligi) qo‘shib, eshak siydigiga tashlagaylar va qoldirgaylar. So‘ng uni suvga botirgaylar, shunday bo‘lgayki, undan bo‘lgan zaxm (yara) hargiz tuzalmagay. Boshqa nav - tig‘ga suv berish bayonidakim, agar u bilan (biror a’zo) kesilsa yoki yara bo‘lsa uzoq tuzalmagay va qichishish yuz bergay. Gil (kesak) va eshakning ho‘l tezagidan olib, o‘zaro qo‘shib, tig‘ni bo‘yasalar va uni qizdirsalar va ob (suv bersalar), kesuvchi bo‘lgay va (yarador) tez tuzalmagay.”

Abulfazl Allomiy “Oyni Akbariy” asarida sovuq qurollar aks etgan rasmda quyidagi nomlarni uchratish mumkin. Ya’ni, 1. Kamon 2. Jahasu (nayza turi), 3. sitxir (nayza turi), 4. Karcha (nayza turi), 5. karz (gurzi turi), 6. sipar (qalqon turi), 7. do‘mmol (qalqon turi), 8. tirkash (kamon o‘qlari soladigan maxsus sadoq idish), 9. kamta (o‘q- yoy turi), 10. odona (qalqon turi), 11. kahan (sovut turi),12. kankarka (sovut turi), 13. Onkarka (sovut turi) , 14. YOxota (naysimon qurol turi), 15. Xarin (ikkita kichik shohchasi mavjud qovuq qurol turi), 16. kardan (sovut turi), 17. Kinsar sabsu seaxo (bo‘yin sohasini yopadigan sovut) (Abulfazl Allomiy “Oyni Akbariy” – 41 b varaq)

Qo‘lyozmaning boshqa varog‘ida quyidagi qurollar va hanjar turlari tasvirlangan. Ya‘ni, 1. Boz (qilich turi), 2. Kabti (qilich turi), 3. Xabmar har narmona (o‘q otishga mo‘ljallangan qurilma) 4. Xambarxaz sasarzmano (o‘q otishga mo‘ljallangan qurilmaning boshqa turi) 5. Bonk (xanjar turi), 6. janbu katan (qilich turi), 7. janbu kisu (qilich yoki xanjar turi) 8. kibsan (xanjar turi), 9. CHoqu , 10. Xor simula (oy bolta turi), tabar (oy bolta) 11. Tarnakola (oy bolta turi), 12. Katbasi kard (uchqir nayzasimon, bo‘yi qilich o‘lchamida, gilofli sovuq qurol,), 13. Zar sanga muna (to‘g‘ri kesuvchi, to‘rtburchak shakildagi uzinchoq oy bolta turi), 14. Taroz ang‘ul (oyboltaga o‘xshagan ammo bir tomoni xo‘roz toji singari o‘tkir tishli qurol)



O‘zFA SHI №1721 raqamli qo‘lyozma. Abulfazl Allomiy. Oyni Akbariy – 41 b varaq



O‘zFA SHI №1721 raqamli qo‘lyozma. Abulfazl Allomiy. Oyni Akbariy – 41 a varaq.

Xullas, Zahiriddin Muhammad Bobur(1483-1530) va uning vorisi Humoyun, hamda Humoyunning o‘hli Akbarshoh Akbarshoh (1542-1605) zamonasida an’anaviy O‘rta Osiyo qurollari bilan bir qatorda shakl va ko‘rinishda qisman o‘zgargan sovuq qurollardan foydalanilgan. Bobur va boburiylar qo‘shinidagi maxsus bo‘linmalar haqida ma’lumotlar keltirilganda “shamshirbozlar”, “kamonkashlar”, “taxshonzozlar”, “shibaki”- mayda o‘qli kamonchilar guruhi, “tirkashband”lar guruhlari “ Boburnoma” asarida ham “Akbarnoma”, “Oyni Akbariy” asarida ham uchraydi. Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylarning qo‘shin tuzilishi an’anasi ana’anaviylik va

vorisiylik belgilari ham bo‘lgan. Ammo imperiya sarhadlari kengayib, harbiy xizmatchilar tarkibi rang barangligi ortgani sari, mahalliy xalqqa yaqinlashish va harbiy kuchlar muvozanatini saqlash maqsadida ham qo‘shin saqlash uchun yangi nizom va tartiblar joriy etilgan. Armiyadagi jangavor otlar, fillar, tuyalar ta’minotiga alohida e’tibor qaratilib, Akbarshohning ilk hukumronligi davrida u mahalliy zadogonlar tomonidan jihozlagan va ta’minlangan bo‘lsa, keyinchalik Akbarshohning hukumronligining 18 yili, ya’ni 1574 yildan tamg‘alash tartibi yo‘lga qo‘yilgan. Tamg‘alash qo‘shinning otlari, tuyalari, fillari va qurol aslahalariga ham qo‘yilgan. Buning natijasida qo‘shinning saralangan jangavor qismlari tashkil etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur joriy etgan bir necha o‘nlik qisimlarga askarlarni bo‘lish tartibi, Boburiy mirzolarning qo‘shinlarida ham davom etgan. O‘rganilgan sovuq qurollarning har bir turining bir nech xildagisi va shakldagi turlari bo‘lganligi ma’lum boldi. Ba’zi turlari, xususan tir, kamon, Boburiylar saltanati mahalliy nomlarga monandlashtirilsada, aksariyat O‘rta kelayabgan nomlarini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу-л Фазл Аллами. Акбар-Наме, кн. I—VII , Самара, 2003—2011.
2. Абулфазл бин Муборак Аломий. Ойини Акбарий.// Ўз.РФА ШИ №. 1721 ин. – 1 а-322а варақлар.
3. Тураева С.Р. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг //Хоразм Маъмун Академияси Ахборотномаси 2020- 12/2 – Б. 182-186.
4. Абулфазл бин Муборак Аломий. Ойини Акбарий.// Ўз.РФА ШИ №. 1721 ин. – 41 а-41 б варақлар.
5. Turayeva S.R. Zahiriddin Muhammad Bobur qo‘shinining harbiy aslahalari. Risola /. O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020 – 43 b.
6. Абулфазл бин Муборак Аломий. Ойини Акбарий.// Ўз.РФА ШИ №. 1721 ин – 41 a – b varaqlar. Rasmi va izohi bilan.
7. Turayeva S.R. Bobur qo‘shining jang usullari // “Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosining xalqaro miqiyosda o‘rganilish” mavzusidagi ilmiy-amaliy an’anaviy anjuman materiallari. – 2020. –B. 73-73.
8. Саййид Одина Муҳаммад эшоннинг “Жавоҳир ус-санойиь” (Ҳунарлар жавоҳирлари) / форс тилидан таржима , луғат ва изоғлар муаллифи М. Ҳасаний. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси наширёти. – Т. 2003. – Б. 81
9. William Irwin. The Army of the Indian Moghuls. Its organization and administration. London, 1903 Lahore, 2012. 331 p.
10. Pal, Pratapaditya, ed. Master Artists of the Imperial Mughal Court. Bombay, Marg Publications, 1991 ;

• Pinder-Wilson, R. H. with Ellen S. Smart and Douglas Barrett. Paintings from the Muslim Courts of India. Exh. cat. London, 1976;

• Robinson B. W., et al. Islamic Painting and the Art of the Book: London, Faber and Faber, 1976;

BOBURNING AFG‘ONISTON HUDUDLARIDAGI HUKMDORLIGI VA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARI

Rasulova Nodira Sardarovna
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori (DSc)

Bobur Mirzo yoshligidayoq juda murakkab vaziyatda, otasidan meros qolgan hukmdorlik qilishdek og‘ir mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘lgan edi. Uning tengi yoshlar hali madrasalarda hukmdorlik vazifasini boshqarishga oid ilmlarni o‘rganib, qalam o‘ynab yurgan vaqtlarida, u atrofida to‘lib-toshgan dushmanlar qurshovida qo‘lida qilich bilan sulolasini va yurt tinchligini himoya qilishga kirishgan edi. Bobur saroydagi eng mohir chavandoz va kamonbozlarga shogird qilib berilib jang san’atiga tayyorlansa-da, qo‘lidan aslo kitoblarni qo‘ymas edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Zahiriddin Muhammad Bobur haqida quyidagilarni ta’kidlagan edi: «Bu buyuk zot o‘n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o‘zini o‘tga ham, cho‘qqa ham urdi, hech qanday dushmandan ham, sinovdan ham qo‘rqmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o‘tdi. O‘z avlodlariga Vatanga bo‘lgan buyuk muhabbatni, ezgu fazilatlarni meros qilib qoldirdi» [1, 8-9].

Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi. U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag‘lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug‘vor nashidalarini surishni ko‘p marotaba o‘z boshidan kechirdi.

1500-yillarning boshida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat, ya’ni jangu jadallar natijasida nihoyatda ezilgan va qashshoqlashgan Movarounnahr xalqi, mamlakatdagi beqaror ichki ahvol, bek va amirlarning xalqqa o‘tkazgan istibdodi, xalqning hukmdorlarga bo‘lgan ishonchining butunlay yo‘qolishi hamda Shayboniyxondek kuchli dushman qarshisiga chiqmoqlik uchun yetarli kuch-qudratning yo‘qligi Zahiriddin Muhammad Boburni Afg‘oniston sari yo‘l olishga majbur qildi. Bu haqida Boburning o‘zi quyidagi fikrlarini bildirgan: “Har yerda borgan-ko‘rgan navkarlarim yig‘ildilar. Uch yuzdan ko‘proq kishi bor edi. Xotirimdan kechdiki: “Qachongacha bu Farg‘ona viloyatida sargardon bo‘lib yuramiz. Biror yoqqa bosh olib ketay, zora omadim yurishsa”, deb muharram oyida Farg‘ona viloyatidan Xuroson talabida otlanib chiqdim.

Muharram oyida Farg‘ona viloyatidan Xurosong‘a yurish niyatida Hisor viloyati yaylovlaridan bo‘lgan Iloq yayloviga kelib tushdim. Menga umidvorlik bilan ergashib yurgan ulug‘-kichik ikki yuzdan ko‘proq, uch yuzdan ozroq edi. Ko‘pchiligi piyoda, qo‘llarida tayoq, oyoqlarida chorih va egnilarida chopon edi. Qashshoqlik shu darajada ediki, ixtiyorimizda ikkitagina chodir bor edi. Mening chodirim volidamga tiklanardi. Menga har yurtda olachuq (kapa) yasardilar. Olachuqda o‘tirardim”[2, 99-100].

Gulbadanbegim Boburning eng qiyin ahvolga qolgan damlarini o‘zining “Humoyunnoma” asarida bunday deb xotirlaydi: “To‘liq 11 yil davomida Movarounnahr o‘lkasida, chig‘atoy, temuriy va o‘zbek sultonlari bilan shunday jannlar

va mudofaalar qildilarki, ularning sanog‘ini batafsil bayon qilishga qalam ojiz va nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari bo‘lib, jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo‘llarida tayoq bo‘lgani holda beyarog‘, xudoga tavakkal qilib, Badaxshon va Kobulga qarab yo‘l oldilar”[3, 24-25].

1504-yil sentabr oyida Kobul hokimi Muqim Arg‘un bilan to‘qnashib g‘alaba qozonadi va Kobul taxtini qo‘lga kiritadi. Kobuldan so‘ng G‘aznani egalladi. Ushbu g‘alabani Bobur “Rabi ul-avval oyining‘ oxirida Tangri taoloning fazlu karami bilan Kobul va G‘azni mulk hamda viloyatlari jang-jadalsiz menga muyassar bo‘ldi va fath etildi”, – deb eslaydi.

Kobul viloyati 14 ta ma’muriy tumandan iborat bo‘lib, Hindiston, Eron va O‘rta Osiyo o‘rtasida juda muhim va yirik savdo yo‘llarini o‘zida birlashtirgan shahar edi. Bobur Kobulni bunday ta’riflaydi: “Qoshg‘ar va Farg‘ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondan karvonlar Kobulga kelurlar... Bisyor yaxshi savdoxonadur. Har yili yetgi-sakkiz-o‘n ming ot Kobulga kelur. Quyi Hindistondan o‘n-o‘n besh-yigirma ming o‘yluk karvon Kobulga kelur!” [4, 39].

Bobur Mirzo Afg‘onistondagi tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Ammo uning birdan-bir maqsadi – muntazam qo‘shinga ega bo‘lish va Shayboniylarga qarshi turib o‘z ona yurtini qaytarib olish edi. Afsuski, Shayboniylar xavfi yildan-yilga jiddiylashib, Boburning ezgu niyati amalga oshmadi: Shayboniy lashkarlari bu tomonlarga ham jiddiy xavf sola boshladi. So‘nggi temuriylarning eng obro‘li va qudratlisi bo‘lmish Xuroson hokimi Sulton Husayn Boyqaro, nihoyat, o‘z davlatiga bo‘lgan jiddiy xavfni fahmlab barcha o‘g‘illari va qarindoshlarini umumiy dushmanga qarshi bitta ittifoqqa birlashtirish uchun 1505-yil bahorida barchani o‘z poytaxti Hirotga taklif qiladi. Bobur Sulton Husaynning bu taklifini jon dili bilan qabul qiladi. Biroq Bobur Hirotga yetmasdan Sulton Husayn to‘satdan vafot etgani haqida xabar kelib (1506-yil may), uning bu so‘nggi umidi ham puchga chiqadi. Ikki yil o‘tgach, 1508-yili Shayboniyxon Husayn Boyqaro mulki – Xurosonni ham egallaydi.

1505-yil yanvar-fevralda Bobur ilk bora Hindistonga yurish qiladi. Bu yurish “Tarixi Rashidiy” asarida quyidagicha keltiriladi: “Kobulni Zunnun Arg‘unning o‘g‘li Muqim qo‘lidan ozod qildi. Uning qo‘lida Xisravshohning 20 mingga yaqin lashkari bor edi, ular Kobulga sig‘maydigan bo‘lib, nochor Hindistonga yo‘l olishdi. Lashkar yo‘llar notanishligi bois oziq-ovqat kam joyga tushib, ko‘p otlar nobud bo‘ldi. Lashkar jang qilmagan bo‘lsa-da, ammo ko‘p yo‘qotishlarga uchradi. Kobulga qaytib kelishgach, Xisravshohning ko‘p lashkari tarqalib ketdi”[5, 310].

Bobur nisbatan yosh bo‘lishiga qaramay (u endi 21 yoshga qadam qo‘ygan edi) to‘g‘ri siyosiy tadbirlar tuzadi va uni sekin-asta amalga oshira boradi. Natijada o‘z hokimiyatini ancha mustahkamlaydi, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi. Qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish va obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. Bog‘i Shahroro, Bog‘i Jahonoro, O‘rtabog‘, Bog‘i Vafo va Bog‘i Bobur kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta’mirlatdi, yangi imoratlar qo‘shdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadan Begim, Komron

va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘ildi. 1506 yil bahorda vafot etgan onasi Qutluqnigor Xonim Mirzo Ulug‘bekning Kobuldagi Bog‘i Navro‘ziy nomli bog‘ida vorislarining ruxsati bilan dafn etildi.

1507-yil sentabr oyida Bobur Mirzo Kobulga amakivachchasi Abdurazzoq Mirzoni (Ulug‘bek Mirzo Koluliyning o‘g‘li) qo‘yib, Hindiston safariga yo‘l oladi. Ammo Shayboniyxon Qandahorni ololmay, sulh qilib, orqaga qaytgan xabarini eshitgan Bobur Mirzo yana Kobulga qaytib keladi. Nosir Mirzoga G‘azna viloyatini va Abdurazzoq Mirzoga Nanginahor, Mindaravur, Darayi Nur, Kaz va Nurgul hokimligini in’om hiladi[6, 20-21].

1508-yil 7 martda Kobulda Muhammad Humoyun tavallud topdi. Xuddi shu yili Bobur Mirzo “Meni Bobur podshoh deb atanglar” deb buyurdi.

Shayboniyxon 1509 yilning yozida Marvni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Uning bu davrga qadar bo‘lgan yurishlari natijasida Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonning katta qismi Shayboniylar qo‘l ostida birlashtirildi. Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning kichik viloyatlariga yurish qiladi hamda Mashhad va Tus shaharlarini egallab, ulardagi muqaddas joylarni ziyorat qilib, ba’zi me’moriy inshootlarni ta’mirlashga buyruq beradi. Mashhad va Tus shaharlarini egallagan Shayboniyxon Erondagi Shoh Ismoil asos solgan Safaviylar davlatiga xavf soladi. 1510-yilda Erondan orqaga qaygan Shayboniyxon uning izidan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlari bilan jangga kirishdi. Marv yaqinida bo‘lib o‘tgan bu jangda Shayboniyxonning kam sonli qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi hamda zamondoshlari tomonidan “Xalifa ur-Rahmon va Imom az-Zamon” deb ulug‘langan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bu jangda halok bo‘ldi.

Bobur Kunduzda turganida Shox Ismoildan elchilar keldi. Ular sovg‘a-salomlar bilan Boburning Samarqand qamalidan so‘ng Shayboniy nikohiga olingan egachisi Xonzoda Begimni olib kelgan edilar. Xonzoda Begimning va Shayboniyxonnig Xurramshox ismli bir o‘g‘li bulib, u ham onasi bilan birga kelgan edi. Xurramshohga Balx hokimligi berilgan edi, biroq ikki yil o‘tmay vafot etdi. Xonzoda Begimning ukasi Bobur Mirzo bilan til biriktirib o‘ziga qarshi fitna uyushtirishdan cho‘chigan Shayboniy ko‘p o‘tmay uni taloq qilib, dindor oiladan chiqqan Ziyo Xodi ismli kishiga turmushga bergan edi. Ziyo Xodi Marv yonidagi jangda xalok bo‘lib, Xonzoda Begim eroniylarga asir tushgan edi. Boburning opasi ekanini bilgach, shox Ismoil unga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, sovg‘a-salomlar va xizmatkorlari bilan ukasi huzuriga jo‘natgan edi. U Bobur bilan do‘stlik munosabatlari o‘rnatish fikrida edi [7, 61].

Marv yaqinidagi g‘alabadan so‘ng Shoh Ismoil Shayboniylarga qarshi kurashda temuriy shahzoda Zahiriddin Bobur bilan ittifoqchilikni taklif etdi. Undan tashqari, Shayboniyxon o‘limidan keyinoq shayboniylar orasida boshlangan kelishmovchiliklar davlatni zaiflashuviga olib keldi hamda shayboniylar keyingi janglarda mag‘lubiyatga uchray boshladilar. Natijada Huroson va Xorazm qo‘ldan boy berildi. Bobur 1511-yilda Shoh Ismoil qo‘shinlari yordamida shayboniylar qo‘l ostidagi Hisor, Ko‘lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi yerlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo‘lga kiritdi.

Muhammad Haydar mirzoning yozishicha, “Movarounnahr xalqi, ayniqsa Samarqand aholisi Boburning kelganidan juda xursand bo‘lishdi. Ular Bobur zaruriyat

yuzasidangina kiyib olgan, kofirlikka yaqin bo‘lgan qizilboshlar kiyimini yechadi, payg‘ambarimiz shariatini qaror toptiradi, boshiga Muhammadning sunniy gulchambarini kiyib, Shoh Ismoilning gulchambarini esa bir qancha shialari bilan birga o‘ziga qaytarib jo‘natadi, deb o‘ylashgan edi. Ammo samarqandliklarning bu umidir ushalmadi. Sababi shunda ediki, Podshoh hali shayboniy o‘zbeklariga qarshi kurashish uchun o‘zini Shoh Ismoil madadiga muhtoj deb hisoblar, o‘z kuchlarini yetarli emas deb o‘ylardi. Shu sababdan Movarounnahr xalqi Podshohdan kutgan orzu-umidlarini puchga chiqdi, deb hisoblashgan” [5, 362-363].

T.Fayziyevning fikricha, Samarqandni qo‘lga kiritgan Bobur shoh Ismoil Safaviy bilan tuzilgan bitimga muvofiq shoh Ismoil Safaviy nomiga xutba o‘qitdiradi. Sunna mazhabiga mansub bo‘lgan Movarounnahr xalqi, ayniqsa Samarqand beklari shia mazhabiga mansub bo‘lgan shoh Ismoil Safaviy nomiga xutba o‘qitilishidan qattiq norozi bo‘ladilar. Natijada shahar xalqi orasida “Bobur podshoh shia mazhabini qabul qilibdi”, degan mish-mishlar tarqaladi. Ruhoniylar ta’siri ostida bo‘lgan keng xalq ommasi, mish-mishlarga ishonib, Bobur podshohga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘ladilar, Boburning shia mazhabidagi eroniylar rayi bilan ish tutishi aholida katta noroziliklar tug‘diradi [6, 21].

Movarounnahrni butunlay qo‘lga kiritish niyatida bo‘lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddan Soniy boshchiligidagi 12 ming qo‘shini kelib qo‘shildi. Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning talon-tarojlari (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida), shuningdek, Shoh Ismoilni oliy hokim deb e’lon qilganligi, shia imomlari nomi bilan tangalar zarb qilganligi tufayli mahalliy aholi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi, unga nisbatan g‘azabi va nafrati kuchaydi.

Bobur 1511-yil sentabrida Samarqand taxtiga o‘tirgan vaqtda, Movarounnahrning butun obro‘-e’tiborli amaldorlari Bobur Podshoh Shoh Ismoilga bo‘ysunib, qizilbosh-turkmanlar kiyimiga burkanib, ularning yo‘liga yuryapti, deya ko‘ngillarida isyon ko‘tarishgan edi.

Bobur Samarqand taxtini uchinchi bor egallagan paytda Buxoro hokimi Ubaydullaxon, Samarqand hokimi Suyunchxo‘jaxon, Muhammad Temur sulton, Ko‘chkunchixon va Jonibek sultonlar Turkistonga qochadilar. 1512-yil 7-aprelda Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy maqbarasi yonida yig‘in chaqirib, Movarounnahrni qaytib olish uchun Muhammad Temur sulton va Jonibek sultonlar bilan birga yurishga otlanishdi.

1512-yil aprel oxirida Ubaydullaxon G‘ijduvonga keladi va Buxoroga hujum qiladi. Boburga Buxoro qamali xabari yetgach u o‘z qo‘shini bilan yaxshi tayyorgarliksiz yordamga shoshilgan (Xondamirning “Habib us-siyar” asarida Ubaydullaxon qo‘shini soni Boburnikidan ko‘p ekani alohida ta’kidlanib, hatto “cheksiz” sifati qo‘llangan, ammo Muhammad Haydar mirzo Ubaydullaxonning lashkarida 3 000 ta, Boburning lashkarida esa 40 000 ta jangchi bor edi deb hisoblaydi [5, 375]). Ubaydullaxon harbiy hiyla ishlatib, qamalni to‘xtatib, go‘yoki Xorazmga chekingan bo‘ladi, ammo o‘zi Qizilqum cho‘lida yashirinib, tartibsiz ravishda uni ta’qib qilishga tushgan Bobur qo‘shinini “to‘lg‘ama” usulida, ya’ni yon tomondan aylanib o‘tib siquvga oladi. Jang avjiga chiqqanida Boburga yollanma sifatida xizmat qilgan

mo‘g‘ullar jang maydonini tashlab keta boshlaydi. Qattiq jangdan so‘ng Bobur qo‘shini tor-mor keltiriladi. Bu jangda Shayboniylardan O‘risbiy, Xoja Ahmad Qo‘ng‘irot, Ko‘chakbiy ismli yirik no‘yonlari Boburga asir tushib qatl etilgan. Bobur tomonidan Muhammad Mazid Tarxon halok bo‘lgan. Shayboniylar ustun kela boshlagach, Bobur Buxoroga chekingan va u yerdan Samarqandga qaytib, ertasi kuni oilasini olib Hisorga o‘tib ketgan. 1512-yil bahorida O‘rta Osiyo temuriylar qo‘lidan butkul chiqib ketgan va yana shayboniylarga tobe etilgan.

Bobur va eroniylarning birlashgan qo‘shinlari bilan Shayboniylar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1512-yilning noyabrida G‘ijduvon yaqinida bo‘lib o‘tadi. 1512-yil kuzida Bobur Ismoil Safaviy tomonidan yuborilgan *Najmi Soniy* bilan Balxda uchrashadi. 1512-yil 24-noyabrda G‘ijduvon jangida ittifoqchilar Shayboniylardan yengiladi.

Najmi Soniy jang oldidan Boburning qish yaqinlashib qolgani, buning ustiga oziq-ovqat tanqisligini hisobga olib Qarshi va G‘uzor atrofida qishlash haqidagi maslahatlariga quloq solmaydi. Safaviylarning tevarak-atrofga yem-hashak izlab tarqalganidan foydalangan Shayboniylar to‘satdan qal’adan chiqib hujumga o‘tadi va g‘alaba qozonadi. Najmi Soniy asir olinib qatl qilinadi. Mazkur jangda Shayboniyxonning jiyani, Sulton Mahmudning o‘g‘li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo‘shnini tor-mor etildi (mag‘lubiyatga ittifoqchilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ham sabab bo‘lgan [6, 377-380]). Bu mag‘lubiyatdan so‘ng Bobur Movarounnahrdan butunlay chiqib ketdi va Kobul hamda uning atroflarida o‘z hukmronligini to‘la mustahkamladi. G‘ijduvondagi muvaffaqiyatsiz jang, eroniylar qo‘shinning tarqab ketishi, shayboniylar qo‘shinining ko‘payishi va ularning egallagan mavqei Boburning yana Buxoro va Samarqand taxtiga qaytishiga hech qanday umid qoldirmadi. Shundan so‘ng u Movarounnahrni egallash ilinjidan umid uzib, butun e’tiborini Hindiston fathiga qaratadi

Bobur Hisor orqali Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. 1514-yilda Bobur shoh Kobulga qaytib keladi. O‘z o‘rniga quyib ketgan kichik ukasi Nosir Mirzo uni hurmat-ehtirom bilan kutib olib, ilgari o‘zi egallab turgan G‘aznaga ketishga akasidan izn so‘raydi. Va Bobur shoh saltanatdagi eng noyob sovga-salomlar bilan ukasini siylab, uni G‘aznaga kuzatadi.

1519-yilgacha bo‘lgan davrda Bobur saltanatdagi ishlarni takomillashtirish hamda yaqin atrofdagi tog‘li qaysar qabilalarni o‘ziga bo‘ysundirish ishlari bilan band bo‘ldi. Xazarlar, aymoqlar va afg‘on qabilalari Bobur Dehlini olgunga qadar ham unga to‘la bo‘ssunishdan bosh tortib, soliqlarni ham o‘z vaqtida to‘lamas edilar. Hozirgi afg‘on davlatiga qarashli, ya’ni Hindiston chegaralarigacha bo‘lgan hududni Bobur Kobulga to‘la bo‘ysundirgan edi. 1519-yilning bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejasini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha marta yurishlar uyushtiradi. 1522-yilda Bobur shoh Qandahorni qo‘lga kiritdi. 1524-yilda esa Bobur Kobuldan Panjobga yurish qildi va katta o‘ljalar olib qaytdi. Bobur Afg‘onistonda Bog‘i Shaxroro, Bog‘i Jahonoro, O‘rtabog‘, Bog‘i vafo, Bog‘i Bobur kabi qator bog‘lar qurdirdi.

Bobur shuncha kulfatu falokatlarni boshdan kechirishga qaramay, o‘zidagi eng yaxshi fazilatlarni yo‘qotmadi, unga tabiat bergan iste’dodni behuda xayf qilmadi, balki

tengsiz mehnatsevarlik va fidokorlik bilan ulug‘ davlat barpo etdi va o‘lmas asarlar yozib qoldirdi. Bobur Shimoliy Hindistonda o‘z hukmronligini o‘rnatgach, o‘z atrofiga o‘sha davrning eng yaxshi shoir va olimlarini yig‘ib, qurilish ishlarini olib boradi, o‘zining sevimli ishi bo‘lgan adabiyot bilan shug‘ullanadi.

Barkamol avlod tarbiyasi uchun Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ ajdodlarimizning hayotiy tajribasi hamda ijodiy merosini o‘rganish, ularning ibratli jihatlarini o‘zlashtirish oldimizda turgan dolzab vazifalardandir.

Bugungi va kelgusi avlodlarga Boburning boy ilmiy va adabiy merosini yetkazish, uning hayot yo‘lini o‘rganish orqali yoshlarda uning shaxsiy sifatlaridan bo‘lgan vatanparvarlik, insonparvarlik, mas’uliyat hissini singdirish, harbiylarda qahramonlik, iroda kabi sifatlarni oshirish muhim zaruriyat sanaladi. Zero Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”[8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
2. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
3. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Т., 1959.
4. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. – Т.: Шарқ, 2006.
5. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010.
6. Файзиев Т. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари. – Т.: Ёзувчи, 1996.
7. Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда. – Т.: Чўлпон, 1993.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. http://www.uza.uz/oz/politics/28-12-2018.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR YURT OBODLIGI TO'G' RISIDA

Kadyrov Mirsultan Batirovich
Public Safety University
Professor of the Department of Social and Human Sciences,
Doctor of Philosophy (DSc), dotsent

Annotation: In the article The prosperity of the country under Zahiriddin Muhammad Babur and enlightenment on the way work , creativity and morality unit specific views , prosperity of the country and well-being on the way did deeds , morals and the prosperity of the country , prosperity to marry was attitude Also , in the article Baburians In Pakistan Lahore city related to life , Baburians by In Lahore created architecture monuments , mosques and mausoleums, gardens about information given. Lahore Baburians during historical rich in monuments , extremely beautiful city that it

was called the "City of Gardens" scientific evidence in the morning statement as given .

Key words: Babur , writer , poet , "Baburnama", Taj Mahal, mausoleum , India , national prosperity , national prosperity, national values , universal values .

Zahiriddin Muhammad Babur on February 14, 1483 Andijan in the city was born . Babur (pseudonym ; full name name Zahiriddin Muhammad ibn Umarshaikh Mirzo (Uzbek) classic literature large representative: great poet; historian; geographer ; statesman figure , talented commander ; Baburs dynasty founder , Timurid Prince . Father Omarshaikh Mirza Fergana province governor , mother Kutlug Nigorakhanim, Mayor of Tashkent Yunuskhan's daughter was . Babur's mother educated and wise woman became , to Babur the government management in their work active support given, military on their marches to him/her cooperation Babur all Timurid princes such as special educators , senior virtue scholars under the tutelage of military education , jurisprudence science , Arabic and Persian languages learns , many historical and literary works read does , to science , to poetry interesting begins . Courage and courage For this reason , he was nicknamed " Babur " ("Lion") from a young age . takes . Movarounnahr throne for struggle to the peak out , different political conspiracies is being organized was. Babur To Samarkand two times unsuccessful walk does . 1497 In the fall, he traveled around Samarkand. one how much places and 7 months old from the siege then Samarkand The city is under siege . because of extremely heavy days from the beginning in forgiveness was . Even find a grain of corn difficult was . Babur army in providing big to difficulties face came . From the servants some Andijan and Axsi side run away They will leave . This on top of In Andijan remaining some princes From Babur face turn around and see brother Jahangir Mirza towards They will pass . From Andijan cheerful restless was and economic difficulty from the beginning forgiven Babur Samarkand face day office from the moment then , it abandonment to reach decision Babur 's prosperity and enlightenment on the way attention to the work It is worth it . four sons (Humayun, Kamran, Askari , Hindal) and three daughters (Gulchehra , Gulrang , Gulbadan), and they also his/her own this features Babur tried to absorb the state this is what is driving in a way advice , council work with catch necessary he/she/it taught.

Babur In India five year verdict from driving then in 1530 In Agra himself/herself prosperous in the " Zarafshan " orchard death Later , from the Baburs Shahjahan (Babur's son) (grandson) reign during his/her hockey In Kabul made to the tomb moved.

Zahiriddin Muhammad Babur is fifty in the " Baburnama"[48] close writer about information to give literature during in charge tasks , creativity and morality unit also a word about It runs . Then Babur's Maulana Asafi , Kamoliddin Binoi , Sayfi Bukhari , Badriddin Crescent , art from the people G'ulmuhammad Udi , Sheikh Noyi , Khoja Abdullah Marvari , Maulana Kamoliddin , Hussein Udiy , Ghulam Happy etc. creativity and morality related thoughts important . These individuals Caribbean Alisher Navoi also gave his opinion to all of them. "Majolisu-n- nafais" and others in his works stopped past . Shu bone, Navoi and Babur personal ethics and the welfare of the country and prosperous to marry was attitude comparative analysis to grow to the goal

[48] Zah iriddin Babur. Boburnoma . Tashkent . Star . 1989. To the publication prepared by : Porso Rakhimov.

according to .

First of all , to emphasize It is necessary , in Babur in literature shortcomings , wise man personality and in his work defects frankly expression to grow characteristic . This concreteness at the bottom sometimes ruler Babur's their eyes are also open is thrown away . Because only Like Babur writer and only the king of his time supreme senior people creativity and morality about open reflection to conduct possible was (for example , Hussein Boykara , Khalil Sultan , Sheikh Suhayli etc.) . Moreover , the same feature Babur worldview open service does .

Muhammad Babur child To Humayun statesmanship in their work only pure , brave , courageous , generous , experienced princes in consultation with to be the country to manage emphasizes[49]. Both the writer person in upbringing views , statement styles to themselves typical although , in fact , this in views one purpose - in person human qualities upbringing , difficult at the time help kindness , honesty , justice , compassion , patience and patience life to the content to convert , from hypocrisy Hazar to do invitation leadership does .

Babur prince during Movarunnahr and Khorasan India for science and culture center counted without Ashtarkhanids during this role To India passed .

Whole life goodbye - he meritorious affairs with past Navoi , received education and eaten soup - salt right Mashhad people for big grace shows . State King Samarkand this about In the book " Tazkirat -e- Shu'aro " so that writes : "(Again) God grace know one a little it is time , it representative elected people effort or - ode Of Khorasan famous from the springs of the world heart opener , Tus province above Spring Clay water holy Mashhad to the city (This brings with) Mashhad resident people dehydration from pain saved ... This how donation It happened that the world kings akobirs such the work from achieving They are helpless . This ditch length almost on two Who is Farsakh , everyone? places uneven - (of the great emir) this goodbye donation everyone honorable from donations also increasing It is standing . ditch because of , holy Mashhad city , god if you wish , heaven jealousy , Chin nursing home the difference causing " It will be "[50]

« The Mongols (Baburs) are in the city beautiful gardens and beautiful buildings build they did , - they said writes Caromat Alikhan . - They city castle expand it , on three gate built ... until 1752 Lahore they under the influence was ... from 1767 to 1846 To Punjab Sikhs dominance This period Lahore in history the most heavy period became. Sikhs Muslims built architecture monuments cruelly destroyed They built the buildings . completely " Nur Jahan " and other in the tombs ornaments (mosaic) to move , to move marbles carrying " They left ."

Caromat Alikhan own in the book historical In Lahore architecture monuments , mosques and mausoleums , gardens about much in detail stopped . Of these one Lahore The doctor 's castle According to the writings , the fortress was originally built by Mahmud of Ghaznavi . close from people one Ayoz Malik is simple from clay Later ,

[49] Zahiriddin Babu . Baburnoma . Tashkent . Yulduzcha . 1989. Published Prepared by : Porso Rakhimov.
[50] f State of the Nation Samarkandi . Poets " Remembrance and the Light " by Ghafur Slave named after Literature and art Publishing House . 1981.

various rulers during one how many there is destroyed again and again restored in 1556 Akbar Shah castle completely to destroy , to destroy again built .

Gate to the wall worked pattern , and flowers real handicraft sample was . On the walls extremely beautiful colorful decorate Jahangir's instruction , idea , recommendation and directly his/her under the leadership of worked . In the pictures palace ceremonies , bulls , elephants fight , sport, wrestling scenes , celebration joys , palace of the gentlemen dresses skill This is illustrated with . decorations , colors three face from the year then also own charm The castle's "Shish Mahal " (mirror) palace) called harem part King World by mainly pure marble , polished standing from stones built . Its in the yard , huge pool , swimming pool between and special corridor accessible by podium In short, it is forbidden . pearl and from mirrors worked unique handicraft sample was .

Caromat Alikhan « To Lahore one look or Lahore landscapes » in the book author's Babur and the Baburs life and their work very meticulously , thoroughly learned , historical to events impartial grade to give movement done It is felt . Its to those who wrote than Lahore Baburians during historical to monuments rich, extremely beautiful city " Gardens " city name received . Akbar Shah care because of Is this a scholar ? virtues , wise men , poets , mature commanders collected Yes , India . gate calculated From Lahore how much great men , wise men commanders , king conquerors how many from there this to the side passed . That's how it is. rare , unique historical of individuals theory fallen city this ...

Including, Dr. Caromat Alikhan is like this describes : "... This tomb red and white from marble Sultan King World by This garden is equal to ten six to a piece divided from each other beautiful paths , green flowers and sergeant water shooting fountains separated from This monument is standing . own beauty with Baburians built architecture samples between In Agra From the Taj Mahal mausoleum then stands ... Grave located room beauty someone to surprise puts : room walls pure from marble grave to the stone 99 Attributes of Allah carved worked . Four each of the aisles end to the grave take It goes . tomb Lahore and the Baburs architecture pearl is considered and worth 1 million rupees organization will ...»

Jahangir from his tomb far away his/her beloved wife , advisor Hyp Jahon tomb there are . «... Baburians architecture bright from samples one princess Light World " It is a tomb ," he said . writes Caromat Alikhan . Nur Jahan own the most beautiful of its time from women is , its beautiful - beautiful in front of ruler own from his kingdom to wait ready was ...»

Babur Mirza India its nature , climate , mountains , lands , waters , animals world , birds and mammals plants very wide , detailed , any geographer , biologist , zoologist from scientists more perfect, too more scientific definition and description reached .

Akbashiokh's grandson of Jahangir son King World during and undoubtedly, by his command This solidly built historic building is still many years to the people service did .

King Jahan , Akbar Shah , Aurangzeb in the name of placed large , prosperous

from the streets our heart pride and pride to the senses paid.[51]

Zahiriddin Muhammad Babur creative Morality , first of all , country well-being and prosperous to marry related views today also to our youth national and universal values in absorption , their spiritual high qualities If it is combined with , it will be attention and fame to bring confidence harvest in their doings lesson task It will pass .

Literature

1. Zahiriddin Babu . Baburnama . Tashkent . Yulduzcha . 1989. Published Manufacturer : Porso Rakhimov .
2. Davlatshah Samarkandi . Poets " Remembrance and Remembrance " garden . Slave named after Literature and art Publishing House . 1981.
3. Zahiriddin Grandpa . Boburnoma . Tashkent . Star . 1989. To the publication prepared by : Porso Rakhimov .
4. Kamchibek Kenja Indian Soriga. Tashkent: Sharq. 2000.

МИРЗО БОБУР ИЖОДИДА ОНА ЮРТНИ ҚУМСАШ ТУЙҒУСИНИНГ БАДИИЙ ТАҲЛИЛИ



Хотамов Шуҳрат Носирович
Жамоат хавфсизлиги университети
доценти, пед.ф.б.ф.д. *(PhD)*, доцент

Бобур шахси ҳақида сўз борганда, кўз ўнгимизда буюк қалб эгаси, беғубор, самимий хислатларга бой “дилбар шахс” намоён бўлади. Айниқса, уни эслаганда, Ватан соғинчи, ҳижрон, дард аламга тўйиб яшаш қисматини англаш мумкин. Унинг Ватан соғинчи борасидаги шеъриятида қанча дард, алам мужассам бўлса, шунча жозибадорлик ҳам мавжуддир. Айнан шу жиҳатлар Бобур байтларининг қадрини белгилайди.

Мирзо Бобур адабий меросининг катта қисмини лирик шеърлар ташкил қилади. У мумтоз адабиётнинг ғазал, рубоий, туюқ жанрларида сермаҳсул ижод қилади ва девон тузади. Ўз асарларда она юртига эҳтиром, соғинч туйғулари, ижтимоий ҳаётнинг турли муаммолари, инсон камолати ҳамда маънавияти кенг ёритилади. Ҳаётбахш туйғулар – ҳаётдан завқланиши, ёр васли, юрт соғинчи, она Ватандан узоқда юрган лирик қаҳрамоннинг изтироблари, панд-насиҳат мавзусидаги юксак маънавият, илм-маърифат ва одоб-ахлоққа чақирувчи, ўз қисмати лавҳаларини акс эттирган мотивлар содда ҳамда равон мисраларда юксак бадиий маҳорат билан куйланади.

Бобур ғазалларида, маснавий ва рубоийларида Ватан, ёр-диёр мавзуси алоҳида ўрин эгаллайди. У ватандан айри юрган бўлса ҳам туғилиб-ўсган она юртига

Kamchibek Junior India sorry Tashkent : Shark ,. 2000.

бўлган соғинчли муҳаббат, унга етишиш орзуси доимо қалбини чулғаб туради. Шоир ижодининг асосий мавзуси она Ватан соғинчи, юрт туйғуси бўлиб қолади. Шу боис, унинг шеърларида ватанпарварлик ғояси устувор аҳамият касб этади:

Толеъ йўқи жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишники айладим хатолиғ бўлди.
Ўз ерим қўйиб Ҳинд сори юзландим,
Ё раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.

Юқоридаги мисралардан кўриниб турибдики, Бобур ўз қисматидан тушкун кайфиятда, ўзга юртлардаги саргардонликдан зада, шоҳлик мақомидан миннатдор эмас. Чунки, у ўз она юртидан йироқда, халқ тинчи учун ўз ватанидан чиқиб кетишга мажбур бўлган. Ана шу армонли изтироб уни бир нафас ҳам тарк этмади ҳамда Бобур шеъриятининг асосига айланди. Баъзи ўринларда шоирнинг бир қарашда ишқий муносабатлар, севги-муҳаббат устуворлик қилган бўлсада, ғазалларининг аксариятида юрт соғинчи, Ватанни қумсаш каби туйғулар устуворлик қилади.

Унинг асарлари, лирик шеърлари ва рубоийларида инсон учун Ватанидан азиз ва муқаддас бўлса, Ватандек олий илоҳий неъмат йўқлиги, одам учун неки муқаддас бўлса барчаси Ватан билан вобасталиги айтиб ўтилган. Зотан, Ватан – сўнгсиз мўжиза. Ҳеч ким Ватандан ўз ихтиёри билан воз кечган эмас. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг иймон-эътиқоди, шахс сифатида буюклар ичра буюклиги, олим сифатида мутафаккирлар мутафаккири, эрксеварлиги, халқпарварлиги, маънавияти Ватанга меҳр-муҳаббати билан чамбарчас боғлиқдир.

«Ўзга юртлар бойлиги қанчалик кўп ва беҳисоб бўлмасин, мусофир юртларда бошингдан оёғинггача зар ичида бурканиб яшамасин, барибир, уларнинг ҳеч бири, на дур-у гавҳарлари-ю, на кўҳинурлари, улардан ҳеч бири она юртнинг бир сиқим тупроғига, бир қултум сувига, бир шингил узумига, бир карч қовунига тенг кела олмайди»,-дейди Мирзо Бобур.

Бобурни юртидан йироқлик қаттиқ эзади. Ота юртидан қувилиб, мусофирчиликда ҳаёт кечириш, туғилиб ўсган, киндик қони тўкилган эл-юртдан, яқин дўст-биродарлардан беҳад олислик уни қайғуга солади, руҳан эзади. Бобур Ватанини, Андижонини, Фарғона ва унинг ширин-шарбат меваларини, табиат манзараларини қўмсарди, ёр-дўстларини соғинарди.

Кунлардан бир кун Бобурга Фарғона сувий-у тупроғида униб-ўсган ва ўша саҳий водий қуёшида пишган қовун келтирганларида у қовунни сўятуриб аччиқ-аччиқ йиғлаган экан[1.574]. Бу бир карч қовун, бир шингил узумга муҳтожликдан эмас, албатта, балки юрт меҳрига бўлган чексиз соғинч, унга бўлган беадад меҳр-муҳаббат дардидир.

Бобур юртини қолдириб, ғайри элларга кетишни ўзи учун бир «хатолик», «юз» қаролик деб билди. Ғарибликда юрган кишининг кўнгли шод бўлмаслигини қайта-қайта уқтирди. Буюк мутафаккирнинг, «Ёд этмас эмиш кишини ғурбатда киши, Шод этмас эмиш кўнглини меҳнатда киши. Кўнглим бу

ғарибликда шод ўлмади, оҳ, ғурбатда севинмас, албатта, киши» деган ўтли рубоийси бунга мисол бўлади.

Маълум сабабларга кўра ўз юртини ташлаб ўзга мамлакатларда ғурбатда, икки жаҳон овораси бўлиб юрганлар сингари Бобур ҳам Ватанни Оллоҳ насиб этган неъматларнинг энг улуғи, энг аълоси ва муқаддаси, деб таърифлайди. Бегона юртларда бўлса-да, иши бароридан келиб, шоҳ бўлиб, кам-кўстлик нелигини билмасдан юрган бўлишига қарамай, Мирзо Бобур киндик қони томган ўз юрти, диёри йўқлигидан, Ватанидан олисдалигидан бир умр ўксинди, дили шод-хуррам бўлмади. Ватан меҳр гиёси уни ҳар дақиқа ва ҳар сония тортиб турди.

Муҳаммад Бобур Афғонистон, Ҳиндистонни қўлга киритиб, катта империя қурган, юксак обрў-мартабага эга бўлган бўлса ҳам, лекин ўзини асло дили шод бўлган, муродига етган киши деб билмади, сўнгги нафасига қадар туғилиб ўсган юртидан кўнгил узолмади, Ватанига қайтиш фикридан воз кечолмади. Улуғ бобокалонимиз ўзига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Ватанига қайтолмади. Бу ҳақда у «Келдим бу сари ихтиёрим бирла, лекин боруримда ихтиёрим йўқдир», деган эди.

Маълумки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур доимо адолатли сиёсат қарор топган, марказлашган давлат тарафдори бўлган, давлатни одил, адолатпарвар подшо ёки подшоҳ бошқариши керак, деб ҳисоблаган. Унинг фикрича, давлат бошлиғи ҳамиша оддий, меҳнаткаш халқ ҳақида ўйлаши, қайғуриши, ғамхўрлик қилиши керак. Бу ҳақда унинг,

Давлатқа этиб меҳнат элин унутма,

Бу беш кун учун ўзингни асру тутма, - каби, ўтли мисралари мисол бўла олади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ватанпарварлик, инсонпарварлик, маърифатпарварлик ғоялари билан бир қаторда одоб-аҳлоқ мавзусига ҳам асосий эътиборини қаратди. У ҳикматли сўзлари орқали одамларни камтарин, кўркам фазилатлар эгаси бўлишга даъват этди. Халқ маанфатини ўйлаб, инсон қадр - қимматини юқори тутди.

Бобур Мирзо бир умр ўзининг ҳақиқатпарварлик, эзгу-саҳоват ҳақидаги ижтимоий-сиёсий ғояларига содиқ қолади. Қадами етган жойни обод қилиб боғу бўстонга айлантирди, эл-улусга қўлидан келган марҳаматини аямайди. Фарзандларидан ҳам буни талаб қилди. Маълум бўлишича, Бобур тўнғич ўғли Насириддин Муҳаммад Ҳумоюнга давлатни бошқариш ишларига тайёрлаш учун оғзаки йўл-йўриқлар бериш, рисолалар ёзиш билан кифояланмай, унга атаб мактублар – васиятномалар ҳам ёзган. Унинг ўғли Ҳумоюнга жумодиулаввал ойининг биринчиси, 935 ҳижрий санада ёзган «Махфий васиятнома»сида қуйидаги йўл-йўриқлар берилган эди: «... Эй фарзанд, Ҳиндистон мамлакати турли мазҳаблардан иборат. Субҳонолло Таоло ҳақи сенга буюрилдики, ҳар бир мазҳаб ва тариқатга адолатли бўл. Хусусан, сигирни қурбон қилишдан сақлангинки, бу Ҳиндистон халқининг қалб ардоғи ва бу вилоят аҳли подшоҳга яхши назар билан боғланади. Подшоҳ фармонига бўйсунган халқларни хароб

қилмагин. Адолатни ихтиёр қилгин. Шунда шоҳ раиятдан, раият шоҳдан хотиржам бўлади. Исломнинг тараққиёти эҳсон тиғи билан яхшироқдир, зулм тиғи билан эмас. Аҳли суннат ва шиаларнинг икир-чикирларидан кўзингни юм. Чунки, исломга қаршилар бор. Турли эътиқоддаги халқларни тенг тутгинки, шунда салтанат турли ташвишлардан ҳоли бўлади.

Ҳазрат Соҳибқирон Амир Темурнинг иш юритишлари доимо ёдингда бўлсин. Шунда давлатинг маъмур ва пухта бўлади”[2. 331].

Мирзо Бобур Ҳумоюн Мирзога васият қилар экан, адолатни ихтиёр қилишни, ҳар бир масалада бобокалони ҳазрат Амир Темурнинг ҳукмдорлик услубларидан ўрганиш лозимлигини, эътибор беришини қайта-қайта уқтирди. Бобур «Васиятнома»сида илгари сурилган илғор ғоялар унинг фарзандлари, ворислари томонидан изчиллик билан ҳаётга татбиқ этилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фарзанди Камрон Мирзога йўллаган мактубида ҳам давлатни бошқариш юзасидан оқилона маслаҳатлар берилган. Насиҳатномада Бобур Мирзо ҳазратлари қуйидагиларни таъкидлаганлар: «Фарзанди аршаду саодатнишон, Муҳаммад Камрон баҳодирга саломи муҳаббат анжомидин сўнг улким, кўкалдош-у эмикдош ва ичкиларинг билан сабоқ ўқурга ружуъ келтуруб эмишсен. Бу жиҳатдин кўнгулга ғурур ва хотирга ҳузур этиб, на бисёр хушҳоллик, юз бердию Тангри Таоло даргоҳидин умидим борким, жами қобилият ва салоҳият бобинда комил ва мукаммал бўлиб, камолга етгайсен... Эшиттимким, Чиғатой эликим, ҳазрати мағфур ва марҳум Султон Ҳусайн Мирзодин қолиптурларким, ул эл кўпрак Хуросон эли билан ўлтуруб, қўпуб, бисёр қобилият ва ҳайсият пайдо қилиб, латофатдин холи эрмаслар. Агарчи, Хуросон эли хуштабъ элдурлар, ғайсиятларида сўз йўқтур, локин мазҳаб ва миллатида танг бордир... Турк улусидин отаси ўғил бошлаган, аноси тўй бошлаган, тўра кўрган эл борким, оталари ота-онамизга хизмат қилиб, жон тортиб, иссиғ-совуғда, сафар ва ҳазарда бирга бўлуб, лаҳза балки ламҳа айрилмаган. Хизмати шоиста қилиб ва пандин-да баржот келтурубтурлар. Ул элдин имтиҳон қилиб, (сен) эшигингга йўл бериб, вакили мутлақ этиб, ғофил бўлмағайсен. Кичик ёшлиқ эрса, алардин кенгаш сўруб, маслаҳат тилаб, аларнинг сўзи билан амал қилиб, асло ва мутлақо ҳеч муҳимға иштиғол қилмағайсен. Андишалиқ бекларидан (ва) олийрой қорачу давлатхоҳларким, ҳамиша муҳим ва маслаҳат ичинда бўла келиб турарлар, аларнинг савол жавоб ва кенгашларидин чиқмагайсен. Хушомадгўй сўзиға фирифтойи бўлуб, давлатхоҳларким, давлатга муносиб сўзни эшитиб, кўруб-билиб, келиб юзинга қотиқ айтурлар, аларға ачиғ(лан)мағайсен. Агарчи юзунга филҳол қотиқ кўринур, охир неча кўб кулдирур.

Масалдурким, дўст йиғлатур, душман кулдира айтур. Дўст-у душманни топиб, бу мазмун ила амал қилғайсен»[3.331].

Жумладан, Бобур Мирзо Ҳиндистонда темурийларга хос улуғ бунёдкорлик анъаналарини давом эттирди: муҳташам қасрлар тиклаш, ариқ-каналлар қазиш, боғ-роғлар бунёд этиш, адабиёт, илм-фан ривожига ҳомийлик қилиш, элни адолат

билан бошқариш сингари фазилатлар кейинчалик Ҳиндистоннинг буюк фарзандлари томонидан чинакам ижобий баҳоланди.

Ҳиндистоннинг донишманд фарзанди, буюк давлат арбоби Жавоҳарлал Неру Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида самимиятга тўлиқ ушбу фикрларни изҳор этган: «Бобур дилбар шахс; Уйғониш даврининг бир ҳукмдори, мард ва тадбиркор шахс бўлган. У санъатни, адабиётни севган, ҳаёт нафосатидан лаззатлана билган. Унинг набираси Акбар яна ҳам дилбарроқ ва кўп яхши фазилатларга эга бўлган. Бобурнинг Ҳиндистонга келиши туфайли Ҳиндистонда буюк ўзгаришлар содир бўлди; санъатда, ҳаётда, меъморчиликда ва маданиятнинг бошқа соҳаларида янгича серилҳом тараққиёт юз берди.»[3.328].

Ўзбек халқи Бобур Мирзодек беназир алломаси, буюк ўғлони борлиги билан беҳад ғурурланиб, бошини баланд, қаддини тик тутиб яшашга тўла ҳақлидир. Улуғ аждодларимиздан бири ўлароқ, ул зот бизни тарихимизни қадрлашга, келажакка буюк ишонч билан қарашга ўргатади. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг тафаккур юлдузи мустақил Ўзбекистоннинг буюк келажак йўлини ёритиб, бундан буён ҳам бошимиз узра ёрқин порлаб тураверишига имонимиз комил.

Шу ўринда Биринчи Президентимиз Ислом Каримов билдирган қуйидаги фикрлар алоҳида эътиборга молик: «Халқимиз ... жумҳуриятимиз ҳукуматининг Навоий, Улуғбек, Бобур, Машраб, Фурқат, Қодирий ва юртимизнинг бошқа буюк фарзандлари юбилейларини ўтказиш тўғрисидаги қарорини жуда руҳланиб кутиб олганлиги бежиз эмас, деб ўйлаймиз. Уларнинг мероси Ўзбекистон халқлари умуминсоний қадриятларининг равнақи ва бойишига хизмат қилиб келган эди ва бундан буён ҳам хизмат қилади. Биз уларнинг бебаҳо меросини халққа, аввало ёшларга етказиш учун барча ишларни қиламиз»[4.28].

Шуни алоҳида эътироф этиш керакки, Бобур Мирзо маънавияти юксак улуғ бир инсон бўлганлиги учун ҳар доим олиму фузалолар даврасида бўлди, хусусан ижод аҳлига, касбу ҳунар соҳибларига самимий эҳтиром кўргазиб ҳомийлик қилди, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириб турди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур табиатан ижодкор бўлиб, йигитлик йилларидан бошлаб то умрининг охиригача, самарали ижодий иш билан шуғулланди, ҳар қандай шароит ва вазиятларда ҳам ижоддан тўхтамади, натижада ҳар жиҳатдан муҳим бой илмий ва адабий мерос қолдирди[5.123].

Мирзо Бобур ижодида, хусусан, шеъриятида киндик қони тўкилган она юртини дил-дилдан қумсаш, унинг тупроғига талпиниш, ғариблик азобларидан ўтли ҳасрат, ёр-у диёр соғинчи ва висол илинжи, тақдир зарбалари ва турмуш уқубатлари, замона носозликларидан нола бадиий таҳлил этилади. Бобур ижодида бу каби маънавий-маърифий характерга эга бадиий ифодаларни ниҳоятда кўплаб кузатилади. Уларнинг ҳар бири баркамол ёш авлодни ватанпарлик руҳида тарбиялашда, инсон маънавий камолотини юксалтиришда муҳим дидактик манба сифатида қимматлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:
1. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб.-Т.: «Ўқитувчи», 1976, 574-бет.
2. Бобурнома. Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 2020.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т. : “Шарқ”, 2002,
4. Норқулов Н., Жўраев У. Ўзбекистон тарихи.-Т.: «Шарқ», 2001. 28- б.
5. Каримов И.А. Қайта қуришнинг бориши ва асосий йўналишлари, Ўзбекистоннинг суверенитетини ва иқтисодий мустақиллигини – таъминлаш вазифалари.-Т.: «Ўзбекистон», 1990.
6. Самарқанд-2750. Китоб-албом. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2007.
7. Қудратуллаев Ҳ. Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. Тошкент: Шарқ, 2011.



BOBUR MIRZONING HARBIY FAOLIYATINING BA’ZI BIR JIHATLARI

Qodirov Obid Safarovich
Samarqad Davlat Universiteti kafedra mudiri, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya: Bir maqola doirasida mazkur yo‘nalishlarning barchasi emas, alohida olingan bir yoki ikki yo‘nalish bo‘yicha ham batafsil ma’lumotlar berish qiyin. Shuning uchun biz har bir yo‘nalish bo‘yicha batafsil va izchil ma’lumotlar keltirishni maqsad qilib qo‘ymadik. Ushbu maqolada Bobur Mirzoning harbiy faoliyatining ba’zi bir jihatlarini tahlil qilmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: chig‘dovul, zarbzan, zambarak, qo‘shin, askar, jang, hujum, harbiy mahorat, lashkar, navkar**,** harbiy texnika.

Zahiriddin Bobur odamlar ruhiyatini, ayniqsa, o‘z yaqinlari, askarlar psixologiyasini naqadar chuqur bilgani ko‘p jihatdan uning harbiy g‘alabalarini ta’minlagan edi.

Masalan, 1526 yil voqealari tasvirlangan bobda hind rojasi Rano Sango bilan bo‘lgan jang tasviriga katta o‘rin ajratilgan. Rano Sango qo‘shini Bobur qo‘shinidan son jihatidan ancha ustun, yaxshiroq qurollangan edi. Buning ustiga hind qo‘shinida ko‘plab jang fillari bor edi. Bu holat jangdan oldin Bobur askarlarining ruhi tushib ketishiga sabab bo‘ladi. Boburnomada qo‘shinning shu paytdagi ruhiyati quyidagicha tavsiflanadi:

“Ushbu ayyomda o‘tgan vaqoyedin nechukkim mazkur bo‘ldi, uluq-kichikta dag‘dag‘a va taraddud ko‘p edi. Hech kimdin mardona so‘z va dalirona ray eshitilmas edi. Hikoyat deguchi vuzaroning va viloyat teguchi umaroning na so‘zlari mardona edi, na tadbirlari, na o‘zlari sohib himmatona edi” [1. 289 b].

Ruhi bunday tushkun holdagi qo‘shin bilan dushmanga qarshi jang qilib bo‘lmasligi, jang qilinsa ham uni yengib bo‘lmasligini yaxshi tushungan Bobur askarlarning ruhini ko‘tarish yo‘lini izlay boshlaydi va bir tadbir topadi. U butun qo‘shinni to‘plab shunday murojaat qiladi:

“Har kimki hayot majlisig‘a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig‘a kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq.

Tengri taolo bu nav’ saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O‘lgan shahid, o‘lturgan g‘ozi. Barcha tengrining kalomi birla ont ichmak kerakkim, hech kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag‘ay, to badandin joni ayrilmag‘uncha, bu muhoraba va muqotaladin ayrilmag‘ay.”

Boburning bu otashin nutqidan ruhlangan beklar va askarlar qo‘lga mushafni olib g‘alabagacha jang qilishga qasam ichadilar. Bobur qo‘llagan bu tadbir bir tomondan, beklar va askarlarning ruhini ko‘tarib yuborgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning xabari dushman askarlariga yetib borgach ular orasida sarosima va tushkunlik boshlanadi. Bu haqda Boburning o‘zi shunday yozadi: “Tavr tadbire edi, yovuqtin, yiroqtin do‘st, dushman ko‘rgali, eshitgali yaxshi bo‘ldi”.

Qo‘llangan tadbir ko‘p jihatdan Bobur qo‘shini g‘alabasi uchun asos yaratdi. Ikki qo‘shin orasida boshlangan jang juda ayovsiz va beshafqat bo‘ldi. Bu jangda Bobur to‘lg‘ama usulini qo‘lladi. Ba’zi tarixchilar bu usulni tarixda birinchi bo‘lib Bobur qo‘lladi, desalar ham aslida u dastavval Chingizxon tomonidan, keyinchalik Amir Temur tomonidan ham bir necha marta qo‘llangan. Lekin, Bobur jangda bu usulni qo‘llashni juda takomillashtirdi va harbiy san’at darajasiga ko‘tardi. Boburgacha to‘lg‘amani qo‘llagan qo‘shin taktik ustunlikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Bobur bu usuldan faqat taktik maqsadda emas, ruhiy jihatdan ham ustunlikni qo‘lga kiritish uchun mohirona foydalandi. To‘lg‘amani qo‘llash uchun Turdika, Malik Qosim Bobo, Rustam turkman va Nizomiddin Sulton Muhammad baxshi tayin qilinadi. Jang eng qizigan paytda yuqorida ismlari zikr etilgan beklar boshchiligidagi askarlar dushman qo‘shinlarini aylanib o‘tib orqadan hujum qiladi. Dushman sarosimaga tushadi. Shu payt Boburning o‘zi boshqargan g‘ul old tomondan hujum qiladi. Dushman qo‘shinlari orasidagi sarosima yana ham kuchayadi. Endi bu qo‘shinning o‘ng qanot va so‘l qanoti, juvong‘or va burong‘ori aralash-quralash bo‘lib ketadi va uni boshqarishga imkon qolmaydi. Son jihatdan oz bo‘lgan Bobur qo‘shini esa jangni ruhiy ko‘tarinkilik bilan olib borar edi. Bobur yozishicha askarlar “shunday shavq bilan urush qilardilarki, yuqori olam farishtalaridan ularga tahsin nidosi yetardi” [1. 366 b].

Rano Sango bilan jangda Bobur qo‘llagan tadbirlar uning faqat alohida individlar psixologiyasini emas, hozirgi davr tili bilan aytsak, guruhlar, ijtimoiy qatlamlar psixologiyasi yoki sotsial psixologiyani ham chuqur bilganini ko‘rsatadi.

Bu jangdan oldin Bobur qo‘shinining tushkun ruhiyatda bo‘lgani va uni ko‘tarish uchun qanday tadbirlar qo‘llangani yuqorida aytildi. O‘sha tushkunlikka Rano Sangoning miqdor va qurol-yarog‘ jihatidan ancha ustun qo‘shinga ega bo‘lishi sabab edi. Bundan tashqari ba’zi g‘alamislar qo‘shin orasida turli noxush gaplar va mish-mishlar tarqatib askarlar ruhini yana ham tushirishga uringan edilar. O‘shandaylardan

biri Muhammad Sharif degan shaxs bo‘lib u munajjimlik qilardi. U askarlar orasida, hozir Mirrix yulduzi g‘arb tomonda turibdi. Kimki g‘arb tomonda turib urishsa, u mag‘lub bo‘ladi, deb gap tarqatadi. Bobur qo‘shini g‘arbda, Sango qo‘shini esa sharqda joylashgan edi. Munajjimning bu “bashorati” askarlar ruhiga salbiy ta’sir qiladi. Buni zukkolik bilan ilg‘ab olgan Bobur qarshi choralar qo‘llaydi.

Munajjimning gaplari to‘g‘risida “Boburnoma”da shunday deyiladi: “Muhammad Sharif munajjim shumnafas, agarchi manga aytur yorosi yo‘q edi, har kimga yo‘liqsa mubolag‘alar bilan aytur edikim: “Bu ayyomda Mirrix g‘arb saridur, har kim bu tarafdin urushsa mag‘lub bo‘lur”. Mundoq shumnafas nekim surdi, bedil elning ko‘nglini ko‘prak sindurdi. Aning bu parishon so‘zlariga go‘sh qilmay, qilur ishlarimizni tigilmay urush ishida bajid va masof qilmoqqa mustaid bo‘lduk.”[1. 286 b].

Bobur qo‘llagan tadbirlar, askarlar ruhini ko‘tarishga yo‘naltirilgan choralar, uning ulkan harbiy mahorati munajjimning bashoratlarini puchga chiqardi.

Bobur Hindistonga 11,5-12 ming kishilik qo‘shin bilan borgan edi. Hindistonda u olib borgan dastlabki katta janglardan biri Dehli yaqinida Ibrohim Lo‘diy qo‘shini bilan bo‘lgan. Ibrohim Lo‘diy qo‘shinida 100 mingdan ortiq askar, mingdan ortiq jang fili bor edi. Lekin, tarix guvohlik berishicha, har doim ham jangning natijasini askarlarning miqdori, hatto jang fillari ham hal qila olmaydi. Aksincha, g‘alaba taqdiri ko‘proq qo‘shin ruhiyatiga, sarkarda mahoratiga va tadbirkorligiga bog‘liq bo‘ladi. Dehli yaqinidagi jang esa bunga yaqqol misoldir.

Ibrohim Lo‘diy katta iqtisodiy va harbiy qudratga ega edi. Bu haqda Bobur shunday yozadi: “G‘animning hozir cherikini bir lak chenarlar edi. O‘zining va umarosining ming-ikki mingga yovuq fili bor derlar edi. Ikki otasidin qolg‘on xazina xud naqd iligida edi.” [1. 243 b].

Raqibining nafaqat boyligi va qudratli qo‘shinini, balki ruhiyatini ham chuqur tahlil qilgan Bobur uni yengish mumkin, degan xulosaga keladi. Chunki, Ibrohim Lo‘diy tabiatan juda xasis bo‘lib atrofidagilar, lashkarboshilar, askarlar undan norozi edilar. Xasislikdan tashqari Ibrohim Lo‘diy tadbirsiz, shijoatsiz va g‘ayratsiz edi. Buni chuqur ilg‘agan Bobur shunday yozadi: “Tengri taolo rost kelturdi, ne yigitini rozi qila oldi, ne xazinasini ulasha oldi. Qaydin yigitini rizo qila olurkim, tabiatiga imsok ko‘p g‘olib edi... Ne kelishi saranjomliq edi, ne turishi, ne yugurishi ehtilomliq edi, ne urushi” [1. 243 b].

Chuqur harbiy tahlil ruhiy tahlil bilan qo‘shilgach, Bobur Lo‘diyga qarshi jang boshlashga qaror qiladi. Holbuki, uning qo‘shinida barcha askarlar va xizmatchilarni qo‘shib hisoblaganda o‘n ikki ming kishi bor edi. “Navkar va savdar va chokar jami’ cherik bila bo‘lg‘onlar o‘n ikki ming kishi qalamga keldi”[1.248 b].

Shunday qilib Bobur o‘n mingdan ortiqroq askar bilan Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini tor-mor keltirdi, juda ko‘p o‘lja va asirlarni qo‘lga kiritdi, Boburning ismi yoniga buyuk sarkarda sifatini qo‘shish qanchalik to‘g‘ri ekanini shu jang ham tasdiqlaydi.

Bobur o‘z qo‘shinidan 8-10 baravar ortiq bo‘lgan Ibrohim Lo‘diy qo‘shini bilan jang boshlar ekan, to‘lg‘ama usulidan juda ustalik bilan foydalanadi. Qo‘shin jangga hozir bo‘lganda uzoqda Ibrohim Lo‘diyning askarlari ko‘rinadi. Bu holat

“Boburnoma”da quyidagicha ta’riflanadi: “Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim ko‘rundi, hech yerda darang qilmay, tez-o‘q keladur edi. Ilgarrak kela bizning qoramizkim, alarg‘a ko‘rundi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo‘lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung‘idek kela oldi”. [1. 244 b].

Iqtisobdan ko‘rinib turganidek, Bobur qo‘shinining o‘ziga xos saflanishi, jangga shay turishi Lo‘diyga va uning askarlariga qattiq ta’sir qiladi. Ular na turishini, na orqaga yurishini bilmay qoladilar. Jang boshlanmay turib Lo‘diy qo‘shinida vujudga kelgan bu ruhiy sarosimalik jangning boshlanishi va borishiga katta ta’sir qiladi.

Jang uzoqqa cho‘zilmay uning taqdiri peshingacha hal bo‘ldi. “Oftob bir nayza bo‘yi chiqib edikim, urush angizi bo‘ldi. Kun tushgacha zarb urush edi. Kun tush bo‘la a’do mag‘lub va maqhur va ahibbo mubtahij va masrur bo‘ldilar. Tengri taolo fazlu karami bila mundoq dushvor ishni bizga oson qildi va andoq qalin cherikni yarim kunda yer bilan yakson qildi[1. 244 b].

Jahon harbiy tarixida bunday janglar juda kam bo‘lgan. Dushmanga nisbatan bir necha baravar kam qo‘shin bilan jangga kirib, bir necha soat ichida bunday porloq g‘alabaga erishgan sarkardalar harbiy tarix sahifalarida juda kam uchraydi. Hattoki, Iskandar Zulqarnayn ham qo‘shinidan 5-6 baravar ortiq qo‘shinni yenggan, ammo 10-12 baravar ortiq qo‘shin bilan urushmagan ham. Bunday g‘alabaning o‘xshashi na Yuliy Sezar, na Napoleon, na Chingizxon faoliyatida uchramaydi. Bobur Mirzo jangga 11-12 ming kishilik qo‘shin bilan kirib dushmanga bir necha o‘n ming kishilik talofat yetkazadi.

Bu haqda “Boburnoma”da quyidagilarni o‘qiymiz: “Besh-olti ming kishi Ibrohimning yaqinida bir yerda-o‘q qatlg‘a yetibdurlar. O‘zga har yerda o‘lganlarni bu ma’rakada o‘n besh-o‘n olti ming taxmin qilur eduk. So‘ngra Ograga kelganda Hinduston eli taqridin andoq ma’lum bo‘ldikim, qirq-ellik ming kishi bu ma’rakada o‘lgan ekandur.”[1. 245 b].

Bunday porloq g‘alabaning sababi, avvalo, Boburning yuksak harbiy mahoratida. Lekin, harbiy mahorat tarkibiga askarlar va dushman ruhiyatini juda chuqur tushunish ham kirishini unutmaslik kerak. Bobur esa askarlar va raqib ruhiyatini, hozirgi til bilan aytganda, harbiy psixologiyani juda chuqur bilar edi. Uning olib borgan janglari, “Boburnoma”da askarlar, beklar, dushman askarlari ruhiyatining juda nozik, ko‘z ilg‘amas jihatlarini ham tahlil qilishi shundan guvohlik beradi.

Yuqorida aytilganiday, u askarlar psixologiyasini juda yaxshi bilgan. Bundan tashqari, uning o‘zi ham ruhan tetik va barkamol, jisman va axloqan baquvvat edi. Bunga bir necha misollarda ishonch hosil qilish mumkin.

Ruhiy va axloqiy jihatdan uning pok va barkamol ekani shunda ko‘rinadiki, u eng og‘ir sharoitda askarlarga mardlik, chidam va matonat namunasini ko‘rsatardi. Bu esa askarlarda unga hurmat va muhabbat hissini uyg‘otardi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”, T., 1989 y.

2. Bobur. Boburnoma. -T.: “Fan” nashriyoti, 2019 y
3. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. -T.: “Ma’naviyat” nashriyoti 1998 y
4. Erksin.U. Bobur Hindistonda. -T.: “Cho‘lpon” nashriyoti,1995 y
5. Sharma L.P. Boburiylar saltanati. -T.: “Ma’naviyat”nashriyoti, 1998-B-10
6. Satimov G‘. Boburiyzodalar. -T.: “SHARQ”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016-B-16,17.
7. Mirzayev I. Bobur ma’rifati. -T.: “O‘qituvchi”nashriyoti, 1996-B-13.

БОБУРНИНГ ЖАМИЯТГА ОИД ҚАРАШЛАРИ

Содиқова Ш.М.
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
“Дин психологияси ва педагогика”
кафедраси профессори,
социология фанлари доктори

Бобур тахаллуси, тўлиқ исми Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо 1483 йил 14 февралда Андижон шаҳрида таваллуд топиб, 1530 йил 26 декабрда Агра шаҳрида вафот этган.

Бобур маърифатли ҳукмдор шоир, иқтидорли олим, ўта маданиятли шахс, тарихчи, географ, давлат арбоби, истеъдодли саркарда, бобурийлар сулоласи асосчиси, темурий шаҳзода.

Бобурнинг улкан илмий мероси ва ижтимоий-ахлоқий дунёқараши XV асрнинг иккинчи ярми ва XVI асрнинг бошларида Мовароуннаҳр ва Хуросонда тараққий топган илғор ижтимоий-фалсафий ва ахлоқий фикрлар таъсирида шаклланди. Бобур бу маънавий ва маърифий бойликни нафақат чуқур ўзлаштирди, балки уларни жамият тараққиётида қўллади, подшоҳ сифатида ўз амалий фаолиятида фойдаланишга интилди.[1, 3-б]

Бобур дунёқарашининг ғоявий манбаи бўлиб хизмат қилган ижтимоий-ахлоқий фикрлар тараққиётининг умумий томонлари ҳақида тўхталиб, шуни таъкидлаш зарурки, уларда илмга интилиш, ақлни улуғлаш, инсонийлик, руҳий покланиш, ахлоқий камолотга эришув, адолат, ижтимоий юксалиш, барча учун бахт-саодат, дўстлик, биродарлик, комил жамоа ва одил инсонни яратиш каби масалалар илгари сурилади. Улар муҳим илмий, адабий, бадиий, диний асарларнинг мазмунини ташкил этади.

Марказий Осиёнинг буюк мутафаккирлари Форобий, Ибн Сино, Беруний, Жомий, Навоий, Давонийлар ижтимоий-ахлоқий фикрлар тараққиётига катта ҳисса қўшдилар. Улар ўз асарларида адолатсизликни, зулмни, зўравонликни қоралаганлар ва ўзларининг тенглик, адолат, эзгуликка ундовчи фикрлари билан фаровон жамият қуриш йўлларини ишлаб чиққанлар. Ана шундай адолатли жамият ва давлат ўрнатишни орзу қилган юксак ахлоқийлик муаммосини ўртага ташлаган мутафаккир олим ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурдир. Унинг

ижтимоий-ахлоқий қарашларининг марказида доимо фаровон жамият, адолатли давлат, илм-маърифат, инсон тақдири ва камолоти ётади.

Бобир ўзининг “Бобурнома”, “Мубаййин” каби асарларида, шеърларида жамият, инсоннинг жамиятда тутган ўрни, инсон ҳаётининг мазмуни, жамият ва давлат, давлат ва фуқаролар орасидаги муносабатлар ҳақидаги ғояларни баён қилган. Уларни таҳлил қилиш нафақат ўша давр ижтимоий-ахлоқий тафаккур тараққиётида Бобурнинг тутган ўрнини аниқлашда, балки хозирги даврда ушбу жабҳадаги амалий вазифаларни бажаришда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бобир инсонга ижтимоий моҳият сифатида қарайди, уни жамиятдан ташқарида тасаввур қилмайди. У инсонларни ҳаётни севишга, мақсадга эришишга ундайди.

Бобур жамиятни давлатсиз тасаввур қилолмайди. Дин учун шариат аҳкомлари қанчалик зарур бўлса, мамлакат учун давлат шундай зарурдир.

Бобурнинг ислом дини фарзлари, имон рукнлари, шариат аҳкомларига бўлган муносабати унинг “Мубаййин” асарида батафсил баён этилган.[2, 32-б] Ушбу асарни танишиб чиқиш шуни кўрсатадики, Бобур нафақат ислом дини эътиқодий асосларини, фарзларини пухта эгаллаган, шу билан бирга, эътиқодли мусулмон сифатида уларни қандай бажариш шартларини баён қилади. Бобур учун муҳими ушбу масалалар бўйича маълум билимга эга бўлиш эмас, балки уларга амалда риоя қилишдир. Бобурнинг динга бўлган муносабати ҳақида гапирар эканмиз, авваламбор, у исломнинг ақидавий, ҳуқуқий, маърифий, ижтимоий-ахлоқий асосларини чуқур билган ва баён қилиб берган йирик илоҳиётчиси ҳамда фикҳшуноси сифатида намоён бўлса, иккинчи томондан ўзининг мамлакат подшоси сифатидаги фаолиятида ислом фарзларига, шариат аҳкомларига риоя қилувчи, уларни ўз мамлакати фуқароларига ҳам сингдиришга ҳаракат қилган тақводор бир мусулмон сифатида намоён бўлади.

Бобур диний ақидаларни таҳлил қилишда уларга рационалистик нуқтаи назардан ёндошиши, ислом динининг маърифий ва ахлоқий қадриятларига инсоний юксак маънавият ва покликка ундовчи воситалар сифатида қараши, унинг ҳуқуқий таълимотларидан ўз давлатининг ижтимоий-иқтисодий қудратини мустаҳкамлаш учун фойдаланишга ҳаракат қилиши фақат ўша давр учун катта маданий-маънавий аҳамиятга эга бўлиб қолмасдан, балки маълум даражада ҳозирги давр учун ҳам маърифий-тарбиявий аҳамиятга эгадир.

Марказий Осиё халқлари маънавий ҳаёти, ижтимоий-ахлоқий тафаккурида яхшилик ва ёмонлик каби ахлоқ категориялари қадимдан марказий ўринни эгаллаб келган. Бобур яхшилик ва ёмонлик ҳақдаги ғояларини шунчаки бадиий тўқималарда эмас, балки реал ҳаёт билан, ўзи гувоҳи бўлган, иштирок этган, “Бобурнома”да баён қилинган воқеалар билан боғлаган. Унинг ахлоқий қарашларида яхшилик ва ёмонлик муаммоси, уларнинг ўзаро муносабати алоҳида ўрин эгаллайди.[3, 134-б] Инсон ижтимоий ҳаётда яхшилик билан ёмонлик ўртасида кураш бораётганини гувоҳи бўлиб туради. Қарама қаршиликларсиз тараққиётнинг ўзи бўлиши мумкин эмас. Бобур таъкидлайдики, ҳаётда доимо яхшилик билан ёмонлик ёнма-ён яшайди, ёмонлик яхшиликни таъқиб этади, унга жабр етаказади, бу ҳаётий қонуниятдир.

Бобур инсонларни маданиятли, илм-маърифатли бўлишга ундайди, чунки бундай инсонлар кишилар хулқига бефарқ бўлмайдилар. Улар ўзларига яқин кишиларни кузатадилар, улар хулқини ўрганадилар, таҳлил қиладилар, маълум ҳукмга келадилар, яхши фазилатларни ўзларида, оила аъзоларида, яқин кишиларда тарбиялашга, ёмон ҳулқларни йўқ қилишга ҳаракат қиладилар. Бобур қанчалик қийин аҳволга тушмасин, одамлар унга қанчалик ёмонлик қилмасин, у ҳар вақт уларни кечирган, уларга ёмонликни раво кўрмаган. Бобур илм аҳлига қилинган яхшилик, мурувват, ҳимматнинг қимматли эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтади.

Бобур кишиларни яхшилик қилишга чақирар экан, уларни илм-маърифатга, касб-ҳунарни эгаллашга ундайди.Унинг асосий қарашларини одамзод илм билан тирик, илм эса одамзод билан, деган юксак ғоя ташкил этади. Бобур инсон ҳаётида илмнинг беқиёс аҳамиятини таъкидлаш билан бирга, унга интилишга, илм нури билан ўз онгини ёритишга ундайди.[4, 2-б] Унинг фикрича, илмга бепарволик билан эришиб бўлмайди, илмни эгаллашда тиришқоқлик ва мақсад сари интила билиш қобилиятлари бўлиши зарур. Бобурнинг эътиқоди ҳам, ижтимоий-сиёсий фаолияти ҳам яхшилик қилишга асосланади. У реал ҳаёт кишиси бўлиб, ўзининг ахлоқий қарашларида ҳаётнинг фақат гўзал томонларинигина кўриб қолмасдан, балки ундаги жуда кўп салбий томонларнинг ҳам гувоҳи бўлган.

Бобурнинг тож-тахт учун ота-бола, ака-укаларнинг бир бирига қилган ёмонликларини қоралайди. Унинг зулм ҳақидаги фикрларининг эътиборли томони шундаки, инсоннинг танасига нисбатан бериладиган жисмоний зулм билан бирга, унинг қалбига бериладиган маънавий зулм ҳам борлигини айтиб ўтади. Таъкидлашича, қўпол хазил, кишининг иззат нафсига тегиш, қабиҳ сўзлар билан муомала қилиш – маънавий зулмдир. Улар инсон қалбини яралайди. Бобур бунга ўзи ҳам йўл қўйганлигидан афсусланиб, тавба қилганини асарларида баён этади. Бобурнинг фикрича, инсондаги энг ёмон ахлоқий иллатлардан бири яхшиликнинг қадрига етмаслик, нонкўрлик ва кўрнамаклик билан яхшиликка ёмонлик билан жавоб қайтаришдир. Шунингдек, яна энг ёмон ахлоқий иллатлардан бири ўз жонини ғамини еб, ўзининг энг яқин кишиларини ташлаб хиёнат қилиш, манманлик, айниқса, мансабга ғурурланиб бошқаларни менсимаслик, зўравонлик, ўғрилик, қароқчилик ва таъмагирликни қоралайди ва бундайларга нисбатан бешафқат бўлишни тарғиб қилади.[5,1-б]

Бобур жамиятда адолат тантана қилишига ишонади, шунинг учун унинг яхшилик ва ёмонлик тўғрисидаги фикрлари нафақат ўша давр учун, балки ҳозирги даврда ҳам тарбиявий аҳамиятга эга.

Адабиётлар рўйхати

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент, 2012 йил.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубаййин. -Тошкент, 2000 йил.

3. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи У.Уватов. Буюк юрт алломалари. - Тошкент, «O'ZBEKISTON», 2020 йил.
4. Sodikova Sh. The Neighborhood and the Family - The Basis of Educating Perfection. International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131,
5. Volume 9 https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm.

"BOBURNOMA" O'RTA ASRLAR TIBBIY BILIMLARI HAQIDA MA'LUMOT BERUVCHI MANBADIR



Choriyev Sh.Sh.
O'zbekiston Milliy Universiteti, t.f.d. (DSc)

Annotaysiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida o'rta asr tibbiyotiga oid an'analar, dorivor giyohlar, Bobur yashagan davrdagi tabiblar, ularning davolash usullari, jarrohlik bilan shug'illangan "bahshi"lar, qo'shni xalqlar orasidagi tibbiy tajribalarning almashinishi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tabobat, giyohlar, jarrohlik, baxshi, xastalik, tibbiy bilimlar, dori, surgi dori, kukunli dori, xabdori.

Ключевые слова: медицина, лекарственные средства, хирургия, медицина, болезнь, медицинские знания, лекарство, хирургический препарат, порошкообразный препарат, лекарство.

Аннотация: В данной статье в произведении Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнома» рассматриваются традиции средневековой медицины, лекарственные растения, врачи времени Бабура, их методы лечения, «бахши», занимающиеся хирургией, а также проанализирована об обмене медицинским опытом между соседними народами.

Keywords: medicine, herbs, surgery, bakhshi, disease, medical knowledge, medicine, curative medicine, powdered medicine, habdori.

Abstract: This article, in the work of Zakhiriddin Muhammad Babur "Baburnoma", examines the traditions of medieval medicine, medicinal plants, doctors of Babur's time, their methods of treatment, "bakhshi" engaged in surgery, and also analyzes the exchange of medical experience between neighboring peoples.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) o'rta asr sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat va siyosat arbobi, mohir sarkarda ham sanaladi. U keng dunyoqarashi va komil aql-

zakovati bilan Hindistonda ma’rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo‘lsa, “Boburnoma” (Voqoe’) asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. “Boburnoma” o‘zida hozirgi Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston tarixiga oid qimmatli siyosiy, tarixiy, geografik, etnografik ma’lumotlarini saqlashi bilan noyob manbaa hisoblanadi. Muarrix “Boburnoma” asarida o‘z davri uchun xos bo‘lgan mazkur davrda yashagan tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, geosiyosiy jarayonlar, malakatlarning hududiy tabiiy va geografik imkoniyatlari, xalqaro diplomatik munosabatlar haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar beradi. Bobur zamonasining yuksak bilimdoni, o‘tkir qalam sohibi ekanligi uning fiqhshunoslikga oid “Mubayyin”, mumtoz so‘z san’atining asosiy vazni bo‘lmish aruz tizimini tadqiq etib, “Aruz risolasi” ni yozgan nuktadon adabiyotshunos, o‘tmish va zamondosh olim-u adiblar ijodini talabchanlik bilan baholagan nozikta’b munaqqid, arab yozuvini isloh qilib, “Boburiy xat” ni kashf etgan ijodkor, mashhur tariqat piri Xoja Ahror Valiyning “Validiya” risolasini forsiydan she’riy tarjima qilgan mahoratli tarjimon, musiqashunos, bastakor kabi serqirra ijodkor edi

Javoharla’l Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” kitobida: “Bobur dilbar shaxs edi. Uyg‘onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi”, deb yozgan edi[4:125].

“Boburnoma” asarida o‘rta asrlardagi boshqa tabbiy va ilmiy bilimlar qatorida tibbiy bilimlarga oid davolash usullari, dorishunoslikda foydalanilgan giyohlar va ularning xosiyati haqida ma’lumotlar ham uchraydi. Ushbu ma’lumotlardan Bobur yashagan davrda ham an’anaviy tabobat qay tarizda rivojlanganligini ham tasavvur qilish mumkin. Ayrim davolash usullari xatto bugungi tibbiyot rivojiga an’anaviy usullarga vorisiylik asosida yanada takomillashtirish mumkindir. Har qanday ilg‘or bilimlar o‘zida avvalgi yig‘ilgan tajribaga, malakaga vorisiylik asaolarini ham saqlaydi.

“Boburnoma”da tibbiyotda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar va ularning usadigan joylari haqida ham ma’lumot beriladi. Masalan, “ba’zi kitoblarda bitibturlarkim, “**yabruhus-sanam**” bu tog‘lardadur, vale bu mudatta hech eshitilmadi. Bir giyoh eshitildikim, Yettikentning tog‘larida bo‘lur, ul el **“ayiq o‘ti**” derlar, mehrgiyoh xosiyatliq, g‘olibo **meg‘rigiyohdur**, ul el bu ot bila ayturlar“[1:9]. Yettikent bu – Andijondan janubda, Oltoy tizmasidagi tog‘dir. Mehrigiyo bugungi kun tibbiyotida ham muhim ahamiyatga ega giyohdir. U haqida xalq tabobatida ham noyob ma’lumotlar keltiriladi**.** Xususan, bu o‘simlikni bugungi kunda ko‘p adabiyotlarda “jenshen” deb atashadi. Ibn Sino “yabrug‘” deb atagan va uning ildizi odam surati shaklida ekanligi haqida ma’lumotlar mavjud. Adabiyotlarda “mavkumin”, “varofiya” deb ataladi. Uning urg ‘ochisi va erkak hili bo ‘lishi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Urg‘ochisi qoramtir bo‘ladi va erkagi “murshin” deb ataladi va u zafaron rangda boladi [5:312].

“Boburnoma”da davolashda giyohlardan damlamalar, ildizidan tayyorlangan xabdorilar, surgi dorilar berib davolash va hatto ayrim yaralarni jarrohlik amaliyoti bilan, ayrim yaralarni kuydirish yo‘li bilan, hatto yarani ustiga tabiiy tola, jun, ipak kuydirib sepish yo‘li bilan davolanganlik xususida ma’lumotlar uchraydi. Xususan, “Boburnoma”da 1502 yil Bobur Axmad Tanbal bilan yuzma- yuz janglarning birida

qattiq yaralangan. Uning yozishicha, “kichik xonning qoshidin ko‘pib o‘zimning o‘rdumg‘a keldim.Yaramni baqqoli Atika taxshi otliq mo‘g‘il jarrohini yiboribdirlar. Mo‘g‘il eli jarrohini yiboribturlar. Mo‘g‘il eli jarrohni ham “baxshi” der. Jarrohlida bisyor hoziq edi. Kishining mag‘zi chiqsa, doru berur edi ildizdin, har turluk yara bo‘lsa edi, oson muolaja qilur edi. Ba’zi jarohatqa marhamdek doru qo‘yar edi. Ba’zig‘a yegali doru berur edi” [1:113]. Demak, o‘rta asrlarda davolash, jarrohlik ishlari bilan shug‘illanganlarni “baxshi” deb atalganligi haqida ma’lumotlar keltiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida “baxshi” so‘zi ko‘p ma’noda qo‘llanilgan. Ba‘zi lug‘atlarda bu so‘z “kotib” ma’nolarni ham anglatadi [3:42]. Ma’lum bo‘ladiki, Bobur yashagan davrda u yuqoridagidek jarrohlik amaliyotini o‘tkazuvchi tabiblarga ham qo‘llanilgan.

1502 yil Bobur Axmad Tanbal bilan yuzma- yuz janglarning birida qattiq yaralangan. Uning yozishicha, “Mening butumning yarasig‘a buchqoq yoqmoqni buyurdi, fatila qo‘ymadi. Ildizdek nimani ham bir qatla yedurdi. O‘zi der edikim, birovning inchka poychasi sinib, bir tutamcha yeri reza- reza bo‘lib, edi etini yorib, oyoq so‘ngaklarini tamom olib, so‘ngak o‘rnig‘a doruni un qilib soldim. Ul doru so‘ngak o‘rnig‘a so‘ngakdek- o‘q butti. Mundoq ajib va g‘arib nima xeyli dedimkim, viloyat jarrohlari andoq mudovodin ojizadur ” [1:113] . Demak bunday jarrohlik amaliyotini mazkur davrdagi viloyat tabiblari bajara olmasliklarini ham qayd etadi. Ma’lumotdan anglashiladiki, bu jangdan Bobur og‘ir jaraohatni tasvirlaydiki, unda suyak singan sonning et qismini kesib burchoq- jarrohlik pichog‘i (skalpel), tilib suyaqni maydalangan qismini olib, suyak o‘rniga dori un qilib solingan va u suyak kabi to‘g‘ri bitganligini eslatib o‘tadi. Hatto, yaraga yot jinslar tushib, gazak olmaslik uchun “mening butumning yarasiga buchqoq yonmoqni (qizdirib bosishni) buyurdi” deb yozadi. Fotila [kuydirilgan paxta, kigiz] ipakni ham kuydirib bosishgan.

Bobur yashagan davrdagi tibbbiyot haqida to‘la tassavurga ega bo‘lish uchun uning bu xotiralarida kasal bo‘lgan vaqtlarini tahlilini kuzatish kifoya. Ya’ni, “Boburnoma” da Bobur o‘z xasta bo‘lgan davrlarni ham tasvirlaydi va unga buyurilgan muolajalar haqida ham yozib ketadi.

1506 yil voqealarida, Hindiqush tog‘i, zarrin davoni tubi- Hovli Qutiy g‘ori. Bobur Hirotdan qaytishda dovon orqali yurgan. Yo‘lning uzunligi, qor shibbalab yo‘l ochish, shiddatli sovuq sharoitida Bobur terlaydi va dam olgani o‘tiradi. Qor yog‘ayotgan edi. Natijada shamollaydi. Xastalik qadimda “**vaja’l- uzn**“ deb atalgan, o‘rta quloqning o‘tkir yallig‘lanishi[2:536]kabi xastalikni boshidan o‘tkazganligini qayd etadi. Bobur “**guli maxtum**” dorisini qabul qilganligi haida ma’umot beriladi [2:210].

“Boburnoma”ni taxlil qilishga uringan tadqiqotchi, bu davrdagi ayrim kasalliklarni davolashdagi samarasiz urinishlar haqida ham ma’lumotlar oladi. Tibbiy bilimlar doimo izlanishlar talab etganliginiguvohi bo‘ladi. Ya’ni, asarda 1510 yil Kobulda sodir bo‘lgan voqealar bayonida: “Odina kunining yigirma to‘qquzida badanimda istma harorati zohir bo‘ldi. Fasd qildim. Kun osha, gohi ikki kun osha, gohi uch kun osha isitur edim. Har isitqonda g‘arqi araq bo‘lmag‘uncha (terlamaguncha isitma qo‘ymas edi. o‘n-o‘n ikki kundin keyin **Mullo Xojogo mamzuj** chog‘irni nargis bila berdi. Bir-ikki qatla ichdim. Foyda ham qilmadi....”[1:255]. Istmani tushrish uchun

tabib Mullo Xojogo mamzuj chog‘ir- mast qiluvchi ichimlik va nargis dorivor o‘simlik sharbatidan berganligini bu samara bermaganligini qayd etadi**.**

“Chorshanba kuni, oyning uchida jullob ichtim. Shanba kuni, oyning oltisida doruyi kor ichtim” [1:255]. Boburning xos tabibi Yusufiy **“humma savdoyi”** deb tashxis qo‘yadi. Belgisi tomirning qattiq urushi, siydikning qorayishi, a’zolardagi og‘irlik deb, ko‘rsatadi. Bobur bezgak kasalligini yuqtirib olgan edi. Matndagi “jullob”- shakar qiyomdan tayyorlanadgan dori [2:250] ba’zi kasalliklarni davolashda ishlatilgan. “Boburnoma”da zamonasining mashhur tabibi, Boburning xas saroyidagi tabibi bo‘lib faoliyat olib borgan **Yusufiy, Mullo Xojogo mamzuj** kabi tabiblar ko‘p tilga olinadi.

“Boburnoma” da 1519 yil voqealarida Bobur o‘zining qo‘li chiqqandagi amaliyotlarni ham eslatib o‘tadi [1:266]. Qo‘li chikkanida bog‘lam tufayli, tog‘li joylarda biroz ishlarni bajarish mushkul bo‘ganligini, kamonli quroldan erkin foydalana olmay qolganini va u uzoq vaqt og‘riq berganini qaydnomalarida keltiradi. Qo‘l chiqqanda, singanda bog‘lam qilinganligini manbaning bir qancha matnida takrorlaydi.

1529 yil Payagda bo‘lgan voqealar bayonida, “Payagdin ko‘chgan ayyomda vujudimda obila jarohati paydo bo‘lib edi. Bu yurtta bir rumiy Rumda emdi paydo bo‘lg‘on muolajani qildi. Muruchni sofol qozonda qaynatdi, jarohatni aning issiq buxoriga (pariga) tuttim. Buxori kamroq bo‘la issiq suvi bila yudum, ikki soati nujumiyg‘acha darang bo‘lidi.” Tabib, bu kasalni “judariy” deb atagan, chechak kasalligining simptomlariga mos keladi [1:401]. Matndan anglashiladiki, Rum - Usmonlilar davlatiga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, tabibning rumlik ekanligiga va u o‘z vatani Rumda qilinadigan muolajani bajarganligiga ishora bermoqda. Demak, tibbiyotda Bobur davrida ham xalqlar orasida tibbiy bilimlar almashinib turilishiga, xalqaro tajribadan foydalanishga ehtiyoj bo‘lgan va imkon yaratilgan. Bunday tajribalar turli yo‘llar bilan, savdo aloqalar, urushlar tufayli mahalliy aholining tinchlik qaror topgan joylarga ko‘chib o‘tishi, qulay geografik va ijtimoiy muhitli hududlarga xalqlarning kelib joylashuvi, mehnat migratsiyasi hatto urushlar tufayli asir tushgan aholi hisobiga ham kirib kelgan ehtimoli bo‘lishi mumkin.

Yusufiy - (Yusuf binni Muhammad) - temuriylarga xizmat qilgan mashhur tabib. Hirotda “Ilojul- amroz” (“Kasalliklarning tuzilishi”), “Jomiul-favo’id” (Foydalar ja’mi) hamda “Ruboiyoti Yusufiy” (Yusufiyning ruboyilari) asarlarini yozgan. Bobur Hindiston saltanatini qo‘lga kiritgach, Hirotdan uning huzuriga borgan. Yusufiy Hindistonda Boburga bag‘ishlab “Qasida fi hifzi sihat” (Salomatlikni saqlash haqida qasida., 1530) va Humoyunga bag‘ishlab, sodda va murakkab dorilar haqida “Riyozul-adviya” (“Davolar bog‘i”, 1539 y.) kitoblarini yozgan [3:592].

Xullas, “Boburnoma”ni o‘qir ekansiz, mazkur davrda tibbiyotda ilg‘or yutuqlar bilan birga “chechak” singari ayrim epidemik yuqumli kasalliklardan aholi ko‘p aziyat ko‘rganliklarini anglash mumkin. Muallif manbada o‘zining ko‘p farzandlari va yaqinlari ushbu kasallikdan vafot etganligi haqida ma’lumot bergan. Bobur davrida ham tibbiyotda tabiat nematlaridan chashma suvlaridan, balqichdan, toshlardan, ayrim o‘simliklar sharbatlaridan, qaynatma va bug‘laridan, kukunlaridan, ildizlaridan xalq

tabobatida foydalanganlar. Dorivor giyohlar guli, ildizi, poyasidan ichadigan suyuq damlamalar, suradigan, xabdori, sepadigan dorilar tayyorlangan. “Boburnaoma”da ayrim jarrohlik amaliyoti haqidagi mahalliy tajriba va malaka xususida ilmiy bilimlar haqida ham yozib qoldirilgan. “Boburnoma”da tibobat sohasida Bobur hayoti davomida bosib o‘tgan tarixiy geografik hududlar orasidagi tibbiy bilimlar haqida ma’lumotlar keltirialadi, bu esa qo‘shni xalqlar bilan tibbiy tajribalar almashinuvi to‘g‘risida ma’lum tasavvurlar beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Zahiriddin Muhmmad Bobur. Boburnoma. (Vaqoe’) / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Xasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019.
2. Navoyi asarlari uchun qisqacha lug ‘at. – T. Fan. 1993. – 374b.
3. Zahiriddin Muhammmad Bobur ensiklopediyasi. “Sharq”-T. 2014. – B. 536.
4. Ochilov E. Zahiriddin Muhmmad Bobur.- T. “ O‘zbekiston”. 2015.- 131b.
5. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari 3 jildlik. – Toshkent, 1992. – 312 b.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” АСАРИДА ТАБИАТШУНОСЛИК ИЛМИГА ОИД ҚАРАШЛАР.

Худойқулов Йўлчи Азамқулович
Жамоат хавфсизлиги университети доценти, ф.ф.н.
Мирзалиев Нурсултон Абдулманаб ўғли
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
Ўқ отиш кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. В данной статье дан анализ философских и естественнонаучных воззрений Захириддина Мухаммада Бабура в труде «Бабурнома» с привлечением сведений, относящихся к географии, ботанике, зоологии, этнографии, военному делу.

Annotation. This article analyzes the philosophical and natural science views of Zahiriddin Muhammad Babur in the work "Baburnoma" with the involvement of information related to geography, botany, zoology, ethnography, and military affairs.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодининг серқирралиги энг аввало унинг фалсафий-мемуар асари “Бобурнома” ўз аксини топади. Ушбу асарнинг серқирралиги шундан иборатки, у фақат тарихий асар эмас, балки ўзида ўша даврдаги бир қатор фанлар(география, ботаник, зоология, этнография, ҳарбий фан) нинг илмий ютуқлари ҳам ўз ифодасини топган. Бобур тоғ ва даралар, кўл ва дарёлар, хилма-хил ўсимликлар ва ҳайвонлар, турли ҳудуд ва минтақаларнинг ер ости ва ер усти бойликлари, у ерларда яшайдиган халқларнинг урф-одати ва тили,

адабиёти ва санъати, айрим сўзларнинг келиб чиқиши каби масалалар билан астойдил қизиқади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фалсафий ва табиий-илмий қарашлари унинг фалсафий-мемуар асари ҳисобланган “Бобурнома”да ўз аксини топган. Мазкур асарда Бобурнинг табиатшунослик илми ёки натурфалсафий қарашларини учратиш мумкин. Бобурнинг табиатшунос олим сифатида ўзи яшаган Мовароуннаҳр, Ҳуросон ва Ҳиндистон иқлимининг наботот олами, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёси ҳақида батафсил маълумот бериб ўтади. Ўша давр учун бу каби маълумотлар ғоят қимматли аҳамиятга эга бўлган.

“Бобурнома”да хилма-хил маълумотлар шу даражада кўп учрайдики, илм-фаннинг деярли деярли барча соҳаларидаги мутахассислар бу асардан баҳрамад бўла олади. Бу далилларнинг ҳаққонийлиги туфайли тарихчи ўша даврдаги Ўрта Осиё, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихига тегишли муҳим маълумотларга эга бўлса, табиатшунос мазкур ўлкаларнинг топографияси оид маълумотларга, ҳайвонот олами билан шуғулланувчилар эса шу мамлакатлардаги ҳайвонот оламига таалуқли билим ва тасаввурларга эга бўлади; ўсимликшунос шу ҳудудларнинг ўсимликлар дунёси билан танишади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг табиатшунослик ҳақидаги тадқиқотларини алоҳида ўрганган олимлардан бири немис шаршуноси Ингеборг Ҳауеншилд ҳисобланиб, у “Бобурнома”ни ўрганган ҳолда алоҳида рисола[Hauenschild, I. Botanica und Zoologica im Babur-name. Eine lexikologische und kulturhistorische Untersuchung/Turkologica. Herausgegeben von Lars Johanson. Band 66. Harrassowits Verlag – Wiesbaden. 2006.144 s.] ёзган[1;-Б.171]. Мазкур рисола муқаддима, ўсимлик ва мева номлари, ҳайвонлар номлари, қисқартмалар ва адабиётлар рўйҳатидан иборат.

Кириш қисмида Бобурнинг Мовароуннаҳр, Афғонистон ва Ҳиндистонда наботот ва ҳайвонот олами ҳақида маълумотлар тўғрисида фикр юритилади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Фарғона вилояти ҳудуди ва табиати ҳақида қуйидаги маълумотларни бериб ўтади: “Фарғона вилояти бешинчи иқлимдадир. Шарқи Қошғар, ғарби Самарқанд, жануби Бадаҳшоннинг чегараси - тоғлар, шимолда илгарилар Олмолиқ, Олмоту ва Янги сингари шаҳарлар бўлган экан, уни китобларда Ўтрор деб ёзадилар, мўғул ва ўзбеклар юришлари туфайли туфайли ҳозирги пайтда бузилиб кетган, асло ободонлик нишонаси қолмаган.

Кичик вилоятдир, ғалла ва меваси фаровон. Теварак-атрофи тоғлар билан ўралган”[2;-Б.57]. Албатта, бир неча аср олдин берилган бу илмий маълумотлар ўз навбатида “Бобурнома”ни ўқиган кишида Фарғона вилояти тўғрисида табиий-илмий манзарасини тасаввур эта олади.

Шунингдек, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Самарқандга алоҳида тўҳталиб ўтади: “Ер юзининг аҳоли яшайдиган қисмида Самарқандча латиф шаҳар камроқдир. Бешинчи иқлимдандир. Узунлиги 99 рамзи нужумий даража (градус), 56 дақиқа, эни 40 даража(градус) ва дақиқадир. Шаҳри – Самарқанд, вилоятини Мовароуннаҳр дейдилар” [2;-Б.104].

Бобур Самарқанднинг географик жойлашуви ва иқлими ҳақида қуйидагиларни келтириб ўтади: “Самарқанд маъмура (ободонлик)нинг чеккараоғида бунёд топган бўлиб, шарқи Фарғона ва Қошғар, ғарби Бухоро ва Хоразм, шимоли Тошканд ва Шохрухияки, Шош ва Банокат деб ёзадилар, жануби Балх ва Термиз. Кўҳак(Зарафшон дарёси) шимолидан оқади, у Самарқанддан икки курўҳ келади” [2;-Б.105]. Албатта, бу маълумотлар бир неча аср олдин Бобур томонидан Самарқандга берилган

Ҳусусан, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Афғонистонинг бир қатор вилоятлари ҳақида маълумот берганда Қобулнинг табиатига алоҳида тўҳталади: “Ёзлар Кобулда шимолий ели кам эсадур. Аркта шимол сари даричалик уйлар ҳушҳаводур... Бисёр латиф ҳавоси бор. Кобул ҳавосидек ҳаволиқ ер оламда маълум эмаским бўлғай. Ёзларда кечалари пўстинсиз ётиб бўлмас. Қишлар агарчи қори аксар улуғ тушар, вале муфрит совуғи йўқтур. Самарқанд ва Табриз ҳам ҳушҳаволиққа машҳурдур, вале муфрит совуқлари бордур(“Б.”,130а)” [1;-Б.291].

Шунингдек, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистон табиати ҳақида ҳам маълумотларни бериб ўтади: “Ҳиндистон биринчи, иккинчи ва учинчи иқлимда жойлашгандир. У тўртинчи иқлимга кирмайди. Жуда ажойиб мамлакатдир. Бизнинг ерларга солиштирганда мутлақо ўзга бир олам. Тоғ ва дарёлари, ўрмон ва саҳролари, шаҳар ва вилоятлари, ҳайвон ва ўсимликлари, одамлари ва тили, ёмғири ва шамоли – ҳаммаси бошқача, бизникига ўҳшамайди” [2;-Б.378]. Албатта, Ҳиндистоннинг иқлими ва табиатини Мовароуннаҳр иқлимидан фарқ қилишини Бобур бир неча таъкидлаб ўтсада, унинг ҳайвонот ва ўсимликлар дунёсининг нақадар ранг-баранг эканлигини тилга олади.

Бобур Ҳиндистоннинг ҳайвонот дунёсини вуҳуш – қуруқликда яшовчи ҳайвонлар, туйур – қушлар ва сув ҳайвонлари гуруҳларига ажратгани таъкидланади[1;-Б.171]. Бобурнинг бу фикрлари бугунги кунда фан сифатида мавжуд бўлган зоология фани учун манбаа бўлиб ҳизмат қилиши мумкин.

Шунингдек, Заҳириддин Муҳаммад Бобур табиатшунос олим сифатида Қуёш ва Ой тутилиши каби табиат ҳодисаларини ҳам кузатган. Бобур 1527-1828 йй. ҳар икки ҳодисани ҳам кузатган: Мен кема била-ўқ билтурғи Чавса тўғрисидаги офтоб тутулғон ва рўза (рамазон ойи) тутулғон юртни сайр қилдим”(“Б.”,365а) [1;-Б.621].

Хулоса сифатида Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижоди кенг қамровли бўлиб, айниқса, унинг фалсафий-мемуар асари ҳисобланган “Бобурнома” асари табиий-илмий қарашлар манбаи ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. –Тошкент. “Шарқ”. 2014. 744 б.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent “NMIU”, 2018. 528 b.

“BOBURNOMA” ASARIDA TOPONIMLAR BAYONI VA TARIXIY SHAXSLAR TAVSIFI



Sattorov Asrorjon Akramjonovich
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, siyosiy
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD**)**

Annatatsiya: Ushbu maqolada muhum tarixiy manba bo‘lgan “Boburnoma” asarining tarixni o‘rganishdagi manbaviy ahamiyati, asardagi joy nomlari – toponimlarning sharhi va temuriylar, Bobur hazratlari bilan aloqalar o‘rnatgan, u bilan kurash olib brogan tarixiy shaxslarning bayoni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Voqeoti Boburiy”, “Vaqoe”, amirzodalar, toponimlar, temuriy mahalliy hokimlar, ar Roshidoniy, memuar asar, temuriy shaxzodalar.

Resume: This article covers the source significance of the “Boburnoma”, an important historical resource, in the study of history, a review of place names in the work and description of Timurid leaders, historical figures.

Keywords: “Story of Baburiy”, “Vaqoe”, amirzadas, worshipers, timuriy governors, ar Rashidani, Timurid kings.

Buyuk ijodkor shoh va shoir Zahiriddiy Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘z shaxsiyati, temuriylar saltanatining XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi siyosiy ijtimoiy holati, Movarounnaxr diyorida shu paytda mavjud siyosiy vaziyat, temuriy shaxzodalar o‘rtasida boshlanib ketgan saltanat taxti uchun kurash jarayonlari, Dashti Qipchoq hududidan O‘rta Osiyo hududlariga bostirib kirgan bosqinchi xalqlar hayoti, Muhammad Shayboniyxonning harbiy siyosati va ushbu hududda hukmronligini o‘rnatish jarayonlarini haqqoniy yoritishdagi eng muhim birlamchi manba sanaladi. Buyuk podsho, ulkan imperiya asoschisi Bobur Mirzoning o‘zi haqida va uning mintaqamizda markazlashgan saltanat bunyod etishdagi harakatlarini xolis va odilona yoritishdagi muhim tarix asar hisoblanadi.

Bobur Mirzoning bugungi kungacha she’riy devoni, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin”, “Risolayi volidiya” kabi ilimi va badiy asarlari bizgacha yetib kelgan. Ushbu asarlar XV asr oxiri - XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tarixi jug‘ofiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarning kasb-kori, tili, hayot tarsi va boshqa xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan manbalar hisoblanadi[1.12 b].

Ushbu nodir manba xususida fikr yuritar ekanmiz, beihtiyor Bobur dahosini, uning nozik did sohibi ekanligini, Bobur shaxsiyatiga xos ma’lumotlarni olishimiz mumkin. “Boburnoma” asari o‘zbek tiliga o‘girilib xalqimiz qo‘liga yetib borishi bilan ko‘plab tarixiy haqaqatlar ham yuzaga chiqdi.

Asarda muallif bir qator buyuk shaxslar, mintaqada yashab o‘tgan allomalar hususida ham fikrlar keltirib o‘tiladi. Xususan, XII asr Qoraxoniylar davlatida ijod etib, O‘rta Osiyoda fiqh ilmining taraqqiyotiga yuksak xissa qo‘shgan buyuk alloma haqida u tavallud topgan aziz diyor ilm-ziyo maskani sanalgan Rishton kentini ham tilga olib o‘tadi. “Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichiga mag‘iz solib quruturlar, “subhoniy” derlar, bisyor lazizdur. Ov qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta topilur. Eli sorttur va mushtzan va pursharu sho‘r eldur. Jangaraliq rasmi Movarounnahrda shoyi’dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg‘inoniydur. Sohibi “Hidoya” Marg‘inonning Rushdon otliq kentidandir[2. 35 b]” deb keltiradi Bobur Mirzo.

Muallif Sohibi “Hidoya” deganda buyuk faqih, qimmatli “Hidoya” asarining muallifi 1123-yilda Farg‘ona viloyatining Rishton shahrida tavallud topgan Burhoniddin Marg‘inoniy ar-Roshidoniy nazarda tutilgan. Buyuk huqushunos olimning ilmiy ishlarini o‘rganar ekansiz, Markaziy Osiyo ko‘plab islomiy ilmlar beshigi va taraqqiyotining markazi bo‘lganligiga guvoh bo‘lasiz. Shu o‘rinda buyuk allomaning tug‘ilgan va unib o‘sgan yurti sifatida ba’zi manbalarda Samarqand shahri hududi ekanligi haqidagi ma’lumotlarga ham duch kelish mumkin. Xususan, Abu Tohirxo‘ja Samariyning “Tarixi Samariya” asarida Sohibi “Hidoya” ya’ni Burhoniddin Marg‘inoniy 1123-yil Samarqand shahrida tavallud topganligi va shu yerda vafot topganligi haqida yoziladi. Buyuk shaxsning ismi kuniyasiga qo‘shilib kelinayotgan Marg‘inoniy, ba’zi manbalarda Roshidoniy nisbalariga e’tibor qaratsak aynan alloma Rishton shahrida, Bobur Mirzo ta’kidlaganidek alloma Rishdon kentidan ekanligini bilishimiz mumkin. Shu jihatdan ham, tariximizni mukammal o‘rganishda ushbu memuar asar benihoya muhum o‘ringa ega.

“Boburnoma” asari yozilgan vaqtlarni yoritib beruvchi yana bir qator asarlar ham mavjud. Ushbu asarlar tarkibiga Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Fazlulloh ibn Ro‘zbexonning “Mehmonnomai Buxoro” asarlarini keltirishimiz mumkin. Bu asarlar asosan Shayboniyxon va Buxoro xonligi tarixini, ma’muriy siyosiy boshqaruvini, aholisining hayotini yoritadi xolos. Bobur Mirzo va uning harbiy san’ati, saltanat tuzushdagi harakatlari xususida ma’lumotlar juda kam uchraydi. Ushbu davrning haqqoniy tarixini shubxasiz “Boburnoma” asari ochib bera oladi. Shu jihatdan ham bu asar nodir manba hisoblanadi.

“Boburnoma“ asarining temuriylar shajarasini o‘rganishda ham muhum manbaviy ahamiyati mavjud. Ushbu manabaning ahamiyatini yanada chuqurroq anglash uchun bu borada keng qamrovli tadqiqotlar qilish talab etiladi. Bu esa o‘z navbatida vatanimiz tarixida yorqin iz qoldirgan sulola vakillarining siyosiy hokimiyat maydonida tutgan o‘rni, saltanat ravnaqi va tanazzulining sabab-mohiyatini yanada haqqoniy ochib berish imkoniyatini beradi. Temuriylar tarixi barcha davrlarda jahon muarrixlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sharqshunos olim V.V.Bartold ta’kidlaganidek, “Temur va uning avlodlari davri tadqiqotchisi ma’lumotlarning kamligidan emas, ko‘pligidan qiynaladi. Chunki ular ko‘plab kutubxonalarga sochilib ketgan, ular avvalo tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqishni va nashr etishni taqozo etadi…”. Biz mavjud

tarixiy manbalar va tadqiqotlar qadr-qimmatini holis baholagan holda, “Boburnoma“ asarining temuriylar shajarasini o‘rganishdagi manbaviy ahamiyatiga ham bir qadar e’tibor qaratamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma“ asari tarixiy – adabiy manba sifatida yana shunisi bilan e’zozliki, asarda ko‘plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san’at ahllari, din ahllari, shoh va shahzodalar, beklar, amiru umarolar haqida ma’lumot beriladi. Tarixchi olim Hamidjon Hasanovning yozishicha, “Boburnoma“da mingdan ziyod joy nomlari berilgan.

R.Rasulov asarida keltirilishicha “Boburnoma”da mingdan ortiq geografik nomlar va 1800 dan ortiq kishining ismlari uchraydi. T.Nafasov aniq raqmlarni keltirib, “Boburnoma“da 1406 ta kishining ismi, 1100 dan ortiq joy nomlari qayd etilganligini yozadi. Ko‘rinib turubdiki, “Boburnoma“dagi joy nomlari va kishi ismlarining qanchaligi xususida mutaxasislarning fikri bir – biridan jiddiy farq qiladi. Yuqorida keltirilgan taxminiy raqamlardan qanchasi Movarounnahrga oidligi haqida tadqiqotlarda hech qanday ma’lumot keltirilmagan. Shu bois, quyida bu masalalarga oydinlik kiritishga harakat qildik.

“Boburnoma“da hammasi bo‘lib 1540 nafar shaxsning nomlari tilga olingan. Shundan 357 nafarini movarounnahrlik tarixiy shaxslar tashkil qiladi. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslardir[1.9 b].

Movarounnaxrlik 357 nafar tarixiy shaxslar turli toifa kishilaridan iborat. Jumladan, 5 nafari amir va amirzodalar; 20 nafari shoh va shahzodalar; 42 nafari malika va shoh qizlar; 52 nafari umarolar, qo‘shin boshliqlari va beklar; 21 nafari din va tasavvuf egalari; 30 nafari ilm-fan va adabiyot ahllari; 187 nafari turli xos kishilar – askarlar, dehqonlar, san’at ahllari, hunarmandlar, qullar, yog‘iylarning nomlari tilga olingan va sharxlab berilgan. Shu boisdan ham Boburning memuarida Temur – “shoh“ sifatida talqin etilmaydi. Biz ham tarixiy dalilga asoslanib, Temurni “amir“ uning o‘g‘illarini “amirzodalar“ sifatida alohida guruhga ajratdik. Shu o‘rinda, keyinchalik Temurning vorislari – uning to’rt o’g’li hukmdor farzandi sifatida “shoh“ darajasiga erishganligini ham qayd etib o‘tish joiz[1.10 b].

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma“ asarida movarounnahrlik 25 nafar amir va amirzodalar nomi, ular haqida ma’lumotlar keltirilganini kuzatamiz. Movarounnahrlik hukmdorlar to‘g‘risida ma’lumotni muallif, dastavval, otasi Umarshayx mirzo haqida beradi. Shu o‘rinda, Boburning hukmdorlar hayoti va faoliyatini tasvirlashda o‘ziga xos usul ishlab chiqqanini aytish lozim bo‘ladi. Birinchidan u hukmdorlarning nomini tilga olib, “Valodat va nasabi“, “Shakl va shamoyili“, “Axloq va atvori“, “Masov va urushlari“, “Viloyati“, “Avlodi“, “Xavotun va asrori“, “Umarisi“ kabi sarlovhalar ostida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tartib bilan bayon qiladi. Bobur bu yirik asarida Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Boysung’ur mirzo, hamda Sulton Husayn mirzo haqidagi ma’lumotlarni bayon qilishda yuqorida sanab o‘tilgan tartibga asoslanadi.



“Boburnoma” asarining qo‘lyozma nusxalari

Muallif Umarshayx Mirzoning “valodat va nasabi“ to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, quyudagilarni yozadi: “Sakkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid Mirzoning to‘rtinchi o‘g‘li edi. Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzodin kichik edi. Sulton Abusaid Mirzo Sulton Muhammad Mirzoning o‘g‘li edi. Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Mirzoning o‘g‘li edi. Mironshoh Mirzo Temurbekning uchunchi o‘g‘li edi[2.123 b] degan ma’lumotlarni keltiradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, qadimdan musulmon xalqlarida yetti ajdodni, ya’ni “haft pusht”ni aniq bilish keyingi avlodlarga urf bo‘lgan. Bobur shu an’anaga muvofiq bir qator tarixiy shaxslar haqida to‘xtalib o‘tar ekan, ularning o‘tgan yetti ajdodi haqida, nasabi to‘g‘risida aniq geneologik ma’lumot berishga harakat qiladi.

Umarshayx Mirzoning “xavotun va sarori“ bayonida o‘z onasi Qutlig‘ Nigorxonim haqida fikr yuritar ekan, bobosi Yunusxonning ikkinchi o‘g‘li Chingizxonning naslindindur”, deb uning yetti pushtini birma-bir sanab o‘tadi, ya’ni “Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali o‘g‘lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojagon ibn To‘g‘luq Temurxon ibn Esan Bug‘axon ibn Duvaxon Baroqon ibn Yesun Tuva ibn Mutagon ibn Chig‘atoyxon ibn Chingizxon“ deb keltiriladi [2.128].

Muallif Sulton Ahmad Mirzo haqida yozar ekan, uning harakteridagi ayrim juziy nuqsonlarni ham bayon etadi.

Muallif har bir hukmdor haqidagi mulohazalarni berishda voqealarga aniq yondashadi. Ayniqsa, uning hukmdorlarning “Masof va urushlari“ zikrida bayon qilgan voqealarni yozishda yuksak xotira egasi va o‘tkir tarixchi ekanligini bilib olish qiyin emas. Chunonchi, Sulton Husayn Mirzoning masof va urushlari to‘g‘risida gapirib, “qozoqliqlarida bir martaba Gurgon suyini o‘zdurib kechib, bir pora o‘zbakni yaxshi bosdi. Yani bir qatla Sulton Abusaid Mirzo Muhammad Ali baxshi boshlia uch ming kishini ilg‘or yiborib edi. Sulton Husayn Mirzo oltmish yigit bila kelib, tegib zarbi rost bosti. Sulton Husayn Mirzoning bir yaxshi ishi va namoyon ishi budur” deb uning o‘nlab kurashlari haqida ma’lumot beradi.

Bobur Mirzo yirik “Boburnoma” asarini ijod qilish bilan birga, mohir tarjimon ham edi. Bobur forsiyda bitilgan bir necha asarlarni o‘zbek tiliga mohirlik bilan tarjima ham qildi.

Bobur Mirzo buyuk podshoh, dilbar shaxs, sohib devon shoir, “Boburnoma” ijodkori, yirik nazariyotchi olim, adabiyotshunos kabi fazilatlar sohibi bo‘lishi bilan birga yetuk tarjimon ham edi. U Xoja Ahror Valiyning pandnoma, nasihatnoma asari – “Volidiya”ni betakror tarzda nazmda 243 baytda tarjima qildi. Ma’lumki, “Volidiya” risolasi Xoja Ahrorning volidi – otasi Xoja Mahmud xohishi bilan yozilganligi va muxtasar – ixcham bo‘lganligi sababli “Volidiya” (otaga bag‘ishlangan) nomi bilan atalgan. Bu asarda axloq-odob, insonning o‘zini tanishi, faqru-fano masalalaridan so‘z yuritilgan bo‘lib, o‘z zamonida eng ko‘p o‘qiladigan asarlardan bo‘lgan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida yozishicha, u Abdurahmon Jomiy huzurida ko‘pgina boshqa kitoblar qatori bu risolani ham o‘qiganini ta’kidlaydi: “Yana hazrati Xoja Ubaydullohning otalari ishorati bila bitilgan risolalaridur, ham faqr ham fano tariqidakim, oz o‘g‘ulga bu davlat muyassar bo‘lub erkinkim, ota amri bila bu nav’ shoyista xizmat qilmish bo‘lg‘ay”.

Bobur Mirzo 1528-yilda bu nasriy asarni o’zbek tiliga manzuma tarzida o‘giradi. Asarning bugunga qadar 5 ta qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ular to‘g‘risida F.Ko‘prulu, S.Hasanov, H.Qudratullayev, Yu.Bilol, T.Seyhan, Sh.Yorqin, H.Hasanov kabi olimlar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Asar borasida afg‘onistonlik olima Sh.Yorqin shunday yozadi: “Temuriylar va O‘rta Osiyo so’fiylarining pir va murshidi Xoja Ahrorning “Volidiya” nomli nasriy risolasini Bobur she’riy tarzda o‘zbek tiliga o‘girdi. Bu risolaning mavzui inson zohiri va botinini pokiza qilmoqdan iborat bo’lib, Abul Fazl Allomiy uni “ma’rifat dengizining durdonasi” − deb biladi”[1.12 b]. Shuning uchun ham Bobur tomonidan garchand asar she’rga solingan bo‘lsa-da, matnda asosiy diqqat shoirona sehrsozlik emas, balki Xoja nasihatlarini kitobxonga aniq yetkazishga qaratiladi.

Zahiriddin Boburning ilg‘or fikr egalari faoliyatida ham muhum o‘ringa ega bo‘ldi va o‘z tadqiqotlarida Bobur merosidan chuquqr foydalandi. Xususan “Boburnoma” asarini ingliz tiliga o‘girishga erishgan va chop ettirgan ingliz yozuvchisi Uilyam Erskin “Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi” deb bejiz ta’kidlamagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sattorov A.A. Boburnoma – muhum tarixiy manba. Risola. – T.: HTI. 2020.
2. Бобур З.М. Бобурнома. – Т. Шарқ. 2002.

“BOBURNOMA” ASARI ILMIY ME’ROSINING TARIXIY MANBASHUNOSLIK JIHATDAN DOLZARBLIGI

Botirova Sevara Mamurovna
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Gumanitar fanlar kafedrasi
mudiri, p.f.b.f.d.(PhD)

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining siyosiy-ijtimoiy jarayonlariga kuchli ta’sir o‘tkazgan, ziddiyatli hayot yo‘liga ega bo‘lgan, matonati va ko‘p jabhalarda o‘zining faoliyati bilan insoniyat tarixida iz qoldirgan shaxs sifatida qadrlanadi. Boburning ilmiy-badiiy izlanishlarining natijasi o‘laroq ko‘plab sohalarda avlodlarga qoldirgan ilmiy me’rosi nafaqat yurtimizda, balki jahon mamlakatlarida ham ilmiy tadqiqotlarning mavzusiga aylangan va qiziqish bilan o‘rganilib kelinmoqda. Faylasuf Qiyomiddin Nazarov, “Bobur ilm-fan, san’atga katta qiziqish bilan qaragan, yuksak aql egasi, qomusiy bilimga ega bo‘lgan davlat arbobi, olim va shoirdir.” - deb ta’kidlaydi. [1] Bobur yoshligidan ilmga qiziqqan va zamon talablariga ko‘ra zaruriy bilimlarni o‘zlashtirgan inson bo‘lgani uchun ham ko‘plab fanlar bilan shug‘ullangan edi. Uning ilmiy-ma’rifiy me’rosi tarix, badiiy adabiyot, manbashunoslik, xattotlik, harbiy san’at, ilohiyot, geografiya, etnologiya singari turli-tuman ilm-fan sohalari uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Uning “Boburnoma” memorial asari tarixga doir muhim manba bo‘lib, hayotining asosiy qismi davomida Afg‘oniston, Hindiston, Pokiston, Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvi bilan mashg‘ul bo‘lgan hukmdorning o‘z davri muhim tarixiy voqealarini qayd etib borishi va ularga munosabati bilan kitob mutolaa qiluvchilarga tarixiy jarayonlarni tushuntirib beradi. Asar muallif tomonidan turli nomlar bilan atalgan va ba’zan uni “Tavorixi Boburiy” nomi bilan ham uchratamiz. Bu nom “Bobur tarixi” ma’nosini anglatadi. Chindan ham ushbu asar tarixiy ma’lumotlarga boy va o‘ziga hosligi bilan o‘z davrida ham, bugungi kunda ham tarixchilar orasida o‘rganib kelinadi. Bobur mavjud ma’lumotlarni davrlashtirishda oqilona yondashib, 1494-1504 yillardagi Movarounnaxrda hukmronligini alohida, Afg‘onistonning katta qismini nazorat qilgan 1504-1526 yillar tarixini alohida va Hindistonni idora qilgan 1526-1529 yillarni alohida ajratib tizimli tarzda voqealarni yoritadi.

Boburning o‘zi ham turli xalqlarning tarixini o‘rganish ularning bugungi kunda qanday qudratga va darajaga ega bo‘lishlarini belgilovchi omil ekanligiga to‘g‘ri baho bera olgan edi. Shayboniyxon bilan kurashlarda mag‘lubiyatga uchragan Bobur o‘z davrining qo‘shin jihatdan takomillashgan armiyasini tuzishga muvaffaq bo‘ladi va o‘z qo‘shinidan bir necha o‘n barobar ulkan qo‘shinga ega Dehli Sultonligiga qaqshatqich zarba bera oladi. Bu uning har qanday qiyinchiliklardan chiqishda sabot bilan intilishi va boshqalarning zaif va ustunlik jihatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lganini bildiradi. Bunday xususiyat unda uning ajdodi Sohibqiron Temurning harbiy taktikalari va siyosiy faoliyatida qanday qaror qabul qilishi borasidagi o‘ziga yetib kelgan tarixiy ma’lumotlarni sinchiklab o‘rganganini ko‘rsatadi. Uning “Xotiralari” askarlarning qo‘pol yurishlari va qarshi yurishlari yilnomasi emas... ularda Sharq adabiyotida yaxshi o‘qilgan, yaqin va qiziquvchan kuzatuvchi, tez idrok etuvchi, zukko hakamning shaxsiy taassurotlari va o‘tkir mulohazalari jamlangan. [2] Boburda o‘zgalarning va o‘zining yo‘l qo‘ygan xatolaridan xulosa chiqara olish va tarix xulosalaridan unumli foydalanish hislatlari bo‘lganidan yetuk tarixchi bo‘lib shakllanib borgan edi.

Boburning tarixiy voqealarni bayonlashtirishida o‘zigacha bo‘lgan ko‘plab tarixnavislarda uchrayvermaydigan jihatlarni sezish mumkin. Boburnomada har bir geografik hudud o‘zining faqatgina tarixiy jarayonlari bilangina emas, umumiy manzarasi tasvirlanishi bilan birga ayrim masalarda ma’lumotlar yozishda o‘ta mufassal tasvirlashlar uchraydi. Bir hududni ta’riflar ekan, uning diqqatga sazovor joylari, iqlimi, aholisi tarkibi, unda yashaydigan xalqning kundalik mashg‘ulotlari haqida yozishga odatlangan edi. Buning ahamiyatli jihati, har bir tadqiqotchi Boburnomadan foydalanib, ta’rifi keltirilgan xususiyatlarni o‘z davri muhitiga solishtirib, muhim o‘zgarishlarni anglay oladi. Bobur davri va zamonaviy davrda bo‘lgan o‘zgarishlarni tahlil qila oladi. Misol tariqasida Bobur “Boburnoma” da Andijonga “Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur... Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo‘rg‘onidin so‘ngra mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur. Uch darvozasi bor. To‘qqiz tarnov suv kirar”, [3] deya ta’rif bergan. Bu bilan shoh asarini tarix bilangina cheklanib qolmasdan, qomusiy bilimlar ulashishiga xizmat qiluvchi asar darajasiga olib chiqa olgan.

Boburnoma asaridagi tarixiy ma’lumotlar muallifning shaxsan o‘zi guvoh bo‘lgani, asarni yillar davomida sinchikovlik bilan qayta va qayta mukammallashtirib borgani uchun ham ma’lumotlar ishonchli manba sifatida ko‘riladi. Barcha tarixiy asarlar ham tarixchining o‘zi guvoh bo‘lganidek emas, o‘zidan avvalgi yozma va og‘zaki manbalarni to‘plash bilan ham ijod etiladi. Biroq bunda muallif o‘zining tarixiy voqealariga subyektiv mulohazalarini ham bildirishi va xatoliklarga yo‘l qo‘yishi mumkinligini ham istisno etib bo‘lmaydi. Bobur avtobiografik asarida o‘zi bilan bog‘liq jarayonlarni tasvirlashda ruhiy kechinmalarini va maqsad va mashaqqatlarini o‘zi qalamga oladi. Buning natijasida uning hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarda chalkashliklar va muammoli jihatlar ancha kamayadi.

Boburning shoh asari bo‘lgan “Boburnoma”da bayon etish uslubi ravon va esda qolarli tasvirlangan. Asar tili avom xalqning idroki yetadigan darajada sodda tilda ham, ziyoli qatlam tushunadigan nozik ma’nolar yo‘g‘rilgan uslubda ham yoritib berilgan. Bu ham Boburning tarix yozishda keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan asar yozishni maqsad qilganidan darak beradi. Asardagi ma’lumotlarning barchaga mashaqqatsiz tushunilishi ko‘plab insonlar uchun taajublanarli bo‘lgan edi. Chunki o‘sha davrlarda mualliflarning murakkab ma’noli jumlalar bilan kitob yozishlari ularning yuksak darajada mahoratli inson ekanligini anglatar edi. Bobur ham aksariyat asarlarida bu an’anaga sodiq qolgan bo‘lsa ham, “Boburnoma”da bu holat kuzatilmaydi. Tarixiy voqealarga munosabat bildirishda Bobur adabiy tasvirlardan foydalanib, asarni qiziqarli qilishga erisha olgan.

Boburning Hindistonni egallaganidan so‘ng ham ushbu memuar asarini yozishda davom etgani va yangi o‘lkadagi ilk taa’surotlari qanday bo‘lganini zukkolik va sinchikovlik bilan kuzatib borganidan hayratlangan tarixchi Bamber Gaskoyn bobur haqida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri edi. “Boburnomada deb yozadi Gaskoyn, - Bobur (Hindistondagi) ijtimoiy tuzilma va kasta tizimini, geografik konturlarni va yaqin tarixni tushuntiradi; uning hindlarning sanash va vaqtni hisobga olish usuli, hind hunarmandlarining ko‘pligi bilan bir qatorda ularda yaxshi xulq-atvori, kiyinishi tartiblari kabi tafsilotlarini aniq qilib yozib qoldirgani hayratda qoldiradi; lekin uning asosiy e’tibori mamlakatning o‘simlik va hayvonot dunyosiga qaratilgan bo‘lib, u tug‘ma tabiatshunosning e’tiboridek ajoyib tarzda qayd etadi va rassom nigohi bilan tasvirlaydi.. [4]

U o‘z davrida ishlatilgan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, jumladan maqollar va ibratli naqllar va she’riy, hajviy badiiy vositalarni asarida ustalik bilan uyg‘unlashtira olgan. Bunda Bobur realizmdan uzoqlashmaslikka va neytrallikka ham e’tibor beradi. Boburning bobokaloni Amir Temurning tarixini bayon qilgan tarixchi Ibn Arabshoxning “Temurnoma” asari Temurga nisbatan

husumati bo‘lganidan salbiy qirralarini ochishgagina urinadigan bo‘lib qolgani uchun ham tanqidlarga uchragani ma’lum. Bobur esa, o‘z tarixini bayon etishda tarixiy haqiqatlarga sodiq qolib, yo‘l qo‘ygan kamchiliklari va muammolari to‘g‘risida ham asarda to‘xtalib o‘tgan.

Bobur qoldirgan ma’lumotlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini tarixiy izohlashda holislik bilan munosabat bildirgani asarning qadr-qimmatini oshiradi. Jumladan, Bobur hatto o‘z siyosiy raqiblarini ta’riflashda ularning illatlarini emas, insoniy fazilatlarini ham asarda birdek tasvirlaydi. Shayboniyxon bilan siyosiy adovati bor bo‘lsa ham, uning yetuk darajada yo‘lboshchilik qobiliyatiga ega inson, xalqparvar hukmdor, qat’iyatli va irodali shaxs ekanligini ta’kidlaydi. Boburnomada uni “Shoyboqxon” deb atab, “kuch-qudratli” ma’nosida ishlatadi. Shu bilan birga Shayboniyxonning she’riy mashqlar qilishiga e’tibor qaratib, tushkun va ma’nosiz ijodiy mazmunga ega baytlar yozadi deb hisoblaydi. O‘z mamlakatining tanazzulga uchrashiga sabab bo‘lgan temuriylarning ziddiyatlariga ham adolatli baho bera oladi. Uning tarixiy izlanishlari bugungi kunda ham tarixiy ma’lumotlarni yig‘ishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Bobur murakkab tarixiy davrda yashab xalqi va ona-yurti oldida xizmat qilishga bel bog‘lagan tariximizdagina emas, insoniyat o‘tmishidagi ibrat namunasi bo‘la olgan shaxslardan biri edi. Boburning memuar asari tarixiy ahamiyati yuqori bo‘lganidan Yevropa mamlakatlarida ham e’tirof etiladi. G‘arb davlatlarida Zaxiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining o‘rganilishi uning siyosiy faoliyati va ma’rifatparvar shaxs bo‘lgani, Boburiylar Imperiyasining asoschi hukmdori sifatida ko‘plab mamlakatlar tarixini o‘rganishda muhim shaxsiyatlardan bo‘lgani uchun ham zarurat hisoblanadi.

G‘arbda Boburning asarlari va hayoti ko‘plab tadqiqotchilarning qiziqishlarini uyg‘otgan va ularning ilmiy tadqiqot ishlari aksariyat hollarda, Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston tarixchilari va adabiyotshunoslarining yozib qoldirgan asarlarini o‘rganish natijasida paydo bo‘ldi. Buning natijasida, Boburning ijodi va hayot yo‘liga nisbatan ziddyatli masalalar ko‘p uchraydi. Bobur G‘arb tadqiqotchilari tomonidan hind tarixchilariga asoslangan holda Mo‘g‘ul imperatori sifatida ko‘riladi va siyosiy faoliyatiga nisbatan ijobiy va salbiy talqinlar mavjud. Boburning ilmiy me’rosi esa, ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholanib, Boburning kamolotga yetgan, yuqori saviyali inson bo‘lgani e’tirof etiladi.

Mutafakkirning “Boburnoma” asariga ishlangan miniatyuralar va tarxiy qo‘lyozmalar Buyuk Britaniyada (Britaniya muzeyi, kutubxonasi), Amerika Qo‘shma Shtatlarida (Viktoriya va Albert muzeyi, Uolters san’at muzeyi), Rossiyada (Sharq san’ati davlat muzeyi) saqlanib qolgani Boburning ilmiy asarlariga qiziqishning amali ifoodasi hisoblanadi. Usbu ma’naviy me’rosning asl nushalari G‘arbning nufuzli muzeylarida va kutubxonalarida ham saqlanadi. Bobur asarlari sharqshunoslar tomonidan tarjima va tahlil qilinishi jahon madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan ilmiy me’ros dunyo miqyosda o‘rganilishi va mashxurlikka erishishida muhiim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Falsafa asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Q.Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 55 b.
2. Lane-pool, Stanley. "Babar". The Clarendon Press. pp. 12–13.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Таҳрир ҳайъати А.Қаюмон, Х.Султанов, Б. Алимов ва бошқ.; Халқаро Бобур фонди. — Т.: 2008. – 23 - Б.
4. Gascoigne, Bamber (1971). *The Great Moghuls*. London: Jonathan Cape; New York: Harper & Row. pp. 37–38, 42. ISBN 9780060114671.

БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ-СИЁСИЙ ФАЛСАФАСИДА ИБРАТЛИ ЕТАКЧИЛИК ВА АМАЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ

Очилова Бахти
Фалсафа фанлари доктори, профессор. Жиззах ДПУ.

Башарият тарихининг ижтимоий-сиёсий, илмий-маданий, адабий-маърифий соҳаларида алоҳида ўрин тутган ва тарихчилар ҳамда жаҳоннинг маърифатли инсонлари томонидан “Бобур – дилбар шахс маданиятли ва жозибадор инсонлар орасида энг етуги” (Ж.Неру), “У ҳамма нарсага жасорат ва ҳалоллик ила эришди” (Муни Лаъл), “Бобурнинг англайига юксак фазилатли инсон деб битилган” (Эдуард Холден), “Бобур подшоҳнинг фазилатлари бисёр ва камолатлари бешумордир” (Ҳасанхожа Нисорий) каби эътирофга сазовор бўлган бобоколонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур сиймосидаги ибратни ўрганиш долзарб, айни пайтда аҳамиятлидир.

Зеро, Бобур Мирзо:
Авбоком шоҳи жаҳондор Темур,
Хусрави маъдалатосор Темур...
Ким не турлук эди Султон Саъид,
Ким Қаробоғ аро бўлди шаҳид.
Ул менинг жаддиму бечора отам,
Андижон мулкида хунхора отам.
Шоҳу сардор Умаршайх эрди,
Тиғи хунбор Умаршайх эрди.
Абоғам эрди топиб фазли Аҳад,
Шоҳи динпарвар Султон Аҳад... (1, 112-113 бетлар)

– дея атрофидаги инсонларда ота-боболарнинг эзгу анъаналарига масъуллик, тарихдаги ибратли ишларга ворисийлик ҳиссини уйғотмоқчи бўлган.

Ҳар бир алоҳида инсон – ҳар қандай жамиятнинг мавжудлиги ва барҳаётлигини таъминлаб турадиган ижтимоий унсуридир. Бу инсоннинг индивидуал шахсий хатти – ҳаракати, яъни бирор гуруҳ, қатлам, қавм, элат, халқ ёки миллат доирасидаги, оила ва турмушдаги, муайян жамият миқёсидаги фаолиятлари, яратган моддий ва маънавий бойликлари аввало ўзишга ва ўзгаларга нисбатан муносабати орқали намоён бўлади. Бу муносабатларнинг энг муҳими, яъни инсон шахсининг маънавий қиёфасини шакллантирадиган жиҳати – ибратдир.

Ибрат кўзи, яъни ҳар нарсадан яхши ибратли, керакли нарса, сифатни ажратиб ола билиш инсоний фазилат ва хислатнинг муҳим мезонидир. Анъаналарда эса худди шу томон жуда кучлидир. Анъаналар ва қадриятлар ҳар бир миллат, халқнинг шонли тарихи, илдизлари, миллий қиёфаси, мукаммаллик белгисидир. Ибрат, намуна ёки ўрнак кўрсатиш бирор хатти-ҳаракат, фаолият

воситаси орқали амалага оширилади. Бу ҳаракат, воқеа ёки фаолият мазмуни тарбиянинг мазмунини ёхуд тарбия воситасининг мазмунини ифодалайди.

Академик В.Зоҳидов “Бобурнома”нинг 1960 йил нашрига битган “Бобурнинг фаолияти ва адабий-илмий мероси” номли кириш сўзида шундай ёзади: “Бобур ўзининг ботирлиги ва қўрқмаслиги билан ўз атрофидаги бошқа кишиларга ҳам намуна кўрсатди”(2, 22-б).

Тадқиқотларга кўра, Бобур турли мураккаб ҳолатларда кўпчиликка ибрат кўрсатар, намуна бўла олар эди. Айниқса унинг фарзандларига, қўл остидаги беклар ва лашкарларга талабчан бўлиши, топширилган ҳар бир ишнинг ўз вақтида бажарилишини назорат этиши, юртга шоҳ, ҳалққа мулозим бўлиши фаросатли ҳар бир киши учун ибрат олса арзигулик амал эди. Унинг ибрат кўрсатиши ёки амалда намуна бўлиши, уруш шароитида, мураккаб топшириқни бажаришда, иссиқ-совуққа бардош беришда, оз куч билан ғалаба қозонишда, айниқса, асқотарди. Ибрат ва намуна кўрсатиш учун тарбиячида етарли даражада тажриба ҳам бўлмоғи керак. Бобур эса ҳарбий санъатнинг машҳур арбобларидан, ўз замонасининг тадбирли лашкарбошиларидан бири сифатида бой тажрибага эга эди. Унинг муваффақиятларининг асосида ҳам ибрат кўрсатиш, намуна бўлиш ҳолатлари турганлиги ҳам сир эмас. Бобурдаги зийраклик, вазиятни тўғри баҳолай олиш ва жангга дадил, Аллоҳга таваккал қилиб кира олиш маҳорати лашкарларнинг ундан ибрат ва руҳий мадад олишига имкон берган ва унинг жангдаги ғалабаларини таъминлаган. Масалан, И.Мирзаевнинг ёзишича, “Бобурнинг бир ҳарбий юриши пайтида қаттиқ совуқ эди. Совуқ шундай зўр эдики, ҳатто унинг қўшинларидан бир неча киши совуқдан ўлади. Шунда Бобур анҳорнинг музини синдириб, 16 марта сувга шунғийди. Бобурнинг бундай жасорати тарбия бериш усулигина эмас, балки тарбия воситаси ҳам эди. Шунинг учун баён этилган воқеа кутилган натижани берди. Бобур қўшинида тетиклик, қувноқлик қарор топади.

Совуқдан қўрқиб, ҳарбий юришдан бош тортиш каби ҳолатларга чек қўйилади. Олға интилиш кучайди” (3, 67-б).

“Бобурнома”да қайд этилган “Бир ҳафтага яқин қор тепиб, кунда бир шаръий — бир ярим шаръийдан ортиқ кўчилмас эди. Қор тепар киши мен эдим, ўн-ўн беш ичкилар билан ва Қосимбек эди, икки ўғли — Тангриберди ва Қанбар Али билан, яна икки-уч навкари ҳам бор эди. Ушбу зикр этилганлар яёв юриб, қор тепар эдик. Ҳар киши еттисаккиз-ўн қари илгари юриб қор тепар эди. Ҳар қадам қўйганида белигача, кўксигача бота-бота қор тепар эди. Шу усулда қор тепиб... Ҳаволи Қутий деган ғорга келдик. Ушбу кун даҳшатли бўрон билан қор ёгар эди. Шунчаликки, барчага ўлим ваҳимаси бўлди... Ғор торроқ кўринди. Мен ғорнинғ оғзида курак олиб, қор кураб, ўзимга бир такя миқдори ер ясадим, қорни кўксимгача қаздим. Ҳануз оёғим ерга тегмасди. Бироз шамолдан паноҳ бўлди. Ўша ҳолатда ўтирдим. Ҳар неча дедиларки: “Ғорга боринг”. Бормадим. Кўнгилга кечдиким, барча эл қорда ва чопқунда, мен иссиқ уйда ва истироҳат билан; унда барча эл ташвиш билан машаққатда, мен бунда уйқу билан фароғатда. Мурувватдан йироқ ва ҳамжиҳатликдан нари ишдир. Мен ҳам ҳар ташвиш ва

машаққат бўлса кўрайин, ҳар нечук эл тоқат қилиб турса – турайин” (4, https:) деган шоҳ Бобурнинг мулоҳазасида нафақат ўша давр, балки ҳозирги замонамиз учун ҳам ибрат олса арзигулик ғоя мавжудки, бу ғоя замирида фидойилик, мақсадни амалга ошириш йўлида фаоллик, масъулиятга ва қийинчиликларни енгишда кучли бўлишга даъват бор. Бобурнинг бундай қаҳрамонларга хос ибратли ҳаракатлари, жасорати, жанговарлиги унинг таъсирчан нутқи билан қўшилиб, шундай бир намунали ибрат кучини намоён этганки, буни кўрганлар ва тинглаганлар лол қолишган.

Кўп жангларда мустаҳкам иродаси, дов юраги билан Бобу Мирзо ёв билан йўлбарсдек олишарди. Бу ҳолат “Мусаххар ал-билод”да шундай тасвирланади: “Бобур Мирзонинг жувонғор ва бурунғордаги кучларини олддан олиб ташладилар ва қўл орқасидан ёриб кирдилар. Бобу Мирзо яна бир бор от жиловини душман тарафга буриб, душманни қилич билан чопқилаш ва ҳанжар санчишга киришди... Бобур Ирзо то имкони борича жанг майдонида туриб, шошиб-пишиб бўлса-да, мардона уруш қилди” (5, 81-б).

Мирзо Бобур фаолиятидаги ибрат, ўзгаларга намуна бўлиб яшаш хислатлари фақат жанговорликда, чидамлиликда, ғалабага тўла ишончдагина эмас, айни пайтда, унинг меҳнатсеварлигида, ватанпарварлигида ва бунёдкорлигида ҳам кўзга ташланар эди. Айниқса, Бобурнинг Ҳинд тупроғида олиб борган бунёдкорлик фаолияти, ариқлар қаздириши, турли иншоотлар барпо этиши, ахлоқий-маданий ислоҳотлари, ичкиликни ман этиши ҳақидаги қарорлари унинг стратегик узоқни кўра билишини ҳамда санъат ва маданиятга бўлган муҳаббатини акс эттирди. У яратган боғлар, масалан, Аградаги машҳур Боғи-Вафа Бобурнинг ҳукмдор ва ҳинд халқи ҳаётида табиат, гўзаллик, осойишталик муҳимлигига бўлган ишончининг ифодаси эди. “Буюк шоҳ Бобур Ҳиндистонда темурийларга хос улуғ бунёдкорлик анъаналарини давом эттирди: муҳташам қасрлар тиклаш, ариқ-каналлар қазиш, боғ-роғлар бунёд этиш, адабиёт, илм-фан ривожига ҳомийлик қилиш, элни адолат билан бошқариш сингари фазилатлар кейинчалик Ҳиндистоннинг буюк фарзандлари томонидан чинакам ижобий баҳоланди” (6, https:).

Хулоса қилганда, инсон шахс сифатида ўзининг муайян миллат вакили эканлигини англаб олиши учун, у аждодларининг ибратли ишларини пухта ўрганиб, ўз ҳаётий фаолиятларида улардан оқилона фойдаланиб боришлари зарур. Ҳар қандай ибратли ҳаракат ёки ғоя муайян мақсад билан англаниб, онгга чуқур сингиб, фаолиятга мақсад ва йўналиш берадиган маънавий замин бўлгандагина эътиқодга айланади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Каримова Ю. “Шайбонийнома”да Бобур Мирзо образи.Тошкент: Фан, 2024.
2. Бобур З.М. Бобурнома.-Тошкент: Фан, 1960.
3. Мирзаев. И. Бобур маърифати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

4. https://uznel.natlib.uz:444/FN/dl_image/uload/userfiles/files/06_%20Boburnoma.pdf.
5. https://uznel.natlib.uz:444/FN/dl_image/uload/userfiles/files/06_%20Boburnoma.pdf.
6. Муҳаммад ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод (Мамлакатнинг эгалланиши). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.

BABUR IS A GREAT POET, HISTORIAN AND GEOGRAPHER

Khursandov A.S.
Associate professor, Chief of Learning languages Department at Public safety University of the Republic of Uzbekistan

Today, when educating our youth competently in every possible way, it is required to enjoy the spiritual heritage created in the past and the courage of military commanders. Consequently, the great spirituality of our people dictates that it is necessary for our youth, who are considered the future of our motherland, to serve for our holy Uzbekistan for a single purpose, through a deep study and understanding of its history.

In this regard, our President Shavkat Mirziyoyev expressed the following thoughts on the example of Babur, who will glorify Babur, inform our entire people, especially the future generation, fight for national pride and honor: “here, let's take our great ancestor Zahiriddin Muhammad Babur. This great breed, from the age of twelve, in order to preserve the Timurid state, hit itself both on fire and on the crest, not afraid of any enemies or trials. For forty-six years of his life, he had not known a moment's peace. He left his descendants a legacy of great love for the Motherland and noble qualities”[1, P.8-9].

Zahiriddin Muhammad Babur continued his literary and artistic career in addition to his large-scale public works in India and created the works mentioned above. The royal work of Babur, famous to the entire world masses, is the "Baburname". It is known that it covers the history of the peoples of Movarounnahr, Khuroson, Iran and India in the period between which Babur lived. The work consists mainly of three parts, the first part of which - on the events of the second half of the 15th century in Central Asia, the second part - on the events of the late 15th and first half of the 16th century in Kabul ulusi, that is, in Afghanistan; the third part - on the history of the peoples of North India in the first quarter

In "Baburname" you will look at wonderful facts, figures that fascinate a person, certainly surprising every time after reading. Examples that are not found in any other historical, prose work - the depiction of events taking place in life, everyday life - are amazing, stunning. Again, every time we read this invaluable work, we are haunted by the question of which personality of Babur, his “Babur”, with what features he showed

himself, is so firmly rooted in the hearts of English, German, Indian, Persian, Japanese and Chinese scientists.

Babur's immortal adventure, scientific work scientific, vital, interesting facts and figures about more than 30 disciplines in Babur, the author's life images not only in the literature of his time, but also today, no matter who it is, only the one who is doomed to speak the truth and honorably coped with this work with this hard work, defines the unsurpassed reputation of the author. The charming poems of the poet Babur celebrated love, the joy of life, not the pain of a lover and a mistress, and gasht, the enjoyment of her beauty, the desire to cherish dear life, to seek a friend and honor him. Maybe that's why in every sentence of his composition we feel the taste of the musical beauty. Or, this noble man, who has lived for only 47 years, is attentive to what we mean for posterity, not so much in how long life is, but in what benefits we bring to humanity, what we leave them as a legacy. We seem to realize that we honor Babur with such aspects of his work as high art, fine art, and the glorification of human honor.

Reading the works of this great ancestor, it is as if fantasy has not reached the true land of Babur's glory, we listen to conversations with people of science and its admirers about this great man and seem to find this secret. Suddenly, we realize that Babur was a man who gave them affection without even seeing affection from his contemporaries.

From this brief but extensive assessment of Babur, most are struck by the fact that he focuses on showing affection for a person, living honestly and faithfully.

Babur was the first of all Timurids who sought to revive the united kingdom of his grandfather Amir Timur, to fight for a kingdom with a solid statehood. Of course, these battles were not complete without sacrifices, the capture and surrender of lands. However, the high human qualities in her personality, respect for the feminine gender, kindness and compassion for others, and the opening of the door of generosity to people became the meaning of life. This is how he differs from other possessors of the kingdom. At the same time, we honor Babur with respect.

British historian Edward Holden, on the other hand, says that “a man of high quality appeared on his forehead” [2, P-158.] If we pay attention to the fact that Western scientists express these assessments of Babur, then it goes without saying that it is necessary to penetrate into the universe of his deep human traits to give today's generation, especially the youth, a broader understanding of this man.

Science has already proven that in the psyche and character of an individual, the existing characteristics are more manifested through heredity. Zahiriddin Muhammad was infected by Umarshaykh Mirza, the father of kindness and generosity. In Babur's eyes, Umarshaykh was a good warlord, a pure-minded Muslim, without a statesman, who did not betray someone else's right, a generous person.

Even in all periods, especially in the 15th-16th centuries, when Babur ruled, Public Administration, control of all its branches and preservation in one whole was much more complicated.

In this, it was not only the desire to take advantage of the management system with the vision of the existing political, social, financial and country unity, but to maintain in

one integrity required high skill, and it can be safely said that Babur performed this task with honor.

Babur's grace and compassion for a person is so wide that it is imperative to mark his demarcation. Especially his own children as a father, his parents as a child, his army as a captain, his mistresses, his commoners, even his enemies as a king, this tolerance indicates the high humanity of a wide range of people.

The moment of Babur's initial march to take Samarkand. As he takes this city at the age of 15, he gives gifts to his subordinates after victory, raises the rank of Duty, gathers strength around himself, tries to get into their trust. Among these was bek Ahmad Tanbal of Andijan.

Although Babur knows that this is a knock on his opponent, he donates a sword to the reprimand, following the proverb “There is good for the bad”. It is with this sword that Ahmad Tanbal strikes Babur in the head in one of the battles from time to time. Young, teenage prince Zahiriddin Babur later regrets this mistake, after which he tries not to know the habit of showing affection to everyone, entering his side. But the virtue of extending a helping hand to people who were in his blood remained intact for the rest of his life. there are many examples of this. Babur forgives bek Boki Chaganiyan who betrayed him eleven times. He didn’t even harass eldest mother Shahbegim when she rebels against Babur in Kabul [3, P-160.].



The astrologer at Babur's Court, Muhammad Sharif, panics and claims that now Babur's entry into battle is not welcomed by the planetary positions. Babur goes to war, coming with victory and also reprimanding the astrologer. Rather giving enough wealth to allow him to stay in his palace, and in many other examples we see how wide the world of his kindness to men is, the height of his grace. We liked to consider some of these examples through a compact analysis.

Babur conquers India and triumphs over his enemy, his rival Ibrahim Lodi. Babur's treasury gained during the campaigns in India was not check. This he covered very clearly, widely in “Baburname”. Babur, being the ruler of the country, shares a huge amount of gifts to his loved ones, even to his enemies, among his supporters, which is also an example generosity. The Indian sultan considers such a large number of gifts necessary for his father when he loses the battle. Babur also says that the Indian rajahs who fought against him bestowed gifts on the courtiers “with the same grace and compassion as themselves.” Pay attention to Babur's words! Even taking into account the provisions of his enemy, he studied all the conditions and left to himself the management of his estates: “the pargana cash grace of seven lacs (seven hundred thousand) became the father of Ibrahim. Parganas were also given to each Bek. Ibrohim's father was taken out with his flags and given a large amount of water lower

land from Agra"[4, P-291.].

While Babur is victorious over Ibrahim Lodi, his death is spiritually tormented by the pride of victory when they convey the message that he is lying on the battlefield, ordering his opponent to be buried with all reverence. In addition to giving his father the same great thanks as above, he also shows great kindness and care to his mother. He is allocated a place to live from his palace, appoints unaccounted funds, servants. However, to this bolt of the Babur, the woman does the opposite. The mother, who has not forgotten her child's death, orders Babur's food to be poisoned, causing Babur's next serious illness.

No matter how much affection he shows, Babur is a Boqi Chaghaniani, who did not despise his power, and even standing in the ranks of his troops ravaged betrayals to him. Babur gives this Bek a lot of support, insisting that he will return from a bad path, that his morals strive for purity. But greed, cruelty in Boqi Chaganiyan, an impotence in property thwart all the aspirations of Babur

The Hindu raja of Babur, who expropriates India, shows a lot of grace to the Gozikhan, providing him with a high salary and awarding him with great land, opportunities. In return, the Duchess takes two swords in her two hands and enters the fight against Babur by hanging two more swords on her bed. As Babur defeats him, he calls to his presence and converses. In this conversation, too, as above, he shows the affection and sympathy he has towards his relatives. From the content of the conversation, we feel sorry for the compassionate Babur, that the character of his humanity does not always give the desired result, that the nature of man does not accept compassion at times: “I ordered a man who knew before, a Hindustani, that he may memorize these words to some one another, tell me, I said You Father, My condolences and your reverence I saved yourselves and your sons, and the vicissitudes of the Baluchs. I have saved your houses and harem from the servants of Ibrahim. I blessed the three Tatarkhans’ province of San.” [5, P-292.].

Many opinions have been expressed by our scholars as to how Humoyun Mirza, Babur's child, was suddenly severely ill, and Babur wanted God to take his pain around him. It is also widely given in the “Boburnoma”. We can also know this endless affection shown by the father, the King, the High man Babur, from his daughter Gulbadanbegim's “the humiliation”. In this we observe not only the grace of Babur, but also the kindness that passed from him to his daughter. It is in this text Zamiri that we see that Babur, although the ruler of the period, the king, also remained in Zamiri of their wives ' mutual disputes, family problems. He was able to find the right way even in this matter, handing over the kingdom to his eldest son Humayun as if he were alive and giving him a lesson of a kind, unprecedented in eastern statehood.

Babur was more focused on Humayun among all his children, sipping him with innumerable riches. A lot of examples can be given in relation to the kindness and kindness of Babur. This is not seen in the kindness and grace that humanity has given only to everyone. Countless gardens, buildings and structures, madrasas, mosques, baths, palaces built by Babur in Movarounnahr, Khurosan, especially in India, are also serving people. This is also a vivid example of kindness. After all, the concepts of

compassion, kindness are determined primarily in the happiness of people, in leaving a name with good in the soul of a person. In this aspect, the Babur personality is a great lesson school.

List of used literature

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B.8-9.
2. Qudratullayev H. Bobur armoni. –Toshkent: Sharq, 2009. –B.158.
3. Qudratullayev H. Bobur armoni. –Toshkent: Sharq, 2009. – B.160.
4. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: Sharq, 2011. - B. 291.
5. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: Sharq, 2011. - B. 292.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: DAVLAT ARBOBI, SHOIR VA MA’RIFATPARVAR

Asadova Dilnoza Innatovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
“Falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy va siyosiy faoliyati yoritiladi. Bobur nafaqat buyuk sarkarda, balki mohir shoir va davlat arbobi sifatida ham tarix sahifalarida o’chmas iz qoldirgan. U o’z atrofiga ilm-fan va adabiyot ahli vakillarini jamlab, ijodiy muhit rivojiga katta hissa qo’shgan. Hindistonda Boburiylar davlatini barpo etib, madaniy taraqqiyotga ulkan ta’sir ko’rsatgan. Uning “Boburnoma” asari tarix, geografiya va adabiyot uchun bebaho meros hisoblanadi. Maqolada Boburning adabiy merosi va uning umumbashariy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: islom, ma’rifatparvarlik, sadoqat, tarbiya, ma’rifat, taraqqiyot, madaniyat, siyosat, adabiyot, me’morchilik.

Adabiy muhit, odatda, muayyan saroy atrofida ijod qilgan yirik shoir va adiblar ta’siri ostida shakllanadi. Uning paydo bo’lishi bevosita taniqli ijodkorlarning faoliyati va ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog’liq. O’zbek adabiyoti tarixida Hirot, Qo’qon, Buxoro, Samarqand va Xorazm adabiy muhiti hamda adabiy davralari muhim o’rin tutadi. O’zbek adabiy muhitining shakllanishida Alisher Navoiydan keyingi yirik adib Zahiriddin Muhammad Boburning ham alohida o’rni bor. XVI asrda Bobur tomonidan Hindistonda asos solingan “Buyuk Boburiylar saltanati” uch asrdan ko’proq vaqt davomida taraqqiy etib, qudratli davlatga aylandi. U nafaqat mohir siyosatchi, balki ijodkor sifatida ham bebaho meros qoldirdi. Bobur o’z atrofiga ilm-fan va adabiyot ahli vakillarini to’plab, ijodiy muhitni rivojlantirishga katta hissa qo’shdi.

Shu tariqa, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida sodir bo’lgan siyosiy va ijtimoiy o’zgarishlar, iqtisodiy tanglik sababli Movarounnahr va Xurosondan Hindistonga fan, san’at va adabiyot namoyandalaridan iborat yangi bir toifa ko’chib o’tdi. Bu jarayon Boburiylar saltanati madaniy va ilmiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo’ldi.

O’z nomini tarix sahifalariga muhrlab, ulkan iz qoldirgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon viloyatida dunyoga kelgan. Uning bolalik yillari og’ir sharoitlarda o’tgan. Otasidan erta yetim qolishi bilan birga, atigi 12 yoshida taxtga o’tirib, davlat boshqaruvi mas’uliyati uning zimmasiga tushgan. Temuriylar o’rtasidagi toj-u taxt uchun kurash jarayonida esa u bobo yurti – Samarqandni qo’lga kiritish maqsadida jang maydonlariga kiradi. Samarqandni egallagan bir paytda, Andijonda ukasi va bir guruh mulozimlar unga qarshi fitna uyushtiradi. Bu vaziyatda Bobur Samarqanddan voz kechib, Andijonga qaytishga majbur bo’ladi. 1526-yilda u Hindistonni zabt etib, Boburiylar davlatiga asos soladi. Bobur Hindistonda ham sermahsul ijod qilib, ko’plab asarlar yaratadi, g’azal, ruboiy va tuyuqlar yozadi. Uning ruboiylarida vatan sog’inchi va tug’ilib o’sgan yurtiga bo’lgan cheksiz muhabbati aks etadi. U har lahzada vatanga qaytishni orzu qiladi va bu intilish uni bir lahza ham tark etmaydi. Bu his tuyg‘ularni biz uning ushbu ruboiysidan ham bilsak bo‘ladi:

Tole’ yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

U o‘zini dunyoda eng baxtsiz kishi deb hisoblaydi, chunki u yurtini tashlab chiqadi. Endi begona ellarda yurt so‘rmoqchi, podsholik qilmoqchi. Bularning hammasi uning uchun xato ishlar edi [1].

Temuriylar sulolasining buyuk vakillari hisoblanmish boburiylar tarixi hind xalqlari tarixida o‘zining munosib o‘rniga ega. G’arbdagi boburshunos olimlardan biri ingliz olimi Valdemar Xansen o‘zining 1986 yilda Dehlida chop etilgan “Tovus toj yoki mo‘g‘ullar saltanati qismati” kitobida boburiylar sulolasining Hindistondagi 332 yillik faoliyatiga yuksak baho beradi: “Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisoli bir tovus bo‘lsa, o‘sha ko‘p ming yillik tarixdagi boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning gultojisidir”[2].

Fransuz tarixchisi, turkiy-mo’g’ul xalqlari va islom madaniyati bo’yicha mutaxassis Jan-Pol Ru Bobur haqida quyidagicha ta’riflarni keltirib o’tgan:

“Bobur o’n yillar davomida taqdirning hamma ko’rguliklarini boshidan o’tkazdi. Taqdir uch marta unga Osiyoning eng nufuzli Samarqand taxtini in’om etdi, so’ng uni darbadar chavondozga, ta’qibdagi qochqin, bosqinchilar sardori, Toshkentdagi mo’g’ul xonining oldida kamsitilgan saroy ayoniga aylantirdi. Agar u Qobul mamlakatining Qobuliston shoxiga aylangan bo’lsa, bu yana o’zini xavf-hatarga qo’yish, o’zini yanada xavotirroq yumushga urish, aql bovar qilmaydigan qirchillama qish vaqtida Hindu Qush tog’ini kesib o’tish, Hindistonga g’arot qilish, bosh ko’targan jangarilardan omon qolishlar.

U o’z hayoti davomida to umrining oxirigacha turli ehtiroslar, turfa xohishlar, turli xursandchiliklar va butunlay noumidliklar, aqlga sig’maydigan havoiy orzular, o’ta oshirib yuborishlar, hamma g’ayrioddiyliklar, hamma chegaralardan chiqib ketishliklar, erta omadsiz uylanish, o’z sevgan ayoliga cheksiz muhabbat bilan bog’lanib qolish – bu o’z navbatida boshqa ayollari bo’lishiga monelik qilmaydi – bir afg’on qabilasining boshlig’ining qizi bilan romantik uchrashuvlar, oilasiga fidoiy muhabbat, ayniqsa o’z

qondosh ayollarga, aql bavar qilmaydigan darajada do’stlikka sadoqat; uni o’lib qoladi deyishgacha olib boradigan kasalliklar; xayratlanarli rostlik, musulmon dini aqidalariga sodiqlik, uyatli va bir muddat gunohli ishlarni boshidan o’tkazdi. Jismonan va aqlan buyuklik ato etilgan Bobur o’ta mag’rur, ayniqsa, ornomusli, g’ayrioddiy odam edi.

Bobur tarixning eng buyuk shaxslaridan edi. Boburning tomirida mug’ul va turk qoni oqayotgan bo’lsada, uni Chingizxonga yoki Temurlangga qiyoslab bo’lmagan bo’lar edi. Biroq u buyuk jahongir edi, O’z g’alabalari sho`lasi bilan uni bosib ketadigan jahongirlardan uning 12 mingdan oshmagan kishi bilan qirg’inbarotsiz, katta vayronalarsiz, o’ta tejamkorlik bilan qilgan amali abadiyroq va sermahsulroqdir” [3].

Boburning ta’lim nazariyasidagi yana bir muhim xususiyati, o’zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Avlodim bilsin deb eliga o’rgatgisi keladi. Bu hol uni bashariyatga buyuk ma’naviy boyliklar qoldirishiga muvaffaq qildi. Undan meros bo’lib qolgan: “Boburnoma”, “Muxtasar”, “Mubayyin”, “Volidiya” va boshqa asarlari jahon fanida, ayniqsa xalq tarbiya qonunlarida alohida o’rin tutadi.

Boburning “Boburnoma” asari zoologiya, botanika, astronomiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik sohasidagi qimmatli yodgorlikdir. Shu bilan birga “Boburnoma”da adabiyot, diplomatiya, harbiy san’at, moliya sohalaridan ham ma’lumotlar olish mumkin.

Bobur ma’rifatparvar sifatida har qanday sharoitda ham ilm ahli bilan muloqatda bo’lishga vaqt topar edi. U o’z davri ilmi kishilarini xurmat etar, ular yozgan asarlarni chuqur tahlil etib, yutuq va kamchiliklarini o’rganar edi. O’z davri ilg’or kishilarining ilm-fanga qo’shgan hissalarini odilona tahlil bilan yozdi. Bir to’rtlikda masnaviy she’rning sunnati bo’lsa ham men g’azalning farzi ayn deb bilaman, dilga deb bilaman degan mushohadacha boy fikrlarni ilmiy jihatdan isbotlab ko’rsatdi. Bu esa boburning stilistika bilimini ham madaniyatga teng ma’noda tushunganligidan dalolat beradi[4].

Boburning oilaviy tarbiya haqidagi fikrlari ham qimmatlidir. U oilada ongli holda qattiqqo’llik bilan bolalarini tartibli, intizomli, ongli bo’lishlarini talab etdi va tarbiyaladi.

Bobur tarbiyada sinchkov va sezgir edi, kattalarning yaxshi jihatlarini o’rgatish, o’rnak oldirishiga istak hissi unda kuchli bo’lgan. U “Boburnoma”da o’z otasi Umar Shayx Mirzo haqida shunday yozadi: “Axloq va atvori: xonafiy masxablik, pokiza e’tiqodlik kishi edi. Besh vaqt nomozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib erdi, suhbatlariga bisyor musharraf bo’lib edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar”[5].

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni qo‘lga kiritishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san’atda, me’morchilik va madaniyatning qator sohalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nasriy yozuvchi va shoir sifatidagi layoqati hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan keng e’tirof etilmoqda. Tarixchi, iste’dodli so‘z san’atkori, davlat arbobi va sarkarda Bobur vafotidan to‘rt asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi, ammo uning nomi boqiydir.

Hindiston boburiylardan bo‘lgan Humoyun, Akbarshoh, Jahongirshoh, Shohjahon davrlarida, ayniqsa gullab-yashnadi, hududlari kengaydi. Xususan, Akbarshoh va uning nabirasi Shohjahon hind xalqining qalbidan chuqur joy oldilar.

Bobur shohning yuragi ba’zan Vatanni – Andijonni qo‘msab tursa ham, vaqti soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik, davlat va ma’muriy ishlarni odilona hal qilish bilan o‘tkazdi. Boburiylar butun dunyoga mashhur bo‘lgan tarixiy obidalarni bunyod etdilarki, ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining ruboiylari va lirik asarlari bilan ham, “Boburnoma” asari bilan ham, donishmand shoh va shoir sifatida aql-zakovati va buyuk tafakkuri bilan ham milliy va umumbashariy ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyotiga katta hissa qo’shdi. Shuning uchun ham u jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga unutilmas hissa qo’shgan o’zbek xalqining buyuk mutafakkiri sifatida dunyo ahli donishlari qalbida abadiy yashaydi. O’zbek xalqi Zahiriddin Muhammad Boburdek benazir allomasi, buyuk o’g’li borligi bilan behad g’ururlanib, boshini baland, qaddini tik tutib yashashga to’la haqlidir. Boburning tafakkur yulduzi Yangi O’zbekistonning buyuk kelajagi yo’lini yoritib, bundan buyon ham boshimiz uzra yorqin porlab turaverishiga astoydil umidvormiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aliyeva Navro‘za, & Daryayeva Sevara. (2022). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA VATANGA MUHABBAT VA YURT SOG‘INCHI. Conferencea, 114–118.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi va sarkarda // https://yuz.uz/uz/news/zahiriddin-muhammad-bobur--buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda
3. Jan-Paul Roux “Histoire des Grands Moghols. Babur”. – Paris: Fayard, 1986.
4. Qambarov M.M. Zahiriddin Muhammad Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari // “NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR”, 2022. -B. 608-616.
5. Xasanova B. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Toshkent, 2000 yil.

BOBUR ADABIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Axmedova G.A.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bobur ijodining bugungi kundagi ahamiyati xususidagi qarashlar bayon etilgan bo‘lib, shoh va shoirning yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni to‘g‘risida fikr yuritilgan. Yoshlar tafakkurida vatanparvarlik, yurtsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish masalalari shoir ijodining ayrim qirralari misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: shoh, shoir, ijod, she’r, Bobur, vatanparvarlik, ma’naviy tarbiya, ajdod va avlod, shaxsiyat.

Bugungi Yangi O‘zbekistonda uchinchi renessans davrini barpo etar ekanmiz, bunda vatanimiz yoshlarining ma’naviy tarbiyasi hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li, ma’naviy merosi, hayotiy tamoyillari yoshlar uchun mayoq bo‘lib yo‘l ko‘rsatadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”[1].

Shunday ibratga arzigulik hayot yo‘lini bosib o‘tgan ajodlarimizdan biri shoh va shoir Mirzo Boburdir. Davlatimiz rahbari buyuk vatandoshimiz haqida: “Mana, ulug‘ ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik. Bu buyuk zot o‘n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o‘zini o‘tga ham, cho‘g‘ga ham urdi, hech qanday dushmandan ham, sinovdan ham qo‘rqmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o‘tdi. O‘z avlodlariga Vatanga bo‘lgan buyuk muhabbatini, ezgu fazilatlarini meros qoldirdi”,- deb alohida e’tirof etdi [1. 8, 9-b].

Bobur adabiy merosining bugungi yoshlar tarbiyasidagi o‘rni nihoyatda ahamiyatli bo‘lib, uning ijodida va hayotida yoshlarning axloqiy, ma’naviy kamolotida zarur bo‘lgan omillar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bobur xalqini milliy qadriyatlar va an’analarni asrashga, mukammal ta’lim olishga e’tibor berishga undagan hamda bu g‘oyalar uning adabiy merosida, jumladan, she’riyatida ham o‘z aksini topgan. Bobur asarlarida ezgu g‘oyalarning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarimizga ehtirom, yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissi va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati cheksiz.

Bobur yoshlarning ma’naviy kamolotiga katta e’tibor berib, o‘z asarlarida axloqiy qadriyatlar, insoniylik, adolat va vatanni sevishning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Bu o‘rinda, yoshlarga o‘z qalbini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, adolatli bo‘lish va boshqalarga mehr va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish kerakligini o‘rgatib, o‘z vaqtida ilmu fanni qadrlab, yoshlar uchun ilm olishning muhimligini ta’kidlagan. Ulug‘ ajdodimiz o‘zga madaniyatlardan foydalanishga va bilimlarni kengaytirishga alohida ahamiyat beradi. Yoshlarning ruhiy va jismoniy rivojlanishi ularda vatanparvarlik ruhini oshirib, o‘z xalqini asrab, xizmat qilish uchun kuchli iroda va qudratni shakllantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya berishga uringan. U yoshlarga o‘z maqsadlariga erishish yo‘llarini ko‘rsatadi hamda ularni faqat o‘z xalqining foydasiga emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qilishga chaqiradi:

Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzae, Bobur,
Magar o‘lsam bu olam ahlidin bo‘lg‘aymen osuda [3. 5-b] .

Bobur mamlakat ishida xalq uchun shay turish, “ulus xizmatidan tinmaslik”ka chaqiradi.

Bobur she’riyatida o‘z vatanining har bir ne’matlarini qadrlashni, buni faqat o‘zga mamlakatda hijron azobida yashagan inson his qilishi mumkinligini ushbu fardda tushuntirmoqchi bo‘ladi:

Qovun birla uzumning hajrida ko‘nglumda g‘am har so‘,
Oqar suvning firoqidin ko‘zumdin har dam oqar su(v) [O‘sha manba. 85-b]

Ya’ni o‘z ona vatanining bittagina ne’mati orqali Ona vataniga bo‘lgan sevgisini chiroyli tasvirlaydi.

Ko‘pdan berikim, yoru diyorim yo‘qdir,
Bir lahzau bir nafas qarorim yo‘qdir,
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qdir. [4. 263-b.]

Bu satrlar Vatandan yiroqda yashayotgan har qanday insonning sog‘inch tuyg‘ularini ifodalaydi. Ota-ona, qarindosh-urug‘, barcha yaqinlari diydorini qo‘msagan insonni qalbini junbushga keltiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur juda ko‘p she’rlarida yor-birodarlarini, ona Vatanini sog‘inib, o‘ksinib esga oladi. O‘z Vatanining so‘lim go‘zal vodiylarini tashnalik bilan qo‘msaydi.

Bobur Andijondan ketganidan, to umrining so‘nggi onlarigacha ona Vatanini bir bor bo‘lsa-da ko‘rish dardi, yurtini sog‘inchi bilan yashadi va ijod qildi. Bu mavzu g‘amgin ruh uning ijodida bir umrga muhrlanib qoldi. Shoh va shoir, buyuk mutafakkir qalb kechinmalarini shunday ta’riflaydi:

To’le yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib,Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Tabiiyki, Vatandan ayro yashagan inson hamisha g‘urbat va mashaqqatda yashaydi. Bobur hazratlari o‘zining qalb iztiroblarini quyidagi go‘zal satrlarda ham ko‘satib bergan.

Har yong‘aki azm etsam, yonimda borur mehnat,
Har soriki yuzlansam, o‘trumg‘a kelur qayg‘u,
Yuz javru sitam ko‘rgan, ming mehnatu g‘am ko‘rgan,
Osoyishi kam ko‘rgan, mendek yana bir bormu.

Bobur ijodida yurt sog‘inchi butun ijodiy faoliyatining asosiy mazmuniga aylanib qoladi.

Shu bilan birga, Boburning yoshlarga bo‘lgan e’tibori uning boshqaruv usullarida ham ko‘rinib turadi. Uning tavsiyalari va ta’lim yo‘nalishlari yoshlarning shaxs va millat rivojiga xizmat qilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillarga aylangan.

Bobur O‘rta Osiyo va Hindistondagi tarixiy va siyosiy voqealarga alohida ta’sir ko‘rsatgan shaxsdir. Uning davlat rahbarligi, ayniqsa, mulkning ichki va tashqi siyosatini birlashtirishda, davlatni ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan ozod qilishda muhim o‘rin tutadi. «Bobur fe’li-sajiyasiga ko‘ra sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan» [5]. I*ngliz tarixchisi Eduard Xoldenning ushbu fikrlari Boburning davlat boshqaruvidagi strategiyasini hamda yuksak fazilatli insonligini yana bir bor isbotlab beradi.*

Boburning ijodi yoshlar uchun katta ma’naviy xazina sanaladi. Uning asarlari, ayniqsa, **"Boburnoma"** nafaqat shaxsiy hayot va tarixiy voqealarni yoritishga, balki xalq va vataniga bo‘lgan sevgi va ehtiromni targ‘ib qilishga qaratilgan. Bobur o‘zining yoshligidan boshlab, janglar va siyosiy kurashlar orqali oilasining, o‘z xalqining va Vatanining ta’rifini aytishga intilgan. Uning ijodi Vatanga, xalqning taraqqiyotiga bo‘lgan muhabbatni yoshlarga singdirishga yordam beradi. Vatanparvarlik har bir millatning kelajagi va taraqqiyotining asosi bo‘lib, yosh avlodning bu g‘oyada tarbiyalanishi muhim ahamiyatga ega. Bobur o‘z xalqining taraqqiyoti uchun fidoyilik ko‘rsatgan va u yoshlar uchun namuna bo‘lgan. O‘zbekistonning yoshlari ham o‘z navbatida Vatanimizni chuqur sevishlari va uning taraqqiyoti uchun fidoyilik ko‘rsatishlari lozim.

Yoshlar tarbiyasi Vatanning milliy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq. Boburning ijodi orqali yoshlar xalqning tarixiy va madaniy merosini qadrlashni o‘rganishadi. Vatanparvarlik hissini shakllantirishda milliy urf-odatlar va madaniyat muhim o‘rin tutadi. Boburning ijodi yoshlar uchun vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim manbaga aylangan. Uning asarlaridagi xalq va Vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy qadriyatlarga bo‘lgan ehtirom, davlatni qadrlash va adolatli boshqaruv konsepsiyasi yoshlar uchun ifodalangan vatanparvarlik g‘oyasining yorqin namunasi hisoblanadi. Boburning ijodi yoshlarga nafaqat shaxsiyat va adabiy tafakkur, balki Vatanga muhabbat, uning tarixini va madaniyatini qadrlash, milliy qadriyatlarni saqlash va har tomonlama rivojlanish uchun katta ma’naviy xazina bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. 2017-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil.
3. Bobir. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti. 1976-yil.
4. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar (roman). “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2015-yil.
5. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/zahiriddin-muhammad-bobur.

БОБУРИЙЛАР ДАВРИДА ҲИНДИСТОННИНГ ИЧКИ ВА ТАШҚИ СИЁСАТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Абдуллаев Баҳромжон Ҳошимжонович
Андижон давлат университети
“Жаҳон тарихи” кафедраси катта ўқитувчиси
Гулбахор Хошимовна Солибоева
Андижон шаҳар 4-сон политехникуми тарих фани ўқитувчиси

Марказий Осиё халқлари ўзларининг минг йилликлар мобайнида шаклланган оламшумул сиёсати, маънавий баркамол давлатчилик анъаналари билан жаҳон давлатчилиги ва сиёсати тараққиётига катта таъсир кўрсатган. Улуғ боболаримиз - Хоразмшоҳларнинг адолат ва инсонпарвар-ликка таянган салтанатлари, Соҳибқирон Амир Темурнинг туркий улусни бирлаштириб марказлашган давлат тузиши, миллат ифтихори учун курашиш ва буюк темурийлар салтанатига асос солиши, Мирзо Улугбекнинг фан ва маданият равнақига, Ҳусайн Бойқаронинг адабиёт ва санъат, илм ҳамда ҳунар аҳлига раҳнамолиги, Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан турли дин ва мазҳабдаги халқларни бирлаштириб, инсонпарвар ҳинд давлатини вужудга келтириш йўлидаги тажрибалари ва ютуқлари жаҳон сиёсатдонлари томонидан юқори баҳоланган. Буларнинг давлат бошқарувидаги тажрибалари бугунги кунда дастуруламал бўлиб хизмат қилмоқда[4.60-61].

Миллат номини улуғлаган алломалар хақида гап борганда, Мовароуннаҳр тарихида чуқур из қолдирган, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихида эса асрларга татигулик улкан бурилиш ясаган давлат арбоби, буюк саркарда, серқирра олим ва тенгсиз нозиктаъб шоир - Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида хорижий тилларда бир неча ўнлаб хилма-хил катта-кичик асарлар яратилган. XVIII асрнинг III чорагида инглизлар Ҳиндистонни босиб олгандан кейин улар жуда кўплаб қимматбаҳо осори атиқалар билан бир қаторда ноёб китоблар ва қўлёзмаларни ҳам ўз юртларига олиб кетганлар. Уларнинг кўплари ҳозирда Британия музейида ва Хиндистоннинг миллий музейларида сақланмоқда. Ана шу манбалар асосида инглиз ва ҳинд тарихчи, адабиётчи ва иктисодчи-файласуфлари Бобур ва бобурийлар ҳақида хам самарали изланишлар олиб бордилар ва жуда кўплаб илмий-тарихий асарлар яратдилар[5.3].

Бобурийлар жаҳон сиёсатида ўчмас из қолдирибгина қолмай, улар олиб борган сиёсат, иқтисод, ўз даврида Бобурий шаҳзодалар Ҳиндистонда буюк давлат барпо қилиш билан бир қаторда, ушбу юртда ободончилик ишларини олиб боришган ва мамлакатда илм-маърифатнинг юксалишига катта ҳисса қўшишган. Шунингдек, Бобур ва унинг авлодлари томонидан Тож Маҳал, Шоҳ Акбар мақбараси, Агра ва Деҳлидаги Қизил қалъалар каби маҳобатли меъморий обидалар барпо этилганки, улар ҳозирда ҳам нафақат ҳиндистонликларнинг, балки бутун дунёдан ташриф буюрадиган сайёҳларнинг севимли зиёрат масканлари ҳисобланади. [2.118]

Тарихдан маълумки, Бобурийлар сиёсати дунёнинг қатор олимлари ва тарихчилари тамонидан узоқ вақтлар давомида ўрганиб келинган.

Бобурийлар Ҳиндистонда ўз ҳукмронликларини мустаҳкамлаб олганларидан сўнг, ташқи дунё ҳукмронлари уларни Темурийлар хонадони давомчилари сифатида тан олишни лозим топдилар.

Бобур ҳинд юриши арафасида маҳаллий ҳиндпараст аҳолининг руҳияти ва кайфиятини ўрганган америкалик муарриҳ Персивал Спейир, жуда муҳтасар равишда жамиятда ҳукм сурган сиёсий аҳвол ҳақида баён этган. Уни таъкидлашича “Индуизимда интелектуал ва социал фаоллик мавжуд бўлишига қарамай у ҳар икки жиҳатдан ҳам ўзига нисбатан ғоялари, куч қудрати ва тажрибасига эга исломга мослашганлиги учун, ҳиндлар ўша кезлари бирор бир катта ҳаракатлар олиб боришга тайёр эмас эди” [3.101].

Шу ерда яна бир тарихчи Ибн Баттутанинг эсдаликларида қайд этилган ибораларга назар ташлайдиган бўлсак “Барқарорликда яшаш учун ҳиндларни зўрлаб исломга ўтказиш кутилган натижаларни бермаганлиги ва шундан сўнг талай маҳаллий ҳукмдорлар уларга бағри кенглик билан муносабатда бўлганлигини таъкидлаб ўтган” [3.101]

Бобур Ҳиндистонда ўз мавқеини тиклаш борасида катта тўсиқларга тўғри келганини кўришимиз мумкин. Аммо уни олиб борган сиёсати, маҳаллий аҳолидан давлат ишларида жалб этилишга тушганликлари, Бобур ташқи ва ички сиёсатининг асосий йўналишларидан бири бўлган.

Бобур ўз ички ва ташқи сиёсатини белгилашда ҳар тамонлама муносабатларни инобатга олган ҳолда олиб борди. У давлатни мустаҳкамлаб олгунга қадар қўшни давлатлар билан ўзаро сиёсий дипломатик муносабатларни ривожлантириши уни ташқи сиёсатни тўғри белгилагани, давлатда ички сиёсатига монанд равишда олиб боргани ғарб олимлари томонидан юксак баҳоланган.

Бобур ҳақида бири иккинчисини такрорламайдиган, инкор этувчи таҳлилларга дуч келамиз. Бобурийлар ташқи сиёсатини тадқиқ этишнинг назарий асосларини С.Лен-Пул, Денисон Росс, К.А.Антонова, У.Эрскин, Х.Ламб ва С.Азимжонова каби тадқиқодчиларнинг илмий-тадқиқий хулосалари сўзсиз эътиборга сазовордир.

Бобурнинг давлат арбоби билимдон сиёсатчиларга хос ҳусусиятлари Шимолий Ҳиндистон шароитида энг нозик ҳиндларга нисбатан диний муҳолифатда бўлишдан воз кечиш каби масалаларга нисбатан тўғри ёндашиши ҳал қилувчи рол ўйнайди [1.35].

Бобурийлар ташқи сиёсатини ўрганишда Жавоҳарлал Нерунинг манбаларига таяниб, Бобур сингари Акбаршоҳ ҳам Ҳиндистон ташқи сиёсатини пухта кўзланган стратегия асосида олиб борганини кўришимиз мумкин.

Давлат арбоби Жавоҳарлал Неру Акбаршоҳга қуйидагича таъриф берди “Ниҳол экилгандан сўнг уни мевасини сифатига қараб баҳоланса, ягона Ҳиндистон ҳақидаги кўҳна орзуни қайта тиклаган Акбаршоҳ даври, ҳудди ўша Бобур давлат арбоби сифатида ҳинд сарзаминига ўтказган ниҳолнинг меваси эмасмиди” [6.112].

Акбаршоҳ харбий, сиёсий, иқтисодий кучга ҳамда географик кенгликларга эга салтанат асосчиси бўлиш билан бирга, ташқи сиёсатга ўз фаоляти давомида ўзига яқин қўшни давлатлар билан сиёсий муносабатларида мактубот омилига ҳам катта сиёсий-дипломатик аҳамият берган. Ана шундай ҳужжатлар сирасидан саналган ва сақланган “Акбаршоҳ Ғозийнинг Турон мамлакати сипоҳдори Абдуллахон Ўзбекка ҳитобномаси”да Акбаршоҳ кучли сиёсатчи ва моҳир дипломат бўлганидан дарак баради. Шу билан бирга у ташқи сиёсатни олиб боришда мамлакат ички сиёсат барқарорлигини таъминлашга қаратилгани, ўша даврдаёқ бошқа давлатлар ички ишларига аралашмаслиги, диний низоларга сиёсий тус бермасдан ўз ақли ва заковати билан ҳал этиши уни кучли дипломат бўлганидан дарак беради.

Ҳинд тарихчиси Р.П.Трипатининг таъкидлашича: “Бобурийлар империясининг тантанаси унинг ҳарбий қудрати туфайлигина эмас, балки ўз сиёсатида диний эътиқод эркинлигини амалга оширгани ва маданий ҳаётга катта ҳисса қўшганлиги туфайлидир. Бу сиёсатни Бобур бошлаб берган эди”.

Бобурнинг Ҳиндистон тарихида тутган ўрни ҳакида Ж. Нерунинг яна бир илтифотий сўзлари у хакида ёзади: "Бобурнинг Ҳиндистонга келиши туфайли Ҳиндистонда буюк ўзгаришлар содир бўлди, санъат ҳаётида, меъморчилик ва маданиятнинг бошқа сохаларида янгича серилҳом тараққиёт юз берди" - деган сўзларида Ҳиндистон тарихида Бобур ва бобурийларнинг ўрни ва роли ғоят равшан ва объектив баҳоланган.

Фойданилган адабиётлар:

1. Бобур ва Бобурийларнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий анжуман материаллари. - Т.: ЎзРФА Фан, 2008.
2. Гадоев К., Бердиева С. Жаҳонгашта сайёҳ олимлар. -Т.: “O’ZBEKISTON”. 2012.
3. Низомиддинов И.Ғ. Ҳиндистонда ислом: тарих, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва ҳинд-мусулмон маданияти. ЎзРФА, 2008.
4. Очилова Г. Миллий давлатчилик тафаккури. // Jamiyat va boshqaruv. 2008. № 4.
5. Уильям Эрскин. БОБУР Ҳиндистонда. -Т.: “Чўлпон”. 1995.
6. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Жаҳон Иқтисодиёти ва дипломатия университети. Т., 2003.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ МАХОРАТИ ХАҚИДА (БОБУРНОМА АСОСИДА)



Абдуллаев Ботир Нуриллаевич
Низомий номидаги ТДПУ
Таджиева Юлдуз
Низомий номидаги ТДПУ

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йили 14 февралда Андижон шаҳрида темурийзода Умаршайх Мирзо хонадаонида таваллуд топган. У Соҳибқирон Амир Темурнинг учинчи ўғли Мироншоҳ Мирзонинг эварасидир.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур жаҳонга машҳур «Бобурнома» асари, ғазаллари, шеърий девони, арузга оид «Мухтасар»и билан шуҳрат топган. Шунинг билан бир қаторда Бобур буюк саркарда, моҳир дипломат ва давлат арбоби сифатида ҳам тарихда алоҳида ўз ўрнига эга.

Бобур яшаган давр темурийзодаларнинг сийсий ҳокимият учун ўзаро курашлари авж олган давр эди [1, 3-7 б.]. Ушбу сийсий кураш сахнасида Заҳириддин Муҳаммад Бобур муҳим сийсий шахс, етакчи, буюк саркарда сифатида тарихнинг ўчмас сатрларидан жой олган.

«Бобурнома» асарига таяниб фикр юритилса, Бобур ёшлигиданоқ бобоси Амир Темур давлатини қайта тиклашга, марказлашган давлатга асос солишга интилганини тушуниш мумкин.

Бобур чамаси 12-13 ёш пайтида Хуросон, хусусан, Ҳисорда темурий шаҳзодалар ва беклар сиёсий кураши кучайган. Султон Ҳусайн Бойқаро тасарруфидаги Ҳисорда Султон Маҳмуд мирзонинг беки Хисравшоҳ бош кўтариб, Бойқаро билан урушиб, икки марта унинг устидан ғолиб келади.

Бобур Ҳусайн Бойқаро ва унинг ўғли Бадиуззамоннинг Хисравшоҳ, укаси Вали ҳамда тарафдорларига қарши муҳорабасини чуқур таҳлил этади. Ҳусайн Бойқаро ва лашкарларининг муҳораба сирларидан огоҳ эмасликлари, аввало, ғаним ҳақида кам маълумотга эгалиги, душманни босиш, янчиш ўрнига иккиламчи ишларга берилишганини ёзади. У Ҳусайн Бойқаронинг икки ойлик ҳаракати маккор Хисравшоҳнинг оддий ҳийласи – Ҳусайн аскарлари жойлашган қўрғон, уйларга қалъа тешигидан тутун киритиб, уларнинг устидан осонгина ғолиб келганини афсус билан ёдга олган.

«Бобурнома»да Ҳусайн Бойқарони ўткир саркарда, қиличбозликда беназирлиги эътироф этилса-да, рақиб билан муҳорабада ҳужумдан кўра мудофаага кўпроқ эътибор бериши танқид қилинган. Юқоридаги ҳолатда ҳам Ҳусайн йигитлари тутундан диққинафас бўлган лашкарни кўриб ҳужумга ўтишга рухсат сўраганда у кеч бўлгани, қоронғу тушаётганлигини сабаб билиб, рухсат бермайди. Бобур Султоннинг бу амрини мазкур муҳорабадаги қаттиқ янглишиш сифатида баҳолайди.

Бобур ўша давр сиёсий манзарасини ўзининг “Бобурномасида” тасвирлар экан, ғалаба ва мағлубиятни ҳарбий куч, аскар ва зобитлар сони, ҳарбий восита, қуроллар кучи ва ўлчови билан белгилайди. Унингча, ғалабага эришиш учун рақибдан аскар сонига кўра устун бўлиш шарт эмас, балки тўғри танланган ҳарбий-сиёсий тактика, стратегия муҳим ва хал қилувчи омил деб билган.

Бобур темурийлар салтанатига ташқаридан бўладиган таҳдид ва ҳужумларни бирлашиб бартараф этиш тарафдори бўлган.

Ҳирот шаҳрига Ҳусайн Бойқаронинг икки ўғли – Бадиуззамон мирзо ва Музаффар мирзо – шерикликда ҳоким этиб тайинланган. Бобур бу ҳолатни салбий баҳолаган. Иккала шаҳзодага икки етук бек соҳибихтиёр сифатида тайинланган эди (Музаффар мирзога Муҳаммад Бурундуқбек, Бадиуззамон мирзога Зуннун арғун). Бобур бу икки бекнинг ҳам сиёсий, ҳам ҳарбий-стратегик қарашларини, уларнинг салтанат тақдирини ҳал этувчи жангга муносабатларини таҳлил этиб, ўз хулосаларини билдирган. «Муҳаммад Бурундуқбек ҳисоб билур киши эди» дер экан, Бобур биринчи навбатда унинг ҳимоя, ҳужум, лозим бўлганда, шикастсиз чекинишга доир мўлжалдаги режасига асосланади. Муҳаммад Бурундуқнинг тавсиясида барча кучларни бирлаштириш, саркардалар орасида якдилликка эришиш, асосий кучни тоғли ҳудудга олиб чиқиш назарда тутилган. Бу вазифани Бадиуззамон ва Зуннун Арғун бажаришлари, Ҳирот мудофааси билан эса ўзи ва Музаффар мирзо шуғулланишлари лозим эди.

Бобур нега Бурундуқнинг бу таклифини маъқулламоқда? Масала шундаки, бекнинг бу таклифи Бобурнинг ҳарбий назариясига ҳамоҳанг бўлиб, унга кўра, барча кучларни бир мақсад атрофида бирлаштириш (ҳатто Ҳирот мудофаасида ҳам шу назарда тутилган), душман ҳужумидан лашкарнинг ёппасига зарар кўриши олдини олиш, қолаверса, тоққа лашкар кўчириб, зарур вазиятда такрор ҳужумга ўтиш каби стратегик режалар кўзда тутиларди.

Бироқ, Бадиуззамон мирзога Бурундуқ таклифини қабул қилмасликни маслаҳат берган Зуннун арғун фақат ўз шахсий манфаатидан келиб чиқади ва Бадиуззамон унинг найрангига учади. Бобур темурийзодаларнинг Ҳиротда Шайбонийхонга енгилишларининг бош сабабини кўпроқ шу хиёнатда деб билади. Унинг назарида, бу уруш хуросонлик темурийзодаларнинг ҳарбий саводсизлиги, муҳораба сирларини билмасликлари, шахсий манфаатларга берилганликлари оқибатида ютқизилган.

Мазкур масалани янада ойдинлаштириш учун далил сифатида «Бобурнома»дан бир парчани келтиришни лозим деб билдик. Чунки Бобурнинг муҳораба санъати мазкур парчада аниқроқ кўзга ташланади. Бадиуззамон мирзо ва Музаффар мирзо шериклик билан подшоҳ бўлганларида Бадиуззамон мирзо эшигида Зуннун арғун улуғ бек, Музаффар мирзо эшигида эса Муҳаммад Бурундуқ барлос улуғ бек эдилар. Гарчи мардоналиги бўлса-да, лекин Зуннун бироз телбароқ ва гўл киши эди. Телба ва гўл бўлмаса, бундай хушомадни қабул қилиб, ўзини расво қилармиди?”[2, 134 б.]

Бунда Бобурга энг алам қилган жиҳат шуки, Зуннун арғун ғанимларнинг ҳийлаларини асос сифатида қабул қилган («...бир неча шайх ва мулло унинг

олдига келиб шундай дейдилар: “Авлиё Қутб бизга етказдики, сенга “Ҳизабруллоҳ” (Оллоҳнинг шери) лақаб бўлди. Сен ўзбакни енгасан »)[2, 134 б.]. Бобур Зуннун арғундек неча жангу жадал кўрган шахснинг сохта унвонга учиб иш кўришини ғирт аҳмақона амал, деб билади. У муллаларнинг, сен Шайбонийхонни албатта енгасан, чунки сенга шу унвонни бердик, деганига ишониб, «қирқ-эллик минг ўзбакнинг ўтрусида юз-юз элликча кишиси била ўқ олиб тебрарлар. Зуннунни олиб ўлтуруб, бошини кестилар» Кўп вақт ўтмай Шайбонийхон енгилгина Ҳиротни эгаллаб, ўз мақсадига эришади.

1502-1503-йиллар, яъни Заҳириддин Бобур темурийзодаларнинг ўзаро низо ва курашларидан озор чекиб, енгилиб, борар ерини билмай, Тошкентдаги хон додалари, қариндошлари томон отланган пайт. Шунда ҳам у Андижон ёки Самарқандни эгаллаб олишни эмас, энди-энди бош кўтараётган Шайбонийхонга қарши курашишни бош мақсад деб билган. Бироқ султонзодаларга унинг бу борадаги фикри бориб етмаганидан афсусланади ва бу қарашига Саъдий Шерозийнинг рубоийси билан урғу беради: «Шайбоқхондек ғаним пайдо бўлибтур, мунинг зарари туркка ва мўғулға мусовидур. Мунинг фикрини ҳололиқтаким, улусни ҳануз яхши босмайдур ва кўп улғаймайдур, қилмоқлик вожибдур. Нечукким, дебдурлар: Имрўз бикуш чу метавон кушт, Оташ чу баланд шуд жаҳон сўхт. Магзорки зиҳ кунад камонро, Душман чу ба тир метавон дўхт». (Мазмуни: Кучинг етар экан, оловни вақтидаёқ ўчир. Агар аланга олса, жаҳонни куйдиради. Душманни ўқ билан уришга қодир экансан, уни камон керишига қўйма)[3, 2 б.]

Заҳириддин Бобурнинг бу қараши кўп вақт ўтмай ўз исботини топа бошлайди. Бобур бу ҳийлакор, кучли ғанимидан қўрқмади. У иккинчи марта Самарқандни эгаллаганида Шайбонийхон шаҳар қалъасини қамал қилиб, ичкарига киришга уринади. Қамалда қолган Самарқанд аҳли Бобурга ёрдам беради. Бобур Ҳусайн Бойқаро ва темурийзодалардан кўмак кутади, уларни бирликка чақиради, аммо «Султон Ҳусайн мирзодек мардона ва тажрибали подшоҳ бизга мадад қилмай, кўмаклар бериб элчи юбормай, Шайбоқхонга қамал пайтида Камолиддин Ҳусайн Гозургоҳийни элчиликка юборди» [2, 83 б.]

Бу эса Заҳириддин Бобурга қаттиқ таъсир қилади. Бир томондан, қамалда қолган Самарқанд аҳлининг ночор аҳволи, иккинчи томондан, Бобур сафдошларининг номардлиги муҳораба майдонида ғолиб келишга бўлган барча интилишларни пучга чиқаради. Бунинг устига Шайбонийхондан ташқари, Бобурни таъқиб этиб юрган Аҳмад Танбал Андижондан Пскентга келган. Бироқ унга қарши турадиган Султон Маҳмудхон бу иши уддасидан чиқадигани эмас эди. Бобурнинг бу шахсга берган баҳосида ўзининг ҳарбий маҳоратга муносабати акс этган. Унингча, бек, аскар жангда душмандан қўрқса, уларнинг қадри йўқ. Кураш – мардлар майдони: «Султон Маҳмудхон уруш одами эмас эди. Сипоҳийликдан жуда баҳрасиз эди, Танбал билан юзлашган пайтда хонда юраксизларга хос ҳолат ва кайфият зоҳир булади. Аҳмадбек турк киши эди, бироқ мардона ва хайрихоҳ одам эди. Ажойиб қаттиқ бир гапни хонга айтади: “Бу

Танбал ўзи қанчалик кишидирки, бунча таҳлика ва тараддуд тортасиз. Агар кўзингиз қуркса, кўзингизни боғлаб юзлашинг!»[2, 84 б.].

Бу фактларда Бобурнинг уруш олиб бориш услубига хос бир шакл кўзга ташланади. Унингча, киши қанчалик моҳир бўлмасин, ёв билан олишишда аниқ мақсади, юракдан интилиши билан бирга, албатта, атрофдагиларнинг садоқати, кўмаги зарур. Яъни, юксак ҳарбий маҳоратни рўёбга чиқариш учун аниқ фикр, қараш, стратегия муҳим: «Бурунгилар дебдурларки, қўрғон беркитмоқликка бош керак; икки қўл керак; икки оёқ керак: бош сардор бўлади. Икки қўл – икки томондан келадиган кўмак ва мадад бўлади. Икки оёқ – қўрғоннинг захираси билан суви бўлади. Биз бу атроф ва теварвкдагилардан кўмак ва мададга кўз тутамиз, уларнинг ҳар қайсиси ўз дарди билан овора» [2, 83 б.].

Заҳириддин Бобур ўзининг ҳисобсиз жанглари давомида ушбу ҳарбий назариясига амал қилган. У хоҳ Хуросон, хоҳ Афғонистон ёки Ҳиндистондаги вилоятлар, қишлоқ ва шаҳарларни ўз тасарруфига киритаркан, кейинги юришларида юқоридаги қарашига содиқ қолган. Бу унинг буюк аждодларидан олган сабоғи эди. Унингча, агар темурий шаҳзодаларда бирлик ҳукм сурганда, Шайбонийга Самарқандни қолдирмас, у билан ўзи истамаган сулҳга рози бўлмас эди («агар бир тарафдан умидворлиқ бўлса эди, ё заҳира бўлса, сулҳ сўзига ким қулоқ солар эди») [2, 84 б].

Бобур ҳарбий юришлари давомида қўрқмаслик, жонфидолик, лашкарни ўзига эргаштириш, уруш майдонида шахсий мардлик кўрсатиш, хиёнатга нафрат, оддий аскар жасоратини қадрлаш, ҳар бир муҳорабага янгича ёндашиш, бой берилган жангдан андуҳга тушмасдан сабоқ олиш каби хислатларни ўзида тарбиялади, шуларга амал қилди. Масалан, у афғон ва ҳинд ўлкаларини бирин-кетин эгаллаб, туркийлар тасарруфидаги юртларга кирганида, лашкарларига бу юрт аҳолисининг мол мулкига тегмасин дея фармон берган. “Ҳеч ким буларнинг сурув-подаларига тегмасин, улар ипининг учи ҳам узилмасин, игнаси синмасин, атроф жойлардагиларга зарар ва нуқсон етказилмасин, деб фармон берилди” [2, 169 б.].

Бобур Мовароуннаҳрда, Ҳисорда олиб борган жангларда Султон Маҳмуд мирзонинг машҳур беки Хисравшоҳ билан кўп тўқнашган. «Бобурнома»да бу шахс ҳақида анча батафсил маълумот берилган. Толе унга рост келиб, лашкарлари сони 20-30 мингдан ошганини таъкидлаган Бобур, Хисравшоҳда муҳораба саводининг чалалиги, уруш вазиятини саркарда сифатида яхши билмаслиги боис шармандаларча шикаст топганини ёзади. Бунгача у Хисравшоҳ шахсиятига баҳо берар экан, уни шахс сифатида ҳам, лашкарбоши сифатида ҳам салбий баҳолайди. Шайбонийхон Ҳиротни эгаллагач, Қундузда макон топган Хисравшоҳни ҳам таъқиб этади. Хисравшоҳ Бобур пойтахт этган Кобулга қараб юриш қиларкан, ўзининг паст ахлоқлиги, зулми боис лашкарлари мол-мулкларини кўтариб уй-уйларига кетишади, кўпчилиги Бобур томон ўтади. Бундай вазиятда Бобур иқтидорли лашкарбоши сифатида иш кўради: Ҳиротдан бирга қайтаётган кам сонли аскарлари билан Ҳиндукуш тоғидан қийинчилик билан ошганига қарамай, Души водийсидаги Андароб дарёси ёқасида ҳарбий

жиҳатдан кучли, аммо айни пайтда забунликка юз тутаётган ғаними Хисравшоҳ билан учрашади. Ўзи оғир ҳолатда, Шайбонийхон таъқибидан Қандаҳордан Кобулга чекинаётган бўлса-да, юксак мардлик, шижоат, ўзига ишонч билан минглаб лашкарли Хисравшоҳни сулҳга мажбур этади. Унинг бу ҳарбий тактикаси кейинроқ унга Ҳиндистонда кам сонли лашкар билан кўп сонли ғаним устидан ғолиб чиқишида яхши тажриба сифатида жуда қўл келади.

Дастлаб Бобурни юз минг, балки икки юз минг лашкари, икки мингдан ортиқ жанговар фили ва қанчадан-қанча ҳарбий восита ва қуроли бўлган ҳинд саркардаси Иброҳим Лўдийга қарши курашиш ваҳимаси босади. Бироқ кўплаб муҳорабаларни кўрган, Хисравшоҳдек донгдор саркардани идрок ва уруш саводи билан енгган Бобур, аввало, Лўдийни рақиб сифатида яхши ўрганади. Ҳиндистондаги номувофиқ сиёсий ҳолат, рожаларнинг тарқоқлиги, уларнинг Иброҳим Лўдий ҳукмронлигидан безгани Бобурнинг бу ўлкага кириши учун қулай шароит туғдиради.

Бобур Панипат жангга киришдан аввал рақибни заиф жиҳатларини чуқур ўрганишга жиддий эътибор берган. У жойларга ўз кишиларини юбориб, маълумот йиғган («У қароргоҳдан чиқиб қирғоқ бўйлаб пастга қараб икки манзил юрган эдик ҳамки, “тил” тутишга борганлардан Ҳайдарқули Довудхон Ҳайтим хонни беш-олти минг кишиси билан Миёни Дуоб тарафига ўтказибди. Иброҳимнинг доирасидан уч-тўрт курўҳ берида доира уриб ўтирганмиш, деган хабарни келтирди») [2,197 б.]. «Бобурнома»да Бобурнинг “разведка” хизматидан кенг фойдалангани ҳақида шу каби кўпгина маълумотлар мавжуд.

Бобур, аввало, рақиби Иброҳим Лўдий характерининг нозик жиҳатларигача, оила аъзолари, онаси, хуллас, керакли деб ҳисоблаган жамики маълумотларга эга бўлганидан сўнггина унга қарши курашга киради. Масалан, Иброҳим Лўдий қанчалик бой бўлмасин, табиатида мумсиклик, баҳиллик ғолиблигини билган Бобур Ҳиндистонни забт этгандан сўнг Иброҳим қўл остидагиларни ўзига тобе этиб, ер, мулк, катта инъомлар беради.

Иброҳим Лўдий ҳақида батафсил маълумотга эга бўлган Бобур унинг хусусиятларини қуйидагича қисқа, аниқ баён этади: «Тангри таоло бизни ёрлақади, у на навкарларини рози қила олди, на хазинасини улаша олди. Табиатида бахиллик ғолиб келган одам қандай қилиб йигитларини рози қила олади. Ўзи пул йиғишга беҳад берилган, тажрибасиз, ғўр бир йигит эди. Унинг на келиши ва туришида саранжомлик, на юриши ва урушида ғайрат-иштиёқ бор эди» [2, 198 б.]. Ушбу парчадаги охирги иборага эътибор бериб қаралса, унда Лўдийнинг урушга лаёқати йўқлиги барча камчиликларидан сўнг ифода этилган. Бу билан Бобур уруш майдонидаги ютуқ, муҳораба илми, аввало, саркарданинг юксак инсоний хусусияти, қўл остидагиларга одилона муносабати, шахсий намуна кўрсатиши билан боғлиқлигини билдирмоқда.

Бобур рақиби Иброҳим Лўдий билан боғлиқ ҳинд ўлкасига оид барча маълумотларга эга бўлгач, урушга тайёрланишга киришади: хабарчилари (разведка) орқали етказилган маълумотларини жамлайди, умумлаштиради, хулосалар чиқаради. Разведка маълумотларида душманнинг қадам-бақадам

ҳаракати, сони, қайси маҳалда қўним топганигача аниқликда берилган. Иброҳим кучини аниқ тасаввур этиш учун «тил» қўлга олиш ҳам режалаштирилган: «Иброҳимнинг ўрдасидан ҳам унинг бир курўҳ-икки курўҳ юриб, ҳар бир қароргоҳда икки-уч кун тўхтаб-тўхтаб келаётганлиги ҳақида тинимсиз хабарлар кела бошлади. Биз ҳам олдинга қараб йўл олдик. Шоҳободдан чиққач, икки манзилда тўхтаб, Сарсаванинг тўгрисига – Жуун дарёси қирғоғига келиб тушдик. Хожа Калоннинг навкари Ҳайдарқули “тил” ушлаб келиш учун юборилди. Бобур жангга киришишдан олдин бу ернинг иқлимидан тортиб, географик шароитигача инобатга олган. Ана шу тадбирлар маромига етгандан сўнг урушни олиб боришга ҳозирлик кўрилади. Бунда Бобур аввалги муҳорабаларда орттирган тажрибасидан келиб чиқиб, қурол-аслаҳасига ўзгартишлар киритади, «Рум дастури била» ҳарбий аробаларни урушга мослайди. Бу иш анча вақтни олса-да, сабр билан кутади: «Рум усули билан аравалар орасига занжир ўрнига ҳўкизнинг хом терисидан арқон эшиб тасма қилиб бир-бирига боғлашни буюрдим. Ҳар иккита арава ўртасига олти-етти тўра (қалқон) қўйилади. Милтиқлилар шу арава ва тўра – қалқонлар ортида туриб, милтиқ отадилар. Бу қуролларни тайёрлаш учун беш олти кун шу ерда қолиб кетдик» [2, 198 б.].

Иброҳим Лўдийнинг икки мингга яқин урушқоқ фили Бобурни кўп ўйлантиради. Бунинг устига, жанговар кемалари ҳам душманнинг куч жиҳатдан устунлигини таъминлаган. Шу боис, у жанговар тўп ясаш устида жиддий ишлайди. Унинг Уста Алиқули билан бирга олиб борган узоқ изланишлари ўзининг юксак натижасини беради: мисли кўрилмаган, 1500-2000 метргача бўлган нишонни уришга қодир тўплар яратилади. Бу аслаҳадан Иброҳим Лўдийнинг тўпни кўрмаган аскарлари ваҳимага тушади, тўплардан ғанимнинг кемаларига қаттиқ зарбалар берилади: «Бир неча кун – то кўприк қурилгунича, устод Алиқули тўпдан яхши тошлар отди. Биринчи кун саккиз марта тўп отди, иккинчи кун ўн олти марта отди» [2, 249 б.].

Бобур урушга тўла-тўкис ҳозирлик кўргандан сўнг, охирги масалага ўтади, яъни бўлажак муҳорабани барча бек, султон ва аскарлари билан маслаҳатлашиб олади. «Бобурнома»даги далиллар шундан гувоҳлик берадики, Бобур қайси муҳораба, жанг ва тўқнашувга бормасин, ўз қўл остидагиларининг маслаҳатисиз иш кўрмаган. Айрим ҳолатларда у ўзи, ҳеч кимнинг фикрини қабул қилмай ҳукм чиқарган. Масалан, Ҳиндистондаги юришларидан бирини бошлаш арафасида мунажжими уни жангга киришдан тўхтатмоқчи бўлади. Бироқ ўз кучи, аскарлари шижоатига ишонган Бобур жасорат кўрсатиб, муҳорабани бошлайди ва ғалабага эришади: «Муҳаммад Шариф мунажжим шумнафас менга айтолмаётган булса-да, йўлида дуч келган одамга: шу кунлари Миррих ғарб томонда турибди, кимки шу тарафдан туриб уруш қилса – енгилади, деб муболағалар билан ишонтиришга уринарди. Унинг бундай бекорчи гапларини эшитиб ҳам ўтирмай, қилаётган ишларимизни тўхтатмай, урушга астойдил тайёрланиб, жангга шай бўлиб турдик» [2, 232 б.].

Унинг қўл остидагилари билан бамаслаҳат иш кўриши кўпинча яхши натижалар билан тугаган, лашкарбоши сифатидаги обрўсининг юксалишига сабаб

бўлган. Масалан, у Аҳмад Танбал билан олиб борган урушнинг энг мураккаб лаҳзасида ўз қарорини беклари билан ҳамфикрликда ҳал қилишни маъқул кўради: «... йигитларни тайин қилмоқ ва уруш тараддудида эдик ҳамки, Шайх Боязид, Қанбар Али ва Муҳаммад Дўст Танбал қошидан сулҳ тузгани шитоб билан келдилар. Урушга тайин бўлганларни жой-жойига қўйиб, кенгаш қилмоққа отамнинг мақбарасига келиб тушиб, Жаҳонгир мирзони ҳам чорладим. Муҳаммад Дўст қайтиб кетди. Шайх Боязид билан Қанбар Али келдилар. Мақбаранинг жанубий айвонида ўтириб кенгашаётган эдик» [2, 94 б.].

Иброҳим Лўдийга қарши уруш бошлашдан олдин Бобур ҳамманинг ризолигини олади, бўлажак қаттиқ уруш шароити билан бекларини таништириб, уруш режасини ўртага қўяди: « Ушбу асбоб ва қуроллар тайёр бўлганидан сўнг биз беклар ва билимдон сара йигитларни чақириб, умумий кенгаш ўтказдик. Панипат – бутун бир шаҳар. Унинг маҳалла ва уйлари кўп, бир томонимизда атрофдаги маҳалла ва уйлар бўлса, иккинчи тараф арава ва қалқонлар билан тўсилади, милтиқли ва пиёдалар арава ва қалқон ортига жойлаштирилади, деган фикрда тўхтадик» [2, 198 б.].

«Бобурнома»да Панипат жанги батафсил баён этилган. Унда тадбиркор, ишбилармон, моҳир саркарда, қўрқмас жангчи Бобурнинг юксак ҳарбий жасорати, жангчилик маҳорати ўз аксини топган.

Жанг Бобур фойдасига ҳал бўлиб, у жуда кам сонли лашкари билан қарийб икки юз минг жангчи, кучли ҳарбий аслаҳа ва воситаларга эга Иброҳим Лўдий устидан ғалаба қозонади. Муҳорабада ғолиб келиш учун лашкар сони муҳим эмаслигини, ҳарбий савод, мардлик ва жасорат, идрок ва ижодкорлик билан бирга саркарданинг юксак инсоний фазилатлари, хиёнатга муросасизлигини бош омил деб ҳисоблаган Бобур ҳақ бўлиб чиқади – унинг ҳарбий назарий қарашлари яна бир карра исботини топади.

Юқорида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳарбий маҳоратининг айрим қирраларини “Бобурнома”га асосланган холда ёритишга уриндик. Буюк саркарданинг ҳарбий истеъдодига оид тарихий манбалар кўп. Ишонамизки, бобокалонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг серқирра хаёти ва ижоди хали кўпгина тадқиқотларга асос бўлиб хизмат қилади. Бу тадқиқотлар адабиёт, санъат, тарих, сиёсатшунослик, ҳарбий соҳа, дипломатия каби йўналишларда амалга оширилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 25 январдаги “Буюк шоир ва олим, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 540 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ПҚ-20-сонли Қарорида белгиланган вазифаларни ижроси сифатида хизмат қилган бўлар эди.

Адабиётлар

1. Хасанов С. Захириддин Муҳаммад Бобур. Тошкент, Ўзбекистон, 2011. 88 б.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Халқаро Бобур фонди. “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент. 2008. 288 б.

3. Qudratullaev X. Bobur haqida uch maqola. // *«O'zbekiston adabiyoti va san'ati». 2004-yil № 7.*
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Биринчи нашр. – Т.: Шарқ. 2014. 744 б.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSI G'ARB TADQIQOTLAR DOIRASIDA

Abdullayev Mirzobek Norbek o'g'li
O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada Bobur ilmiy merosining G'arb olimlari tomonidan o'rganilishi jarayoni, asosiy tadqiqotchilar va ularning izlanishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Bobur ijodining jahon ilmiy maydonidagi ahamiyati, tarjimalari va interpretatsiyalari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, G'arb tadqiqotlari, ilmiy meros, tarix, bobur shunoslik, fundamental, Leyden Jon, lingvistik, adabiyot.

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo u 1483-yil 14-fevralda Farg'ona vodiysida tug'ilgan (1530-yil 26-dekabr) — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo'lgan. Amir Temurning pannevarasi Bobur o'z davrining buyuk shaxslaridan biri edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan ilimga chanqoq bo'lib, o'z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo'lgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk shoir, tarixchi va davlat arbobi sifatida nafaqat Sharqda, balki G'arb olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Uning ilmiy merosi, ayniqsa, "Boburnoma" asari G'arb tadqiqotchilari diqqat markazida bo'lib, tarix, adabiyot, lingvistika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan.

Bobur va uning merosi yevropalik va sharqshunos olimlar tomonidan keng o'rganilgan.Uning asarlari fransuz, ingliz, rus, fors, urdu kabi tillarga tarjima qilingan va ilmiy tahlil qilingan.Hindiston, Markaziy Osiyo va umuman islom olami tarixini o'rganishda Bobur haqidagi tadqiqotlar muhim manba hisoblanadi.

"Boburnoma" o'zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma'lum va mashhur qomusiy asari. Bu memuarda O'zbekiston, Afg'oniston va Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlari, o'ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabotot olami to'g'risida bebaho ma'lumotlar mavjud. Bu nodir manbaning turli tillarga tarjima qilingan nashrlarini qo'ya turaylik, o'zimizda mumtoz asarlari yuzasidan tuzilgan mukammal izohli lug'atlar ham kamchilikdan xoli emas. Bugun "Boburnoma"ni nozik jihatlarigacha teran anglab, tadqiq eta oladigan bobur shunoslar borligiga aminmiz [1].

XIX asrdayoq G‘arbiy Yevropada paydo bo‘lgan va XX asrda rivojlanish bosqichiga kirgan boburshunoslik ilmi endi nafaqat shakllandi, hatto bu sohada “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” va “Zahiriddin Muhammad Bobur “Bibliografiya” (Moskva, 2016) singari fundamental nashrlar ham dunyo yuzini ko‘rdi [2]. Boburshunoslik yurtimizda istiqlol yillaridan keyin rivojlangan bo‘lsa, Yevropada ancha oldin Bobur shaxsiga qiziqish uyg‘ongan edi. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonda tuzgan imperiyasi va ilmiy merosi borasida turli xil olimlar izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan.

Jahonning mashhur boburshunoslari Eyji Mano (Yaponiya), Magda Maxluf (Misr), Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov (O‘zbekiston), Mansura Haydar (Hindiston), Ilza Sirtautas (AQSH), Ramiz Asker (Ozarboyjon), Bilol Yujel (Turkiya) [3]. Bu olimlar jahon boburshunosligining yetuk vakillari bo‘lib, Bobur va uning ijodi, shuningdek, “Boburnoma”ning tarixiy, adabiy va lingvistik jihatlarini chuqur tadqiq qilganlar. Eyji Mano va Magda Maxluf kabi olimlar esa Sharq va G‘arb ilmi o‘rtasida ko‘prik yaratib, Bobur merosining dunyo miqyosida tanilishiga xizmat qildilar.

Ushbu olimlarning sa’y-harakatlari bilan bugungi kunda boburshunoslik mustahkam ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan.

Leyden Jon (1775, Denholm,-1811, Indoneziya) - shotlandiyalik shoir va sharqshunos, ilk G‘arb boburshunoslaridan. Sharq tillariga qiziqqan, arab va fors tillaridan she’rlar tarjimalar qilgan. 1803 yilda vrachlik qilish uchun Hindistonga borgan. 1810-yilda “Boburnoma’ning asli, ya’ni o‘zbekchasi bilan tasodifan tanishib, uni tarjima qilishga kirishadi va vafotigacha birinchi qismini o‘girishga ulguradi. Bundan xabardor bo‘lgan NM. El’finston tarjimani davom ettirishni fors tili bilimdoni U.Erskindan iltimos qiladi. “Boburnoma”'ni fors tilidan mustaqil tarjima qilishga kirishgan U.Erskin, J.Leyden tarjimasi bilan tanishib, uning davomini fors tilidagi Abdurrahimxon tarjimasi asosida oxiriga yetkazgan. Kitob 1821 yilda ikki jildda ikki tarjimon nomi ostida nashr etiladi. U Yevropada boburshunoslikka katta turtki beradi. Bu tarjimadan “Boburnoma” ilk marotaba nemis tiliga o‘girilgan [4].

Leyden Jonning hayoti va ilmiy faoliyati G‘arbda boburshunoslikning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Uning “Boburnoma” tarjimasi to‘liq yakunlanmasa ham, keyingi tadqiqotchilar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilgan. Afsuski, u juda yosh vafot etgan, aks holda Sharq tadqiqotlariga yana ko‘plab hissalar qo‘shishi mumkin edi. U yaratgan ilmiy meros Yevropada nafaqat Boburshunoslik, balki umuman, Sharq adabiyotiga qiziqishning ortishiga turtki bo‘ldi.

N.I.Ilminskiy “Boburnoma”ni birinchi bo’lib nashr ettirgan (Qozon universiteti bosmaxonasi, 1857-yil). Bu nashr “Boburnoma”ning keng yoyilishi va o’rganilishiga yo‘l ochgani bilan boburshunoslik tarixida muhim o‘rin tutgan. “Boburnoma”ni nashrga tayyorlagan keyingi tadqiqotchilar bevosita yoki bilvosita Ilminskiy nashridan foydalangan. Olim “Материалы для жагатайского спряжения по “Бобурнаме” ” asarida (1863-yil) “Boburnoma” asosida eski o‘zbek tilining grammatikasini tadqiq etgan [5]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Ilminskiyning yondashuvi, ayniqsa, lingvistik tahlili juda muhim bo‘lsa-da, uning ilmiy faoliyati o‘sha davr rus imperiyasining mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liq edi. U Turkiston va Volgabo‘yi

xalqlari tillari va madaniyatini o‘rganish orqali asosan missionerlik va rusifikatsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlagan. Shu nuqtayi nazardan, uning ilmiy ishlari faqat ilmiy manfaatlar bilan cheklanmagan, balki ma’lum siyosiy maqsadlarga ham xizmat qilgan deb baholash mumkin. Biroq, Ilminskiy nashr etgan “Boburnoma” keyinchalik ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ishlatilgan va bobur shunoslik ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning chop etilishi turli tadqiqotlarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan bo‘lsa-da, mazkur yondashuvni har tomonlama baholash muhimdir.

Magda Salah Maxluf Misr davlatining “Ayn Shams” universiteti, san’atshunoslik fakulteti professori.Professor Maxluf, shuningdek, arab adabiyotida Zahiruddin Muhammad Boburni tanishtirish orqali o‘zining ilk arabcha tadqiqoti bilan ulkan hissa qo‘shdi, chunki u Bobur nomi bilan tanilgan Bobur xotirotlari jamlangan “Boburnoma” asarining ilk arab tiliga to‘liq tarjimasini amalga oshirdi.

Erskin Uilyam (Vilyam; 1773-1852) - shotlandiyalik sharqshunos va tarixchi. Qirollik oliy maktabini tugatganidan so‘ng Edinburg universitetida yuridik fanlari bo‘yicha doktorlik unvonini olgan. 1804 yilda Hindistonga borib Bombeyda sud sohasida ish boshlagan. 1809 yilda Madrasda ishini davom ettirgan. Hindistonning o‘rta asrlardagi tarixi bilan jiddiy shug‘ullangan. "Boburnoma” ni forscha tarjimasidan ingliz tiliga tarjima qilib, mukammal qilgan. Bobur va Boburiylar tarixiga oid bir necha kitob yozgan. Aynan,ushbu tadqiqotchilarning tarjimasi orqali “Boburnoma” asari Yevropa va boshqa davlatlar bo‘ylab keng tarqalishda davom etgan, hamda ularning tadqiqotlari Boburiylar tarixiga oid qimmatli qo‘llanma hisoblanadi. Muxtasar qilib aytganda, ushbu tarixchining Boburiylar uchun qo‘shgan hissasi juda qimmatli bilim manbayidir.

Umuman olganda, Bobur nafaqat o‘z davrining yirik davlat arbobi, balki ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan alloma sifatida ham jahon ilmiy maydonida yuqori baholanadi.Ushbu shox va shoir haqida biz bilmagan juda ko‘p narsalar bor va bu kelajak avlod tomonidan yana ham chuqurroq o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://cyberleninka.ru/article/n/zahiriddin-muhammad-boburning-ilmiy-ijodiy-merosining-milliy-madaniyatimiz-va-xalqimiz-adabiy-estetik-tafakkurining/viewer
2. O‘sha manba
3. O‘sha manba
4. Bobur ensiklopediyasi. Uchinchi nashr. Toshkent., 2023 y. 618-bet. (A.Madraimov).
5. https://baburid.uz/library/academics
6. Bobur ensiklopediyasi. Uchinchi nashr. Toshkent., 2023 y. 618-bet. (B.Yo‘ldoshev).

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SARKARDA VA ADIB

Abdurazzakova Munisa Yusufjon qizi
Farg'ona davlat universiteti nemis va
fransuz tillari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi va uning bugungi ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Bobur nafaqat buyuk sarkarda, balki ilm-fan, adabiyot va madaniyatga katta hissa qo'shgan shaxs sifatida ham tanilgan. Uning "Boburnoma" asari ilmiy va tarixiy manba sifatida hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada Boburning Hindiston va O'rta Osiyodagi ilmiy markazlar va madaniy taraqqiyotga qo'shgan hissasi, shuningdek, uning ilmiy ishlari va bugungi kunda ilm-fan sohasidagi ta'siri ko'rib chiqiladi. Boburning merosi hozirgi zamon olimlari va tarixchilari uchun ilhom manbai bo'lib, uning ilmiy izlanishlari bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.
Kalit so'zlar: Bobur, Boburnoma, Boburiylar saltanati, Panipat jangi, o'zbek adabiyoti, tarix, shoir, davlat arbob, Zahiriddin Muhammad Bobur, ilmiy meros, Boburnoma, tarixiy asar, madaniyat va ilm-fan, Hindiston, O'rta Osiyo, ilm-fan taraqqiyoti, astronomiya, matematika, adabiyot.

Zahiriddin Muhammad Bobur – o'zbek xalqining buyuk siymolaridan biri, mashhur sarkarda, davlat arbobi va yozuvchi edi. U nafaqat ulkan saltanat barpo etgan, balki adabiyot va ilm-fan rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Uning hayoti, ijodi va siyosiy faoliyati bugungi kunda ham dolzarb va qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadi. Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyatining hukmdori bo'lgan. Bobur yoshligidan davlat boshqaruvi sir-asrorlariga qiziqqan va harbiy ilmlarni o'rgangan. Otasi vafotidan so'ng, 12 yoshida taxtga o'tirgan bo'lsa-da, kuchli raqiblari tufayli Farg'ona taxtini mustahkam ushlab tura olmadi. Shundan so'ng, u Samarqandni egallashga harakat qildi, biroq muvaffaqiyatsizlikka uchradi va nihoyat, 1504-yilda Kobulni zabt etdi. Bobur uzoq yillar davomida o'z davlatini mustahkamlashga harakat qildi. 1526-yilda u Panipat jangida Delhi sultoni Ibrohim Lo'dini mag'lubiyatga uchratib, Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Hindiston tarixidagi eng qudratli davlatlardan biriga aylandi. Bobur o'z harbiy iqtidori va siyosiy donoligi bilan butun Hindistonni boshqarishga muvaffaq bo'ldi. Bobur shoh bo'lish bilan birga, yuksak savodli shoir va yozuvchi ham edi. Uning "Boburnoma" asari dunyoga mashhur bo'lib, bu tarixiy xotiralar turkumidagi eng muhim asarlardan biridir. Ushbu asar orqali Bobur o'z hayoti, yurishlari va davrining siyosiy voqealarini batafsil tasvirlab bergan. Bundan tashqari, Bobur she'riyatga ham katta e'tibor bergan va nafis g'azallar bitgan. Bobur 1530-yilda vafot etdi va avval Agra shahrida dafn qilindi, keyinchalik uning xoki Kobulga ko'chirildi. Boburning siyosiy va madaniy merosi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Boburiylar saltanati uning avlodlari tomonidan uzoq yillar davomida boshqarilib, Hindiston madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk

sarkarda, iste’dodli shoir va mohir davlat arbobi edi. Uning hayoti va ijodi nafqat o‘zbek xalqi, balki butun dunyo uchun katta ahamiyat kasb etadi. Boburning mehnati va merosi bugungi avlodga ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur — O'rta Osiyo va Hindiston tarixida juda muhim shaxs bo'lib, nafaqat sarkarda, balki olim, shoir va adib sifatida ham tanilgan. Boburning ilmiy merosi o'zining xalqiga va butun dunyoga ta'sir ko'rsatgan. Uning ilm-fan, adabiyot va san'atlarga qo'shgan hissasi, ayniqsa, bugungi kunda uning merosining davom ettirilishi va ilmiy taraqqiyotdagi o'rni katta ahamiyatga ega. Bobur ilm-fan va madaniyatga juda katta e'tibor bergan shaxs edi. Uning o'z davrining ilmiy yutuqlaridan va madaniy merosidan foydalanib, keyinchalik o'zining ilmiy izlanishlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratgan. Bobur "Boburnoma" asarini yaratganida, nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlagan, balki o'sha davrning madaniy, ilmiy va ilmiy-texnik yutuqlarini ham o'z asarida aks ettirgan. "Boburnoma" ilm-fan va tarixni o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi, chunki unda Boburning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Boburning siyosiy yutuqlari faqat uning imperiyasining hududini kengaytirish bilan cheklanib qolmadi, balki ilm-fan va madaniyat sohasida ham katta iz qoldirdi. U Hindistonda va O'rta Osiyoda ilmiy va madaniy markazlarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Bobur Hindistonda ilm-fan va san'atni rivojlantirish uchun ko'plab ilmiy markazlar tashkil etishga harakat qildi. Bu markazlarda falsafa, tibbiyot, astronomiya, matematika kabi sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Boburning ilmiy merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Uning asarlari va ilmiy izlanishlari bugungi kunda ilm-fan va tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Misol uchun, Boburning astronomiya va geometriya sohasidagi ishlari, ularning bugungi zamon ilm-fanida qanday qo'llanilishini o'rganish ilmiy izlanishlar uchun zarur bo'lib qoladi. Boburning ilmiy merosining bugungi kunda o'rni shundaki, uning asarlari va tadqiqotlari yangi avlod ilm-fan namoyandalari uchun katta ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Uning tarixiy yozuvlari va ilmiy tafakkuri bugungi zamon tarixchilari va olimlari uchun qiymatli resursdir. Shuningdek, Boburning siyosat, adabiyot va madaniyatga oid qarashlari nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo xalqlari uchun o'rganilishi kerak bo'lgan boy ilmiy merosdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining ilmiy va madaniy merosi orqali dunyo tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan shaxsdir. Uning ilm-fan sohasidagi yutuqlari va asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Boburning ilmiy merosi, tarixiy, siyosiy va madaniy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u bugungi ilm-fan taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, Boburning ilmiy merosi va uning bugungi kunda ilm-fan va madaniyatdagi o'rni haqida yanada chuqurroq o'rganish va uni kelajakda yanada rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bobur, Z. (1992). *Boburnoma*. Toshkent: Akademnashr.
2. Iskandarov, T. (2007). *Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ilmiy merosi*. Toshkent: Fan.

3. Muminov, R. (2005). *Bobur va uning zamonasi*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
4. Shukurov, S. (2012). *Bobur va ilm-fan*. Toshkent: Sharq.
5. Nasr, S. H. (2009). *Islamic Science and the Making of the Modern World*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Gafurov, B. (2010). *Markaziy Osiyo va uning ilmiy merosi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
7. Saidov. A. (2011). *Bobur va Hindiston*. Toshkent: O'zbekiston.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSINING BUGUNGI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri, pedagogika bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Normamatova Feruza Ovlayor qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika universiteti talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi va uning bugungi ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Boburning "Boburnoma" asari tarix, geografiya, botanika va tilshunoslik sohalari bo‘yicha qimmatli manba ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, uning tabiiy resurslar, davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Maqolada Boburning ilmiy qarashlari zamonaviy tadqiqotlar bilan bog‘liq holda o‘rganilib, ularning bugungi ilm-fan taraqqiyotidagi ahamiyati asoslanadi. Bobur shunoslikning dolzarbligi va uning turli fan sohalaridagi o‘rni haqida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, Bobur shunoslik, ilmiy meros, tarixiy manba, geografiya, botanika, tilshunoslik, harbiy strategiya, davlat boshqaruvi, adabiy meros, aruz nazariyasi, tabiatshunoslik, farmatsevtika, Boburiylar davlati.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o‘zining shohona faoliyati bilan birga, ilm-fan va adabiyot sohasida ham ulkan meros qolPdirgan buyuk shaxsdir. Uning ilmiy va badiiy asarlari nafaqat o‘z zamonasida, balki bugungi kunda ham ilmiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, Boburning tarix, geografiya, botanika, tilshunoslik va adabiyot sohalaridagi qarashlari zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Boburning ilmiy asarlari va ularning bugungi ahamiyati:

1. “Boburnoma” – tarix va geografiya manbasi. Boburning eng mashhur asari “Boburnoma” bo‘lib, u o‘zining tarixiy, geografik va etnografik jihatlari bilan bugungi ilm-fan uchun muhim manba hisoblanadi. Asarda: O‘z davrining siyosiy voqealari, urushlar va davlat boshqaruvi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Bu esa tarixchilar uchun qimmatli dalil bo‘lib xizmat qiladi. Hindiston, Afg‘oniston va Markaziy

Osiyoning geografik xususiyatlari, iqlimi, tabiati va o‘simlik dunyosi haqida aniq tavsiflar keltirilgan. Bu ma’lumotlar bugungi geografiya va ekologiya tadqiqotlari uchun ham muhimdir. O‘sha davr xalqlarining madaniyati, urf-odatlari va tillari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.
2. Botanika va tabiatshunoslikka qo‘shgan hissasi. Bobur o‘z asarlarida o‘simliklar va hayvonot dunyosi haqida juda aniq tavsiflar bergan. Masalan: u Hindiston va Movarounnahrdagi o‘simliklarni o‘rganib, ularning foydali va zararli jihatlarini ta’riflagan. Ayrim o‘simliklarning dorivor xususiyatlari haqida yozib qoldirgan fikrlari bugungi farmatsevtika va biologiya fanlari uchun muhim ma’lumotlar hisoblanadi. Hindistonda uchraydigan hayvon turlari haqida bergan ta’riflari zamonaviy zoologiya uchun ham qimmatli dalildir.
3. Tilshunoslik va adabiyotdagi o‘rni. Bobur o‘z asarlarida o‘zbek tilini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning adabiy va ilmiy uslubidagi soflik bugungi tilshunoslik tadqiqotlarida o‘rganilmoqda. Bobur o‘zbek tilining rivojlanishiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatgan: u adabiy tilda sodda va ravon uslubni targ‘ib qilgan. “Boburnoma” va uning she’riy merosi bugungi o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning turkiy va forsiy tillarni taqqoslab yozgan fikrlari tilshunoslar uchun qimmatli ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.
4. Harbiy strategiya va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari. Bobur harbiy strategiya va davlat boshqaruvi borasida ham chuqur fikrlarga ega bo‘lgan. Uning harbiy yurishlari va davlat siyosati bugungi tarix va harbiy fanlar tadqiqotchilari uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Uning harbiy yurishlar taktikasi, harbiy san’at va qurol-aslaha haqida bergan ma’lumotlari bugungi harbiy tarixshunoslik uchun qimmatlidir. Uzoq muddatli siyosiy strategiya haqidagi fikrlari davlat boshqaruvi va diplomatiya fanlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

“Boburnoma” — tarixiy asar. Unda X V asming oxiri — X V I asm ing birinchi yarimlarigacha Xuroson, Movarounnahr, Hindistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o ’z aksini topganidek, asarda yuzlab tarixiy shaxslaming nomlari bor. Ulaming ayrimlari haqidagi ma’lumotlar har qanday tarixiy asarda topilmaydigan noyobligi, muhimligi bilan olimlami ham lol qoldiradi. Agar “Boburnoma” yozilmasa, bizning Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy hayotlari, faoliyatlari va ijodlari, xususan, shaxslari haqidagi tasawurlarimiz anchayin yuzaki bo lib qolgan bo lardi. Ayniqsa, temuriylar saltanatining tanazzuli yillaridagi tarixiy jang-jadallar, inqiroz sabablari, Husayn Boyqarodek buyuk podshohning, Bobur iborasi bilan aytganda, “Temurbek o‘rnida bo‘lgan" Sulton Husaynning sustkashligi, Shayboniyxonni qaqshatqich hujum bilan yengish o'miga mudofaa bilan cheklanganligi, Husayn Boyqaro farzandlarining bazm-u sozda mohir-u, jang-u jadalda yaroqsizligi Bobur tomonidan tahlil etib berilgan. “Bobumoma”da tarixiy voqea-hodisalaming yuz berishi sabab va oqibatlari o‘ta puxtalik, teranlik bilan o ‘z talqinini topgan. “Boburnoma” kitobxon uchun go‘yo ko‘p qismli film . Bu ulug‘ ko'zguda deyarli ellik yillik Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va ularga yondosh mamlakatlarda kechgan voqea-hodisalar tizilishib, kitobxon ko‘z o'ngida namoyish etiladi. Shu m a’noda “Boburnoma”ni ajoyib voqeiy tarixiy roman

deyish mumkin. Chunki jang-jadallar tarixiy asarlardagidek hisobot-axborot tarzida emas, balki badiiy asarga xos yuz xil qiyofali, fe’l-atvorli kishilar faoliyati tasviri orqali ko'rsatiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi haqida olimlar turli fikrlar bildirganlar. Samarqand davlat universitetida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda boburshunos olimlar uning adabiy merosi, xususan, "Boburnoma" asarining jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyatini ta’kidladilar. Anjumanda "Boburnoma"ning turli tillarga tarjimalari va nashrlari, shuningdek, Boburning yangi topilgan "Taqti’" risolasi haqida fikr almashildi. Boburning "Aruz haqida risola" ilmiy asari Sharq tilshunosligida katta ahamiyatga ega bo‘lib, unda shoir nutqdagi urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘g‘inlar tizimi nazariyasini boyitgan va uning tasnif va turlarini rivojlantirgan. Shuningdek, Boburning huquqiy va diniy qarashlari ham olimlar tomonidan o‘rganilgan. Uning "Boburnoma" asarida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va jo‘g‘rofiy qarashlari ifodalangan bo‘lib, bu asar katta ahamiyatga ega. Boburning ilmiy-ijodiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlari har tomonlama tahlil va tadqiq etishga munosibdir. Umuman olganda, olimlar Boburning ilmiy merosini yuqori baholab, uning asarlari turli fan sohalarida qimmatli manba ekanligini ta’kidlaydilar.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosi bugungi kunda ham turli fan sohalarida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning tarix, geografiya, botanika, tilshunoslik va harbiy san’at sohalariga oid qarashlari hozirgi zamon olimlari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Boburning asarlari nafaqat o‘tmishni o‘rganish, balki kelajak ilm-fani rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, uning ilmiy va adabiy merosini yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2022.
2. Rahimov I. Bobur va uning ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Saidov U. Boburnoma va uning tarixiy ahamiyati. – Samarqand: Ma’naviyat, 2021.
4. Karimov B. Boburning adabiy va ilmiy qarashlari. – Toshkent: Sharq, 2020.
5. Qosimov A. Boburshunoslik asoslari. – Buxoro: Ilm-Ziyo, 2018.
6. Akramov Z. Bobur va uning geografik tadqiqotlari. – Toshkent: Universitet, 2017.
7. www.xabar.uz – Geograf Bobur va uning ilmiy izlanishlari.
8. www.uza.uz – Bobur merosi jahon olimlari nigohida.
9. www.adu.uz – Boburnoma va huquqiy qarashlar.
10. www.samdu.uz – Boburning ilmiy-ijodiy merosi va uning bugungi ahamiyati.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИ МУШОХАДА ҚИЛИШ ЖАРЁНИДА ТАЛАБАЛАРНИ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Булатов Саидахбор Собитович
ТДПУ профессори, Россия халқаро педагогика
фанлари академиясининг академиги, педагогика фанлари доктори

Аннотация: Бобур ўз даврининг баркамол фарзанди ва қомусий ақлга эга шахс бўлган. У ўзининг ғайрат – шижоати, ўткир ақли, нозик таъби, фволиятининг кўпқирралилиги билан кишини ҳайратда қолдиради. Қисқаси, Бобур жаҳон адабиётининг улуғ намоёндаларидан биридир. У ўлмас асарлари билан жуда кўп халқларга манзур бўлди, бадиий адабиёт тараққиётига самарали таъсир этди.

Калит сўзлар: Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Андижон, Ҳиндистон, ватанпарварлик, шох ва шоир, “Заҳириддин Муҳаммад Бобур” портрети, рамзий таҳлил.

Ким ёр анга илм толиби илм керак,
Ўргангали илм толиби илм керак.
Мен толиби илму толиби илм йўқ,
Мен бормен илм толиби, илм керак.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йил 14 февралда Андижон шаҳрида туғилган. Ўша даврда унинг отаси Умар Шайх Мирзо Андижон ҳокими эди. Отасидан 11 ёшида етим қолади ва 12 ёшида тахтга ўтиради. У Сарой муҳитида тарбияланди, ўқиди, ёшлигидан илмга, шеъриятга берилди. Довюраклиги, жасурлиги, эпчиллиги туфайли уни «Бобур», яъни «Йўлбарс» деб атадилар.

Устози ва пири: Хожа мавлонойи Қози Абдуллоҳ.

Асарлари: Бобурнинг энг йирик асари «Бобурнома»дир, у қомусий характердаги асар бўлиб, тарих, география, ботаника ва бошқа фан соҳаларига оид маълумотлар берилган. Бундан ташқари Бобур ўғли Ҳумоюн Мирзога атаб мусулмончилик қоидалари ва қонуншуносликка бағишланган, давлатни бошқариш ва закот қонун-қоидалари тўғрисида «Мубаййин», араб алифбосининг ислоҳига оид «Хатти Бобурий», аруз вазни ва қофияга оид «Муфассал», «Рисолаи волидия», «Эътиқодия» каби асарлар яратган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур атоқли давлат арбоби, истеъдодли шоир, адиб, тарихчи, олим, шу билан бирга таржимондир.

Бобур ўзбек классик адабиётиниг, айниқса Алишер Навоийнинг бой адабий меросини ўрганади. Ўзбек ва форс-тожик тилларида янги, оригинал шеърлар яратади. Бизгача Бобурнинг иккита девони етиб келган.

Бобур лирикаси ўзининг ҳаётийлиги, тараққийпарварона фикрларни ифодалаши, бадиий соддалиги, жўшқинлиги ва тил бойлиги билан ўзбек ва дунёвий адабиётининг тараққиётига катта ҳисса бўлиб қўшилди. Ғазал, рубоий ва туюқ Бобур лирикасининг энг характерли жанрлардир. Ҳаётга муҳаббат, ёр ва диёр севгиси, ҳижрон ва ғурбат дарди, бадбинлик ва таркидунёчилик устидан, кулиш яхши ҳулқ – одоб ва маърифат тарғиби – Бобур лирикасининг тематик доирасини ташкил этади. Бобур Лутфий, Навоий, Ҳаём ва Ҳофиз каби устоз шоирларнинг анъаналарини давом эттиради, ривожлантиради, назиралар ва муҳаммаслар яратади [3].

Бобурнинг энг йирик асари бўлган «Бобурнома» уни бутун дунёга танитди. «Бобурнома» тарихий – бадиий асар бўлиши билан бирга ўзбек прозасининг қимматли ёдгорлиги ҳамдир. Шу билан бирга, география, этнография, табиият, халқ тиббиёти ва бошқа илмий соҳалар бўйича ҳам қимматли маълумотлар берувчи асар, ўзбек адабий тилининг муҳим ёдгорлигидир.

Бобур 1503-1504 йилларда «Хатти Бобурий» деб номланган алифбе яратади. Алифбенинг вужудга келиши ва тилга мувофиқлаштириш ғоясининг туғулиши катта прогрессив ҳодиса эди. Унинг муҳим томони шундаки, алифбеда унлилар «зерзабар» тарзидаги белгилар билан эмас, балки махсус ҳарфлар шаклида берилган.

Бобур илм – фанинг турли соҳаларга доир бир неча қимматли асарлар яратди. Шулардан бири арузга доир «муфассал» («Мухтасар») деб номланган рисоласидир. Рисола аруз назариясини бойитади ва тўлдиради.

«Мубаййин» асари қонуншуносликка бағишланган бўлиб, маснавий формасида ёзилган.

Бобур, шунингдек, бизгача этиб келмаган мусиқа назарияси ва ҳарбий санъатга оид асарлар муаллифидир. Бобур ўз даврининг баркамол фарзанди ва қомусий ақлга эга шахс бўлган. У ўзининг ғайрат – шижоати, ўткир ақли, нозик таъби, фволиятининг кўпқирралилиги билан кишини ҳайратда қолдиради. Қисқаси, Бобур жаҳон адабиётининг улуғ намоёндаларидан биридир. У ўлмас асарлари билан жуда кўп халқларга манзур бўлди, бадиий адабиёт тараққиётига самарали таъсир этди.

Шоҳ ва шоир ўз юртидан йироқда ҳаёт кечирганлиги боис унинг ҳаётида Ватан туйғуси, Ватан соғинчи, Ватан қайғуси устунлик қилди, у умр бўйи ўз ватанига талпиниб яшади. Бобур ижодида ҳақиқий баркамол инсон тимсоли мадҳ этилади, улуғланади. У доимо инсон қадр-қимматини юқори тутади, инсонларни камтарликка, ҳалолликка, покликка ундайди. Бобур ижодий меросидан таълим жараёнида фойдаланиш орқали, аввало талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мумкин ҳамда уларда инсонпарварлик, камтарлик, имон-эътиқод каби ахлоқий фазилатлар юксалтирилади. Бобур илм – фанинг турли соҳаларга доир бир неча қимматли асарлар яратди. Шулардан бири арузга доир «муфассал» («Мухтасар») деб номланган рисоласидир. Рисола аруз назариясини бойитади ва тўлдиради. «Мубаййин» асари қонуншуносликка бағишланган бўлиб, маснавий формасида ёзилган [1;87-б.].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур портретини жуда кўп мусаввирлар тасвирлаган. Шулардан бири номаълум рассом томонидан ишланган портретни рамзий таҳлил қилиб кўрамиз (1-расм).



1-расм. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Асардаги асосий элементлари.
1-укупар, 2-турналар, 3-салла, 4-салланинг печаги, 5-зирак, 6-Бобурнинг қиёфаси, 7-соқол, 8-кийиклар, 9-нимчадаги гуллар, 10-туморча, 11-курси, 12-курси безаги, 13-дарахт, 14- гуллар, 15-нимча, 16-китоб, 17-қизил кўйлаги, 18-белбоғ, 19-гуллаган дарахт, 20-ўнг оёғи, 21-чап оёғи, 22-муссавар муҳри, 23-маҳси, 24-ковуш, 25-тош, 26-сув, 27-блакузук, 28-узук, 29-кўҳинур (олмос).

Рассом булутлар тасвири орқали бир қанча фалсафий фикрларни, мушоҳадаларни айтмоқчи бўлган. Бу ерда булут дуёнинг ўткинчилиги, вақтнинг ўтиб бориши ва шу билан бирга инсон умрига ишора қилинмоқда. Ҳаётда яхши-ёмон кунларнинг бўлиши, Бобурнинг ҳаёти ҳам жангу жадаллар, курашлар билан

ўтганлиги, ҳаёт бор экан курашлар зиддиятлар давом этаверади деган маъноларни беради. Булутли осмон ёмғирли кунлар яъни, Бобурнинг қалб кўз ёшлари тимсолидир.

Турналар соғинчни ифодалайди. Бобур кўкда турналарга боқиб балки, шу тарналар Андижон тоғларига ҳам қўниб ўтишгандир, балки шу тарафдан учиб келаётганмикин? – деган ўйни ифодалайди. Бу ўй Бобурнинг соғинч туйғуларини янада оширади. Шу билан бирга илиждек туюлар эди. Қани энди ўз ватанига қайтиб бора олса, йўқ бунинг иложи йўқ энди. Бирдамлилик, интилиш ҳиндий ва Бобурийлар сулоласини яратди.

Юксакликка интилиш улуғворлик Бобур ҳаётидаги амалларни тоғлар каби улуғвор абадиятга таалуқлиликни билдиради. Туғилиб ўсган ватани ва ҳинд диёри ўртасида рамзий маънода ўтиб бўлмас тўсиқ чегара борлигини билдаради. Ватан соғинчи қалбида кечаётган туғёнлари гўё шу тоғларда акс садодек қалбларни ларзага келтиришини ҳис қилиш мумкин.

Салла Бобурнинг буюк шоҳ эканлигини, укипар эса шоирлигини билдиради. Улуғлик, билимлилик, мартаба мазҳабларни билдиради Саллани икки тури бор. 1-уйда 2-кўчада кийилади. Умрида кўп жабр зулм кўргани ва ҳаёт йўли адабиётга ошифта эканлигини билдиради.

Бобурнинг армонлари, ушалмаган орзулари, туғилиб ўсган ватанни Андижондаги ҳаётидир. Ўз ватанида оиласи кўнглидагидек бўлмаган. Мустаҳкам шажара туза олмаган. Бир жойдан иккинчи жойга қочиб юришга мажбур. Бир жойда муқим яшашига имкони бўлмайди. Ҳаётининг бу даврларини мевасиз дарахтга қиёслаш мумкин. Яъни самарасиз деса ҳам бўлади. У пайтлар Бобур ёш навниҳол шаҳзода бўлган.

Гуллаган дарахтни Бобурийлар сулоласининг рамзидир. Бобурнинг Ҳиндистонда буюк давлатини барпо қилганлиги, бобурийлар сулоласининг давомийлигини рамзий маънода ифодаланган. Гуллаган дарахтни тасвири орқали қайси фасл тасвирлангани кўрсатилган. Гуллаган дарахтлар баҳор фаслини, табиат гўзаллигини билдиради. Фарзанд, янги давлат, оиланинг барпо этилиши, 1.Ҳаёт рамзи, 2.Инсон, 3.Фарзанд. Бобур Мирзо Ҳиндистонга келганидан кейин у босқинчи золим бўлиб эмас балки, бу давлатнинг гуллаб яшнаши ривожланиши учун кўп ислоҳатлар ўтказган. Қалоқ ва қашшоқ ўлкани гуллаб яшнатади. Маданият марказига айлантирди

Булут ортидаги қуёшга эътибор қилсак мевали дарах тепасида ботаётганини кўрамиз. Бундан кўриниб турибдики, рассом Бобур Ҳиндистонда вафот этди демоқчи. Шу билан бирга Бобурнинг ёруғликка интилиш, ҳаётидаги қийинчиликка қарамай яхши кунларга умидни билдиради.

Зарҳал рангларда ишланган кийик тасвири орқали Бобур беғубор қалб соҳиби эканлигини англаш қийин эмас. Кўнгли нозиклигини, ҳимоясизликни, беозорликни ифодалайди. Нимчада Боурнинг табиатига муносабати кўрсатилган.

Нимча гули ҳаётдаги гўзаллик, олға интилиш қийинчиликларни осон енгиб ўтиш демакдир. Либос характерни билдиради. Оҳу унинг нозик дидли табиатан санъатга ва адабиётга ошнолигини англатади. Оҳулар беозор жонивор. Тоғларда

эркинда яшашади. Бобур қалбини сиқиб ётган ғуборлардан ҳеч қачон қутила олмаслигидан ҳис қилиб шу оҳуларга ҳавас қилгандир. Табиатнинг гўзаллигини кўрсатади.

Бешикдан то қабргача илм излаганлигидан дарак беради. Китоб билимли, ижодкорликни, ўз устида кўп ишлаганлигини, оқиллик рамзидир. Бу китоб “Бобурномадир”. Унда Бобурнинг бутун ҳаёт йўли битилган.

Белбоғ бардамлилик рамзи, куч қудратини, оқилона сиёсат, мустаҳкам давлат қура олганлигини билдиради. Бу белбоғ матодан ишланган. У Бобурни навқирон эканини англатиб туради

Ҳидистоннинг миллий тақинчоғи шу юртнинг урф-одатлари, анъаналарга бўлган ҳурматини ифодалаган. Ўз эътиқодига содиқ қолган, ҳаётдаги муаммоларнинг ечимини топа оладиган, тожу-тахт учун жон-жаҳти билан курашувчи кучли ирода эгаси, давлат бошқарувчисидир. Зирак Ҳиндистон подшоси бўлганлигини, тумор эса кўп қийинчиликлардан омон қолганини билдиради.

Бойлик пул тимсоли. Бадавлатлиликни ифодалайди. Бадавлатлилик янги давлатнинг куч қудрати. Давлат тинч тотув бўлса, турмуш фаровон бўлади. Ҳамён эса унинг бой бадавлат, подшолигини англатади [2].

Кўчма тахтиравон шоҳлар тўртта оёғи дунё устунлиги, ўз юртидан айрилиб ўзга юртга шоҳ бўлгани ҳақида. Дарбадарлик юрт ватан соғинчи. Тахт, мансаб ўткинчи нарса эканлигини билдиради. Чунки, кўчма тахти муқим бир жойда бўлмаган.

Чархпалак Аллоҳ яқинлиги. Аллоҳ назари тушган инсон эканлигини билдиради. Иккита чархпалак икки дунёси фоний ва боқий икки оламни ифодалайди [2].

Бир оёқнинг ердан узилиши муваллақ ҳолатда туриши Бобур ҳеч қачон туғилиб ўсган юртидан кўнгил узаолмаганлиги бир оёғи ҳар доим она юртига талпиниб яшаганини билдиради. Ҳиндистонда мустаҳкам давлат барпо этганлигини, у ерда шоҳ бўлган бўлса ҳам қалби она ватанига талпинишига ишорадир. Ўзга юртда шоҳ бўлганча, Ўз юртингда гадо бўл (халқ мақоли).

Сув бу тириклик рамзи. Ҳаёт манбаи. Инсон умрининг дарёдек оқиб ўтишини, ўтган ҳар бир лаҳзани ортга ҳеч қачон қайтариб бўлмаслигини рамзий маънода ифодалайди. Ҳаёт давом этаётганлигини тинчликни, осайишталикни билдиради.

Гуллар гўзалликка интилиш, гўзаллик, ҳаёт қувончлари, ҳаётнинг гўзаллиги, ундан баҳра олишни билдиради. Ҳаётининг гуллаган даврлари оиласи ва фарзандлари эканлигини ифодалайди.

Ҳаёт қийинчиликлари ва уларни мустаҳкам ирода билан йиғиб яшаганлигини, бардамли-ликни билдиради.

Тошлар ғурбат ва ҳаётида учраган тўсиқлар ва қийинчиликларга ишорадир.

Номаълум рассом ўз муҳрини расмига муҳрлаб қолдирган. Ҳаттотнинг муҳри ёки тахаллуси бўлиши ҳам мумкин.

Давлат ҳукмдори эканини, давлатининг мустаҳкамлилигини, тўғри сиёсат юритаётганлигини, ҳалоллигини билдиради. Ҳар бир подшоҳнинг, ҳукмдорнинг ўз узуги бўлган. бу узук муҳр, тамға вазифасини ўтаган. Муҳр қўйиш учун узук доим қўлида бўлган.

Хулоса қилиб айтганда номаълум рассом томонидан ишланган Заҳириддин Муҳаммад Бобур портрети чуқур фалсафий ва психологик маънога эга. Бобур портретида унинг ўткинчи дунёда Андижон ва Ҳиндистон ўртасида яшаб ўтганлиги, ўзга юртда шоҳ бўлсада Ватан соғинчида яшаганлинини англаш қийин эмас. Шоҳ, саркарда, шоир ҳамда юксак қалб эгаси тасвирланган. Бобурнинг энг йирик асари бўлган «Бобурнома» уни бутун дунёга танитди. Ўзга юртда яъни Ҳиндистонда вафот этади. Ватан дийдорига тўймасдан ўтганлиги тасвирда ўз аксини топган. Бобурнинг ватанпарварлик, адолатлилик, софдил ва санъатга ошно инсон бўлганлигини талабаларимиз қалбига сингдиришимиз лозим. Бобурнинг нафақат асарлари балки, бобур тимсолининг ўзи талабаларга ватанпарварлик руҳини бера олади. Қомусий олимларимиз қаторидан жой олган Бобур ва унинг ижодини бадиий, рамзий, психалогик ва фалсафий таҳлил этиб, уни амалиётга жо қилиб, Заҳириддин Муҳаммад Бобур тимсолини келажак ёш авлодга етказишимиз лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Булатов С.С., Саипова М.С. Бадиий тахлил тамойирллари. (Монография) – Т.: “Фан ва технололгия”, 2016.
2. Рамзлар энциклопедияси. Тузувчилар: С. С. Булатов, М. С. Соипова. – Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 928 bet.
3. Aziz Qayumov. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. “Sharq” . T-;, 2014. 744 b.
4. 3.Фалсафа қисқача изоҳлм луғот /Муаллифлар: /М.Н.Абдуллаева ва бошқалар. – Т. “Шарқ”, 2004-284 бет.
5. Комилҳон Каттаев. Самарқанднома.”MASHHUR-PRESS”, Т.:2017.
6. Навоий Алишер. Сабъаи сайёр. Насирга айлантирувчи И. Махсум. Т., Адабиёт ва санъат нашрёти, 1977. 6-бет
7. Ziyaxanov R.F. “Astronomiya tarixi”, T. 2008. 131-132-бетлар.
8. Мамадазимов Т. “Мирзо Улугбек даври архитектураси.”, Монография, Т., “ТАҚИ”, 2014, 161-бет.
9. Булатов С.С., Саипова М.С. Гўзалликдаги коинот фалсафаси. “Иқтисод-молия”, Т., 2016,

BOBUR HUKMRONLIGI DAVRIDA TABOBAT VA TIBBIYOT SOHASI TARAQQIYOTI
РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНЫ И ЛЕЧЕБНОГО ДЕЛА ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЯ БАБУРА
THE DEVELOPMENT OF MEDICINE AND HEALTHCARE DURING THE REIGN OF BABUR

Badalbayeva R.Y.
IIVning 1-sonli Toshkent akademik litseyi
oliy toifali tarix fani o‘qituvchisi

Bobur (1483-1530) nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan, madaniyat va san’atga qiziqish bildirgan ziyoli hukmdor sifatida ham tanilgan. Uning davrida tibbiyot ilm-fani ham Sharq an’analari va mahalliy tajribalar asosida rivojlanib bordi. Boburning tibbiyot bilan bevosita shug‘ullangani haqida aniq dalillar kam uchrasa-da, u bu sohani qiziqish bilan kuzatib, davrining tibbiy tajribalarini qadrlagan. Bobur o‘zining mashhur “Boburnoma” asarida tabiat va dorivor o‘simliklar haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan. U Hindiston va Markaziy Osiyoning flora va faunasini sinchkovlik bilan kuzatib, dorivor o‘simliklar xususiyatlariga ham e’tibor qaratgan. Bu o‘simliklar tibbiyotda qo‘llanilgani ehtimoli katta. Sharq tibbiyotiga qiziqishi baland edi. Bobur o‘z davrining yetakchi tabiblari bilan yaqin aloqada bo‘lgan va tibbiy bilimlarni o‘rgangan. Shuningdek, u shifokorlikni nafaqat kasalliklarni davolash, balki insonni ma’naviy-ruhiy jihatdan sog‘lomlashtirishning muhim jihati deb bilgan [2, 212-b].

Bobur musulmon olamining ilm-fan an’analarini qadrlagan. Shu jumladan, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobi kabi asarlar uning davrida mashhur bo‘lib, bu kitoblar tibbiyot bo‘yicha asosiy manba hisoblangan.

Boburiylar sulolasining keyingi davrlarida ham Sharq tibbiyoti an’analari davom ettirilib, rivojlantirilgan. Boburiylar davrida tibbiyotning rivojlanishi ayniqsa hind manbalarida ko’p uchraydi.

Bobur o‘z davlati tashkil topgach, ilm-fan va san’atni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Uning hukmronligi ostida tibbiyot bilimlari madrasalarda o‘qitilgan.
Dorivor o‘simliklarni o‘rganish va ulardan foydalanish keng tarqalgan.Kasalxona va tabiblar faoliyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

Tabiiy sharoitlardan unumli foydalanilgan va dorivor o‘simliklar zahirasi saqlangan. Boburning Hindistondagi faoliyati davomida u bu yerning iqlim va tabiatiga moslashgan. Hindistonning dorivor o‘simliklarga boyligi tufayli, bu resurslar davolash maqsadida keng qo‘llangan. “Boburnoma”da shunday o‘simliklar haqida ayrim eslatmalar uchraydi. Bobur va sog‘liqni saqlash umumiyligida e’tiborchanligi,gigena doimo yuqori turganligini ko’rsatadi. Bobur Hindistonning o‘ziga xos tabobat uslublari va uning afzalliklari haqida ham o‘z asarida qayd etgan [3, 185-b].

Bobur o‘z hayotida ko‘p janglarda qatnashgani sababli jarohat va kasalliklar haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lgan. U o‘z qo‘shinidagi jangchilarning sog‘lig‘iga

e’tibor qaratgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. O‘sha davrda tibbiyot asosan amaliy tajriba asosida rivojlangan. Boburning o‘z shaxsiy hyotida ham ilm-fan va tibbiyotga bo‘lgan hurmati uning siyosiy va madaniy siyosatining ajralmas qismi bo‘lib qolgan [4, 38-b].

Bobur davrida tibbiyot sohasida rivojlanishlar ushbu davrda tibbiyot ilm-fani asosan Sharq ilmiy an’analari asosida rivojlangan. Boburiylar sulolasi davrida Hindiston va Markaziy Osiyoda tibbiy bilimlar va amaliyotlar qo‘llanilgan. Quyida bu davrdagi tibbiyot haqida ba’zi asosiy ma’lumotlar keltiriladi:

- Sharq tibbiyoti ta’siri. Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida davrning tibbiyot va dorivor o‘simliklari haqida ba’zan eslatib o‘tgan. O‘sha davrda Sharq tabobati (Avesina, al-Roziy kabi olimlarning asarlari) Hindistonga va butun musulmon dunyosiga katta ta’sir ko‘rsatgan.
- Dorivor o‘simliklar va tabobat. Boburiylar Hindistondagi turli iqlim sharoitlarini inobatga olib, mahalliy dorivor o‘simliklardan keng foydalanishgan.

Hindistonning o‘simliklarga boy bo‘lishi sharofati bilan tabobatda an’anaviy hind va islomiy tibbiy uslublar birlashgan.

- Tibbiy amaliyotlar. Kasalliklarni davolashda o‘simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar, giyohlar va boshqa tabiiy vositalar ishlatilgan.

O‘sha davrda jarrohlik amaliyotlari kam rivojlangan bo‘lsa-da, oddiy yaralarni davolash va qon to‘xtatish usullari mavjud edi.

- Tibbiyotga oid kitoblar va bilimlar. Boburiylar sulolasi davrida Avesinaning “Tib qonunlari” (Qonun al-tibb) kabi asarlar keng o‘qilgan va qo‘llanilgan. Tibbiyot ilm-fani madrasalarda o‘qitilgan va bu orqali yangi avlod tabiblar yetishtirilgan.
- Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi bilim almashinuvi. Boburiylar davrida Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi ilmiy aloqalar kuchaygan, bu tibbiyot sohasida ham o‘z aksini topgan. Boburiylar tibbiyot rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ilm-fan boshqa sohalar, masalan, adabiyot, me’morchilik va harbiy ish kabi yo‘nalishlar bilan birga rivojlangan.

Bobur va tibbiyot aloqasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmasa ham, uning ilm-fanga, tabiatga, va dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqishi, Boburiylar sulolasida tibbiyotning rivojlanishiga zamin yaratgan deb hisoblash mumkin.

Bobur qo‘shinida tibbiyotning tashkil etilishi davr sharoitiga mos ravishda sodda va amaliy tajribaga asoslangan bo‘lsa-da, janglarda va uzoq yurishlarda askarlarning salomatligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu davrda tibbiyot an’anaviy Sharq tabobati va mahalliy amaliyotlar bilan uyg‘unlashgan edi. Bobur qo‘shinida tibbiyot quyidagi jihatlar bilan ajralib turgan:

- Tabib va tabobatchilar. Bobur qo‘shinida tajribali tabiblar (shifokorlar) mavjud bo‘lgan. Ular janglarda yaradorlarni davolash, qon oqimini to‘xtatish va infeksiyalarni oldini olish bilan shug‘ullangan. Ushbu tabiblar o‘sha davrdagi asosiy tibbiyot bilimlariga ega bo‘lib, Ibn Sino va boshqa Sharq tabiblari asarlaridan foydalangan.
- Dorivor o‘simliklardan foydalanish. Jang paytida va yurishlar davomida tabiblar dorivor o‘simliklar va tabiiy moddalarni qo‘llashgan. Bu o‘simliklar qon oqishini to‘xtatish, yaralarni davolash yoki og‘riqni yengillashtirish uchun ishlatilgan.

Bobur o‘zining "Boburnoma" asarida ba’zi dorivor o‘simliklar haqida yozib qoldirgan bo‘lib, ular jangchilarning salomatligini tiklashda ishlatilgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

- Jang jarohatlari va ularni davolash. Qo‘shin ichida jarohatlar, ayniqsa, jang paytidagi yaralar keng tarqalgan bo‘lib, ularni davolashda oddiy jarrohlik amaliyotlari qo‘llangan. Masalan, yara chetlarini tikish yoki siqish. O‘z davrida keng tarqalgan qonni to‘xtatuvchi vositalardan foydalanish. Suvni tozalash va yaralarni yuvish uchun tabiiy antiseptik moddalar ishlatilgan.
- Sanitariya va gigiyena. Uzoq harbiy yurishlar davomida suv va oziq-ovqat gigiyenasiga e’tibor qaratilgan. Kasalliklarning oldini olish uchun askarlarga sanitariya qoidalariga amal qilish buyurilgan.
- Tibbiyot tashkiloti va ehtiyojlar. Bobur qo‘shinida tibbiy xizmatni tashkil etishning alohida tizimi bo‘lmasa-da, jangovar va harbiy sharoitda tibbiy yordam ko‘rsatishga qodir bo‘lgan tabiblar va yordamchilar mavjud edi. Jang maydonidan yaradorlarni olib chiqish va ularga yordam ko‘rsatish uchun maxsus tartiblar joriy qilingan bo‘lishi mumkin.
- O‘sha davr kasalliklari va ularning davosi. Jang paytidagi jarohatlardan tashqari, turli yuqumli kasalliklar (bezgak, isitma, ich ketishi va boshqalar) keng tarqalgan bo‘lgan. Bu kasalliklarni davolash uchun o‘sha davrda mavjud bo‘lgan dorivor vositalar va tabobat usullari ishlatilgan.

Bobur qo‘shinidagi tibbiyot harbiy sharoit va davr talablariga mos sodda bo‘lgan, ammo jangchilarni sog‘lom saqlash va jarohatlarni davolash bo‘yicha asosiy ehtiyojlarni qondira olgan. Tabiblarning bilimlari va dorivor o‘simliklardan foydalanish qo‘shin ichida tibbiyotchilikni muhim tarkibiy qismga aylantirgan. Bu holat Boburning ilm-fan va tabiatshunoslikka bo‘lgan e’tiborining natijasi sifatida ham ko‘rilishi mumkin.

Boburning harbiy yurishlari davomida tibbiyot masalalari muhim ahamiyat kasb etgan, chunki uzoq masofalarga harbiy yurishlar, qattiq janglar va murakkab iqlim sharoitlari askarlar salomatligi va jangovar shayligini saqlab qolishni talab qilgan. Bobur yurishlarida tibbiyot quyidagi jihatlarda namoyon bo‘lgan:

- Tabiblar va ularning roli. Harbiy yurishlarda maxsus tabiblar yoki tabobatchilar qo‘shin bilan birga bo‘lgan. Ular jang maydonida yaradorlarga birinchi yordam ko‘rsatgan. Kasalliklarni davolashda o‘z bilimlaridan foydalangan. Dorivor o‘simliklardan dori-darmon tayyorlagan.
- Yaradorlarni davolash. Janglar davomida askarlar olingan jarohatlar, masalan, o‘q yoki pichoqli qurollardan olingan yaralar, kesik va sinishlar ko‘p uchragan. Qonni to‘xtatish uchun maxsus moddalar yoki bosuvchi bog‘lamlar qo‘llangan. Yara chetlarini tikish yoki antiseptik vositalar bilan yuvish amaliyoti mavjud bo‘lgan. Og‘riqni kamaytirish uchun dorivor o‘simliklardan foydalanilgan.
- Dorivor o‘simliklardan foydalanish. Bobur va uning qo‘shini yurishlar davomida mahalliy tabiatni sinchkovlik bilan kuzatgan. Hindiston va Markaziy Osiyo hududlaridagi dorivor o‘simliklardan keng foydalanilgan. “Boburnoma”da ba’zi dorivor o‘simliklar, ularning foydasi va qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

➢ Gigiyena va kasalliklarni oldini olish. Bobur yurishlarida askarlarning sog‘lig‘ini saqlash uchun gigiyena qoidalariga rioya qilish muhim bo‘lgan. Suvni tozalash uchun turli usullar qo‘llanilgan. Oziq-ovqatni buzilishdan saqlash va sifatini nazorat qilishga harakat qilingan. Yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun yaralarni vaqtida tozalash amaliyoti qo‘llangan. Xullas, Bobur hukmronligi davrida shaxsiy gigiyena, kasalliklarni oldini olish va toza muhitda yashashning ahamiyati haqida keng tarqalgan bilimlar mavjud edi [5, 122-b].

➢ Yuqumli kasalliklar bilan kurash. Yurishlar davomida askarlar orasida yuqumli kasalliklar (masalan, bezgak, ich ketishi, isitma) keng tarqalgan. Bu kasalliklarni davolash uchun an’anaviy tibbiy vositalar va davolash usullari qo‘llanilgan. Tabiblar bu maqsadda mahalliy o‘simliklardan dorilar tayyorlagan.

➢ Tibbiy asbob-uskunalar va materiallar. Yurishlar davomida oddiy tibbiy asbob-uskunalar, masalan, skalpellar, igna va ip, bog‘lovchi materiallar olib yurilgan.
Dori-darmonlar oldindan tayyorlanib, zarurat bo‘lganda ishlatilgan.

➢ Boburning tibbiyotga qiziqishi. Bobur o‘zining kuzatuvchanligi va tabiatga qiziqishi tufayli dorivor o‘simliklar haqida bilimga ega bo‘lgan va ularni jangchilar sog‘ligini tiklashda qo‘llagan. “Boburnoma” asarida tabiat va o‘simliklar haqida yozilgan kuzatuvlar bu qiziqishni tasdiqlaydi.

Xulosa shuki, Bobur yurishlarida tibbiyot masalalari qo‘shinlarning jangovar holatini saqlab qolish va jangchilarning sog‘lig‘ini ta’minlash uchun muhim bo‘lgan. O‘sha davrning tibbiy bilimlari va dorivor o‘simliklardan foydalanish tajribasi Bobur qo‘shinining uzoq yurishlarda omon qolishiga va muvaffaqiyatli harakatlanishiga hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, bu tajribalar keyinchalik Boburiylar sulolasining tibbiyot sohasidagi rivojlanishiga asos bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent, 2017.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1991.
3. G‘afurov, S. Bobur va uning davri. Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.
4. Mustafoyeva, R. Bobur va tibbiyot. Markaziy Osiyo tarixiy merosi nashriyoti. 2020.
5. Ismoilov, A. Tabobat va tibbiyot tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: Adabiyot, 2000.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA TARIXIY ASAR MOHIYATI

Bazarbayeva Rayxan
Nizomiy nomidagi TDPU
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti,
Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,

Annotatsiya. Ulug‘ shoh Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib boy madaniyat va ilg‘or san‘at, badiiy tilga ega xalqimiz tarixining asoschilaridan biridir. Turkiy xalqlar adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, ijobiy va ijodiy faoliyati, kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo‘la oldi va uning avlodlari ko‘p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu tariqa Boburiylar sulolasining asoschisi sifatida tarix zarvaraqlarida nomi qoldi.
Kalit so‘zlar: Boburnoma, boburiylar, turkey xalqlar, sulola, ensiklopedik asar, geografiya, xon, sulton, portret.
Annotation. The Great King Zahiriddin Muhammad Babur is one of the founders of the history of our people with a rich culture and progressive art, artistic language, adib, which has a special place in medieval Oriental culture, literature and poetry. Turkic peoples were able to become one of the most famous representatives of literature, one of the worthy successors of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur Amir Temur, who left an indelible mark on world history with his positive and creative activity, strong politics, and his descendants had a great influence on world politics for many years. Thus the name remained in the annals of history as the founder of the Baburid dynasty.
Keywords: Baburnoma, baburians, Turkic peoples, dynasty, encyclopedic work, geography, Khan, Sultan, portrait.

Temuriylar sulolasi vakili, o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi – Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14 fevral kuni dunyoga kelgan. Bu yil shoh va shoir tavalludining 542 yilligi to‘ylanmoqda. Sharqning qobiliyatli yozuvchisi, zamonasining ilg’or mutafakkiri va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur – Mog‘ul imperiyasiga asoschisi bo‘ldi. Hind mamlakatida amirlikni olib bordi va bugun bizlar faxr va g’urur ila ismini tila olayotgan buyuk sarkardadir. Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Farg‘ona amiri Umarshayx (Temurlang) Amir Temurning nevarasi, onasi Qutluq Nigor xonim esa Chingizxon sulolasidan Yunusning qizi edi. Umarshayx to‘satdan vafot etganidan so‘ng vorislik qonuni asosida 11 yoshli Zahiriddin Muhammad Bobur Farg‘ona taxtiga o‘tiradi. Bobur Amir Temur avlodlari bir-biri bilan urushib, imperiyani butunlay vayron qilgan paytda hokimiyatga keladi. Bunday vaziyatda hukumat jilovini ushlab turgan yosh Bobur ko‘p jabhalarda kurashadi va hayotning o‘zidan bevosita saboq oladi.

Xalqimizning ma‘naviy boyliklaridan biri antik davr adabiyotidir. Ushbu qadimiy adabiyotning markazida turgan shoh asar esa – “Boburnoma” nomli tarixiy-ensiklopedik asardir. Ushbu asar uch qismdan iborat bo’lib, Bobur mirzo hukmronlik qilgan Movaraunnahr, Afg‘oniston, Hindiston davlatlaridagi tarixiy voqealar ochib beriladi. Bugunda 25 ortiq tillarga tarjima qilingan asarning qozoq tilidagi tarjimasi birinchi marta 1990 yilda o‘z kitobxoni qo‘liga yetib bordi.

Umumiy qadriyat merosi hisoblanmish buyuk asar 1526 yildan beri Markaziy Osiyo xalqlari ya’ni turkiy xalqlar hayotida o‘chmaz iz qoldirdi. “Boburnoma” asari ilk bor tarjima qilinib, o‘quvchisiga taqdim etilganida boshqa turkiy xalqlar kabi qozoq xalqi ham uni tarixiy asar deb tan oldilar. “Qozoq ziyolilari bu fikrni qo‘llab quvvatlashdi. Chunki Boburning bu asarida qozoqlar, o‘zbeklar, turkmanlar kabi turkiy zabon xalqlarning qabilalari haqida hikoya qilingan edi”[52]. Asarda o‘sha asrning bir qator qozoq xonlari, jamoat arboblari, qahramonlari va shoirlari haqida qiymatli ma‘lumotlar yozilgan edi. Qadimgi qozoq xalqining turmush tarzi, zaminning tabiati ham bu asarda yorqin tasvirlangan.

Bundan tashqari, “Boburnoma” Temir sulolasi davrini tasvirlaydi. U XV-XVI asrlarda Farg‘ona, Hindiston xalqlarining tarixi, xonlarning hokimiyat, yer va taxt uchun olib borgan urushlari haqida to‘liq hikoya qiladi. U qurilish, arxitektura va yangi shaharlarning vayron bo‘lishi va barpo etilishi haqida yozadi. Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, urf-odatlari, etnografiyasi, madaniyatini to‘liq qamrab olgan ushbu asar qozoq xalqining ham tarixini ochib bera oldi. Asarda birinchi qozoq xonlari Janibek, Qosim, Hasen, Ali va tarixchi bo‘lasi Haydar Dulati kabi shoirlar haqida tarixiy ma‘lumotlar bor. Bundan tashqari, Qipchoq, Dulat, Jalair, Arg‘in qabilalaridan chiqqan qo‘mondonlarga, Ulug‘bek kabi jamoat arboblariga Bobur o‘ziga xos ta‘rif bergan. Bizga ma’lumki, uning harbiy yurush, ta’lim va tarbiya, musiqa, huquq haqida juda ko‘plab asarlari mavjud. Ammo uning barcha asarlari hali qozoq tiliga tarjima qilinmagan. Hozircha esa Boburning buyuk asari Boburnomadagina qozoq xalqi haqida mushohada yuruta olamiz. “Boburnoma” nafaqat tarixiy, ilmiy asar, balki turkiy (chig‘atoy) tilining boy qobiliyatlaridan foydalangan holda katta mahorat bilan yozilgan badiiy asardir. Shunga qaramay, bir vaqtlar barcha turkiyzabon xalqlar uchun tushunarli bo‘lgan chig‘atoy tilida yozilgan “Boburnoma” qaysi xalqning merosi degan savolni o‘rtaga tashlashning o‘zi noto‘g’ri. Ushbu masala hali ham tarixchilar va yozuvchilar tomonidan teran o‘rganilib kelinmoqda.

Jetisu va Sirdaryo viloyati geografiyasi, qozoq xonlari haqidagi eng qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan bu asar turli davrlardagi ko‘plab mutafakkirlarimizning asarlariga negiz bo‘ldi desak adashmaymiz. Masalan, “Біраз сөз қазақтың түбі қайдан шыққаны туралы” degan tarixiy bilimlar sohasini aks ettiruvchi, qozoq halqining kelib chiqishi to‘g‘risida ma‘lumot beradigan tadqiqot asarida Abay Qunonboyev Alasha Xon haqidagi ma‘lumotlarni aynan “Boburnomadan” olganini hikoya qiladi[53]. Boburning

[52] Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” – T.: Sharq, 2016. 148b
[53]Kelimbetov N. “Қазақ әдебиеті бастаулары” (Көркемдік дәстүр жалғастығы). – Olmaota: Ona tili, 1998. – 256b.

voqea, hodisa, joy tasviridagi qarashlari, badiiy obrazlarga izoh berish, ilmiy xulosalarga kelish, o‘sha davrning murakkabligidir. Boburning yuksak mahorati, asar personajlarining xarakterini qiyin davr shaxsi deb hisoblash mumkin. Shu sababli Husayn Boyqaro Shayboniyxon, Shohibegim, Xusrovshoh, Muhammad Husayn Mirzo va boshqalarning xususiyatlarini har tomonlama aniqlashtirish maqsadida bir necha joylarda mavzu ehtiyojlariga muvofiq foydalanilgan tabiat, yengillik tasvirlari, davlat boshqaruvi va xiyonat kabi mavzularni aniqlashtirish uchun xuddi shu usul qo‘llanilgan. Zahiriddin Muhammad Mirzo Bobur yaratgan ijod namunalarida Boburnoma ijodi alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarni boshqa tarixiy asarlar bilan ilmiy tahlil qilish va taqqoslab o‘rganish juda ko‘p jiddiy izlanishlarni talab etadi.

O‘z davrining buyuk mutafakkiri va qo‘mondoni Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnomada” ushbu so‘zlarni keltirgan edi: “Ushbu so‘zni shikoyat qilish uchun ham, rahm-shafqat bildirish uchun ham, maqtanish uchun ham yozmadim, men haqiqatni, nima bo‘lganini hech qanday bo‘rttirishlarsiz o‘q holicha qog‘ozga yozdim. Shuning uchun qarindoshlarim, aka-uka va opa-singillarimning yaxshi va yomon ishlari, olis-yaqin odamlarning kamchiliklari va fazilatlari haqida ochiq oydin aytmoqdaman. Kitobxonim ham, kitobxonimni tinglayotgan tinglovchim ham kechiradi deb o‘ylayman!”, – deb aytgan edi.

Bobur – buyuk shoir. Uning asarlarida chet elga beixtiyor ketishga majbur bo‘ladi, tug‘ilib o‘sgan el-yurtini sog‘ingan farzandning haqiqiy siri, nidosi tasvirlanadi:

Nimalarni o‘ylar inson qayg‘uli onda
Quvona olmos yurak begona yurtda
Men chet elda biron bir zavqni bilmasdim,
Hech narsaga kulmasdim, hursand bo‘lmasdim.

Bobur she‘riyati o‘zi sayohat qilgan joylar, tog‘lar, daryolar va ko‘llarning tabiatini, o‘rmonlar, bog‘lar, hayvonlar va qushlarni haqiqiy rassomga xos mahorat bilan tasvirlab ko‘rsatadi. Muallif so‘z bilan ifodalay olmagan ba‘zi bir ajoyib sahnalar mana shunday lirik she‘rlarida namoyon bo‘ladi. Sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold: “Boburnoma”ning badiiy darajasini yuqori baholab, “turkiy tilda nasriy asarlarning eng yaxshi namunalaridan biridir”, – degan fikrni aytadi.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, bugun biz yoshlar Zahiriddin Muhammad Bobur nomini faxr bilan tilga olib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirmoqdamiz. Uning nomi O‘zbekiston tarixida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi siyosiy arboblar va harbiy rahbarlar bilan bir qatorda tilga olinadi. Amir Temurning bevosita avlodi bo‘lgan Bobur Hindistonda Boburiylar imperiyasining negizini soldi va o‘z mamlakatining sodiq o‘g‘li bo‘lib, umrining oxirigacha uning taraqqiyoti uchun kurashdi. Bu esa o‘z navbatida dunyoning barcha mamlakatlaridagi sharqshunos olimlarning taniqli o‘zbek qo‘mondoni, shoiri, mutafakkiri, tarixchisi va davlat arbobi faoliyatini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish kerak ekanligining yana bir dalilidir.

U bosib o‘tgan qisqa ammo sermazmun va sertashvish shonli umri necha-necha tarixchilar, adabiyotshunos va siyosatshunoslar tomonidan hali hanuz chuqur tahlil qilinmoqda. Shoirning hayoti va ijodi, o‘lmas asarlari ilm-fan rivoji, yosh avlod

tafakkuri va ma’naviyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.Bugun Bobur merosi har tomonlama yetuk, faol, ko‘p qirrali, o‘ziga va tarafdorlariga ishongan, ajdodlarning urf-odatlarini hurmat qiladigan, muzokaralarga tayyor, kelajakka ishonch bilan qaraydigan, bilimli avlodlarga omonatdir. Zero, o‘tmishsiz kelajakga qadam tashlab bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” – T.: Sharq, 2016. 148b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”/ rus tilidan tarjima qilgan: B.Qojabekov. – Olmaota, Jalin, 1990. 286b.
3. Zahiriddin Muhiddinov “Bobur haqida o‘ylar” – T.: “Sharq”, 2006y. 145b.
4. Kelimbetov N. “Қазақ әдебиеті бастаулары” (Көркемдік дәстүр жалғастығы). –Olmaota: Ona tili, 1998. – 256b.
5. З.М.Бабыр «Бабырнама» - Алматы, «Жалын» 1990ж. Аударған Б.Қожабеков

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY SARKARDALIK FAOLIYATI



Botirova Soliyaxon Ro‘zivoyevna
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy sarkardalik faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, Boburning harbiy yurishlardagi jang san’ati va mahorati tahlil qilingan. Unda buyuk sarkarda Boburning o‘ziga xos taktika va harbiy jang san’ati tarixiy faktlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, temuriylar, “Boburnoma” asari, sarkardalik faoliyati, harbiy yurish, jang san’ati, taktika, tarixiy fakt.

Аннотация: В данной статье рассматривается военная деятельность Захириддина Мухаммада Бабура, анализируются его искусство и мастерство в военных походах. В статье освещаются уникальные тактики и военное искусство великого полководца Бабура на основе исторических фактов.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, тимуриды, произведение "Бабурнама", военная деятельность, военные походы, искусство войны, тактика, исторические факты.

Annotation: This article focuses on the military leadership of Zahiriddin Muhammad Babur, analyzing his art and skill in military campaigns. It highlights the unique tactics and strategies of the great commander Babur, based on historical facts.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, the work "Baburnama," leadership activities,

military campaigns, art of war, tactics, historical facts.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek sarkardalari tarixida tom ma’noda yirik shaxs. Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo. U 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan. Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, iste’dodli shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, mohir sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo‘lgan. Amir Temurning pannevarasi bo‘lgan. Bobur o‘z davrining buyuk shaxslaridan biri edi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ , ya’ni “Sher” laqabini oladi.

Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur so‘fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi[8].

Boburning sarkardalik faoliyatiga oid ma’lumotlar o‘zining “Boburnoma” asarida bayon etilgan. "Boburnoma" o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movaraunnahr (1494-1504), Afg'oniston (1504-1526) va Hindiston (1526-1529)dagi hukmronlik davriga bo'linadi.

Birinchi qismda Boburning otasi temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi, ammo temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi, Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jang-u jadallarining behuda ketishi va nihoyat, toj-u taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali tahminan 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan.

Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani, Eron shohi Ismoil Safaviyning yordami bilan Samarqandni yana ishg'ol qilgani, lekin Shayboniylardan yengilib, Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan.

Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni mag'lub etib, shimoliy Hindistonni bosib olgani va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma'lumotlardan iborat[4].

XV asr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan Movarounnahr , deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo‘ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘shilib, uni jismonan yo‘qotish payiga tushadi.

O‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3-yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi.

1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501–1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo‘ladi.

Bobur 200-300 kishilik navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi.

Bobur mavqeyini mustahkamlash maqsadida, 1519-1525-yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor jang qildi. Boburning Hindistondagi yutuqlarida ko‘p jihatdan xorazmlik to‘p quyuvchi usta Aliqulining ham o‘rni bor. Mohir mergan, yevropaliklarning “farangi” to‘pidan o‘t ochish hadisini olgan Aliquli keyinchalik o‘zi to‘p *(qozon)* quyib, ulardan ulkan hajmdagi toshlarni otadigan bo‘lgan.

Bunday to‘pni quyish jarayonini Bobur shaxsan o‘zi kuzatgan va bu haqda “Boburnoma” asarida bayon qilgan. Qozonlar qal’alarni qamal qilishda qo‘llanilgan va undan kuniga 8 tadan 16 tagacha snaryad-tosh otish mumkin bo‘lgan. Qozonlar qal’a, minoralar, darvozalarni buzishda qo‘llanilgan.[9]

Buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayotini o‘rgangan olimlar uning harbiy san’at sohasidagi eng yirik ikki muvaffaqiyati – 1526-yilgi Panipat maydonida Ibrohim Lodiyga qarshi hamda 1527-yil sodir bo‘lgan Rona Sangoga qarshi Kanva shahridagi janglarda son jihatdan ustun bo‘lgan raqiblarni tor-mor etishi Shimoliy Hindiston tarixida ulkan siyosiy jasorat bo‘lib, uch yuz yildan ziyod hukm surgan saltanatga asos solganini alohida ta’kidlaydi.

Dehli shahriga yaqin Panipat maydonida bo‘lgan jangda Bobur Mirzoning o‘n ikki ming askari bo‘lgan. Ibrohim Lodiyning lashkari soni yuz ming va mingta harbiy fili bo‘lgan, degan ma’lumotlar bor. Bobur Mirzo o‘zining sarkardalik mahorati,

tajribasi bilan son jihatidan bir necha barobar ko‘p bo‘lgan raqiblar ustidan g‘alaba qozonadi. Tarixchi mutaxassislarning fikricha, 1526-yil aprelida Shimoliy Hindistonda yangi Boburiylar saltanatiga asos solindi va bu davlat rasman 1858-yilgacha yashab keldi.

Hindistonda bo‘lgan janglarda Bobur Mirzo o‘z askarlarini o‘sha davr uchun zamonaviy o‘qotar qurol, miltiqlar bilan ta’minlagani hamda o‘zi maxsus qurdirgan ulkan to‘plarni ishga solgani, daryolarda kemalar yasashga katta e’tibor bergani samarasini ko‘rsatdi. Zamondoshlari Bobur Mirzoni Sulton ul-a’zam va Xoqon ul-mukarram, Shahanshohi Hindiston deb tan olgan.

Bobur nainki mamlakatda siyosiy ahvolni o‘zgartirdi, balki saltanatini g‘arbiy viloyatlar bilan birlashtirdi. Kushon rojaliklaridan keyin Afg‘oniston va Hindistonning o‘zaro aloqalari uzilgan va sobiq “Turk sultonlari» hukmronligida chegaralar qarovsiz holga tushgan edi. Bobur esa Afg‘oniston va Hindiston o‘rtasida o‘z saltanatini barpo qilib, so‘ng o‘rtadagi shimoliy va janubiy chegaralarini mustahkamladi. Qachonlardir jang-u jadal maydoni bu sarzamin savdo-tijorat ham da madaniy-ma’rifiy markazga aylandi.[2]

Bobur Afg‘onistonda ham bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi. Uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e’tiborli o‘ringa ko‘tarildi.

Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir[7].

1520-yillarda Bobur shayboniylar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatdi. Boburning o‘zi ta’kidlaganidek, 1526–1527-yillarda Hindistonni bosib olish paytida o‘zbek sarkardalari – sultonlar: Qosim Husayn Sulton, Bihub Sulton, Tang Atmish Sulton, shuningdek, G‘ozipurdan Mahmudxon Nuxani, Baba Kashka, Tulmish O‘zbek, Qurbon Chaxri uning tarafida jang qilishgan.

1528-yilda Shayboniylar Boburga elchilarni yuborib, uni Hindistondagi g‘alabasi bilan tabriklaydilar.

Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilm- hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. Qisqa umri davomida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Bobur – buyuk shaxs. Uning hayoti, faoliyati, Vatanga bo‘lgan muhabbati yoshlar uchun ibratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Z.M.Bobur: “Boburnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti Toshkent—2018
2. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova: 11-sinf adabiyot darsligi, «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent–2018
3. Hasan Qudratullayev: "Bobur Armoni"-T.: "Sharq"n-2009-y
4. Bobur Xalqaro Fondi:"Zahiriddin Muhammad Bobur"-T.:"Sharq"n-2008y
5. Sayfiddin Jalilov: "Bobur Haqida Oylar" -T.: "Sharq"n-2006-y
6. Zahiriddin Muhiddinov: "Bobur Mirzo"-Andijon.: "Andijon nashriyot-matbaa"n-2005-y
7. Abdurashid Abdug‘afurov. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. Narimon RAHIMOV, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi direktori o‘rinbosari Manba: “Vatanparvar” gazetasi 2022-yil 11-fevral, 6-son

БОБУР –ЖАҲОН ҲАРБИЙ САНЪАТИ РИВОЖИГА ҲИССА ҚЎШГАН БУЮК САРКАРДА



Бейсенов Кенжабай Сарсанбаевич
Малака ошириш институти Касбий тайёргарлик факультети Махсус фанлар цикли ўқитувчиси, подполковник

Аннотация: Мазкур мақолада жаҳон ҳарбий санъати ривожига ҳисса қўшган буюк саркарда Бобур тўғрисида илмий асослнган таклиф ва тавсиялар берилган.

Аннотация: в данной статье приводятся научно обоснованные предложения и рекомендации о великом полководце Бабуре, внесшем свой вклад в развитие мирового военного искусства.

Annotation: this article provides scientific-based suggestions and recommendations on the Great Commander Babur, who contributed to the development of World Military Art.

Таянч сўзлар: дунё, саркарда, жанг**,** сулола, сиёсий арбоб, раҳбар.

Ключевые слова: мир, полководец, битва, династия, политический деятель, лидер.

Base words: the world, the commander, the battle, the dynasty, the political figure, the leader.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби тарихий шахслар тарихда тез-тез дунёга келадиган ҳарбий ва сиёсий арбоблар сирасидан эмас. Фақат бу жиҳатдангина

эмас, парвардигор назар солган қомусий илмлар соҳиби жиҳатидан ҳам у беназир бир зот эди.

Қолаверса, унинг қонида она томонидан дунёни ларзага солган Чингизхон, ота томонидан эса буюк соҳибқирон Амир Темур силсиласига туташлик унсурлари айланар эдики, бу ёш Бобурни юксак марралар сари боришга ундар эди.

Бизнинг мақсадимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурдек буюк аждодимизнинг жаҳон ҳарбий санъатига қўшган катта ҳиссасини бир мақола сиғими даражасида ва доирасида ёритишдан иборат.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Шавкат Мирзиёев ҳам Қуролли кучлардаги баъзи бир камчиликларга гувоҳ бўлар экан, Президент ҳузуридаги Хавфсизлик Кенгашидаги қатор чиқишларида буюк аждод саркардаларимиз бўлмиш Султон Жалолиддин Мангуберди, Соҳибқирон Амир Темур ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур ватандошларимизнинг ҳарбий санъати, жангу-жадаллардаги жасоратларини оддий жангчи аскардан то генералларгача эгалламас эканлар, ватанга садоқат руҳи улар қалбида уфуриб турмас экан ҳар қандай замонавий қуроллар ҳам асло наф бермайди, дея такидлаган эди. Бу борада давлатимиз раҳбари юз карра ҳақ эди [https://yuz.uz/news/bobur-buyuk--sarkarda-yoxud-jahon-harbiy-sanati-rivojiga-hissa-qoshgan-ulkan-galabalar].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ўрта аср Шарқ маданияти, адабиёти ва шеъриятида ўзига хос ўрин эгаллаган адиб, шоир, олим бўлиш билан бирга йирик давлат арбоби ва саркарда ҳамдир. Бобур кенг дунёқараши ва мукаммал ақл-заковати билан Ҳиндистонда Бобурийлар сулоласига асос солиб, бу мамлакат тарихида давлат арбоби сифатида номи қолган бўлса, сержило ўзбек тилида ёзилган «Бобурнома» асари билан жаҳоннинг машҳур тарихнавис олимлари қаторидан ҳам жой олди. Унинг нафис ғазал ва рубоийлари туркий шеъриятининг энг нодир дурдоналари бўлиб, «Мубаййин» («Баён этилган»), «Хатги Бобурий», «Ҳарб иши», Аруз ҳақидаги рисолалари эса ислом қонуншунослиги, шеърият ва тил назарияси соҳаларига муносиб ҳисса бўлиб қўшилди. Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йилнинг 14 февралида Андижонда, Фарғона улусининг ҳокими Умар Шайх Мирзо оиласида дунёга келди. Бу даврда Марказий Осиё ва Хуросонда турли ҳокимлар, ака-укалар, тоға-жиянлар, амакиваччалар ўртасида ҳокимият — улуғ боболари Амир Темур тузган йирик давлатга эгалик қилиш учун кураш ниҳоят кескинлашган эди.

Адабиёт, нафис санъат, табиат гўзаллигига ёшлигидан меҳр қўйган Заҳириддин, барча Темурий шаҳзодалар каби бу илмларнинг асосини отаси саройида, етук устозлар раҳбарлигида эгаллади. Бироқ унинг беташвиш ёшлиги узоққа чўзилмади. 1494 йили отадан етим қолди. 12 ёшида отаси ўрнига Фарғона улусининг ҳокими этиб кўтарилган Бобур қаламни қиличга алмаштириб, Андижон тахти учун укаси Жаҳонгир Мирзо, амакиси Султон Аҳмад Мирзо, тоғаси Султон Маҳмудхон ва бошқа рақибларга қарши курашишга мажбур бўлди. Бобур укаси Жаҳонгир Мирзо билан муросага келиш учун унга ён беришга —

Фарғона улусини иккига тақсимлаб, ярмини укасига топширишга қарор қилда ва ўзи Самарканд учун олиб борилаётган ку-рашга киришиб кетди. Бир неча йил давом этган бу кураш қирғин-баротдан бошқа бирор натижа бермади: унда катта ҳарбий куч билан аралашган Шайбонийхоннинг қўли баланд келди ва Бобур Самарқандни ташлаб кетишга мажбур бўлди. 1504 йили Шайбонийхон Андижонни ҳам қўлга киритгандан сўнг, Бобур жанубга қараб йўл олди ва Кобул улусида ўз ҳокимиятини ўрнатди. 1505-1515 йилларда у Марказий Осиёга қайтишга бир неча бор уриниб кўрди. Аммо бу уринишлардан ҳеч қандай натижа чиқмади. Сўнг ўз мавқеини янада мустаҳкамлаш мақсадида, 1519-1525 йиллар давомида Ҳиндистонни қўлга киритиш учун бир неча бор жанглар олиб борди. 1526 йил апрел ойида Панипатда Ҳиндистон султони Иброҳим Лўди билан ва 1527 йили март ойида Читора ҳокими Рано Санго билан бўлган жангларда Бобурнинг қўли баланд келди. Тарихий маълумотларнинг баён қилишича, Бобурнинг Ҳиндистонга юришида Деҳли ҳукмдори Иброҳим Султон сиёсатидан норози бўлган Панжоб ҳокимлари ҳам Бобурни қўллаганлар ва Сикри жангидаги бу ғалаба Бобурга Ҳиндистонда ўз ҳукмронлигини узил-кесил ўрнатиш ва Бобурийлар сулоласини барпо этиш имкониятини берди. Оврўпо тарихчилигида «Буюк мўғуллар» номи билан «ғаллати машҳур» бўлган, аслида «Бобурийлар сулоласи» Ҳиндистонда 300 йилдан ортиқ ҳукмронлик қилди[https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахси ва ижоди бугунги кунда ҳам бутун дунёда қизиқиб ўрганилади. Бунинг асасий сабабларидан бири Бобурнинг кўп қиррали фаолияти ва бу ҳақда «Бобурнома» да содда ва ҳаққоний ифода этилишидир.

Дарҳақиқат, «Бобурнома» да йигирмадан ортиқ соҳа қамраб олинган бўлиб, асарнинг катта қисмини жанг тасвирлари, Бобурнинг жанговар фаолияти тасвирлари ташкил этади. Бу тасвирлар орқали Бобурни нафақат шоҳ ва шоир сифатида, балки адолатли ҳукмдор ва салоҳиятли саркарда сифатида яқиндан таниймиз.

Бобур Амир Темурдан мерос Самарқанд тахтини қўлга киритишни орзу қилади ва бунга муваффақ бўлади. Шайбонийхондек тажрибали душман қўлидан Самарқандни тортиб олиши ва жанг тафсилотлари, таҳлилларини батафсил баён этади.

Самарқандни эгаллаган Бобур бу жангни Ҳусайн Бойқаронинг Ҳиротни эгаллш учун олиб борган кураши билан қиёслайди. Ҳусайн Бойқаро тажрибали, ёши улуғ подшоҳ бўлиб, душмани Носир Мирзо ўн ети - ўн саккиз ёшдаги бетажриба йигит эканлиги, ғаним ичидаги кайфиятни билиб уларнинг ғофиллигида ҳужум қилиниши, ғаниминг қўрғонда эмаслиги, Ёдгор Муҳаммад Мирзо ва одамлари Боғи Зоғонда маст ҳолатда бўлганлари ва Ҳусайн Бойқаро уларнинг ғофиллигидан фойдаланиб енгиши айтилади ва Бобур ўн тўққиз ёшлик тажрибасиз ва ғаними Шайбонийхон кўп юришларни кўрган тажрибали эканлиги, Самарқанд халқи Бобурни ёқласада, Шайбонийхон зулмидан қўрқиб ёрдамга келмаслиги, ғаним қўрғон ичида эканлиги, ҳам қўрғонни олиб ҳам ғаним

бартараф этилгани каби фарқлар санаб ўтилади. «…иккинчи мартаба келганда Тенгри рост келтурди, Самарқанд фатҳ бўлди…»

Бобур барча темурий ҳукмдорлардан Амир Темурга хос бўлган мардоналик, жасурлик, қатъийлик сифатларини кутади. Ҳусайн Бойқародек тахт эгасидан Шайбонийхонга қарши ҳужумни кутади, биргаликда Шайбонийни енгишга даъват қилади. Лекин Бойқаро ва ўғилларидан бундай жавоб қайтмайди.

Шайбонийхон Балхни эгаллаб, Самарқандга юзланади. Бундан ташвишга тушган Бобур темурий ҳукмдорлар бирлашиб ғанимни бартараф қилиш таклифини беради. Айниқса, Ҳусайн Бойқаро ва унинг ўғилларидан муносиб жавоб кутади. Лекин мирзолар Шайбонийхондек даҳшатли душманни енгиш ўрнига, бир-бирлари билан арзимас баҳоналар устида келишмовчиликка борадилар. Шундай хавфли душманга қарши ҳужум қилишни асоссиз кечиктирадилар, қишни ўтказиб баҳорда ҳужум қилишни режалаштирадилар, Бобурга ҳам рухсат бермайдилар. Бобур Ҳусайн Бойқаро ўғилларининг бундай хатти-ҳаракатларини қаттиқ қоралайди: «…Бу мирзолар агарчи суҳбат ва суҳбаторойликда ва ихтилоф ва омизишга тавре эдилар, вале сипоҳийлик рев ва рангидин йироқ ва мардоналиқ ва жангу жадалдин қироқ эдилар…»

Бобур тож-тахтни бошқаришда, салтанат тутишда, сиёсатда ўзининг мустаҳкам қарашларига эга, ҳукмдор сифатида ўзининг ва салтанатининг обрў-эътиборини сақлашни билади. У Бадиуззамон ҳузурига борганда бир-бирларига томон юра бошлайдилар. Бадиуззамон секинроқ, Бобур илдамроқ қадам ташлайдилар. Қосимбек Бобурнинг белбоғидан тортади, Бобур огоҳ бўлиб секинроқ юриб боради, Бадиуззамон билан кўришадилар. «Иккинчи навбат келганда Бадиъуззамон Мирзо бурунгидек таъзим қилмади, Муҳаммад Бурундуқбекка ва Зуннунбекка айттурдимким, агарчи ёшим кичиктур, вале тўрум улуғдур, ота тахтидаким, Самарқанд бўлғай, икки навбат зарби рост олиб ўлтурубдурмен, бу хонавода учун ёт-ёғи билаким мунча жанг ва жадал қилибтурмен, менинг таъзимимда таърих беважҳдур, бу сўз мазкур бўлғоч, чун маъқул эди, муътариф бўлуб, таъзимни хотирхоҳ қилдилар»

У Бадиуззамон ва Музаффар мирзонинг мамлакатни биргаликда идора қилишларини ҳам ҳақли равишда ёқламайди: «Бадиуззамон Мирзо ва Музаффар Мирзоким, шариклик подшоҳ бўлдилар… Бу ғариб амре эди, ҳаргиз подшолиқта ширкат эшитилган эмас. Шайх Саъдир сўзининг мазмунининг хилофи воқи’ бўлди: Нечукким «Гулистон» да келтурубдур: «Даҳ дарвеш дар як гиламе бихусбанд ва ду подшоҳ дар иқлиме нагунжанд». Яъни ўнта дарвеш бир гиламда ётадилар ва лекин икки подшоҳ бир иқлимга сиғмайди.

Бобурнинг саркардалик салоҳияти унинг инсонийлиги билан юксалганини Кобулга тоғ йўлидан ўтиш тасвирларида кўрамиз. Қалин қор ёғган, отнинг узангисидан юқорироқ бўлган вазиятда буйруқ бериб бўлмаслиги, Бобурнинг ўзи ҳам лашкар олдига тушиб қор тепиши, кўпчилик билан совуқда қолиши тасвирланган. «Мен ҳаволнинг оғзида курак олиб, қор кураб, ўзумға бир такия миқдори ер ясадим, қорни кўкусгача қоздим, ҳануз ерга етмайдур эди. Биур нима елга паноҳ бўлди, ўшанда-ўқ ўлтурдим. Ҳар неча дедиларким, ҳаволга боринг,

бормадим. Кўнгулга кечтиким, борча эл қорда ва чопқунда, мен иссиқ уйда ва истироҳат била, мунда борча улус ташвиш била машаққатта, мен мунда уйқу била фароғатта. Мурувваттин йироқ ва ҳамжиҳатликдин қироқ ишдур…»

Бобурнинг саркардалик салоҳияти нафақат музаффар ғалабаларидан, балки душманларнинг жангда йўл қўйган хатоларидан ҳам керакли хулосаларни чиқаришида яққол бўй кўрсатади. Муаллиф Панипатда Иброҳим Лоди қўшини билан бўлган жангда Амир Темур қўллаган тўлғама усулидан фойдаланганини, Иброҳим Лодининг саркардалик салоҳияти йўқлиги, юз минг кишилик катта қўшин, жанговар икки мингга яқин филлари, оталаридан қолган катта хазинаси бўла туриб, хазинадан сарфлаб яна қўшин йиғмагани каби йўл қўйган катта хатоларини айтади: «…табиатида имсок кўп ғолиб эди. Ўзи ярмоқ йиғиштурмоққа беҳад толиб, бетажриба йигит эди. Не келиши саранжомлиқ эди, не туруши, не юруши эҳтимомлиқ эди, не уруши».

Бобур керакли пайтларда лашкарни руҳлантиришни билади, ўз лашкарини қўрқмасликка, мардона бўлишга ва, албатта, ғалаба қозонишга даъват этади: «…элнинг мундоқ бедиллиқларини сўруб ва бу нав’ сустлуқларини кўруб бир тадбир хотиримға етти. Жамъи бекларни ва йигитларни чорлаб дедимким: «Беклар ва йигитлар!

Ҳарки омад ба жаҳон аҳли фано хоҳад буд,

Онки пояндаву боқист, Худо хоҳад буд.

Ҳар кимки ҳаёт мажлисиға кирибтур, оқибат ажал паймонасидин ичгусидур ва ҳар кишиким, тириклик манзилиға келибтур, охир дунё ғамхонасидин кечгусидур. Ёмон от била тирилгандин, яхши от била ўлган яхшироқ… Ўлган шаҳид, ўлтурган ғози. Барча Тенгрининг каломи оти-ла онт ичмак керакким, ҳеч ким бу қитолдин юз ёндирур хаёл қилмағай, то бадандин жони айрилмағунча, бу муҳораба ва муқоталадин айрилмағай».

Бобур фаолиятини ўрганар эканмиз, унинг мардоналик, лашкарни бошқара олиш сифатлари билан тенгсиз курашларда ғолиб чиқишига гувоҳ бўламиз. Бобур бундай ғолибликни фақат ўзининг саркардалик салоҳиятидан эмас, балки Оллоҳнинг иноятидан деб билиши ҳам унинг нақадар одил ва эътиқодли ҳукмдор эканлигидан далолат беради.

Бу мисралар Бобур муваффақиятлари, зафарли натижаларининг қисқа ва лўнда ифодаси бўлиб, қуйидаги жумлалар эса Ҳиндистонда улкан салтанат барпо этган аждодимиз эришган жамики неъматларнинг калитидир: «Тангри неъматларининг кетма-кет келиб туриши унга шукр ва сано айтишнинг кўпайишига боисдир» [«Бобурнома» да саркардаликка хос сифатлар тасвирлари. Дилафруз Сайипова].

Бобур жаҳон ҳарбий санъати ривожланишига ёркин ҳиссасини қўшиб ва ўзбек халқининг номини, шонли тарихини, Амир Темур бобосидан кейин яна бир бора оламга ёйди.

Ҳарбий тафаккур кучи, дониш ақлий қуввати, давлатчилик истеъдоди билан темурийлар сулоласининг умрини узайтириб унинг сиёсат майдонида 332 йил яшаб қолишига йўл очди. Темурийлар сулоласининг узвий давоми сифатида

бобурийлар номи билан жаҳон тарихи саҳифаларини безади [https://yuz.uz/news/bobur-buyuk--sarkarda-yoxud-jahon-harbiy-sanati-rivojiga-hissa-qoshgan-ulkan-galabalar].

Адабиётлар рўйхати

1. «Бобурнома» да саркардаликка хос сифатлар тасвирлари. Дилафруз Сайипова**.**
2. https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html/
3. https://yuz.uz/news/bobur-buyuk--sarkarda-yoxud-jahon-harbiy-sanati-rivojiga-hissa-qoshgan-ulkan-galabalar/
4. https://yuz.uz/news/bobur-buyuk--sarkarda-yoxud-jahon-harbiy-sanati-rivojiga-hissa-qoshgan-ulkan-galabalar

BOBURIYLAR SULOLASIDA “XILAT” MAROSIMINING O‘TKAZILISHI VA BU UDUMNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI



Dadajonova Nargiza Davlatbek qizi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti,
Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Nafaqat yurtimiz, balki jahon tarixida o’zining yuksak xizmatlari bilan chuqur nom qoldirgan vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o‘rin oldi. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), «Xatgi Boburiy», “Harb ishi”, Aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she’riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Tarixiy ma’lumotlarda aytilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil-kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Xindistonda Boburiylar sulolasining 300 yil davr mobaynidagi hukmronlik yillarida ularning o’ziga xos madaniyati yuzaga keldi. Xind va musulmon an’analarini uyg’unlashtirgan marosimlar, adabiyot va san’at asarlari hamda o’zgacha kiyinish uslubi shakllandi.

Siyosiy marosimlarning tabiati, shakli, vazifasi va ta’siriga oid bir paytlar tangensial, hatto bejiz hisoblangan masalalar hozirda olimlar tomonidan jiddiy

o‘rganilmoqda. Antropologik va sotsiologik ma’lumotga ega tarixchilar madaniyat muammosini shunchaki real voqealar sodir bo’ladigan statik ramka sifatida emas, balki dinamik yakuniy instrumental jarayon sifatida muhokama qila boshladilar. So’nggi yillarda olimlar tobora ko’proq harbiy texnologiya va strategiya, saroyning moddiy madaniyati kabi turli sohalarda o’rta asr Hindistonining bir qator xarakterli madaniy ko’rinishlari ortidagi islom ajdodlarini tan olishga kirishdilar.

Bu davrda mintaqa aholisining o’ziga xos belgilar bilan birgalikda Boburiylar imperiyasi saroyi namunasidagi ba’zi elementlarni ham uchratish mumkin. Sulola saroyi o’zida fors, turk, O’rta Osiyo, hind va ayniqsa sulolaviy an’analarning uyg’unligini aks ettirgan. Saroy zodagonlari, amaldorlar maxsus kiyimlar kiyib yurishgan. Saroyda o’tkaziladigan majlis yoki mashvaratlarda ularni kiyimlaridan ajratib olish odat tusiga kirgan. Masalan, ba’zi ramzlar bir majlisga xos bo'lsa-da (masalan, Kabayi, uzun ko'ylak, Kullayi, Vijayanagar imperiyasiga tegishli baland konus shaklidagi qalpoq va sulolaning asoschisini Maratha Raja Shivaji bilan ifodalovchi Peshva kabi irsiy unvon), boshqa belgilar deyarli barcha imperator va mintaqaviy majlislarda xuddi shunday ma’noga ega edi. Ko'pgina mashvaratlar Hindistonning ma’muriy va diplomatik dunyosida inglizlarning kirib kelishidan oldingi asrlar davomida hukmronlik qilgan xizmat elitasidan olingan marosim bo’yicha mutaxassislarni saqlab qolgan.

Ko'rinib turibdiki, Boburiylar imperiyasi ushbu elitaga tayangan holda siyosat olib borgan. Xindlarni saroy kiyimining an’anaviy uslubi XIV-XV asrlarda asosan islom olamida paydo bo‘lgan kiyim turlaridan foydalanishga asoslangan yangi tizim bilan almashtirilgan. “Xila” atamasi arabcha “qaba”, forscha “xilat” yoki “saropa” atamasi ilk bor VII-VIII asrlarda ishlatilgan. Klement Xuartning fikriga ko'ra, boshqa mukofotlarning ko’rinishi kabi, xilatlar ham o'ziga xos fors an'analariga ega edi. F.V.Bakler shuningdek, Yaqin Sharqdagi barcha qirollar, ham qadimgi, ham musulmonlar, sharaf liboslaridan foydalanishganini ta’kidlaydi. Podshoh bu liboslarni o’z xizmatkorlariga berganida, u ba’zi ramziy xatti-harakatlar orqali o’z hukmronligida bo’lganlarning shaxsini o’z tanasiga kiritgan. Biroq, XIV-XV asrlarda bu amaliyot keng, ammo madaniy jihatdan o’xshash islom olamida hukmron bo’lganidan ko’ra ko’proq tarqaldi. Liboslar taqdimoti muntazam ravishda, masalan, merosxo'rning oliy martabaga kirishi bilan birga bo’ldi.

Xilat asli arabcha so‘z bo‘lib, “hurmat libosi” degan ma’noni anglatadi va forscha “sir-o pa” (so‘zma-so‘z, boshdan oyoq) atamasi o‘rnida ishlatilgan. Podshoh tomonidan qilingan sovg’a liboslar minimal darajada salla, xalat hamda belbog’dan iborat bo’lardi. Haqiqatan ham, xilotning bir nechta toifalari bor edi. Odatdagi sovg'a umumiy garderob (xila’xona) tomonidan chiqarilgan, salla (dastar), to'liq yubkali uzun ko'ylagi (jama)dan iborat uch qismli kiyimlar to'plami edi. Ammo beli sharf (belbog’band), omborxona (tosha xonadon) tomonidan sovg‘alar uchun chiqarilgan besh qismli to‘plam yanada puxtaroq va chiroyliroq edi. Yuqorida sanab o'tilgan uchta moddaga qo’shimcha ravishda zeb-ziynatli salla - bezak (sarpech) va sallani bezash uchun tasma (balaband).

Bosh kiyimi, uzun ko'ylagi, ikki juft shim (ehtimol shalvar), ikki juft ko'ylak (kami), ikkita belbog' va sharfdan iborat yetti qismli to'plam yanada mukammal edi. [1.3][54]

Nihoyat, eng qimmatlisi esa imperator tomonidan shaxsan kiyiladigan kiyim yoki liboslar to'plami edi, uni "malbus- i xas" deb ham atalgan. Xilat oltin, kumush va ipak iplar hamda zeb-ziynatlar bilan bezatilgan. Qabul qiluvchining mansabi balandroq bo'lsa, chopon dehqon (forscha, shoh maktubi, mandati yoki farmoni), kamon va qalqon, zargarlik bilan bezatilgan xanjar va qilichlar, qullar, otlar va fillar va ularning bezaklari bilan birga taqdim etilgan. Bunday hadyalarni Styuart Gordon "Tranzaksiya belgilari" deb atagan.

Siyosiy tomonlarini hisobga oladigan bo'lsak marosim hukmdorning kuchini ko'rsatish va davlat boshqaruvi tizimidagi ierarxiyani mustahkamlash uchun ishlatilgan. Masalan, Boburiy hukmdor Akbarshox davrida bu marosimlar orqali turli etnik va diniy guruhlar imperatorga bo'ysundirilgan. Akbar liboslarni nafaqat zodagonlarga, balki harbiy qo'mondonlarga ham "yutuq" sifatida taqdim etgan. Uning davrida marosimlar ko'proq ma'naviy va siyosiy mazmun kasb etgan . Shoh Jahon davrida esa Dunyoning yeti mo'jisazidan biri hisoblanmish "Toj Mahal" inshooti qurilishi davrida marosimlar yanada hashamatli o'tkazilganligi e'tirof etiladi. Shoh Jahon elchilarga zardo'zli liboslar bilan birga qimmatbaho tojlar ham sovg'a qilgan. Hukmdor Avrangzebning Diniy qat'iylik davrida "Xilat" marosimlari kamaygan, lekin harbiy g'alabalardan keyin yana qayta tiklangan.

"Xilat" marosimi liboslari qimmatbaho matolar (ipak, zardo'z) va muhrlar bilan bezatilib, maxsus tadbirga oldidan tayyorgarlik ko'rilgan. Sovg'ani topshirishdan oldin oldin imperator o'zi kiyib ko'rsatgan, keyin qabul qiluvchiga taqdim etgan . Qabul qiluvchiga imperator tomonidan liboslar qo'lda berilgan yoki maxsus tantanali yurishlar bilan yetkazilgan. U libosni kiygandan so'ng, imperator oldida ta'zim qilishi va "sijdah" (boshni pastga egishi) qilishi talab qilingan. Ammo ba'zi hollarda, masalan, elchilar marosimda qatnashganda, ularning madaniy an'analari va imperator talablari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Misol uchun, Yevropa elchilari bosh egishni "xo'rlanish" deb hisoblab, buni rad etganliklari haqida ma'lumotlar keladi.

Faxriy liboslarni qabul qilish sovg'aning shaxsiy hokimiyati va kattaligini aniq tan olish edi va buning evaziga oluvchining sharafli mavqeini tan olish edi. Bu lavozim podshohning ishonchli odami, masalan, elchilar, rasmiylar, muvaffaqiyatli general, harbiy xizmatchilar yoki ijodkorlar, shoir, rassomlar bo'lishi mumkin edi. Mashvaratlarda qirolning qo'lidan kiyim kiyib oluvchilar zodagonlarning bir qismiga aylandi. Marosimlarda har doim zodagonlar va xushmuomala bo'lgan tomoshabinlar bor edi. Zahiriddin Muhammad Bobur istilosidan oldingi asrlarda sharaf liboslari Shimoliy Hindiston va Dekan musulmon saroylarida keng tarqalgan bo'lib, keyinchalik, musulmonlardan Hindistonning deyarli barcha hind hududlariga o'tgan. XVI asrga kelib mintaqa hukmdorlari qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'i nazar, bu an'ananing tuzilishini ham, so'zlashuv uslubini ham to'liq tushundilar va mohirona nazorat qila

[54] Balkrishan Shivram."Court dress and robing ceremony in Mughal India".Published by:Indian History Congress.2005-2006. 3-bet

boshladilar. Hatto Sikh Guru Angad kabi diniy rahbar ham har yili o’z izdoshlariga ikki xilot tarqatganligi bilan ajralib turadi.

So’fiylik an’analarida shayxning o'z izdoshlariga chopon taqdim etishi asrlar davomida qonuniylik va sadoqatning asosiy marosimlaridan biri bo’lib qolgan. So’fiylik an’analari doirasida so’fiy ustozlari shogirdlikning yaqqol ko’rinib turgan ramzi sifatida o’zlarining "yamoqli (shaxsan o’zlari kiyib yurgan kiyimlari)" liboslarini (xirqa, ro'mol va muraqqa) berishni odat qilganlar. Jumladan, Gujaratda Sulton Mahmuddan keyin o‘rinbosar bo‘lgan Chengezxon o‘zining shaxsiy garderobidan har kuni besh-oltita ko‘ylak berib turardi.

Har bir libos odatda 700 yoki 800 rupiydan qimmatroq edi. Dekanda ham yangi dalillar shuni ko’rsatadiki, sharaf marosimi liboslari XIV asrda Vijayanagarda qirollik marosimining bir qismi bo’lgan. Bijapurda esa, More oilasi 1660-yillarning o‘rtalarida qiyin harbiy topshiriqni muvaffaqiyatli bajarib bo‘lgach, Bijapur sultoni “Siz yaxshi xizmat qildingiz” degan ko‘rsatma bilan juda qimmatbaho liboslar yubordi. Avadda liboslarni olish ma’lum bir davlat lavozimini egallash bilan sinonim edi. Qirollik ridosi yoki hilatidan siyosiy foydalanish Bengaliyada ham ma’lum edi. Sulton Nosiruddin Nusratshoh 1521 yilda Portugaliya missiyasi kapitaniga o’zi kiygan choponni hadya qilish bilan yaxshi tassurot qoldira oldi. Bengaliyadagi har bir daromad to’lovchi nozim, unvon boshlig’i va uning zobitlari uchun nazr taqdim etdi. O’z navbatida ular nozimdan hilat olishgan. Muhim zamindor vafot etgach, nozim merosxo‘rga ta’ziya va hilat yuborar edi. Hatto XVI-XVII asrlarda Himolay etaklarida joylashgan nisbatan kichik knyazliklarning hukmdorlari ham kiyim kiyish marosimini o‘tkazishganligi ma’lum.

Bundan farqli o’laroq, Boburiylar sulolasi va mintaqaviy tribunalning murakkab dunyosiga kirgan dastlabki Yevropa elchilari bu saroy marosimiga begona edilar. Shunga qaramay, yevropalik sayyohlar va Hindistondagi elchilar Mo‘g‘ul imperatorlarining hilatlarini bemalol qabul qilganlar. Jan-Batist Tavernier va boshqalar o’zlarining portretlarini g’urur bilan olgan liboslarida chizdirganlar, bu ularning Boburiylar sulolasi saroyining taniqli shaxslari bilan bir xil qadr-qimmatga ega bo’lish istagini yaqqol ko’rsatadi. Hindistonliklar Boburiy hukmdorlarning mashxur marosimlari va ramzlarini qabul qildilar va ularga moslashdilar. Sulola saroyidagilar ham, inglizlar ham nazr va xilat almashish marosimi – Britaniya hukumati va amaldorlari Boburiylar suverenitetiga bo’ysunishini anglatishini tan olishdi. XVIII asrning oxiriga kelib, Hindistonning qolgan ko’p qismida, hind va ingliz majlislarida sharafli liboslar odatiy, hatto standart bo’lib qoldi. XIX asrning boshlarida paydo bo’lgan Boburiylar mashvarati marosimi Britaniya mustamlaka davlati o’rtasida jiddiy qonuniylik masalasiga aylandi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida inglizlar Shimoliy Hindistonni asta-sekin zabt etar ekanlar, ular Boburiylar imperiyasini o’zining avvalgi soyasiga, sulola imperatorini esa oddiy nafaqaxo'rga aylantirdilar[1.11].

Bu voqealar jarayonida Britaniyaning Ost-Hind kompaniyasini bo’ysunuvchidan hukmdorga, sulola imperatori esa hukmdordan bo’ysunuvchiga xizmatkor maqomiga o’tdi. Hokimiyat munosabatlaridagi bu o’zgarish suverenitet marosimlari bilan ifodalangan edi, Inglizlar dastlab o'zlarining bo’ysunish takliflarini berishgan, ya’ni bunday marosimlarni to’xtatmoqchi bo’lishgan. Ammo keyinchalik o’zlari ham bu

odatga qiziqib qolishdi, ajoyib sovg’alar (nazr) va qo’l ostidagilarga hilot sovg’a qilishlari bilan bu udumni tan olganliklarini ko’rsatdilar. Inglizlar boshqa hind hukmdorlari bilan munosabatlarida asta-sekin Boburiy imperatorlari emas, Britan hukumati hukmron kuch ekanligini ko’rsatib qo’ydi. Ammo, shuni ta’kidlash joizki, musulmon bo’lmaganlar, undan tashqari musulmon tuzumlari bilan yaqin aloqada bo’lmagan mintaqalar ham bu urf-odatdan tashqarida joylashgan hududlar edi. Misol uchun, Himolay o’rtalarida joylashgan shtatlarda keyinchalik Shimla tepaligi shtatlari deb atalgan hududlarda bunga oid hech qanday asoratni uchratmadik. Bu tog’ boshliqlari, ehtimol, inglizlar bilan aloqaga chiqmagunlaricha, hilat marosimi haqida bilishmagan. Britaniya bilan diplomatik munosabatlar o’rnatilgandan so’ng, liboslarni taqdim etish merosxo’rni saroyga yo’naltirish, yuqori lavozimga kirish yoki hatto inglizlarga ko’rsatilgan xizmatni qadrlash bilan odatiy amaliyotga aylandi.

Shimla viloyatining tepalik boshliqlarining aksariyati inglizlarga sodiq qolishgan va 1857-yildagi qo’zg’olonni bostirishda pul va kuch bilan katta yordam berishgan. Bu xizmatlarini e’tirof etgan holda, ular inglizlar tomonidan qurol-yarog’, xilot va faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, ushbu qo’zg’olonda ko'rsatgan xizmatlari uchun Sirmurlik Raja Shamsher Prakash 7 ta qurolli salom bilan birga hilat bilan ham taqdirlangan. Bilaspurlik Raja Xira Singx 11 ta qurol va qimmatbaho xilot bilan taqdirlandi. Thakur Jograj xizmati inglizlar tomonidan e'tirof etilib, 24-iyul kuni Balsonga bir sanad berilgan. 1858 yilda Lord Kanning tomonidan unga va uning merosxo’rlariga Ra’no unvoni va qimmatbaho xilot unvoni berildi. Keontallik Rana Sansar Sain Roja unvoni bilan, shuningdek, rupiya qiymatidagi hilat granti bilan taqdirlandi.

Ho‘kiz Hindistonda hilat marosimining asosiy ramzi rido bo’lib, u saroy hayotining eng taniqli, eng ko'zga ko’ringan libosi edi. Podshoh tomonidan taqdim etilgan kiyim zodagonlar va qirol kiygan kiyimlarga o’xshash edi. Darhaqiqat, uning saroy libosi sifatida qabul qilinishi va qirol tomonidan sharaf libosi sifatida taqdim etilishi hind saroy libosining avvalgi an’analaridan tubdan voz kechishni anglatadi. XIV yoki XV asrning boshlarida ”plash (uzun libos)” joriy etilishidan oldin, Hindiston shimolidagi musulmon bo’lmagan mahkamalarda erkaklar odatda hech qanday yuqori kiyim kiyishmagan. Buning o’rniga ular ko’kraklari va qo’llarini ochiq qoldirar edilar yoki juda bo’lmasa, yelkalarini tikilmagan uzun, to’rtburchak mato (ambaram) bilan o’rab qo’yardilar.

Abdulrazzoq Samarqandiy oddiy odamlarning kiyimi haqida ham hindlarning ko’kragini beldan boshqa yo’l bilan yopmaganligini ta’kidlaydi. Kindiklaridan tizzalarigacha nozik paxta tolalaridan tayyorlangan mato bog‘lab yurardilar. K.M.Ashraf, shuningdek, dhoti yoki bitta choyshab yoki beldan pastroq uzun mato o’rta asrlar Hindistonida hindlarning etarli va hurmatli libosi bo’lganini ta’kidlaydi. Libosning qabul qilinishiga sabab bo’lgan omillar islom dini va an'anaviy hind kiyinish tizimlariga asoslanadi. Hindiston tizimida islom madaniyati ta’siridan oldin tana shaxsning ajralmas jihati sifatida ko’rilgan va shuning uchun u shaxsning ichki holati va fazilatlarini aks ettiradi deya ishonishgan.

Bunday madaniy sharoitda kiyimning vazifasi tanani yashirish emas, balki uning shakllarini ochish, ramkalash va ta'kidlash bo'lgan. Aynan mana shu funksiyalar hindlarning an'anaviy ustki kiyimi – yelkasiga bo'shashib qo'yilgan shaffof, tikilmagan mato bo'lgan deyiladi. Bu munosabatga islom nuqtai nazari to'g'ridan-to'g'ri qarshi turadi. Ochiq tana yalang'och va uyatli deb hisoblanadi va aytilishicha, kiyim-kechak Olloh tomonidan insonlarning badanini yopish uchun berilgan. Va bu maqsadga islomiy kiyim tizimiga xos bo'lgan ko'plab turdagi ko'ylaklar va liboslar orqali erishilgan. Islom ta'limotiga ko'ra tanani nafaqat yopish kerak, balki tana shakllarini ko'rsatmaslik uchun ham kiyim keng bo'lishi kerak. O'rta asrlarda forsda shunday mashhur gap bor edi: "Na erkaklar, na ayollar tor va ochiq-sochiq libos kiymasliklari kerak, hadislarda bunday libos kiygan ayollarning la'natlanishi aytilgan".

Agar liboslar qaysi materiallardan tayyorlanganini yoki ulardan foydalanish darajasi va ijtimoiy mazmunini tushunish uchun qisqacha ko'rib chiqsak, bizda XV-XVI asrlarga oid ko'plab ko'rgazmali va yozma hujjatlar mavjud bo'lib, ular juda boy ma'lumotga ega ekanligini o'rganamiz. Bu manbalar liboslarning rasmiy va moddiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Liboslar tikilgan gazlama odatda paxta, ipak, brokar va baxmal kabilardan tayyorlangan. Ba'zan zargarlik buyumlari bilan bezatilgan. Maxmud G'aznaviyning bizga ma'lum timsolida uning Bag'dod xalifasi faxriy shoyi libosini kiyib yurganligi tasvirlangan. Eron va Iroqning katta qismining amalda hukmdori bo'lgan Buyidlar sardori Abdul-al-Daula ham oltin libosda edi. 977 yilda xalifa Al-Toy tomonidan Muhammad Tug'loqga sovg'a qilingan xalat chetdan keltiriladigan matolardan (asosan Xitoy, Iroq va Iskandariyadan) iborat bo'lib, unda brokar, baxmal va qimmatbaho materiallar ishlatilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, Muhammad Tug'loq har yili o'z a'yonlariga 200 000 libos sovg'a qilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburni ham onasining ukasi Kichikxon (Oqsuv xoni Ahmadxon) kashta to'n kiygan holda kutib olgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Olim Abdul Razzoq Vijayanagar shohi Devarayaning choponi shoyidan tikilgan edi deb ta'riflaydi. Abdul Hamid Lahoriyning "Podshohnoma" qo'lyozmasida Boburiylar sulolasi miniatyuralaridan ba'zilari uchraydi. Bu miniatyuralar orasida shahzoda Xuramning (bo'lajak Shohjahon) tilladan tikilgan ko'ylagi (nim-astin) va shahzoda Aurangzeb otasidan (Shohjahon) oltin ipli sharaf libosini olgani tasvirlangan. Bundan tashqari Umadat-al Mulk Shayistaxon (Aurangzebning amakisi) Aurangzebdan oltin mato bilan tikilgan chopon olgani ham ko'rsatilgan[2.1].

O'z navbati bilan sharaf libosi yoki hilatni o'ziga xos sharaf tizimi sifatida belgilagan qadriyatlar, amaliyotlar va bahs nuqtalarini tahlil qilish muhimdir. Bu yerda asosiy masala siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan va intilayotgan shaxslarning hilatdan foydalanishi hisoblanadi. Xilatning ahamiyati uning ramziy ma'nosida yashirin. Uning qadri moddiy qiymatga bog'liq emas, balki ichki ma'nosida. Bir jihatdan xilat yuksak maqomdagi insonning shaxsiy javonidan kelganligi va nazariy jihatdan (ammo kamdan-kam hollarda) uni hukmdorning eng yaqin kishilari kiygan bo'lishi mumkinligi.

Boburiylar ma'muriyatida mavjud bo'lgan qat'iy boshqaruv tizimiga qaramay, imperatorlar sadoqat va o'zlarining yagona hukmdor ekanliklarini targ'ib qilish uchun doimiy ravishda turli tadbirlar, marosimlar va majlislar o'tkazib turganlar. An'anaviy

islom jamiyatida zodagonlar va oddiy xalq o’rtasida "xilat" (ko'plik, xila) deb nomlanuvchi kiyim-kechak buyumlarini tantanali ravishda almashish deyarli hamma musulmonlar hududlarida bo’lgan. Darhaqiqat, ba’zi olimlar o’rta asrlardagi islom davlatlari hukmdorlari o’zlari beradigan unvon va in’omlar orqali sharafli bir tizimni boshqarganligi haqida yozganlar.

“Xilat” marosimi turli mintaqalar va guruhlarni imperator hokimiyati ostida birlashtirish vositasi ham bo‘lgan. Masalan, Jahongir davrida shunday marosimlar orqali Rajput va afg‘on zodagonlari imperatorga sodiqligini bildirgan. Bu jarayon Bag’doddagi Abbosiylar davrida yaxshi yo’lga qo’yilgan va xalifaning o’z kiyimini yoki buyumini kimgadir sovg’a qilishi bilan ifodalangan. Bu mulkni topshirishning orqasida kiyim-kechak buyumlari sobiq egasining barakasini (mohiyatini) olib yuradi va qabul qiluvchilarning xatti-harakatlariga ta’sir qiladi degan tushuncha yotardi. Hukmdorlar liboslarini sovg’a sifatida topshirayotganda uni mohiyati bilan singdirish uchun taqdirlanayotgan shaxsning yelkasiga tashlab qo’ygan. Bu ish ba’zi holatlarda xalifalik saroyidan tashqaridagi yoki viloyatlardagi xalifaning vakillariga topshirilgan. Keyinchalik mustamlaka hududlar yoki bo‘linib ketgan joylarga ham o‘rnatilishi bilan bu urf – odat o’z mavqeyini yanada kuchaytirdi. Bo’ysundirilgan hukmdorlar xalifalik maqomini tan olgan holda, o’zlari tanlagan yoki mukofotlash uchun tanlagan kishilarga o’z nomidan sharaf liboslarini tarqatishgan. Xalifalikning sharqiy o‘lkalarida, Safforiylar, Somoniylar, Buyidlar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar kabi sulolalarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Somoniylar va G’aznaviylar Buxoro yo‘li bilan Shimoliy Hindistonda tantanali kiyim kiyishni joriy qilganlar. Shamsuddin Iltutmish (1211-1236) davridan Firuzshoh Tug‘luq (1351-1388) davrigacha vaqti – vaqti bilan Dehli sultonlari va Bag‘doddagi Abbosiy xalifalari o‘rtasidagi diplomatik almashinuvlar (1258-yilda mo‘g‘ullar Bag‘dodni talon-taroj qilishlari ortidan) fahriy liboslar bilan birgalikda xalifalik sovg’alari, masalan, “Gahaznaviylarning fors tarixi: Al-Utbiyning “Tarix-i-Yaminiy” va Abul Fazl al-Bayhaqiyning “Tarix-us-sabuqtegin” asarida Mahmudning 999-yilda Bag‘dod xalifasidan chopon olganligi haqida ma’lumotlar keladi. Huddi shu yilnomalarda Mahmudning o’z zodagonlarini qutlagani ham tasvirlangan.

Bu odat Dehli sultonligida muntazam ravishda qo‘llanilgan. Al-Jamojiy tuzgan to‘rtlikka javoban Sulton Iltutmish uni qamoqdan ozod qilishni buyurdi va unga sharaf liboslari berdi. Iltutmishning o’ziga ham Milodiy 1227-yilda Bag‘dod xalifasi Mustaxsin tomonidan unga ko’rsatgan xizmatlari va sadoqati uchun hadya chopon berilgani aytilgan.

Xullas, Boburiylar (Mojar) davlatida Xilat marosimi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu marosim imperatorning hokimiyatini tasdiqlash, sadoqatni mustahkamlash uchun ishlatilgan. “Xilat” marosimi Boburiylar imperiyasida hokimiyatning ramziy ifodasi, ierarxiyani mustahkamlash va diplomatik munosabatlarni boshqarish vositasi ham bo‘lgan. Uning tafsilotlari hukmdorlar siyosati va madaniy kontekstga qarab o‘zgargan, ammo asosiy maqsad imperatorning mutlaq qudratini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan[3.25].

Marosimning tanazzuli Xindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligi yakunlana boshlagan davrlarda ro’y bera boshladi. Bu davr hududga Buyuk Britaniya

bosqinlari bilan izohlanadi. Inglizlar yo’q qilib yuborishga uringan xind va musulmon an’analari uyg’unlashuvida shakllangan bu madaniyat shuncha urinishlarga qaramay Xindiston hayotida o’z o’rni va ahamiyatini yo’qotmadi.

Xozirda bu urf – odatdan xech qayerda foydalanilmasa ham, uning mazmunini o’rganish, chuqurroq anglab yetish uchun ko’plab olimlar ter to’kib harakat qilmoqdalar. “Xilat” marosimining tub mohiyati, hukmdor tabaqaning bu marosimdan siyosiy, madaniy, diplomatik sohalarda ham keng foydalanib, yaxshigina natijalarga erishgani bir nechta olimlarning maqolalarida o’z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Balkrishan Shivram. Court dress and robing ceremony in mughal india. Published by: Indian History Congress. 2005-2006.
2. https://bilimlar.uz/ sayti.
3. Vladimir Minorskiy. “Boburiylar imperiyasi”. 1980-y

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA ETNOGRAFIK MA’LUMOTLAR VA HARBIY SAN’AT BILAN BOG’LIQ MA’LUMOTLAR BAYONI HAQIDA.

Egamnazarova Zulhumor Abduqodirovna
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar
Akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori(PhD).

Buyuk davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini faqat tarixiy asar emas, unda o‘sha davrdagi bir qator fanlar - geografiya, elshunoslik, zoologiya, o‘simlik olami, toponomika, atamashunoslik, adabiyot, tilshunosli, ayniqsa, harbiy san’at kabi tarmoqlarni o‘zida birlashtirgan hamda ilmiy yutuqlari ham o‘z ifodasini topgan qomusiy asar sifatida baholash mumkin. “Boburnoma”dan avvalgi va keyingi asarlardan bir qator farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Zahiriddin Muhammad Bobur asarda tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda, voqea sababchilari va ishtirokchilari bo‘lgan xalq, urug‘, qabila, elatlarning kelib chiqishi, yashash tarzi, urf odatlari va qarashlarini yoritib bergan. Unda XIV-XVI asrlarga oid ko‘plab etnografik ma’lumotlar berilgan. Asarning bu xususiyati, barcha yirik tarixchi sharqshunoslar hamda Markaziy Osiyo etnografiyasi tarixi bo‘yicha mutaxasislari tomonidan qayd etilgan. Asardagi etnografik ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarda qay darajada talqin qilingan?! Masalan, afg‘on qabilalari va ularning joylashuvi haqida dastlabki, batafsil va ishonchli ma’lumotlar Boburning “Vaqoye’”sida keltirilgan bu ma’lumotlar asosan uning shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan va yuqori darajada aniqligi bilan ajralib turadi, bunday e’tirofga qaramay “Boburnoma”dagi etnografik ma’lumotlar hali tizimli ravishda yetarlicha o‘rganilmagan unda qo‘llanilgan etnografik tushunchalar va atamalar aniqlashtirilmagan.[6.65] O‘tmishdan ma’lumki, harbiy janglar sirlari, qo‘shinlarni saqlash, tartib bilan ish yuritish, yangi jang aslahalari bilan boyitish tajribalari davrdan-davrga o‘tib kelayotgan harb an’anasi hisoblanadi. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning

harbiy mahoratini, ularning yuksak jang tajribalarini tahlil qilish orqali yurtimiz mudofaa tizimini ilmiy jihatdan yuksaltirish mumkin. Buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida hayoti davomida sodir bo‘lgan janglar va zamondosh harbiy sarkardalar faoliyati haqida ham ko‘plab ma’lumotlar beradiki, bu ma’lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Shu sababli “Boburnoma” tarixiy lavhalar va qimmatli ma’lumotlar bo‘yicha noyob asar sanaladi. Asarda harbiy san’at va holat bo‘yicha qiziqarli etnografik ma’lumotlar berilgan va ulardan ayrimlarini tahlil qilamiz.

Bobur 14 yoshidan boshlab harbiy yurishlarda qatnashishni boshlaydi, ungacha otasi Umarshayx zamonida harbiy mashqlar, ayniqsa, kamondan o‘q uzish harbiy ilmini yaxshi o‘zlashtirgan. Buni “Boburnoma”da bir nechta jang lavhalarida, ov jarayonlaridagi harakatlardan bilish mumkin. Uning o‘smirlik davri tahlikali, suronli davrga to‘g‘ri kelganligi uchun “Men hamisha tinch omonlikda ham to‘n, o‘q yoyni tashlamay yotardim”[1.116] - deya yozadi. Janglardan oldin doimo ittifoqchilar bilan kelishuvlarda qo‘shinlar jang payti bir-birlarini tanib olish va qo‘shilib jang qilish uchun avvaldan maxsus o‘ron (parol) tanlanadi. Jang payti undan foydalanish an’anasi haqida asarda shunday yozadi: “O‘ron ikki xil bo‘ladi: har bir qavmning o‘roni bor Chunonchi: ba’zi qavmning o‘roni “durdona”dir va ba’zisiniki “to‘qboy” yoki “lulu”; yana boshqasi: butun lashkarga jang payti ikki so‘zini o‘ron qilib qo‘yadiki, zarur paytda har qayerda uchrashganda, biri bir so‘zni aytsa, yana biri o‘sha aytilishi kerak bo‘lgan ikkinchi so‘zni aytadi. Ana shu yo‘sinda el yovdan ayriladi va o‘z kishisini yotdan farq qiladi. Bu yurishda rasmiy o‘ron “Toshkent” bilan “Sayram” so‘zlari edi. “Toshkent” desa, “Sayram” deyilgay va “Sayram” desa, “Toshkent”. Bu jangda Xoja Muhammadali ilgariroq ekan. Mo‘g‘ullar: “Toshkand, Toshkand” deydi. Mo‘g‘ullar uni yov kishisi deb hayol qilib, suron solib, nog‘orachi nog‘ora chalib, o‘q qo‘yadilar. Ushbu xatolik tufayli Lashkar bir joyda turmay, tarqalishib ketdik. [1.114] – deb, harbiy sir haqida qiziqarli ma’lumot keltiradi. O‘rta asrlarda jang oldi ittifoqchilar bir-birlari bilan o‘ron orqali harakat qilishni qo‘shin lashkarboshilari belgilashgan va jangda o‘zaro muloqotda aytib, birgalikda harakat qilishganligini bilib olishimiz mumkin. Bu hozirgi davr harbiy san’at uchun qiziq ma’lumot hisoblanadi. Bobur ko‘pincha janglar uchun ona tomonidan bo‘lgan mo‘g‘ullarni yordamga chaqirgan va ular jang usullari va odatlari bo‘yicha ham etnografik ma’lumotlarni beradi: “Bizga ko‘makka kelgan mo‘g‘ul lashkarlarining urushga toqatlari yo‘q edi. Urushmoqni qo‘yib, o‘zimizning elniyoq talab, otdan tushirishga kirishdilar. Bir bu gal emas, hamisha badbaxt mo‘g‘ulning odati ana shunaqa. Bossa ham o‘lja oladi, bostirsa ham o‘z elini tanlab o‘lja oladi”.[1.99] Mo‘g‘ullar tabiatan ko‘chmanchi bo‘lganligi uchun ularda yagona maqsadga intilish ustunroq bo‘ladi. Shunindek, ularda kelishuvga vafo qilish kabi qadriyatlar juda past darajada bo‘lganligi uchun asarda ham Bobur alamlar bilan ular haqida zikr etadi. Bobur asarda yana bir harbiy an’ana haqida etnografik ma’lumot - urush vaqtida raqib qo‘shinlari, dushmanga taslim bo‘lishi yoki u tomon safiga kirish istagini bildiruvchi qiziqarli lavhani keltiradi: “Urush asnosida Piribek turkman to‘rt-besh og‘a-inisi bila dastor(salla)larin olib , yog‘iy(dushman) din yuz evurub bizga kirdilar. Bu Piribek ul turkmanlardindurkim, Shoh Ismoil Boyandur salotiniga musallit bo‘lub, Iroq

mamolikig‘a mutasarrif bo‘lg‘onda Abdulboqiy mirzo va Murodbek Boyandur boshliq turkman beklari bila kelib edilar”.[1.226-227] Bundan ko‘rinadiki, dushman jangchilar sallasini yechib, qurollarining uchini yerga qaratib qo‘yishi raqibga taslim bo‘lganligi yoki u tarafga o‘tganligini anglatadigan harbiy an’analardan hisoblangan. Jang usullaridan tashqari harbiy xiylalarni ham muallif “Boburnoma” asarida keltirib o‘tadi: “Bannuga tushgan zahotiyoq xabar topildiki, dashtdagi bir qabila shimoldagi tog‘larni singirlab turipti. Jahongir Mirzo (Boburning ukasi) boshchiligida lashkar yuborildi. Kivi(Afg‘on qabilasi nomi, hozirgi Afg‘onistonning Bannu viloyatida yashagan – D.O.)ning singiri ekan. … Bu singir olingandan so‘ng kivining ulug‘laridan Shodixon ismli kishi o‘t tishlab keldi. Asirlarni ozod qildik”.[1.159] Shu o‘rinlarda matnda ikki tushuncha bir qarashda tushunarsiz ko‘rinadi, bular “singir” va “o‘t tishlab keldi” so‘zlaridir. E’tibor bilan qaralsa, “Boburnoma”da bu tushunchalarga qisqa ta’riflar berib o‘tilgan. Ya’ni: “Singir lafzini Kobulga kelganda eshitildi. Bu el tog‘ni berkitkanni singir derlar emish. Ya’ni: “singir” so‘zini Kobulga kelganda eshitdik. Bu el tog‘ni tosh bilan to‘sishni singir deyisharkan”.[1,160] Tog‘da yashovchi afg‘onlar savdo yo‘llarini atayin tosh bilan to‘sib, karvonni o‘zlari joylashgan hududga burish va uni talashni odat qilib olganini hamda Bobur bu bunga chek qo‘yganini yozadi. “Afg‘onlar urushmoqdan ojiz bo‘lsalar dushmanlarining oldiga o‘t tishlab kelar ekan. Ya’ni bu - men sening molingman degani ekan. Bu odatni o‘sha yerda ko‘rdik. Ojiz qolgan afg‘onlar o‘t tishlab keldilar”[1.159] deb holatni izohlaydi. Bobur Afg‘oniston diyoriga yurish qilganda ko‘p mahalliy afg‘on qabilalari qarshiliklar ko‘rsatgan, hatto qal’a qamalida afg‘onlar tunda devordan tushib, Bobur qo‘shiniga ko‘plab talofatlar qilishadi. Shuning uchun Bobur tungi qo‘riqchilikni kuchaytirishga majbur bo‘ladi. Ko‘hatga yurish paytida shu bilan bog‘liq harbiy etnografik ma’lumot keltiriladi: “…har kecha shu yo‘sinda cherik elining hammasi navbatma-navbat (qo‘riqchilikka) chiqarilardi. Ichki kishilarimizdan (Boburning yaqin odamlari, ukalar, qarindoshlar – D.O.) uch-to‘rttasi mash’al ko‘tarib har oqshom navbat bian aylanib kelardi. Men ham biror navbat aylanar edim. Navbatida chiqmagan kishining burnini teshib, Lashkar o‘rtasida aylantirardik”. [1.161] Demak, bundan ko‘rinadiki, tungi navbatchilik qilish barcha uchun barobar va qattiq intizom talab etilgan. Mas’uliyatli bo‘lish uchun intizomga roiya qilmaganlarni jazolash orqali nazorat qilib turilgan. Chunki bu qo‘shinning xavfsizligiga bog‘liq ahamiyat talab qiladigan jihat hisoblanadi. Bobur qo‘shini doimiy qurollangan holatda yoki qurollanishga tayyor holda yurishgan. Afg‘on zaminlariga yurishlar qilinganda aksari qo‘shin tarkibini piyoda qo‘shinlar tashkil qilgan bo‘lsa, Hindistonga yurish davrida otliqlar ko‘p sonli bo‘lganini jang lavhalari berilgan ma’lumotlardan bilib olishimiz. Lashkarning ta’minoti avval egallangan hududlar hisobidan ta’minlangan. Shuningdek, “uruq” nomli harbiy yurish paytida lashkar ketidan yuradigan ko‘ch, yuk [1.133] bo‘lib unda qo‘shin chodirlari, qurol-aslahalar, hukmdorga tegishli anjomlardan iborat bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ko‘p bo‘lmagan qo‘shin bilan Hind diyoriga yurish qiladi. Hindistondagi janglarda Boburning haqiqiy sarkardalik qobiliyatini ochib beradi. Xususan, Dehli sultoni Ibrohim va Mevar rojasi Rana Sangaga qarshi janglar u uchun juda katta shuhrat keltiradi. Bobur odatda janglar oldidan o‘ziga xos udumlarni amalga oshiradi. Jumaladan, Panipat jangi oldidan “…jo‘nab o‘ng qanot,

chap qanot va markaz qo‘shinlarini saflab ko‘rikdan o‘tkazdim”.[1.291] Lashkar ko‘rigi marosimi [2.20] o‘tkazilgan. Bu marosim lavhalarini “Boburnoma” asariga bag‘ishlangan, bugunda “Britaniya” muzeyida saqlanayotgan miniatyuralarda ko‘rishimiz mumkin. Bunda qo‘mondon qo‘shinni sanalgan holatda qismlarga bo‘lishi, unga sarkardalar tayinlash, jang harakat xaritasini tushuntirish va sadoqatlik bo‘yicha qasamlar ichish hamda jang natijasi xayrli bo‘lishi uchun qurbonlik keltirish kabi qismlarga ega marosim tasvirlangan. Qurbonlik keltirish uchun asosan yirik shoxli hayvon (miniatyurada oq rangli qoramolni qurbonlikka tayyorlangani tasvirlangan) tanlangan. Bu asosan, an’anaviy amal hisoblanib, Allohga atab qon chiqarish, jonli so‘yish kelajakda qilinadigan ishlarni xayrli bo’lishiga ishonch sifatida amalga oshirilgan. Panipat jang oldidan qo‘shinni jangga tayyorlash, jang taktikasini tuzish ishlarini reja asosida olib borishadi. “Shu qo‘nimjoyda (Panipatda – D.O.) butunlashkar xalqi holiga yarasha arava keltrishlarini buyurdim. Yetti yuzta arava olib keldilar. Ustod Aliquli*ga Rum usuli bilan aravalar orasida zanjir o‘rniga ho‘kizning xom terisidan arqon eshib tasma qilib bir biri bilan bog‘lashga buyirdim. Har ikkita arava o‘rtasiga olti-yetti to‘ra* qo‘yiladi. To‘fanglardan shu arava va to‘ra ortida turib, to‘fang otadilar”.[1.291] Lashkar Bobur mazkur jangda mazkur diyor uchun yangilik bo‘lgan to‘fang (miltiq) dan foydalangan va aynan qozonilgan g‘alabada buning xizmati katta edi. Rum (Turkiya) harbiy usulidan xabardorligi Boburning harbiy o‘rganuvchanligiga yana bir dalil hisoblanadi. Panipat jangidan so‘ng g‘alaba qozongan Bobur o‘z qo‘shini yutuqlari va raqib Sulton Ibrohim qo‘shinini mag‘lubiyatini ham izoh berib: “Hindistonda shunday odat bor: agar shunday urushlar ro‘y bergudek bo‘lsa, belgilangan muddat uchun pulga navkar yollanadi. Yollangan kishilarni “badhandiy” deb ataydilar”.[1.292] Raqib hindlar tarkibidagi yollangan askarlar tartibsiz jang qilishi va jonini fido qila olmaydigan jangchilar Bobur qo‘shinining g‘alabasiga sabab bo‘lganini keltiradi.

Hind diyori fathida muhim rol o‘ynagan hind rojasi Rana Sangaga qarshi Kanva jangi oldidan bir nechta harbiy an’anaviy marosimlar o‘tkazilgan. Xususan, boburiy malika Gulbadanbegim o‘z asari “Humoyunnoma”da: “Dholpur*da ham bir pora toshdan dah dar dahi (o‘nga o‘n) hovuz qurishga farmon berdilar va dedilarki, qachonki hovuz tayyor bo‘lsa, sharop bilan to‘ldiraman. Rana Sanga bilan bo‘lgan jang oldidan sharop ichishdan tovba qildilar va limon sharbati bilan to‘ldirdilar. [3.20] An’anaga ko‘ra qo‘shin jangga kirishdan avval qo‘rquv va havotirni bosish maqsadida hovuzga to‘ldirilgan sharopdan ichiladi va jangga kirganlar. Bobur Kanva janggi oldidan qo‘shin oldida turib, ichkilikni tashlash to‘g‘risida farmon beradi va Bobur bilan birga “mardlik, yakdillik va hamjihatlikka da’vogar to‘rt yuz yosh yigitlar ham o‘sha majlisda tavba qildilar”. An’anaga ko‘ra, jang oldidan munajjimlarga murojaat qilinadi va to‘qnashuv yulduzlar hisobiga ko‘ra xayrli yoki aksincha bo‘lishini ta’birini aniqlashtiradilar. Rana Sanga qo‘shini qarshida turgan paytda munajjim Muhammad Sharif lashkarlarga “Podshoh hazratlari hozir jang qilmaganlari ma’qul, sakkiz yulduz barobar turibdi”[3.20] - deb gap tarqatadi. Lashkarlar havotirda qoladi. Bobur aqlli tadbirni o‘ylab, yuqoridagi mast qiluvchi ichimlik ichishni tashlab tovba qilish haqidagi farmonni beradi. Oldin kumush qadahlar sindirilib, kambag‘allarga ehson qilinadi.

Barcha farmonni qabul qiladi hamda “xotinini taloq qilish va Qur’oni karim”[3.21] bilan jasorat va sadoqali bo‘lish, to so‘nggi nafasigacha jang qilishlariga qasamlar ichiladi. Bu jangni boshqa janglaridan farqi bu g‘azot jangi edi. Jangda g‘alaba qozongan Bobur g‘oziy bo‘ladi. Bundan ko’rinadiki, har bir qo’mondon va sarkarda askarlarni ruhlantira oladigan nutqqa ega bo’lishi juda zarurdir. O’tmishda o’tgan buyuk sarkardalar o’z qo’shini oldida qiyin vaziyatlarda otashin nutq so’zlab, muhim g’alabaga erishganligini makedoniyalik Aleksandr, Amir Temur janglar tarixidan bilib olishimiz mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur ko‘p an’analardan oliy maqsadi yo‘lida foydalandi, ayrimlaridan esa voz kechadi. Hind fathidan so‘ng u diyorning ko‘plab an’ana va marosimlarini tartibga soladi. Bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini jadallashadi. Xalqning turmush sharoiti yaxshilanadi. Hindistonda Bobur va boburiylar amalga oshirgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari hind va jahon sivilizatsiyasi rivojiga xizmat qilmoqda. Bobur podshoh butun hayotining aksari qismini harbiy holatda, janglar bilan o‘tdi. Barcha g‘alaba va mag‘lubiyatli janglar unga kelajakda markazlashgan davlat barpo qilish yo‘lida unga muhim tajribalar berdi. Zamonasining yirik sarkardalari – Ismoil Safaviy, Shayboniyxon, Ibrohim Lo‘diy, Rana Sanga kabilar bilan ittifoqda yoki qarshi janglardan Bobur ko‘p bilimlarni o‘zlashtirib, keyingi harbiy yurishlarida undan foydalanganini “Boburnoma” asari orqali bilamiz. Hindiston yurishida “to‘lg‘ama”*, afg‘on va turklardan o‘tochar qurol (to‘fang)dan foydalanish, mo‘g‘ullardan pistirma va xiyla ishlatish kabi harbiy usullaridan foydalangan hamda keyinchalik o‘zi ham “Harb ishi” nomli (topilmagan) risola yozishiga zamin yaratdi. “Boburnoma” asari bo’yicha harb ishi bilan bog’liq ma’lumotlardan xulosa qilgan holda quyidagi takliflar bildiriladi: Asardagi harb ishi blan bog’liq ma’lumotlari asosida ilmiy tadqiqot olib borish hamda natijalari yuzasidan risola nashr etish; Zahiriddin Muhammad Boburning jang san’ati va uslublaridan foydalangan holda O’zbekiston Respublikasi Mudofaa tizimidagi muassasalarda o’quv darsligi va jarayonini yo’lga qo’yish; Muallifning haligacha topilmagan “Harb ishi” risolasini qidirib topish ishlarini jadallashtirish.

Xulosa qilganda, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning harbiy yutuqlaridan mamlakatimiz mudofaa tizimi va harbiy taktikasini boyitishda foydalanilsa, yanada qudratli bo‘ladi. Zero, buyuk sarkardalarimizning harbiy usullari o‘z zamonasining eng yaxshilari va muhimi sinovdan o‘tgan tarjiba na’munasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, “O‘zbekiston” – Toshkent 2019.
2.Boburnoma rasmlari, “Fan” va “Korvina” – Toshkent, Budapesht 1979.
3.Gulbadanbegim, Humayunnoma, “Fan” – Toshkent 2021.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi, “Sharq” - Toshkent 2014.
5. Sharofiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, “Maxpirat”, Toshkent – 2005.
6. Olimjonov D., “Boburnoma” asarida etnografik ma’lumotlar // “Bobur va Axsikent” mavzusidagi Respublika uchinchi ilmiy konferensiya materiallari, Namangan 2023.

BOBUR ILMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI URNI

Eshmurodova G.X.
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Pedagogika kafedrasi dosenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirildi.

Bu ma'lumatlar asosan Boburning ijodiy asarlarini o'rganish orqali yuzaga keldi.Shoh va shoir deb ta'rif beriladigan Bobur o'z davrining olim insoni ham edi. Faqatgina she'riyat bobida emas, siyosat va deplomatiya sohasida ham o'z davriga xos yetakchi rahbar bo'la oldi.

Kalit so'zlar: "Boburnoma" , "Mubayyin" , "Xatti Boburiy", tarix, adabiyot, geografiya, etnografiya, iboralar ,maqolalar, fors tili tovush

Аннотация: В статье представлена информация о жизни и творчестве великого деятеля узбекской классической литературы Захириддина Мухаммада Бабура. Эта информация была получена в основном благодаря изучению творчества Бабура. Бабур, которого называют царем и поэтом, также был ученый своего времени.

Ключевые слова: «Бобурнома», «Мубайин», «Хатти Бобурий», история, литература, география, этнография, фразы, статьи, персидское звучание.

Abstract: The article provides information on the life and work of the great figure of Uzbek classical literature Zakhiriddin Muhammad Babur. This information was obtained mainly through the study of Babur's work. Babur, who is called a king and a poet, was also a scholar of his time. He became a leading figure not only in poetry, but also in politics and diplomacy.

Key words: "Boburnoma", "Mubayin", "Hatti Boburiy", history, literature, geography, ethnography, phrases, articles, Persian sound.

Buyuk olim va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur millatimizning eng yorqin vakillaridan biridir.

Bobur haqida ingliz olimi Uilyam Erskinning quyidagi so'zlari uning nechog'lik mukammal inson bo'lganligini tasdiqlaydi: "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi".

Shunday ekan yosh avlod Zahiriddin Muhammad Bobur bosib o'tgan hayot yo'lini yanada chuqurroq bilmog'i uchun bobokalonimiz haqida quyida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z navbatida harbiy jihatdan yuqori salohiyatga ega sarkarda edi.

Bu haqda hindistonlik olim L.P.Sharma shunday deydi: "U jismonan baquvvat bo'lib, hatto qal'a devori ustidan ikki kishini qo'ltiqlab o'ta olardi.

U shayboniylardan urushning "to'lg'oma" usulini, mo'g'ullardan esa pistirma qo'yishni o'rgandi. Afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni egallagan bo'lsa,

eroniylardan to‘pni ishlatishni va turklardan suvoriylar safidan unumli foydalanishni o‘zlashtirdi”.

Shu o‘rinda Zahiriddin Muhammad Boburning o‘z dushmanlarining harbiy harakatlarini diqqat bilan kuzatib, ularning harbiy san’atlarini mohirona o‘zlashtirib, jang maydonlarida qo‘llay olgani e’tirofga loyiq.

Dunyo xalqlari orasida o’zaro ma’daniy aloqalar keng tus olgan hozirgi kunda ―Voqoe‖ jahondagi turli tillarga tarjima qilinib, talay xalqlarning ma’naviy xazinasidan o’rin oldi.Ayni asarda ulug’ shoir Boburning nasrda ham nechog’liq tengsiz bir ijodkor bo’lgani yaqqol ko’rinadi.

O’lkan bir saltanat sohibining oddiy odam sifatidagi o’y-hayollari, orzu-armonlari, nozik-lutfumutoyibalari, odobahloq, davlat arboblarining etiketi, mamlakat ishlarini yuritish borasidagi kuzatishlardan tortib, turli dov-daraxtlar, o’t-o’lanlar, ularning nomi, etimologiyasiga qadar keng va qiziqarli ma’lumotlar muallifning qomusiy bilim va salohiyotga ega bo’lganligini ko’rsatib turadi.

Bobur bu asari (―Vaqoe‖) da turli o’lkalarining tabiati, tog’ va daryolari,el-ulusi,ularning tarixi, etnografiyasi,tili, adabiyoti tirikchilik vositalari,dunqarashi haqida, o’sha yerdagi nabotot va hayvonot singari behisob sohalar to’g’risida shu qadar ko’p ma’lumotlari jam etadiki,ularning aksari hanuzgacha o’z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Birgina filologiya sohasini olsak, u ana shu sarguzasht memuari sahifalarida ―yo’l-yo’lakay‖bitib o’tgan ayrim so’z va atamalarining kelib chiqishiga oid farazlar ham, albatta ulug’ shoir va davlat arbobi bu asarini o’z hayotining tarixnomasi, avlodlarga o’git tariqasida bitgan.

Shu bilan birga,tarixga baho berishga undagi turfa sabab va oqibatlarini anglashga ham ―Vaqoe‖ ning ahamiyati tengsiz.

Shoir uning pirovardida yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko’rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko’rdum.
Har kim bu “Vaqoe”ni o’qur, Bilgaykim,
Ne ranju ne mehnatu Ne g’animlar ko’rdum.

Mumtoz adabiyot namunalari o’z zamondoshlarigagina emas, balki kelajak avlodlarga ham ta’sir qilish qudratiga ega.Ammo bu kabi asarlar barcha holda ham daf’atan o’z kitobxonlarini topavermaydi.

Bobur o’zbek adabiyotida ruboiy janri taraqqiyotini yangi bosqichga ko’targan ijodkordir.Shoir devondan qariyib ikki yuz ruboiy o’rin olgan. Ularning bir qismi an’anaviy tarzda yor vasfiga bag’ishlangan bo’lsa, boshqa bir qismi kundalik voqea-hodisalar ta’sirida yuzaga kelgan.

Ammo bundan qat’iy-nazar, Bobur ruboiylari ham mazmunan,ham shaklan mukammaligi, jozibadorligi so’z o’yinlari, badiiy san’atlari bilan e’tiborga sazovar

Bobur, necha bu dahr Meni zor aylar,
Sabrimni kamu g’amimni Bisyor aylar,
To dahrdurur, budur Aning rasmikim
Ayrib kishini azizidin, Hor aylar

So’z tanlash va uni joy-joyida qo’llash Bobur uslubida alohida o’rin tutadi.

Adib ba’zi o’rinlarda shunday so’z va iboralar qo’llaydiki, uning ma’nosini ijodkorning o’sha damdagi kayfiyatidan yoki uning ayrim odamlar va hodisalar bo’lgan munosabatidan qidirishga to’g’ri keladi.

Muallif bir so’z yoki iborani jumlalarida takror qo’llamaydi. Masalan,asaridan o’rin olgan ―ko’p‖ so’ziga berilgan muqobillarga nazar tashlasak, bu ma’no-besh, behad, bisyor, bebadal, bepayo, vofir, ziyod, kulli, mabzul, ma’fur, mufrid, pul, pur, arfaravon, bemumar, ko’chum, cho’x, cho’p, g’alaba, qalin va yana boshqa variantlarda berilganini ko’ramiz.

Bu kabi ma’nodan so’zlarga deyarli har sahifada duch kelinadi va ularning har biri o’z joyida qo’llanganligi muallif mahoratiga dalildir. Ajdodlarimizdan o’tib kelgan bu kabi so’z va iboralar ham xalqimiz so’z

Zahiriddin Muhammad Bobur bu kabi siyosiy harakatlaridan tashqari, o‘zining realistik tasvirga to‘yingan lirik va epik asarlari bilan ham o‘z davri va o‘zidan keyin bir qancha ijodkorlarga adabiy ta’sir ko‘rsata oldi va Hindistonda turkiy tildagi adabiyotning vujudga kelishiga tamal toshini qo‘ydi.

Bu adabiy muhitning rivojlanishi, gullab-yashnashi Bobur avlodlaridan Humoyun Mirzo (1530-40-1556), Akbar (1556-1605), Jahongir (Shahzoda Salim, 1605-1628), Shoh Jahon (Shahzoda Xurram, 1628-1658), Avrangzeb Olamgir (1658-1707), Muazzamshoh (Bahodirshoh I, 1707-1712), Jahondorshoh (1712-1713), Farrux Siyar (1713-1719), Muhammad Shoh (1719-1749), Ahmadshoh (1749-1754), Olamgir (1754-1759), Ali Gavhar (Shoh A’lam, 1759-1806), Akbarshoh (1806-1837), Bahodirshoh II (1837-1858) hukmronligi yillariga to‘g‘ri keladi.

Xullas, Zahiriddin Muhammad Bobur bugungi yoshlarga barcha tomonlama o’rnak bo’la oladigan shoh, shoir va sarkardadir.

Boburning serqirra ijodi va uning davridagi saroy adabiy muhiti ko‘pgina safdosh va yosh qalamkashlarni ilhomlantirib, Hindiston turkiyzabon adabiyotining ravnaqi uchun mustahkam asos yaratdi.

Boburning ijodiy va siyosiy faoliyatining eng muhim jihati shundaki, shoh Bobur umrining so‘nggi yillaridagi orzusi – butun Hindistonni yagona kuch ostida birlashtirishga ulgurmagan bo‘lsa ham, ammo shoir Bobur o‘z xalqi adabiyotini osmono‘par Himolay tog‘laridan olib o‘tib, uning badiiyatini Hindistonda kengaytirish sharafiga muyassar bo‘ldi.Turkiygo‘y shoirlarning aksariyati o‘z tillari qatori ayni vaqtda forsiyda ham qalam surganlar.

Adabiyotlar:

1. Nizomiddinov N.G.’ Buyuk boburiylar tarixi T.: 2012. B. 146
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Shams porso tarjimasi. T.: 2015. B.231
3. Sulaymonov, J. (2021) Abdurahmon ibn xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//academic research in educational sciences, vol. 2 special issue 1, 2021. 451-455 r.
4. Sulaymonov, J. B. (2021). Ibn Xaldunning „Muqaddima“ asarida jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar talqini. 732-737.

МЕСТО ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В ВОЕННОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ СФЕРЕ

Эрйигитова Л.А.
-CAMU международный медицинский университет,
И.Мусаева
студентка II - курса

Аннотация: Бабур был очень предан литературе и истории, музыке и искусству, религиозному учению, он всегда находился в кругу ученых и добродетелей, в частности, с искренним уважением покровительствовал людям творчества и профессий, снабжал их материальными и достойными вещами, обнадеживал. Такое любовное отношение к людям творчества и искусства не прошло даром. Бабур был творческим человеком по натуре. С юности и до конца жизни он занимался плодотворной творческой деятельностью, не прекращал творить ни при каких условиях и обстоятельствах, в результате оставил важное богатое научное и литературное наследие. Вданной статье речь идет о жизни и творчестве, о военной исскустве Бабура.

Ключевые слова: Литература, история, культура, полководец, творчество, исскуство, воспитание, тактика и стратегия, историческая наследия.

Одна из величайших фигур мировой истории, Захириддин Мухаммад Бабур ибн Умаршейх, талантливый полководец и основатель Великого Бабурийского царства, родился 14 февраля 1483 года в Андижане. Прозвище «Бабур» — «Лев» он получил с юности за смелость и отвагу. Его отец - Умаршейх Мирза был губернатором Ферганской области, мать - Кутлуг Нигорханым была дочерью хана Монголии и ташкентского губернатора Юнус-хана. После трагической смерти своего отца в Ахси в 1494 году в возрасте 39 лет Бабур, который был старшим ребенком, занял трон как наследный принц в возрасте 12 лет. С этого дня все тяготы борьбы за трон, возникшие в Тимуридском царстве, стремление его деда Амира Темура избавиться от глав тимуридских князей на пути своей мечты о восстановлении царства продолжались до конца его жизни. Молодой Бабур был вынужден покинуть страну из-за экономического кризиса и разобщенности Тимуридов.[1, стр.124] Но Шайбани-хан, воспользовавшись сильным соперничеством и отсутствием единства Тимуридов, завоевал царство. Испытав тяготы борьбы за престол, возникшей в Тимуридском царстве, он в период с 1496 по 1503 год вступил в неравные бои за столицу царства Самарканд и трижды одержал в ней победу. Но 15-тысячная армия Шайбани осмелилась напасть на 235 Самарканд своим единственным 200-тысячным войском и сумела выбить врага из крепости. В частности ему удалось трижды занять Самарканд: 1-й раз на 100 дней в 1497-1498 гг.; 2-й раз на 6 месяцев в 1499-1500 гг.; 3-й раз, в конце 1511 года, после смерти Шайбани-хана, он вновь вступил во владение и правил еще шесть месяцев. Но племянник Шайбани-хана потерпел поражение от Убайдуллы-хана и уехал в Кабул. В 1504 году с армией в 250-300 человек Нойладж отправился на территорию Афганистана и основал централизованное государство, заняв

крупные города Кабул и Газна. Но когда тиранический султан Дели Ибрагим Лоди напал на регион Пенджаб, Бабур совершил несколько походов в Индию. Накануне битвы при Панипате Бабур уже обладал большими военными знаниями и имел достаточный боевой опыт. Ведь он хорошо овладел военным искусством, тактикой и стратегией великих правителей того времени, таких как Шайбани-хан, шах Исмаил Сефеви и султан Хусейн-мирза. Армия Бабура была вооружена самым совершенным для своего времени боевым оружием – винтовками и ромовыми артиллеристами из Турции. Последовательные победы Бабура в процессе завоевания провинции Пенджаб, похоже, вызвали чувство растерянности, депрессии и дезорганизации среди союзников Ибрагима Лоди. Некоторые из амиров султана выразили желание перейти на сторону Бабура. Бабур организовывает свою армию сложным образом, чтобы победить такую сильную и превосходящую по численности армию, как Ибрагим Лоди. Перед битвой он сформировал военный совет и начал детально разрабатывать тактику и стратегию, когда на каком поле и как вступить в бой с противником. Перед битвой он старается расположить свою армию таким образом, чтобы противник не мог атаковать ни с какой стороны. В настрое армии Бабура надежды на победу были значительно низкими. Ведь вдали от родины, в чужом народе и чужой земле, к тому же против них противник был сильный , а армия Бабура еще плохо выучилась и стиль боя неизвестен, Бабур повысил ответственность командиров своей армии и командиров частей, поставил перед ними конкретные задачи и строго определил, как 236 действовать во время боя. Также были приняты меры направленные на укрепление боевого духа солдат. Поскольку его армия была значительно меньше, чем у противника, Бабур тщательно подготовился к бою. По его приказу солдаты связали семьсот подвод и устроили заграждение. В местах, не огороженных подводами рыли траншеи и строили заборы путем вырубки деревьев. Перед битвой Бабур развернул свою армию таким образом, чтобы противник не мог атаковать ни с какой стороны, он четко определил порядок боя и то, как должна действовать армия, и поставил конкретные задачи командирам частей. Таким образом, когда основные силы противника вышли на поле Панипата, командир и гвардия, строго подчинявшиеся приказам Бабура, не растерялись и части вооруженные пехотой, кавалерией, артиллерией и винтовками стояли готовые встретить врага у линии безопасности. В целях защиты фронта армии по всем флангам была создана особая линия обороны, оборонительные укрепления в составе 700 повозок (телег), через каждые две телеги устанавливают 6-7 деревянных брусьев, т. е. ограду (щит) и железные щиты, которые укрепляются путем соединения друг с другом веревками, сплетенными из воловьей кожи. Потому что, во-первых, эти веревки использовались для того, чтобы максимально остановить атаку атакующих боевых слонов, а во-вторых, они обеспечивали упорядоченное движение основной армии сзади, не нарушая строй на поле боя. Структура индийской армии состояла из авангарда, правого и левого флангов и войск центра. Главным оружием султана были его боевые слоны, которые располагались в первой линии

– авангарде.[2, стр.1] Однако использование боевых слонов в бою рассматривалось не из-за боевой эффективности слона в большинстве случаев, а как средство устрашения противника и оказания на него сильного психологического воздействия. Количество слонов олицетворяло власть полководца. Именно поэтому в большинстве индийских хроник (как и в «Бабурноме») упоминается, что в армии правителя было много слонов. Боевые слоны в основном использовались против кавалерии, потому что лошадь отступала и пыталась опрокинуть всадника из-за крика слонов, тем самым останавливая интенсивность наступления кавалерии на поле боя. 237 21 апреля 1526 года с раннего утра армии обеих сторон выстроились на Панипатском поле готовые к бою. Эта историческая битва начинается с движения армии Ибрагима под звуки труб и учений. Индийская армия, превосходившая по численности в десять раз армию Бабура, имела в авангарде боевых слонов («фил ченаров»), а за ней двигались основные силы для атаки на центр армии Бабура.[3, стр.7] Однако при приближении к оборонительной линии Бабура армия султана внезапно остановилась. Во многих местах пехотинцы, атаковавшие из выкопанных траншей были эффективнее кавалерии. Бабур не стал терять времени и приказал своим воинам стрелять по противнику из пушек, луков и ружьей. Взрывы ядер превращают всё поле боя в огонь и пыль. Огненные стрелы лучников обрушились на врага. Дисциплинированные военные действия принесли свои плоды. Боевые навыки и достаточный опыт Бабура обеспечили победу. Заметив, что у Ибрагима Лоди нет четкого плана боя, Бабур отдал четкие и быстрые приказы своим командирам, одновременно с этим сражаясь на центральной линии. Все части армии Тимуридов, включая резерв, сломили сопротивление противника на поле боя и мужественно и решительно вступили в бой. Осажденная индийская армия не могла ни продвинуться, ни уйти с поля боя, но главной причиной был политический кризис в Делийском султанате и ослабление власти верховного правителя, который, конечно, не показывал этого. Несмотря на это, Бабур, оценивая индийскую армию, особенно личность султана, говорил, что султан Ибрагим мог бы набрать еще больше солдат если бы захотел, но из-за своей скупости и жадности к богатству он не смог бы этого сделать. Перед решающим сражением заявляет, что не соглашался увеличить свою армию и выделить для этого необходимые средства: Бабур сам способствовал этой победе своим талантом и личными умениями и не по опыту, а скромно, «по милости, оказанной ему судьбой»: Хотя армия султана Ибрагима была многочисленной и мощной, было много генералов, которые были недовольны его политикой и часто не подчинялись и отказывались подчиняться центральной власти. Непрекращающиеся войны осложнят жизнь простых людей и заставят их восстать против правительства. Все это, в конечном итоге, не повлияло на 238 разрушение королевства и его военной мощи. В этой ситуации победа Бабура при Панипате стала последним ударом, положившим конец почти 300-летней истории Делийского султаната и положившим конец правлению династии Лодхи в Северной Индии. Очень впечатляет обращение Мирзы Бабура к своим солдатам

перед вступлением в бой. «Есть ли среди вас кто-нибудь кто не умрет и будет жить вечно? Солнце встает и заходит, люди рождаются, чтобы умереть. Это правда! Собака умрет и мальчик умрет. Но есть разница между их смертями. Если собака погибнет из-за эгоизма то молодой человек отдаст свою жизнь, защищая свое общество, страну и честь. Почетная смерть, если молодой человек погибнет защищая свою страну, славу, религию и Родину. Есть великое благо от мужества поколений мирной и не мирной жизни, он укреплял боевой дух своих воинов словами пропагандирующими истину. Бабур не как завоеватель Афганистана и Индии Он был активным правителем, посвятившим свою жизнь благополучию, процветанию этой страны и справедливым в ее интересах. Важным положительным моментом его политической деятельности является то, что он проводил иную политику, чем Македонский Александр, Махмуд Газневи и даже его дед Амир Темур. В частности, он объединил разрозненные индейские народы, примирил разные религиозные секты, стал развивать экономическую и культурную жизнь, занимался благоустройством и творчеством. Бабур был чрезвычайно трудолюбивым и щедрым царем. Они были добры, прощали и сострадали к людям, и они были добры даже к своим врагам. Бабур Мирза – великий страдальческий поэт, тоскующий по родине и богатству царства, глубоко осознавал, что оно ничто перед гармонией родины. Горсть земли Родины была бы в тысячу раз выше королевства. Бабур был очень предан литературе и истории, музыке и искусству, религиозному учению, он всегда находился в кругу ученых и добродетелей, в 239 частности с искренним уважением покровительствовал людям творчества и профессий, снабжал их материальными и достойными вещами. Такое любовное отношение к людям творчества и искусства не прошло даром. Бабур был творческим человеком по натуре. С юности и до конца жизни он занимался плодотворной творческой деятельностью, не прекращал творить ни при каких условиях и обстоятельствах, в результате оставил важное богатое научное и литературное наследие. Среди них сборник стихов, научные и художественные произведения, такие как «Бобурнома», «Аруз Рисола», «Хатти Бабурий», «Мубайин», «Рисолай Волидия», «Музыкальная наука» и «Харб Иши», мировая литература и культура и внес несравненный вклад в сокровищницу искусства.[4, стр.79] Он также написал произведение под названием «Военный труд», но до нас это произведение не дошло.

Список использованной литературы

1. Мирзиёев, Ш.М. От национального возрождения к национальному подъему. Том 4. – Т.: Узбекистан, 2020. – 400 с.
2. Праздничное поздравление Президента Республики Узбекистан защитникам Родины по случаю 33-й годовщины создания Вооружённых Сил Республики Узбекистан.
3.https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-kurrolli-kuchlari-33- anniversary-of-the-stitutionment-of-the-homeland-defenders-of-the-fatherlandcongratulations 4. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды: Собрание энциклопедических, научных

и научно-популярных материалов. Т. И. (А-Б-В) / авт. Сост. Ш. Ш. Рустамхуджаев. - М.: Языки Народов Мира, 2019.

БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИДАГИ РАЗВЕДКА МАҲОРАТИ

Эгамбердиев Наби Олимович
Ўзбекистон Республикаси
Самарқанд вилояти ИИБ ходими.

Бобурнинг бебаҳо адабий, илмий-назарий асарлари қатори “Бобурнома”нинг ҳам ўрганилмаган тарафлари, қирралари шунчалар кўпки, уларни бугунги авлодга етказиш ўтмишдаги қадриятларимизни тиклаш, ундан баҳраманд бўлиш, ёшларда юксак ватанпарварлик руҳиятини тарбиялаш каби долзарб масалаларда алоҳида ўрин тутади.

Бобурнинг муҳораба майдонидаги ғалабаларини таъминлаган омиллардан бири, балки энг муҳими, унинг разведка хизматидан фойдаланиш қобилиятидир. Айни шу маҳорат минглаб лашкарларни ўлим балосидан асрашда, урушни уз фойдасига ҳал қилишда, қолаверса, атрофидаги кишилар руҳияти, шахсиятини янада яхшироқ англашида, душман нияти - сир-асроридан аввалроқ хабардор булишда Бобурга қўл келган.

Бобур узи учун умр мазмунининг асоси бўлган қарор — Ҳиндистон юришига: айни шу маълумотларга эга бўлганидан кейингина азм қилган: «Бажаврдинким, ёнилди, Бхира хаёли била ёнилиб эди, то Қобулга келиб эдук, ҳамиша Ҳиндустон юриши хаёлида эдук.

Мана бу мисол эса Бобурга бевосита уруш майдонида, унинг ҳал этувчи палласида разведка нечоғли қўл келганини курсатади. Бемалол айтиш мумкинки, Ҳиндистонни эгаллашдаги бу якуний уруш муваффақияти, имкон қадар Бобур лашкарлари учун кам талафот билан якунланганлиги ана шу разведка маълумотларининг натижаси билан ҳам боғлик. Чунки биз «Бобурнома»нинг бирон сахифасида Бобурнинг бунчалик кўп, устма-уст хабарчиларини маълумот йиғиш учун юборганини, разведка маълумоти муҳораба ютуғининг бош омили эканлигига бу қадар аниқ баҳо берилганини кўрмадик. Бобур ёзади: «Шанба куни жумодиул аввал ойининг ун туртида Агра навохисидин кучуб, чохлар козилгон юртка келиб тушулди... Дарвеш Мухаммад сорбон била Кисмтойким, Баянага бориб келиб, ер-сувни билиб эди, илгари Секрий қулининг ёқасида юрт кура юборилди. Келиб, юртта тушуб, Махдий Хожага, Баянадагиларга киши чоптирулдиким, бетаваккуф келиб, кушулгайлар».

Демак, Бобур бу муҳорабага киргунга кадар уч марта разведка хизматига мурожаат этган. Унинг хабарчилари бу ернинг релефи, сув захираси, холатини “кўруб-билиб” келишлари зарур эди. Бунда маълумот тулаконлилигини таъминлаш, шубхага урин қолдирмаслик топширилган. Бинобарин, хатоликка йўл қўйиш урушда енгилиш билан баробар бўлган. Бобур маълумотни олиб, қаноат ҳосил қилгандан сўнг тез хулосага келади:

“...бетаваккуф келиб қушилгайлар”. Яъни заҳирадаги қўшинлар унга келиб

қўшилишини амр қилган. Шундан кейин ҳам кўнгли тўлмаган Бобур яна разведкадан фойдаланади ва ана шу хабардин кейин ва бу ерда жанг олиб боришга оид тайёргарлик ишларини якунига етказади. Чунки хабарчиларнинг маълумотига биноан захира кучлари унга етиб келади, душманнинг қаерга, қайси масофада келиб тушганлигидан огоҳ бўлади ва шунга қараб керакли жойларда қоровулларни тайинлайди: “Хумоюннинг навкари Бек Мирак муғулни бир неча йигит била кофирдин хабар олгали юборилди. Кечасига бориб, хабар олиб, тонгласи хабар келтурдиларким, ғаним кишиси Бусовардин бир курух илгаррак келиб тушган эмиш. Ҳам ушбу кун Махдий Хожа ва Муҳаммад Султон мирзо ва Баянадаги илғор келиб қўшулдилар. Беклар навбат била каравулликка тайин бўлдилар”.

Заҳириддин Бобур мухорабада ҳар қандай хатолик ёмон оқибатларга олиб келишини алоҳида таъкидлаган. Юқоридаги матндан кўринадики, Бобур разведка маълумотлари асосида ҳар бир бекни ўз лашкари билан маълум вақт ва манзилда қоровулликка тайин этган. Аммо, бу маълумотларга эътибор бермаган Абдулазиз бек жуда катта хатоликка юл қўяди, ўзини ва лашкарини хавф остида қолдириб, уларнинг айримларидан айрилади, сафдошларини ҳам чалғитиб, уларнинг бошига турли кулфатлар ёғилишига сабаб бўлади. Ана шу мисолнинг узи ҳам Бобурнинг разведка маълумотларига нақадар эътибор бергани, унга ўзи амал қилгани, қаламравида бу тартибни бузганларга муросасиз бўлгани далилидир. Зеро, Абдулазизнинг шу хатоси жуда катта мухорабага ҳозирлик кўраётган Бобурнинг режаларини бузади, Муҳаммад Али жанг-жанг каби лашкарбошисини бу жангга киритишга мажбур бўлади.

Мана бу мисол Бобурнинг Иброҳим Лудий билан олиб борган курашининг дастлабки пайтига тааллуқли. У Иброҳим Лудий аскарлари холати, унга ким дўст, ким ғаним эканлигини билиш, «таҳқиқ қилиб» келишни разведка хизматига буюради ва маълумот ишонарли булиши зарурлигини алохида таъкидлайди: “Сиялкоттин Шоҳим Нурбекни ҳам Лахур бекларига чоптирулдиким, ёгий не ерда эканин тахкик килиб, кайда котилурларини сохибвукуф кишидин билиб, айтиб юборсунлар”.

Бобур ўз юрти ва бошқа ерли савдогарлар орқали ҳам разведка маълумотлари олишга интилган. Албатта, бу усул янгилик эмас. Савдогарлар ҳукмдорлар учун ҳамиша зарур маълумотлар етказиб туришган. Бироқ Бобурнинг бу галги мақсади аниқ нишонга теккан. У Иброҳим Лудий ҳақида жуда муҳим маълумотга эга бўлади. Оламхоннинг Иброҳимга қарши туриши, Хуросонда эса кўчманчи ўзбаклар Балхни мухосара қилганликлари ҳақида маълумот олади ва зудлик билан қатъий қарорга келади: “Оламхонга Ҳиндустон сари рухсат бериб, узумуз Балх устига отландук”. Қуйидаги мисоллар юқоридагидек катта сиёсий аҳамиятга молик булмаса-да, мухораба тақдирини белгилашда муҳим ўрин эгаллаган. 1525 йилги мухорабалар Бобурни анчагина чарчатган бўлса ҳам, ёнида тунғич уғли Ҳумоюн мардонавор курашиб, кўпгина асирларни, қулга киритилган филларни олиб келиб мулозамат қилганлиги унинг руҳиятини кўтарган эди. Лекин Бобур рақиби Иброҳим Лудийнинг сир-асроридан, ҳарбий имкониятидан кенгрок

хабардор булишни максад қилар экан, қандай бўлмасин, душман орасидан «тил» олиб келишни буюради: «Ул юрттан кўчуб, Шохобод келдук. Тил тутар учун Султон Иброхимнинг ўрдусига киши юбориб, неча кун бу юртта таваккуф булди». Демак, Бобур хатто разведка хабарини кутиб, бу жойда бир неча кун колиб кетган. Унинг бу сабри ўз натижасини берган. У лашкарлари ва сафдошлари билан хавфсиз йўлни танлаб ҳаракат қилган. Лекин бу жойга етиб келган захоти яна бир кишисини разведкага, яна «тил» тутиб келишга жўнатган: «Иброҳимнинг урдусидин ҳам мутавотир хабарлар кела бошладиким, бир курух-икки курух кўчуб ҳар юртта икки-уч кун мақом қила-қила келадур. Биз ҳам мутаважжих бўлуб, Шохободдин ора икки кунуб, Жуун дарёсининг ёқосига Сарсава туғриси келиб туштук. Хожа Калоннинг навкари Ҳайдаркўлини тил тута юборилди».

Бобурнинг бу галги тиришқоқлиги, мақсад сари интилиши, юксак разведка қобилияти зарур натижани берган. Ҳайдаркўли келтирган хабар Иброҳим Лўдий билан бўлган жанг муваффақиятини таъминлаган. Бу хабарда душманнинг ҳарбий имконияти, армия сафларининг жойланиши ва сони, лашкарлар орасидаги ўзаро муносабат, хатто уларнинг қайси холатда ўтириб-туришларигача тафсилоти билан етказилган эди. Бобур ушбу маълумотни олар экан, хужумга ўтиб, ўзининг энг кўзга кўринган сарлашкарлари Чин Темур Султон, Муҳаммад Султон, Султоним Жунайд, Мир Хусайн ва бошқаларни бу мухорабага сафарбар этади. Натижа унинг кўнглидагидан ҳам яхши булади. Бобур мухорабаларда жуда катта ютуққа эришади, ўзи ташаббус кўрсатиб Уста Алиқули тўпчи билан яратган тўпларини ишга солиб, Иброҳим Лўдий устидан мутлоқ ғалаба козонади. Бу натижаларни қўлга киритишда, албатта, бевосита унинг разведкага оид қобилиятининг ҳам муҳим хиссаси бўлган. Аждодларимизнинг ҳарбий салоҳияти тарихини ўрганиш ёш авлод қалбида Ватанга муҳаббат туйғусини уйғотишда алоҳида аҳмиятга эга. Бинобарин, миллатимизнинг ҳарбий тарихи деярли ўрганилган эмас. Биргина Бобур ҳарбий маҳорати кўплаб тадкикотларга етарли материал бера олади. Бу масалаларни Бобурнинг моҳир адиб, шоир, олим, энциклопедик билим соҳиби сифатлари билан ҳамоҳанг ўрганиш, катта самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жавоҳарлаъл Неру - Ҳиндистоннинг кашф этилиши китоби.
2. Ёқубов Ҳ., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Тошкент, 1949.
3. Ҳасанхожа Нисорий, Музаккири аҳбоб, Тошкент, 1993.
4. Нуритдинов М., Бобурийлар сулоласи, Тошкент, 1994.
5. Азимжонова С., Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Мақолалар тўплами, Тошкент, 1995.
6. Файзиев Т., Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари, Тошкент, 1996.

BOBURNING HAYOTI VA HARBIY SIYOSIY HARAKATLARI

Ikramov Alisher
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti
Yu.f.b.f.d (PhD)

Bobur Mirzo Andijondan chiqqandan so‘ng, uning oila a’zolari yuz tashvish va mashaqqatlar bilan O‘ratepaga yetib kelishgandi. Samarqand taxtidan nihoyatda shodlangan yosh hukmdor oilasini bu azim shaharga olib keladi. U amakisi Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyisha Sultonbegimni o‘z nikohiga olgan edi. Ko‘p o‘tmay Samarqandda To‘ng‘ich farzandi Faxrniso dunyoga keladi. Biroq bu shodlik uzoq davom etmaydi. Faxriniso chillasidan chiqmay vafot etadi.

Bobur Mirzo o‘zini buyuk poytaxt taxtida ko‘rib qanchalik quvonsa, har zamon tahdid solish xavfi kuchli bo‘lgan Shayboniyxonning ulkan qo‘shinidan ham shunchalik tashvishlanardi. Samarqand mudofaasini mustahkamlash maqsadida yon atrofdagi temuriylar saltanati hukmdorlariga elchilar yuborib, ulardan yordam so‘raydi.

Shayboniyxon 1501-yilning bahorida yana qo‘shin to‘play boshlaydi. Qorko‘l, Dabusiyani qayta qo‘lga kiritib, Samarqandga tahdid soladi. Shu yili may oyining boshlarida Shayboniyxon o‘z hatti harakatlari bilan raqibini jang maydoniga jiddiy hozirlik ko‘rishga majbur etadi. Boqi Tarxon ming ikki ming kishilik qo‘shini bilan Keshga kirib borgan edi va ikki kun orasida Bobur Mirzoga kelib qo‘shilishi taxmin qilinardi. Toshkent hokimi Sulton Mahmud tomonidan yuborilgan Said Muhammad Mirzo do‘g‘lat tomonga yaqin ming bir yarim ming kishilik lashkari bilan ko‘makka kelishi kutilar edi. Munajjimlarning yanglish ma’lumotlari Bobur Mirzoni madadga chiqqan kuchlar yetib kelmasdan jangga kirishga undadi. Qo‘shin to‘rtga ajraladi. Ko‘hak daryosi bo‘yida raqib bilan ro‘baro bo‘linadi. Natijada Bobur Mirzo qo‘shini juda katta talofatga uchradi[55]. Og‘ir kunlar boshlanadi. Keyingi yillarda Samarqand tez-tez yuz berib turgan o‘zaro urush va isyonlar tufayli boyliklari talangan, ancha kuchsizlanib qolgan edi. Shayboniyxonning besh oylik qamaliga qarshi Bobur Mirzoning o‘ziga yaqin beklar va sarbozlari hamda xalq ommasi jasorat ko‘rsatishlariga qaramay, ochlik, suvsizlik shahar aholisining tinka madorini quritadi. “Elga bisyor tanqislik bo‘ldi, - deya xotirlaydi “Boburnoma” muallifi. – Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar. Otqa bo‘g‘uz kam yoft bo‘ldi. Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo‘ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog‘i va qora yig‘och yafrog‘i otqa sozvarroq emish. Ba’zi quruq yig‘ochlarni randa qilib, taroshasini suvg‘a ivitib otg‘a berurlar edi”[56].

Oziqa zahiralari tugab, atrofdan biror bir madad kutishga umid qolmagach, sarbozlar bir ikki kishi bo‘lib qocha boshlaydi. Bu orada Shayboniyxon sulh taklif qiladi. Hech qanday umidi qolmagan Bobur Mirzo sulhga rozilik beradi. Parokandalikka yuz Bergan temuriy hukmdorlarining noahilligi tufayli ulkan g‘alabasini mudofaa qila olmagan yosh shahzoda azim shahar Samarqndning

[55] Hasanov Saidbek. Zaxiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Sharq, 2011. 25-bet.
[56] Mamajonov A. M. O’zbekiston tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. 84-bet.

Shayxzoda darvozasidan ichkilari bilan chiqib ketadi. Biroq Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim vujudga kelgan tang vaziyat taqozosiga koʻra Shayboniyxonga turmushga chiqishga majbur boʻladi[57].

1501-1502-yillar Bobur Mirzo hayotida sarson-sargardonlikning achchiq alamlari bilan qarshilashish davri boʻladi. Oʻlim tahlikasidan zoʻrgʻa qutilgan yosh shahzoda va uning hamrohlari Jizzaxda ochlik shiddatidan ham bir muncha xalos boʻladilar.

1504-yilning oktabrida hududi ancha kichik boʻlgan Fargʻona viloyatini tashlab, sarson-sargardonlikni boshidan kechirgan Bobur Mirzo Kobul va Gʻaznani jangsiz qoʻlga kiritib, ulkan davlat taxtini egallaydi[58]. 1505-yilning iyun oyida Bobur Mirzoning onasi Qutlugʻ Nigorxonim vafot etadi[59]. Bu davrda Hisor va Qunduzni boʻysundirgan Shayboniyxon Samarqandga borib yangi yurishlarga hozirlik koʻrmoqda edi. U Xorazmni bosib oladi, Balxni qamal qiladi. Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro Shayboniyxonga qarshi kurashda Bobur Mirzoni ham taklif qiladi, lekin yarim yoʻlda Bobur Husayn Mirzoning vafot etganini eshitdi. Bobur Hirotga kelib uning muqaddas masjid va madrasalarini, qasr va saroylarini maroq bilan tamosha qildi, olimu ulamolari bilan miriqib suhbatlashdi va 1506-yilda dekabr oyida togʻ oralab Kobulga yoʻl oldi. Qor yogʻa boshlagan edi, bu yoʻllardan esa hatto yozda ham yurish mashaqqatli edi. Boburning aql-zakovati, oldindan koʻra bilish hissiyoti uni bir daqiqa ham vaqtni boy bermay, shiddat bilan olgʻa yurishga undar edi. Qor kundan kun qalinlashib, otlarning tizzasiga, keyinroq esa qornigacha koʻtarildi, buning ustiga ularning yoʻlboshchisi yoʻlni yoʻqotib qoʻydi.

1511-yilning bahorida Shoh Ismoil Movarounnahrga yurish boshlab Parapomison togʻ tizmalaridan oʻtib, Maymana va Qorarabotga yetib keldi. Bu yerda Temur Sulton joʻnatgan oʻzbeklar elchisiga roʻpara keldi. Ular katta sovgʻa-salomlar bilan sulh tuzushga kelgan edilar. Bu sulh Shoh Ismoilga Turkiya va Ozarbayjonga yurish imkoniyatini berar edi. Shuning uchun u rozi boʻldi. Sulh shartlariga koʻra, Amudaryo ularning mulki orasidagi chegara boʻlmogʻi lozim edi. Daryoning janubiy qirgʻogʻi Shoh Iamoil ixtiyoriga oʻtdi, biroq bu mamlakatdan ulkan sahro orqali ajralib qolgani va aloqa qiyinlashgani tufayli koʻp oʻtmay Xorazm yana shimoldan kelgan bosqinchilar qoʻliga oʻtdi. Sulh tuzilgach, Shoh Ismoil Xirotga qaytdi.

Bobur Shoh Ismoildan yordam soʻrab yozgan xatining natijasini kutib turgan paytda Ziyod Muhammad Mirzodan xushxabar keldi. Unda aytilishicha, Ziyod Muhammad Mirzo Shayboniy oʻzbeklarni Fargʻona davlati hududidan haydab chiqargan edi. Tezlik bilan qoʻshin tuzilib, unga Sulton Saidxon lashkarboshi qilib tayinlandi va Andijonga joʻnatildi. Shu orada Shoh Ismoil yordamga joʻnatgan qoʻshinning bir qismi bilan Xon Mirzo ham yatib keldi. Oʻzbeklar u bilan tuzulgan sulxni buzishgandan soʻng, Shoh Ismoil Movarounnahrda Bobur yana oʻz saltanatini tiklashi lozimligini tushuna boshlagan edi. Yordamchi kuchlar bilan Bobur Hisorga yoʻl oldi.

---

[57] Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. – Toshkent: Fan, 1994. 66-68-betlar.
[58] Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –Toshkent: Sharq, 2011. 24-bet.
[59] Fayziyev T. Temuriy malikalari. –Toshkent: 1994.

Hisor olingach, Bobur shoh o‘z qo‘shinlarini shu yerda to‘play boshladi. Unga Shoh Ismoil yuborgan Mustafo Ali va Shohruh Sulton Muhrdor boshchiligida yordamchi o‘qchilar kelib qo‘shildi. Bobur yana shunday qudratli lashkarlar bilan Qarshiga yo‘l oldi. Ubaydullaxon Qarshini tashlab, buxoroga shoshilayotgan edi. Buxoro qo‘lga kirsa, Qarshi o‘z-o‘zidan taslim bo‘lishi kerak edi. Shutob bilan yurib o‘zbek sultonlaridan ilgariroq Buxoroga yetib kelindi. Vaqtni boy bermaganini anglagan o‘zbek sultonlari yo‘lda uchragan qishloqlarni talon-taroch qilib, Turkiston sari yo‘l oldilar. Kelayotgan vahimadan daxshatga tushgan Samarqantdagi o‘zbek sultonlari ham panoh izlab Turkistonga qoshdilar. Shunday qilib, to‘qqiz yillik hukmronlikdan so‘ng o‘zbeklar yana Movarounnahrdan quvib chiqarildilar.

Buxoroda bir oz to‘xtagach, Bobur Samarqantga yo‘l oldi. U qayerga kelmasin, oddiy fuqaro dehqonlar, savdogarlar, hunarmantlar va butun shahar ahli yana o‘zlarining avvalgi hukmdori qaytib kelganidan mamnun ekanini bildirib, uni har qadamda olqishlar edi. 1511-yil oktabr oyining boshlarida Bobur Samarqand Xoni deb e’lon qilindi. Eroniy askarlarni katta sovg‘a – salomlar bilan siylab, ularni o‘z yurtiga kuzatib qo‘ydi.

Movarounnahragi muvaffaqiyatlari uchun u Shoh Ismoilning unga ko‘rsatgan yordamidan minnatdorlik belgisi sifatida faqat o‘zigina emas, balki lashkari ham eroniylar kiygan harbiy kiyimni kiyishi va ayniqsa, eroniy salla o‘rashi lozimligi haqidagi farmoni sunniy mazhabga mansub bo‘lgan Movarounnahr aholisini bir oz ranjitgan edi. Chunki Shoh Ismoil o‘n ikki imomdan birining avlodlaridan sanalib, shia mazhabiga mansub edi. Shuning uchun ham sallani o‘n ikki qavat qilib o‘rar va boshdan oyog‘igacha qizil matodan tayyorlangan shialar kiyimida ko‘zga tashlanib turushi lozim edi. Shuning uchun ham eroniylar sunniylar tomonidan “qizilboshlar” deb yuritiladi. Bundan tashqari Shoh Ismoilning nomi Xuroson va boshqa shahardagi masjidlarda xutbaga qo‘shib o‘qilar, hattoki, ayrim tarixchilarning ma’lumotlariga qaraganda, uning nomida tanga pul ham zarb qilingan edi. Shuning uchun ham hamisha beqiyos shuhrat egasi bo‘lib kelgan Boburning obro‘si tez orada xalq nazarida pasayib ketdi. Bobur shoh 1514-yilda o‘zbeklarning ko‘p sonli qo‘shini tomonidan Movarounnahrdan quvib chiqarilgach, Qobulga qaytib keldi. O‘z o‘rniga qo‘yib ketgan kichik ukasi Nosir Mirzo uni hurmat ehtirom bilan kutib olib, ilgari o‘zi egallab turgan G‘aznaga ketishga akasidan izn so‘radi. Bobur shoh saltanatdagi eng noyob sovg‘a-salomlar bilan ukasini siylab, uni G‘aznaga kuzatib qo‘ydi. Biroq keyingi yillarda ichkilikka berilib ketgan Nosir Mirzo o‘sha dardning qurboni bo‘ldi va 1515-yilda vafot etdi. Undan Yodgor Nosir Mirzo ismli o‘g‘il qoldi.

1519-yilgacha bo‘lgan davr boshqa davr bo‘lib, bu paytda Bobur saltanatdagi ishlarni takomillashtirish hamda yaqin atrofdagi tog‘li qaysar qabilalarni o‘ziga bo‘ysindirish ishlari bilan band bo‘ldi. Xazorlar, aymoqlar va afg‘on qabilalari Bobur Dehlini olgungga qadar ham unga to‘la bo‘ysunishdan bosh tortib, soliqlarni ham o‘z vaqtida to‘lamas edilar. Hozirgi afg‘on davlatiga qarashli, ya’ni Hindiston chegaralarigacha bo‘lgan hududni Bobur Qobulga to‘la bo‘ysundirgan edi.

1519-yilga hozirgacha mustaqil bo‘lgan Bajur Sultoniga qarshi yurish boshlandi. Bu yurishda ularning dushmani bo‘lmish dilozoq afg‘onlari yo‘lboshchilik qildilar.

Qattiq jangdan so‘ng Bajur qal’asi olindi, uni boshqarish Xo‘ja Kalonga topshirildi. Movarounnahrdan qaytib kelgandan buyon Boburning fikru zikri Qandahar va Hindistonni egallash bilan band edi[60].

Bobur shijoatli hukmdor edi. U ulkan imperiya tuzish ishtiyoqi bilan tinimsiz yonardi. Samarqandni qo‘lga olgach, Markaziy Osiyoda ana shunday ulkan saltanat tuzishga uringan edi. Lekin shayboniylar uning bu niyatini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymadilar. G‘arbiy Osiyoda mavjud siyosiy ahvol ham uning rejalarini amalga oshirish uchun qulay sharoitni vujudga keltirgandi. Shayboniylar va eronliklar o‘zaro urushda bir birlarini yenga olmaganlaridan so‘ng, ularning hech biri Boburning Kobuldagi saltanatini bevosita qila olmaydigan vaziyatda qolgan edilar. Shuning uchun ham Bobur bemalol Hindistonni egallash ishlari bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lgan edi.

Boburning ishtiyoqi uni Hindistonga hujum qilish sari boshladi. U dovyurak, jasur va mohir lashkarboshi edi. Raqiblari bir necha bor mag‘lub qilgan bo‘lsa ham, u o‘zini batamom mag‘lub deb hisoblamas edi. Bobur shuning uchun ham ko‘zlagan maqsadiga yetishga hamisha ishonardi. U o‘z mag‘lubiyatlaridan ham to‘gri xulosalar chiqarar, qobiliyati va irodasini chiniqtirib borar edi. U turklar mo‘g‘ullar, shayboniylar, forslar va afg‘onlar bilan bo‘lgan janglarda juda ko‘p tajriba to‘plagan va chiniqqan edi. Ularning har biridan jang qilish uslubini o‘rgangan edi. Shu bilan o‘zining urush olib borish taktikasini va qurollarini takomillashtirib borardi.

U shayboniylardan urushning ***“to‘lg‘ama”*** usulini, mo‘g‘ullardan esa ***“pistirma”*** qo‘yishni o‘rgandi. Afg‘onlardan ***“porxli miltiq”*** ishlatishni o‘rgangan bo‘lsa, eroniylardan ***“artilleriyani”*** ishlatishni, turklardan esa ko‘chma “***suvoriylar qo‘shinini”*** unumli ishlatishni o‘rgandi. Bobur turk zobitlari bo‘lmish Ustod Ali va Mustafolar yordamida kuchli artelleriya qo‘shinini tuzdi va shu tufayli Hindistonga raqiblari ustidan g‘olib keldi.

Ingliz tarixchisi Rashburk Uilyamsning ta’kidlashicha “Boburning Hindistondagi tantanasiga asosiy sabab bo‘lgan yagona moddiy omil “***baquvvat artelleriya”*** bo‘lgan edi. “Bundan tashqari, Bobur chidamlilik, matonatlilik, jasurlik, o‘limga tik qarash, o‘zga va o‘z taqdiriga ishonish kabi xislatlarga ega ediki, bu fazilatlar doimo unga kishilarni olg‘a yetaklash imkonini berib turar edi. Shunday qilib, uning tuganmas g‘ayratli va shaxsiy xislatlari o‘z baxtini Hindistonda sinab ko‘rishga chorlagan edi. Bobur boylikka hirs qo‘ygan odam emas edi. Biroq Hindistonning boyliklari uni va hamrohlarini maftun qilgan omillardan biri bo‘lganligi shubhasizdir[61].

Bobur Hindistonga besh marta yurish qildi. Dastlabki to‘rt yurishi o‘ziga xos sinov yoxud tayyorgarlik yurishlari bo‘ldi. Birinchi yurishda (1519-yilda) u Bajur va Behra viloyatlarini bo‘ysundirib qaytgandi. Biroq har ikkala viloyat ham Bobur orqaga qaytishi bilanoq mustaqil siyosat olib boraverdi. Shu yili u yana Hindistonga yurish qildi-yu, biroq bu safar Peshovardan qaytib ketdi. Uchinchi bor yurishida Bobur (1520-yilda) Panjobgacha kirib keldi va Sialkot hamda Sayidpur qal’alarini o‘ziga bo‘ysundirdi. To‘rtinchi marta u Hindistonga 1524-yilda yurish qildi va bu safar Lohur

[60] Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –Toshkent: Sharq, 2011. 27-bet.
[61] Mamajonov A. M. O‘zbekiston tarixi. - Toshkent. Cho‘lpon, 1992. 94-bet.

va Dibolpurgacha bo‘lgan hududlarni egallaydi. U Davlatxon Lo‘diyning Panjobni o‘z ixtiyorida olib qolish niyatidan ranjigan edi. Lekin u Olamxon Lo‘diy va Dilovarxon Lo‘diyga muruvvat qildi. Panjobni ular ixtiyorida qoldirib, o‘zi Kobulga qaytdi. U qaytishi bilanoq, Davlatxon yana Panjobni bosib oldi. 1525-yilgi yurishda Bobur Hindistonni butunlay ishg‘ol qilish niyati bilan safarga otlangan edi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hasanov Saidbek. Zaxiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Sharq, 2011. 25-bet.
2. Mamajonov A. M. O’zbekiston tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. 84-bet.
3. Nuritdinov M. Boburiylar sulolasi. – Toshkent: Fan, 1994. 66-68-betlar.
4. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –Toshkent: Sharq, 2011. 24-bet.
5. Fayziyev T. Temuriy malikalari. –Toshkent: 1994.
6. Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –Toshkent: Sharq, 2011. 27-bet.
7. Mamajonov A. M. O‘zbekiston tarixi. - Toshkent. Cho‘lpon, 1992. 94-bet.

БОБУРШУНОС ОЛИМ САЙФИДДИН ЖАЛИЛОВ

Икромов Исмоилжон
Андижон давлат педагогика
Институтининг ўқитувчиси

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва илмий-адабий мероси, унинг Мовароуннаҳрдаги фаолияти ҳақида фикр юргизганда андижонлик олим, археолог, ўлкашунос ва бобуршунос Сайфиддин Жалилов (1927-2019)нинг фан олдидаги хизматлари, бобуршунослик ва Андижон тарихи тадқиқотларини алоҳида эсга олмоқ лозим бўлади. Олим ўзининг илмий-педагогик фаолияти давомида Андижон археологияси, Фарғона водийсининг ирригация тизими тарихи ва ўлкашунослигидан тортиб Бобурнинг Мовароуннаҳрдаги фаолияти бўйича ҳам кенг салмоқли тадқиқот ишларинг муаллифидир.

Расмий маълумотларга кўра, Сайфиддин Жалилов 1927 йил Андижон шаҳрида зиёли оиласида таваллуд топган [1.3]. Андижон ўқитувчилар тайёрлаш институтининг кечки бўлими (1945), Ўрта Осиё давлат университетининг Шарқ тарихи бўлимини (1952) тамомлагандан сўнг, бир муддат ЎзССР ФА ШИ аспирантурасида таҳсил олади. Бироқ, давр сиёсий ва мафкуравий босимлари натижасида аспирантурани эрта тарк этишга мажбур бўлган. Шундан сўнг, 1955-1958 йиллар оралиғида Андижонда ўқитувчилик, архив илмий ходими сифатида давом эттирган. Кўрсатилишича [1. 5], унинг Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва фаолиятига қизиқиши ва кейинчалик бу мавзу доирасида ёзган ўнлаб илмий ишларига туртки 1957 йилда – Андижонда Бобур таваллудининг 475 йиллигига бағишлаб ЎзССР Фанлар Академиясининг ўтказган кўчма сессияси бўлади. Бу

ерда илк бор республиканинг етакчи тарихчи-шарқшунос олимлари билан З.М.Бобур бўйича илмий муҳокамаларда қатнашади. 1959-1964 йилларда Тарих ва археология институтидаги фаолияти давомида Яҳё Ғуломов илмий раҳбарлигида « XIX аср охири ва XX аср бошларида Фарғона водийси жанубий-шарқий районларининг суғорилиши тарихидан» мавзусида номзодлик диссертация ишини тайёрлаб ҳимоя қилади, ва тадқиқот иши 1977 йили монография ҳолида ҳам нашр қилинади [7. 10]. Шундан сўнг олим 1966 йилдан то вафотига қадар Андижон педагогика институтида (ҳозирги Андижон давлат университети) меҳнат қилиб, илмий-тадқиқот ишларини олиб борди.

Олимнинг фаолияти давомида олиб борган илмий изланишларининг кенглиги, манбалар билан ишлаши жиҳатидан қолдирган илмий-тадқиқот меросини шартли равишда уч гуруҳга бўлиш мумкинлиги кўрсатилади [8]. Булар:

- **Фарғона водийсида суғорма деҳқончилик маданияти ва ирригацияси тарихи.** Бу йўналиш бўйича Сайфиддин Жалилов устози академик Яҳё Ғуломов раҳбарлигида бир қатор археологик илмий экспедицияларда қатнашди ва водийнинг суғорма деҳкончилик тарихини батафсил ўрганди. Унинг бу йўналиш бўйича олиб борган илмий изланишлари якуни “Фарғона водийсининг суғориш тарихидан” номли монографиясида ўз аксини топган;
- **Ўлкашунослик тарихи.** Бу жабҳада ҳам олим кўп ишлар қилиб улгурди: Андижон шаҳри тарихи билан шуғулланди ва бу ҳакда махсус китоб - ўлкашунослик очеркини яратди хамда юзлаб илмий-оммабоп мақолалар эълон қилди. Вилоят қишлоқлари тарихига алоҳида эътибор бериб, йиллар мобайнида уларнинг пайдо бўлиши ва топонимикасини чуқур ўрганди;
- **Бобуршунослик.** С.Жалиловнинг Бобурга аталган дастлабки илмий-оммабоп мақоласи 1958 йилда чоп этилган бўлса, шундан бошлаб Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг илмий-ижодий мероси Сайфиддин Жалилов тадқиқотларининг ажралмас қисми бўлиб келган. Бобур ҳақида бир неча ўнлаб илмий, илмий-оммабоп мақолалар, “Бобур ва Андижон” (1993), Бобурнинг Фарғона давлати” (1995), “Бобур ва Юлий Цезар” (2001) номли йирик китобларни чоп эттирди.

Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг илк йилларида ташкил қилинган Бобур номли халқаро илмий экспедицияда ҳам фаол иштирок этиб, хориждаги темурий ва бобурийлар меросини аниқлаш, олимлар билан илмий алоқаларни йўлга қўйиш ва Андижонда Бобур тадқиқотлари бўйича марказ яратиш бўйича салмоқл ишларни амалга оширди.

Фарғона водийсининг суғорилиш тадқиқотлари бўйича фундаментал китоби бўлмиш «Фарғона водийсининг суғорилиш тарихидан» монографиясида энг қадимги даврлардан XX аср ўрталаригача водий ирригация тизимини таҳлил қилар экан, бевосита темурийлар ва Бобур давридаги минтақанинг аграр ҳолати, суғорилиш манбаларини атрофлича таҳлил қилади. Тарихий манбалар ва дала материаллари асосида берган хулосаларига кўра, XV асрда Оқбўра дарёсининг

Андижонга етказиб келинганлиги, ва ушбу дарёдан чиқарилган 9 та ариқ «Бобурнома»да ҳам тилга олингандир. Гарчи, «Бобурнома»да бу ариқлардан фақатгина биттасининг номи учраса ҳам, олим илмий экспедициялар давомида тарихий ариқларнинг бугунгача сақланиб қолган номларини ҳам аниқлашга муваффақ бўлади [7. 25]. Олим ариқларнинг номларини қуйидагича келтиради: “«Бобурнома»да тилга олинган тўққизта ариқнинг «Ҳокан» ариғидан бошқаси қуйидагилардир – Бурҳоншайх ариғи, Хўтан ариқ, Жўйибозор, Бўғра, Далварзин, Оқработ, Тўқмоқ ва Боботаваккал” [3. 26].

Тарихий манбалар ва водий бўйлаб амалга оширган илмий экспедициялари ёрдамида З.М.Бобур давридан буён сақланиб келаётган жуда кўплаб жой номлари, тарихий манзилларнинг ўрнини аниқлашга муваффақ бўлади. Темурийлар даврида мамлакат бунёдкорлиги йўлида амалга оширилган ишлар, янги деҳқончилик ва ҳунармандчилик манзилгоҳлари ҳақида сўз борар экан, бу ўринда Умар Шайх Мирзо ва Бобур даврларига алоҳида урғу бериб, қуйидагича маълумотлар беради: “Бобур Андижонга таъриф берар экан, «қалъанинг гирдо-гирди тамом маҳоллотдур», деб ёзади. Ўша маҳаллалардан ҳунармандчилик билан боғлиқ бўлганларининг номлари яқингача ҳам сақланган. Чунончи, Кўнчилик, Кигизчилик, Читгарлик, Жебачи, Дегрез кабилар шаҳар қалъа деворининг ташқарисидаги маҳаллалардир” [4. 130].

Бобур даврида Фарғона мулкининг пойтахти бўлмиш Андижонда олиб борилган узоқ йиллик археологик қазишма ишлари натижасида шаҳарнинг “арк” қисми ва унинг чегаралари белгиланади. Аниқлашича, Андижоннинг қадимий арк девори қолдиқлари сақланиб қолган бўлиб, Жўйибозор ариғи арк ичидан оқиб ўтган. Шаҳарнинг ушбу маҳалласи эса, ҳозиргача “Арк ичи” деб юритилади [2. 27]. Арк ҳақидаги фикрларини яна бир бошқа тадқиқот китобида батафсил изоҳлар экан, унинг ўрганилиш тарихи ва бугунги Андижоннинг қайси қисмларига тўғри келиши ҳақида ҳам батафсил маълумотлар беради. Шунингдек, ушбу аркнинг Шайбоний қўшинларининг 1504 йилги ҳужуми натижасида вайрон қилинганлиги сабабли, кейинги юзйилликлар давомида тикланмай қолганлиги ҳам таъкидланади [6. 73].

Бобур, умуман темурийлар даврида Андижон ва Фарғона водийсидаги маданий-маънавий ҳаёт, Сайфиддин Жалилов тадқиқотларининг энг муҳим қисмидир. Ўрта асрлар даври тарихий манбалари асосида темурийлар даврининг йирик маданий марказлари бўлмиш Самарқанд, Бухоро, Ҳирот каби шаҳарлар билан бир қаторда давлатнинг шарқий қисмида жойлашган бу ҳудуд ҳам ўз даврининг йирик маънавий масканларидан бўлганлиги, ўз даврининг машҳур шахсларидан бир неча ўнлаб номлар чиққанлиги олимнинг илмий изланишлари асосида ўртага чиқади. Жумладан, Лутфулло ибн Фатҳулло, Муҳаммад Қози, Махдуми Аъзам, Мавлоно Шоҳ Ҳусайн, Бобо Таваккул, Шамсиддин Сарбараҳна, Бобо Саъдиддин, Мавлоно Юсуф Андижоний, Юсуф Бадиий, Хожа Калонбек, Мавлоно Фозил Андижоний, Муҳаммад Шариф Садр каби шахслар ўз даврининг маънавий етук, дин ва давлат ишларида ҳукмдорларнинг ёрдамчиси, ўз даврининг комил инсонлари бўлганлиги алоҳида таъкидланади [4. 127].

Шубҳасизки, Сайфиддин Жалиловнинг Бобур ва бобурийлар тарихига оид илмий тадқиқот асарларини шоҳ асар ҳисобланмиш «Бобурнома» таҳлили, ундаги тарихий ва географик маълумотларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Олим, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ушбу бебаҳо асарига таяниб юқорида келтирилган бир қанча янгиликларни ўртага қўяди. С.Жалилов ҳам аъзоси бўлган Бобур номидаги халқаро илмий-тадқиқот экспедициясининг йўналишларини олишда ҳам ушбу асарнинг ўрни ниҳоятда каттадир. Бу ўринда олимнинг ўзи қуйидаги фикрларни келтиради: “Биз Бобур қадамжойлари мавзуида бошланган экспедициямизда Фарғона водийси билан Қирғизистонга қарашли Олабуқа ва Чотқол – Тянь-Шань тоғ оралиғи бўйлаб, Эргаштом довонидан ташқари Иссиққўлга ўтадиган қадимий ипак савдо йўли бўйлаб қизиқдик. ... «Бобурнома»да Ўрта Осиё билан қўшни Шарқ мамлакатлари ўртасидаги иқтисодий ва савдо муносабатларига доир маълумотлар ҳам ниҳоятда муҳимдир. Масалан, ўша даврда Фарғона билан Хитой ўртасидаги савдо алоқалари ҳақида манбалардан бирон маълумот топиш мушкул” [3. 56].

Умуман олганда, илмий-тадқиқот ва педагогик фаолияти билан катта мерос қолдирган профессор Сайфиддин Жалиловни хотирлар эканмиз, унинг Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва бобурийлар тарихи ва маданияти бўйича қилган ишларини алоҳида эътироф этмоғимиз лозим. Олимнинг илмий ишлари бугунги кунда ҳам вилоят, ва умуман республикадаги олий ўқув юртларида дарслик, ўлкашунослик тадқиқотлари бўйича махсус қўлланма ўлароқ фойдаланиб келинмоқда. Бобур ва бобуршунослик соҳаси катта илмий мерос қолдирган олим Сайфиддин Жалиловнинг илмий мероси бугунги кунимиз ёш тадқиқотчилари, ўлкашунос олимлари учун катта илмий манбадир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Сайфиддин ҳожи Жалилов. Библиография (Таваллудининг 70 йиллиги ва илмий-педагогик фаолиятининг 50 йиллигига бағишланади). «Андижон» нашриёти., Андижон – 1996.
2. Сайфиддин Жалилов. Андижон: Тарихий-ўлкашунослик очерки. Т.: «Ўзбекистон», 1999.
3. Сайфиддин Жалилов. Бобур ҳақида ўйлар. Т.: «Шарқ», 2006.
4. Сайфиддин Жалилов. Бобурнинг Фарғона давлати. Т.: «Фан»., 1995.
5. Сайфиддин Жалилов. Ватанимиз тарихини варақлаб (Тарихчининг ўйлари). Андижон-2004.
6. Сайфиддин Жалилов. Бобур ва Андижон. Т.: «Ўзбекистон»., 1993.
7. Сайфиддин Жалилов. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихидан (XIX-XX аср бошлари). Т.: «Фан»., 1977.
8. “Сайфиддин Жалилов” (https://baburid.uz/library/academics/56). (30.01.2025).

BOBUR SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Irisboyeva Xotira Utbosarovna,
O‘R MG Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL
ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya –ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, u haqida mashhur kishilarning fikrlari,she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: temuriylar, devon, shoir,aruz, g‘azal, ruboiy, qofiya, obraz, tuyuq.

Аннотация- в данной статье рассказывается о жизни Захириддина Мухаммада Бабура, мнениях о нем известных людей, особенностях его поэзии.

Ключевые слова: Тимуриды, деван, поэт, аруз, газель, рубай, рифма, образ, туюк.

Annotation-this article is about the life of Zahiriddin Muhammad Babur, the opinions of famous people about him, and the specific features of his poetry.

Key words: Timurids, devan, poet, aruz, ghazal, rubai, rhyme, image, tuyuq

Bobur ham shoh, ham shoirdir. «Bobur» arab tilida «sher» degani. Chindan ham u bu nomga munosib shaxs edi. U tariximizning murakkab bir davrida yashadi. Qudratli temuriylar saltanati yemirilib, o‘rniga shayboniylar kelayotgan davr edi. Yurt jang-u jadallar ichida qolgandi. Shunday bir paytda o‘z yurtiga sig‘magan temuriyzoda Bobur Hindistonga bosh olib ketdi. U yerda buyuk saltanatga asos soldi. O‘z jasorati va adolati bilan olis hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi. Boburning avlodlari hind diyorida uch yuz yildan ortiqroq hukmronlik qildilar.

«Aytishlaricha, Bobur juda bahodir sipoh va iqtidorli ilmahli sirasidan bo‘lgan. U hali Afg‘onistondalik vaqtidayoqayrim islohotlarni o‘tkazishga qo‘l urgan-u, lekin uning natijalari yaxshilik bilan tugamasligini anglagan. Chunki qabilaviy tizimga xos urf-odat va an’analarning ayrim talab-taqozolari kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Shu bois u o‘z rejalaridan voz kechgan. Hindistonda Bobur Panipat maydonidagi jangdan so‘ng uch yil-u sakkiz oy umr ko‘rdi. Bu davr ichida u dastlab ichki muxolif kuchlar harakatini bostirishga kirishdi. Zero, notinch va noxush ahvoldan zada bo‘lgan aholi xavf-xatar ichida yashardi. Shu bois zudlik bilan parokanda avom orasida tinchlik o‘rnatish zarur edi... Mazkur dolzarb vazifani amalga oshirish – muqaddam joriy mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy holatni tiklash va islohotlarni o‘tkazish, albatta, barcha mahalliy rasm-rusum va urf-odatlardan voqif bo‘lishni talab qilardi.

bo‘lardi... Bobur nainki mamlakatda siyosiy ahvolni o‘zgartirdi, balki saltanatni g‘arbiy viloyatlar bilan birlashtirdi. Kushon rojaliklaridan keyin Afg‘oniston va Hindistonning o‘zaro aloqalari uzilgan va sobiq «Turk sultonlari» hukmronligida chegaralar qarovsiz holga tushgan edi. Bobur esa Afg‘oniston va Hindiston o‘rtasida o‘z saltanatini barpo qilib, so‘ng o‘rtadagi shimoliy va janubiy chegaralarini mustahkamladi. Qachonlardir

jang-u jadal maydoni bu sarzamin savdo-tijorat hamda madaniy-ma’rifiy markazga aylandi». (*Sayid Sabohiddin*
Abdurahmon, «Mo‘g‘iliy ahd»)[1].
* * *«Bobur turkiy she’riyatda Alisher Navoiydangina keying o‘rinda edi. U sof va nafosatli turkiyda devon tartib etdi. U nazm yo‘lida «Mubayyin» atalmish asarini yaratib, shu bilan ko‘pchilik tomonidan foydali deb topilgan islomiy huquqshunoslikka doir ta’limotning muallifi bo‘ldi, shuningdek,
turkiydagi aruz vazni haqida benazir risola yozdi va «Risolayi volidiya»ni tarjima qildi. Uning bequsurlikda yagona hamda jo‘n uslubda yozilgan «Vaqoye’» yoki «Tarixi turkiy» asari ham bor. U musiqa va o‘zga san’atlarnig‘oyatda nozik idrok etardi»[2.] (*Denison Ross, ingliz olimi*).
Tarixi Rashidiy”dan: Muallif Boburning xarakteri, fazilatlari, maqtovga loyiq jihatlari, ijodkorlik qobiliyati, adabiy merosi, tarjimonligi haqida gapirar ekan, shunday yozadi: «U turli go‘zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi.Turkiy she’riyatda Mir Alisherdan keyin hech kim uningchalik ko‘p yozmagan. U turkiyda ajoyib totli devon tartib bergan. “Mubayyin” nomli she’riy asar yaratgan – juda foydali kitob bo‘lib, odamlar uni fiqh dasturulamali sifatida qabul qilishgan. U “Turkiy aruzni yozganki, bunday yetuk asarni – turkiy aruzni ungacha hech kim bitmagan. Hazrat Eshon (Xoja Ubaydulloh)ning “Risolai Volidiya” asarini nazmiy tarjima qilgan. Uning “Vaqoe’” (“Boburnoma”) nomida turkiy tildagi tarixiy asari borki, u juda ainq, tushunarli, shirali, sof jonli tilda bitilgan. [3.250-b.]
Hasanxo‘ja Nisoriy: “Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi”. Javoharla’l Neru: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan”.[4.]
Monstyuart Elfinston: “Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir”.
Rumer Goden: “Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo‘lsa-da, u o‘z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko‘tarildi. O‘z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o‘lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi”.[5.] Pirimqul Qodirov: “Bobur Mirzo so‘z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o‘zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o‘g‘li Humoyunga “Boburnoma”ni tugallab taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:
Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu “Vaqoyi’”ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

“Vaqoyi’” – “Boburnoma”ning dastlabki nomi edi. Bobur o‘z zamonasida boshdan kechirgan barcha ko‘rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko‘rsatiladi. Uning eng zo‘r istagi: “Vaqoyi’”ni o‘qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar. “Boburnoma” ham “Temur tuzuklari” kabi avlodlarga ulkan hayotiy tajriba, saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan edi”.

Bobur ikki she’riy to‘plam – devon tuzgan. Bizgacha shulardan bittasi yetib kelgan. Ikkinchisining taqdiri noma’lum. Hozirda bizning qo‘limizda uning to‘rt yuzdan ortiq she’ri bor. Shundan ikki yuzdan ortig‘i ruboiydir

Bobur didi va zavqi baland shoir edi. U go‘zal g‘azallar yozdi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko‘rgan-kechirgan voqealari haqida «Boburnoma» asarini yozib qoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go‘zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shoh edi.

Bobur lirikasida g‘azal va ruboiylar yetakchi mavqe tutadi. Adib ushbu janrlarning ijtimoiy motivlar bilan boyitilishigakatta hissa qo‘shdi.Bobur g‘azallarining katta qismi 5 va 6 baytdan tashkil topgan. Uning yana bir yirik xizmati she’r tilini, adabiyot tilini hayotiylashtirishda, uning sodda va ravon, tushunarli,

samimiy bo‘lishiga intilishida ko‘rinadi. Ko‘pincha ularda og‘zaki nutqqa juda yaqin bo‘lgan ohanglar ochiq sezilib turadi. Boshqa jihatlarni gapirmaganda ham, g‘azal qofiyalarining fe’llardan tashkil topishi uni og‘zaki nutqqa yaqinlashtirganini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Garchi Boburning ayrim she’rlarida o‘zni aysh bilan tutishga, farog‘at bilan yashashga da’vat ruhi ustun bo‘lsada, amalda bular Boburning orzusi bo‘lib, uning hayoti faqat mashaqqat, qiyinchilik, urush-yurishlarda, tahlika va bezovtaliklar, to‘s-to‘polonlarda o‘tgani yaxshi ma’lum. Shunga qaramasdan, adib she’riyatida hayotsevarlik, ertangi kunga nisbatan komil ishonch ruhi ustuvorlik qiladi. Shoir birovga tobe va mute bo‘lishni xohlamaydi. Keskin xulosalar chiqarishda ham iymanib o‘tirmaydi. Alisher Navoiydan keyin g‘azal janrini ijtimoiy ohanglar bilan boyitgan adib, hech shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning ko‘p g‘azallari hasbi hol tarzida yozilgan. Ularda adibning shaxsiy hayotiga oid bo‘lgan kechinmalar juda yorqin va ta’sirchan tarzda ifodalangan. Bobur g‘azaliyotida yurt va Vatanga muhabbat, ezgu insoniy fazilatlar tarannumi, oliyjanob tuyg‘ular tasviri yetakchilik

qiladi. Bobur hayotda nihoyatda jur’atli, mardona, yangiliklarga o‘ch bo‘lgan. Bu xislatlar uning ijodi uchun ham xosdir. Bobur lirikasida ruboiy va qit’alar ham katta mavqe tutadi. Ularda mumtoz adabiyotimizdagi yetakchi obrazlar tizimi o‘ziga xos tarzda mujassamlashgan. Shu bilan birga, adib she’riyatning ijtimoiy motivlar bilan boyitilishiga ham katta hissa qo‘shdi. Boburning hayoti o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtlardan yiroqda kechganini bilasiz. Shu bois Bobur ruboiylarida ona Vatanga intilish, g‘urbat, hijron mavzulari keng yoritilgan. Quyidagi ruboiy ham adibning yurt sog‘inchiga to‘la qalbining aks sadosi, o‘ziga xos oynasidir:

Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qdur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qdur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qdur.

Birinchi misradayoq yor va diyor sog‘inchi juda oshkor va samimiy ifodalanmoqda. Unda muddatning davomiyligi e’tiborni tortadi. Bunga *ko‘pdin berikim* ifodasi orqali erishilgan. Keyingi misrada ana shu hodisa-sababning oqibati ko‘rsatilmoqda: bu o‘rinda ham muddat, vaqt, fursat tushunchasiga tayanilmoqda. Uning ifodasi – *bir lahza-yu bir nafas*. Bu o‘z-o‘zidan ko‘p va oz tushunchalari orasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Ularning ostidagi ma’no tovlanishlari bizni o‘ziga jalb etadi. Keyingi ikki misrada ham mantiqiy ziddiyat aks etgan. Ulardagi tayanch so‘zlar *keldim* va *borurimda*dir.

Ruboiy qofiyasi asosiy mavzuni ochishda muhim omil bo‘lgan. Shunga ko‘ra, asosiy fikrni ifodalovchi so‘z – *diyor* qofiyaga surilgan. Ikkinchi misra esa lirik qahramon ruhiy olamini aks ettirishga qaratilgan, shuning uchun *qarorim* so‘zining qofiyada keltirilishi tasodifiy emas. Oxirgi misradagi *ixtiyorim* qofiyasi ham umumiy ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi. Muhimi, bu ruboiy ham boshqalari kabi ifodalarning tabiiy va quymaligi, turkona so‘zlarning o‘z o‘rnida, jonli holda qo‘llangani bilan ajralib turadi. Dastlabki misra ro‘y bergan hodisa mohiyati haqidagi axborot tarzida berilgan. Ammo uning mahzun va tushkun kayfiyat ifodasi ekani ham ko‘rinib turibdi. Keyingi misrada esa lirik qahramonning shu hodisaga munosabati ko‘rsatilgan. Unda bezovtalik, iztirob, taqdir oldidagi ojizlik e’tirofi aks etgan. Ayni paytda, bu qayg‘uning oniy, qisqa emas, aksincha, muntazam va uzluksizligi ta’kidlangan. Natijaning yomonligi uchun o‘zining aybdorligini tan olish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Boburda manashunday mardonalik har doim ochiq namoyon bo‘ladi. Bu yerda ham shu xislatning yana bir qirrasi ko‘rinib turibdi. Ammo taqdir buyrug‘iga bo‘ysunmaslikning ham imkoni yo‘q. Oxirgi misra mana shu e’tirofning go‘zal ifodasi sifatida yaratilgan. Bobur ruboiylari bu janrni yangi mavzu bilan boyitdi. Ularga hasbi hol ohanglarining, yurtsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalarining

ustuvor tarzda singdirilishi mana shu yangilikning bir qismini tashkil etadi. Yana bir yangilik ularning tabiiy, samimiy ruhi bilan belgilanadi. Bobur ruboiylari hayotning turli qirralari haqida bahs yuritadi. Bobur ruboiylari ham g‘azallari kabi hasbi hol xarakteriga ega: ularda adib o‘z ko‘rgan-kechirgan tuyg‘ularini ifodalashga ko‘proq e’tibor beradi:

Necha bu falak solg‘usi g‘urbatqa meni,
Har lahza tugangusiz mashaqqatqa meni.
Ne chora qilay, netayki, Tengri go‘yo
Mehnatni menga yaratdi, mehnatqa – meni.

Ushbu ruboiy mavzusiga ko‘ra boshqa ruboiylarga uyg‘un. Unda ham yor, ham diyordan yiroqlik, ulardan ayrilib yashash iztiroblari aks etgan. Ayni paytda, kundalik hayot maromining o‘zida ham kutilmagan azob-uqubatlar, ranj-u kulfatlarning ko‘ngilga beradigan og‘riqlari ham aks etgan.

Dastlabki ikki misrani yana bir marta o‘qib chiqaylik. E’tibor berdingizmi: *solg‘usi* fe’li qaysi misraga aloqador? Faqat birinchi misragami? U har ikki misraga ham daxldor. Gapning mana shu shaklda tuzilishi undagi fikriy mantiqni kuchaytirgan. Keyingi ikki misrada ham yangicha shakllar mavjud.Uchinchi savolning takrorlanishi iztirobning kuchini tasavvur qilishga yordam beradi. Oxirgi misradagi *mehnat* hamda *men*

so‘zlariga qo‘shilayotgan jo‘nalish va tushum kelishigining qo‘shimchalari oxirgi misrada o‘rinlarini almashtirgan. Bu shoir ko‘zda tutgan ma’noning yanada kuchli va ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Boburning yana bir yirik xizmati she’riy asarlar tilini hayotga yaqinlashtirishda, uning sodda va ravon, tushunarli, sami miy bo‘lishiga intilishida ko‘rinadi. Ba’zan bu g‘azallarda og‘zaki nutqqa juda yaqin bo‘lgan ohanglar sezilib turadi.

Asru ko‘p emish jur’at-u himmat sizga,
Ro‘zi qilg‘ay Xudoy nusrat sizga.
Mardonalig‘ingizni bori el bildi,
Rahmat sizga, hazor rahmat sizga.

Ruboiylarning katta qismi o‘zida Boburning hayotiy tajribalari davomida to‘plangan haqiqatlarni mujassam etgan.

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.
Sarrishtayi ayshdin ko‘ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhamrnad Bobur.

Bobur o‘zbek tilidagi so‘zlardan juda o‘rinli hamda unumli foydalanadi. Ularning kuchi va qudratini, ichki imkoniyatlarini, tarovatini chuqur his qiladi. Yuqoridagi ruboiy birgina so‘zning o‘zgarishi asosida hosil bo‘lgan. Ammo unda boshqa she’rlarda bo‘lgani kabi, ichki bir dard, abgor bo‘lgan ko‘ngil, afsus va nadomatlar ichidagi ruh egasi yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Ruboiyda *tuz*, *yuz*, *uz* qofiya vazifasini bajargan. Birinchi, ikkinchi hamda to‘rtinchi misralarning qolgan so‘zlari radif vazifasini bajarmoqda:

Tuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur
Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur

Ilmi qofiyada qofiyaning bu shakli bosh qofiya deb yuritiladi. Biz qofiyani misra oxirida ko‘rishga ko‘nikib qolganmiz Mazkur misolda esa u misraning boshida turibdi. Bunday hodisalar o‘zbek tilining ifoda imkoniyatini ko‘rsatishiga ko‘ra ham e’tiborlidir.Ruboiylarda taxallusni qo‘llashga ko‘ra ham Bobur boshqa shoirlardan ajralib turadi. She’rning mazkur shaklda yaratilishi har ikki misradagi
so‘zlarning takroriga tayangan yuksak ohangdorlikni hosil qiladi. Natijada yoqimli musiqiy ohang, takrorlanmas she’riy jarang yuzaga keladi. Ruboiydagi uchinchi misra, ko‘pincha yakunlovchi misra uchun munosib tayanch vazifasini bajaradi. Mazkur ruboiy ham shunday tuzilgan. Unda yaxshi kishining hech qachon yomonlik ko‘rmasligi ta’kidlangan. E’tibor berilsa, ruboiyni mazmuniga ko‘ra ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda, umuman, har qanday odam haqida gap boradi. Ular umumlashgan obraz sifatida tasvirlangan. Ularning bir guruhi vafodorligi, ikkinchi toifasi jafokorligi bilan «mashhur». Keyingi ikki misrada esanisbatan aniqroq shaxslar: yaxshi va yomon odamlar tilga olingan. Ruboiydagi asosiy tasvir vositalari – so‘z takrori va tazod. Ular vositasida har bir harakat va uning natijasi, olamdagi sabab va oqibat munosabatining tasodifiybo‘lmasligi ta’kidlanmoqda. Boburning ko‘pgina g‘azal va ruboiylaridabo‘lganiday, bu yerda ham yaxshilik qilishga undash, yomonlikdan da’vat

asosiy o‘rin tutgan. Muhimi, ular quruq pand-o‘git emas, balki yuksak badiiyat libosida taqdim etilgan.

Bobur hayotda kutilmagan sinov va mashaqqatlarga duch keldi. U hayot zarbalarini juda erta yoshligidan ko‘rdi. Shunga qaramay, uning lirikasida hayotsevarlik, odamga va butun olamga bo‘lgan qizg‘in muhabbat, chuqur samimiyat juda yorqin tarzda o‘z aksini topdi. Bobur asarlari o‘zbek she’riyatining, o‘zbek nasrining, o‘zbek adabiyotining Navoiydan keyingi eng go‘zal, eng nurli sahifalarini tashkil etadi. Ularning barchasi nihoyatda go‘zal va ta’sirchan, takrorlanmas bir shaklda namoyon bo‘lgan. Ular o‘zbek tilining kuch-qudrati, ichki imkoniyatlarini ko‘rsatib bera olishiga ko‘ra ham bebahodir. Bobur ruboiylari o‘zbek ruboiynavisligi taraqqiyotida alohida bir bosqichni tashkil etadi. Ularda falsafiy teranlik, ijtimoiy hodisalarga uyg‘unlik, hayot rang-barangligining nafis ifodalari, ayni paytda, o‘zbek tilining o‘ziga xos ifor va tarovati takrorlanmas bir tarzda mujassamlashgan. Bobur nazarida olamning munavvarligi odamning istaklari, shu istaklarning amalga oshishi bilan bog‘liq. Agar inson istaklari, tilak va xohishlari amalga oshsa, bu olam yanada go‘zal bo‘ladi, aksincha holatda esa olam uning ko‘zlariga tor va qorong‘i ko‘rinishi mumkin. Unda bunday kishiga olamda yashashning ma’no va mazmuni yo‘qoladi:

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar o‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi.

Ruboiylarda insoniy fazilatlar, o‘zaro hamjihatlik, umrning qisqaligini nazarda tutib, uning qadriga yetish g‘oyalari tarannum etiladi:

Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutungiz!
Jam’iyatingiz borini davlat tutungiz!
Chun gardishi charx bu durur, Tengri uchun
Bir-birni necha kun g‘animat tutungiz!

Ruboiydagi murojaat shakli (*ahbob* – do‘stlar, yorlar), fe’ldagi ikkinchi shaxs ko‘plik qo‘shimchasining takrorlanishi uni ko‘ngilga juda yaqin qilib qo‘yadi. Unda qo‘llangan so‘zlarning og‘zaki nutqdagi faolligi esa tinglovchini o‘ziga rom qiladi.

Bobur ruboiylari ushbu janrning o‘zbek adabiyotida yanada mustahkam o‘rin olishi, uning takomili va rivojida alohida bir bosqich bo‘ldi. Adib ruboiy janri imkoniyatlaridan unumli foydalanib, uning mavzu qamrovini kengaytirdi. Ayniqsa, Vatan, yor, g‘urbat, ayriliq, ona yurtga mehr va sadoqat Bobur ruboiylarining o‘zagini tashkil etadi. Ruboiylarning tili sodda, ulardagi tuyg‘ular samimiy, ifodalar yengil, shuning uchun adib tasvirlagan tuyg‘ular kitobxonga tez «yuqadi», uning qalbida ham o‘ziga xos aks-sado beradi. Bobur ruboiyni dubaytiy va tarona degan nomlar bilan ham yuritilishini, ruboiy vazni hazaj ekanini ko‘rsatadi. Bobur o‘zbek tilining tarovat va nazokatini juda teran angla gan, nozik tushungan. Adib o‘zbekcha so‘zlarning ma’no tovlanishlaridan zavq tuygan. Shu zavqning boshqalar tomonidan tuyulishiga ham imkon bergan. Tuyuqlar bu jihatdan alohida e’tiborga molik.

Ulki har ko‘zi g‘izoli Chin durur,
Qoshida payvasta oning chin durur.

Chunki ul ko‘p yolg‘on aytti ul menga,
Gar desam yolg‘onchi oni, chin durur.

Bu yerda tajnisga olingan so‘z *chin*dir. Birinchi baytda u *g‘izoli Chin* birikmasida kelmoqda. Birikmaning ma’nosi «Chin (Xitoy) ohusi» demakdir. Ikkinchi misradagi *chin* qoshlarning o‘rtasida paydo bo‘ladigan tirish, burishiqlar, ajinlarni anglatadi. Oxirgi baytdagisi esa «haqiqat», «rost» degan ma’nolarni bildiradi.

Tuyuq – adabiyotimizdagi to‘rtlik shakliga tayanadigan go‘zal lirik she’rlardan biri. U aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yoziladi. Tuyuqning shakliy ko‘rinishlari xilma-xil. Bobur ning o‘zi uning yetti turini misollar bilan ko‘rsatib bergan. Ulardan biri har to‘rt misradagi qofiyada ham tajnis qo‘llash bilan bog‘liq. Tajnis shakldosh so‘zdir. Ularning ma’nosi har xil bo‘ladi. Tilshunoslikda u omonim – shakldosh so‘z deb yuritiladi. Tuyuqning vazni ramali musaddasi maqsur yoki mahruf bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Bobur she’riyati bilan tanishganingiz sari u sizni ohanrabodek o‘ziga tortadi, chunki she’rlarining barchasi samimiy tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan. Bobur - nafaqat buyuk hukmdor, balki o'zining iste’dodi va his-tuyg‘ularini she’rlarida ifoda etgan iste’dodli shoir ham edi. Uning she’riyatini o‘qish bizga o‘tmishga sayohat qilish, Boburning ichki dunyosini tushunish va uning buyukligini his qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.G‘.Nizomiddinovning «Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti». – Toshkent, 2010, 46–48-betlar
2.N.G‘. Nizomiddinovning «Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti». – Toshkent, 2010, 49-bet
3. Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. – T.: “Sharq”, 2010. 250-b.
4.O‘zME 1-jild T.-2000.
5. Margaret Rumer Goden “Gulbadan” “Sharq” 2007.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR KREATIV QARASHLARINING “TEMURBEKLAR MAKTABI” O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI



Islamova Karima Turdievna
“Toshkent Temurbeklar maktabi” HAL geografiya fani bosh o‘qituvchisi

“Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

“Boburnoma”ning ingliz tarjimoni
Uilyam Erskin

Annotasiya: Ushbu maqola shoh va shoir Z.M. Boburning yangicha, kreativ qarashlari, kashfiyotlari, zamonasiga mos yaratgan yangiliklari va bugungi kunda o‘quvchilarning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о новых, творческих взглядах, открытиях, нововведениях царя и поэта З.М.Бабура и роли студентов в развитии творческого мышления сегодня.

Abstract: This article discusses the new, creative views, discoveries, innovations created by the king and poet Z.M. Babur in accordance with his time, and his role in developing creative thinking in students today.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, Hatti Boburiy, Movarounnahr, Panipat, burong‘or, javong‘or, kreativlilik, irovul.

Ключевые слова: творчество, Хатти Бабури, Моваруннахр, Панипат, «буронгор», «джавонгор», креаеивность, «иравул».

Keywords: creativity, “Hatti Baburi”, Movarunnahr, Panipat, “burong'or”, “javong'or”, creativity, “iravul”.

Zahriddin Muhammad Boburning hayotiy faoliyatini, “Boburnoma” asarini o‘rganar ekanmiz, uni o‘z zamonasining yuksak ijodkori, yangilik yaratishga intiluvchi shaxs sifatida ko‘ramiz.

Bobur tomonidan kiritilgan har bir yangilik o‘z davrdagi ko‘pgina sohalarda misli ko‘rilmagan ijodkorlik namunasi bo‘lib qolgan. Aytish mumkinki, Bobur Afg‘oniston va Hindiston o‘lkalarida tom ma’noda sivilizatsiya yangiliklarini joriy etgan. Bu eng avvalo harbiy tuzilmani isloh qilish va o‘zgartirishlar bilan boyitish, davlatchilik va ijtimoiy boshqaruv, obodonchilik va bog‘-rog‘ yaratish, joyning ekologik holatini yaxshilash va estetik bezash, arxitektura sohasida Movarounnahrga xos qurilish

tartiblarini tatbiq etish…. Albatta, bularning barchasi Amur Temur imperiyasini qayta tiklash va asrash zaminida amalga oshirilgan.

Bobur Afg‘oniston va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritar ekan, bu o‘lkada o‘z ona yurti Movaraunnahrda qilib ulgurmagan bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi. Ko‘plab bog‘-rog‘lar, karvonsaroylar, ariq, suv omborlarini bunyod etadiki, bu uning zamonaviy fikrlash, yangilikka intilish (kreativlilik) qobiliyati yuksakligidan dalolat beradi. O‘zining bu ishlaridan o‘zi zavq oladi, qo‘l ostidagi bek va xizmatchilaridan ham shuni talab qiladi.

Bobur Hindistonni o‘z tasarufiga kiritar ekan, birinchi navbatda Xuroson, Afg‘oniston va Movarounnahr bilan aloqani tiklash, ma’lumot va xabarlarni imkon qadar tezroq yetkazishni maqsad qiladi. Haqiqatdan ham “Boburnoma”da o‘g‘li Humoyun bilan bir, ikki yil davomida ko‘rishmaganligini, uning choparlari ikki yilda ham Agraga yetib kelmaganligini, Qobul, G‘azni, Andijon va Hisordan ma’lumotlar juda kech yetib kelishini o‘qiymiz. Boburning Hindistondagi davlatchiligi aloqalarni imkon qadar talab darajasida yo‘lga qo‘yish, aloqani yaqinlashtirish uning faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan. Shu bois uning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan bugungi istiloh bilan aytganda Sharqda birinchi marta tom ma’noda pochta xizmatini yo‘lga qo‘yadi**.** Bobur bunda faqatgina ixtirochi emas, balki mazkur aloqa xizmatini ham muhandis ham hisobchi ham texnik xodim sifatida reja tuzgan. ”Payshanba kuni rabiul oxir oyining to‘rtida mundoq muqarrar bo‘ldiki, Agradan Qobulgacha Chaqmoqbek Shohiy tamg‘ochining navisandalig‘i bilan tanob urg‘ay. Har to‘qqiz kuruh manor qo‘porg‘aylarkim, manorning balandlig‘i o‘n ikki qari bo‘lg‘ay. Ustida bir chordara qo‘porgaylar. Har o‘n sekkiz kuruhda olti yom oti bog‘lag‘aylar. Yomchi va saisga ulufa va otlarg‘a aliq ta’yin bo‘lg‘ay. Andoq farmon bo‘ldikim, bu yom oti bog‘latur yer agar bir xolisag‘a yovuq bo‘lsa, bu mazkur bo‘lg‘onlarni andin saranjom qilsunlar, yo‘q ersa, har bekning parganasiga voqi’ bo‘lsa, aning uhdasida qilsunlar. Ushbu kun Chaqmoq bila Shohiy Agradin chiqtilar. Bu kuruhlarni mil bila muvofiq ta’yin qilildi”.

Boburning bu kashfiyoti Sharqda yagonaligidan tashqari, bu sohada xizmat qiluvchilarning maoshidan tortib, ularning xavfsizligi, manzilga zudlik bilan yetib borishlari, har bir to‘xtash joylaridagi barcha muammolarni hal etishning bir necha choralarining belgilanishi muhim bo‘lgan ma’lumotdan imkon qadar tezroq ikkinchi tomonni ogoh etish, strategik ahamiyatga ega masala ham hisoblangan” [1, 76-77-b.].

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotshunos, tilchi sifatida fikriy doirasi nihoyatda keng, tushunish chegarasi chuqur, xotirasi esa tengsiz shaxsdir. U nafaqat o‘zi balki barchani kamolatga erishishi tarafdori bo‘lgan. Buning yo‘llarini izlagan. Bunda uning turk xalqlari uchun arab alifbosining o‘qilishi va yozilishining murakkabligini o‘z vaqtida anglab yetganligiyu, bu alifboni osonlashtirish yo‘li bilan xalq savodxonligini tezroq oshirishni maqsad qilganligida ko‘rishimiz mumkin. Shu maqsada Bobur o‘zi alifbesini tuzishi ta’limdagi juda katta yangilik, o‘zgarish va burilish edi. U yozgan alifbe “Hatti Boburiy” nomi bilan mashhurdir [2, 13-b]. Bu haqida “Boburnoma”ning to‘qqiz yuz to‘qqizinchi yil (1503-1504) voqealari bayonida shunday yozadi : “Ushbu mahallarda Boburiy xattini ixtiro qildim…”

[3, 240-b.]

Boburning ushbu alifbesi arab alifbesiga nisbatan sodda va qulay bo‘lganligini ostki va ustki (zeru zavar) belgilar yo‘qligi isbotlaydi. Tarixda hech bir shoh, sarkarda alifbe yozmaganligini, Bobur islom dini muhofazasidagi arab alibosiga qarshi chiqish bilan birga butunlay yangi alifbo yozganligini hisobga olsak, uni ma’rifat jonkuyari deya olamiz [2, 14-b.]

Ma’lumki, Bobur nafaqat shoh va shoir shu bilan birga harbiy sarkarda sifatida ham jahon harbiy san’atida o‘z o‘rniga ega shaxs. Uni sarkarda sifatida jang san’atida maydonni tanlash hamda tayyorlashga kreativ yondoshganligini ko‘ramiz. Bu uning Hindiston yurishida Sulton Ibrohim bilan jang manzarasida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bobur Panipatda bo‘lajak jangga tayyorgarlik haqida shunday yozadi. “Panipat – butun bir shahar. Uning mahalla va uylari ko‘p, bir tomonimizda atrofdagi mahalla va uylar bo‘lsa, ikkinchi taraf arava va qalqonlar bilan to‘siladi, miltiqli va piyodalar arava va qalqon ortiga joylashtiriladi, degan fikrda to‘xtadik. [3, 291-b.]

Jang maydonini tayyorlashda o‘ng tarafda shahar va mahallalar bo‘lganligi sababli chap taraf va yana ba’zi yerlarda xandaqlar qazilib, shohlardan to‘siq ko‘tariladi. Har bir miltiqlilar guruhi o‘rtasida yuz-yuz ellik ot chiqa oladigan joy qoldiriladi.

Jangning asosiy bosqichida askarlar o‘ng qanot, chap qanot, markaz qismlarga joylashtirildi. Ularning oldiga irovul – askarning ayg‘oqchilik xizmatini qilib, oldinda boradigan qism qo‘yiladi. Shu bilan birga dushman safining ikki yonidan tartibsiz hujum qilib shoshirib qo‘yish maqsadida o‘ng va chap tomondan to‘lg‘ama usuli bilan jang qiluvchi guruh joylashtiriladi. Jang maydonida markaz qo‘shin oldida farangidan (yevropadan keltirilgan otish quroli), zarbzan (to‘pga o‘xshash qurol)dan berilgan zarba hamda o‘ng qanot, chap qanot, markaz va to‘lg‘amadagilarning dushmanni har tomonidan o‘rab olib ustiga o‘q yog‘dirishi natijasida dushman oraliqda qisilib qolib biror tomonga qochishga yo‘l topa olmay parokandalikkka uchraydi [3, 292-295-b.].

Bobur nafaqat jangni tashkil etishda shu bilan birga kerak bo‘lganida qo‘shinni ruhiyatini ko‘tarish, tushkunlik holatidan xalos etishda ham o‘ziga xos yo‘l tutganligi e’tiborga sazovordir. Aksariyat hollarda u o‘z namunasi bilan ta’sir qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan.

Boburning bir harbiy yurishi vaqtida qattiq sovuq edi. Sovuq shunday qattiq ediki hatto uning qo‘shinidan bir necha kishi sovuqda o‘ladi. Shunda Bobur anhorning muzini sindirib, 16 marta suvga sho‘ng‘iydi. Boburning bunday jasorati tarbiya usuligina emas, tarbiya vositasi, vaziyatni tez anglab yetib yechimini topish usuli edi. Voqea kutilgan natijani beradi, qo‘shinda tetiklik, quvnoqlik qaror topadi [2, 66-67 b].

1507-1508 yil voqealari. Boburning Afg‘onistondagi mahalliy pushtunlar va hazaralar bilan shiddatli jang olib borayotgan paytida lashkarning o‘sha paytdagi harbiy istilohlarini aynan qabul qilishi mushkulligini, bu sohada mavjud amr so‘zlarida arab, pushtu va boshqa tillardagi ibora va so‘zlarning muqim kirib qolgani, ammo hamisha ham bu so‘zlarning tushunarli emasligi ancha mushkulliklar tug‘dirgan. Shunda Bobur, bir muhoraba maydonidagi holatni tasvirlar ekan, beixtiyor mavjud harbiy atamalarni

turkcha variantini ishlatib ketadi (“Burong‘or, javong‘or, va o‘ng qo‘l va so‘ng qo‘l, o‘ng yon va so‘l yon, o‘ng va so‘l chopa otlang‘och va bekulfat yasamoq va beminnat tavochi cherik eli va yerlik-yeri bila-o‘q mutavajih bo‘ldilar”) va shundan keyin bu fikri o‘ziga ham ma’qul tushadi chog‘i, armiya istilohlarini isloh etish g‘oyasini aniq bayon etadi. Boburning bu ixtirosi, bu jasoratini bemalol uning Sharq sivilizatsiyasida amalga oshgan yuksak qadam desa bo‘ladi. Haqiqatdan lashkarlarning hammasi ham savodli bo‘lmaganligi, har xil millatlarga mansub bo‘lganligi bois amir va farmon tarzida beriladigan ko‘rsatmalarni zudlik bilan anglamasliklari bois turli mushkulliklar vujudga kelgan. Bu isloh yo‘li Boburning teran bilimi va til zakovatini bevosita amaliyot bilan bog‘liqligidan dalolat beradi. [1, 81-82 b.]

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSh sharqshunos tarixchi olimlari diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: “Bobur fe’l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan” [5].

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsini, uning ma’naviy, davlatchilik hamda harbiy sohadagi tajribalarini o‘rganish yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari bo‘lmish yoshlar uchun juda muhimdir. Chunki, Boburning katta hayotiy tajribasi, yoshlarni yangilikka intilish, har qanday sharoitda kerakli yechimni topishga bo‘lgan ishonchni shakllantirish, tezkor qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirishda dasturamal bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning davlat boshqaruvi hamda harbiy san’ati nafaqat mamlakatimiz, balki jahon davlatchilik va harbiy san’ati tarixida alohida o‘ringa ega. “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida Z.M.Boburning yangilikka intilishi, kashfiyotlari -pochta xizmati, alifbeni kasf qilishi, birinchi marta mavjud harbiy atamalarning tukcha variantini ishlatishi namuna bo‘la oladi. “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik liseyida o‘quvchilar harbiy mahoratini oshirishda Boburning harbiy jasorati - 16 marta suvga sho‘ng‘ib jangchilarga motivasiya berishi va Panipat jangida Jang maydonida markaz qo‘shin oldida farangidan (yevropadan keltirilgan otish quroli), zarbzan (to‘pga o‘xshash qurol)dan berilgan zarba hamda o‘ng qanot, chap qanot, markaz va to‘lg‘amadagilarning dushmanni har tomonidan o‘rab olib ustiga o‘q yog‘dirishi natijasida dushman oraliqda qisilib qolib biror tomonga qochishga yo‘l topa olmay parokandalikka uchrashi muhim namuna bo‘la oladi.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalarni to‘laqonli ravishda amalga oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur me’rosini o‘rganish, uni yoshlar orasida targ‘ib qilish hamda hayotda tadbiq etish yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Hasan Qudratullayev Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi T. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.

2. I.Mirzayev .“Bobur ma’rifati”.T.: ”O‘qituvchi, 1996.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma, T. O‘zbekiston, 2019.

4. Bobur. ”Boburnoma” “Fan “nashriyoti.Toshkent,1960.

5. https://mudofaa.uz/36322/. 29 noyabr 2023y. “Bobur shaxsiyatida jang falsafasi”.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУРНИНГ МАЪНАВИЙ УСТОЗЛАРИ

Исмоилов Собиржон Тўрабекович
Гулистон давлат университети доценти, ф.ф.н.

Аннотация

Ушбу мақолада шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг маънавий устозлари, етук тасаввуф вакиллари Хожа Аҳрор Валий, Мавлоно Муҳаммад Қутқу, Маҳдуми Аъзам Косоний ва Хожа Калонлар билан устоз-шогирдлик муносабатларининг айрим жиҳатлари ёритиб берилган.

Марказий Осиё маҳаллий аҳолиси, жумладан, ўзбек халқи дунё халқлари орасида эътиқоди кучлилиги билан ажралиб туради. Бунга сабаб тарзида мазкур минтақа сарҳадларида буддавийлик, зардуштийлик, насронийлик, яҳудийлик ва ислом каби бир қатор динларнинг макон тутганлигини кўрсатишимиз мумкин. Эътиқодлилик миллатимизнинг меҳмондўстлик, бағрикенглик, болажонлик, меҳнатсеварлик каби ижобий фазилатларидан биридир. Ўзбекларнинг бу эътиқодлилик хислати ўзининг қадим тарихий асосларига эга. Халқимизнинг буюк дин ва тасаввуф вакилларигина эмас, балки илм вакиллари: Хоразмий, Фарғоний, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Улуғбек; салтанат вакиллари: Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Мирзо Бобур, Шайбонийхон, Абулғозихон, Амир Олимхон; адабиёт вакиллари: Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Югнакий, Алишер Навоий ва бошқалар ҳам эътиқодли инсон бўлишган. Жумладан, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам ўз даврининг эътиқодли мусулмон кишиларидан бўлган.

Биринчи Президент Ислом Каримов Бобурга баҳо бера туриб: “Бобур ўзбек халқининг буюк фарзанди, миллий ғуруридир”, - деб таъриф беради Андижондаги Бобур музейи Хотира китобида.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур яшаган давр темурийлар давлатининг ҳар икки қисми - Мовароуннаҳр ва Хуросонда дин ва тасаввуф пешволарининг ижтимоий-сиёсий ҳаётда фаол қатнаша бошлаган бир давр эди.

Бобур яшаган давр адабиётларини кўздан кечирганимизда, унинг ўз даврининг машҳур уламолари:

1)Хожа Аҳрори Валий (1404-1490 йилларда яшаган);

2)Мавлоно Зоҳид Кутқу Муҳаммад Қози (1447-1516 йилларда яшаган);

3)Мавлоно Жалолиддин Хожаги Косоний Маҳдуми Аъзам (1461-1542 йилларда яшаган);

4)Хожа Калон (Хожа Яҳёнинг ўғли, Хожа Аҳрорнинг набираси)ларга “қўл бериб” шогирд, мурид бўлганлигини кузатишимиз мумкин. Уларнинг баъзилари қайсидир маънода отаси Умаршайх Мирзонинг ҳам пирлари бўлганлар.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўз пирларига бўлган муносабати унинг “Бобурнома” асарида атрофлича ёритилган ва илмий асосларга эга. “Бу битганлардан мақсад шикоят эмас, рост воқеаларни ёзаётирман”, - дейди Бобур[1:153].

Хожа Аҳрор Валий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур муносабатлари узоқ давом этган ва эътиборга молик томонлари кўплиги билан диққатга сазовордир.

Бобуршунос олим Сайфиддин Жалилов “Бобир ва Юлий Цезар” асарида ёзади: “Ниҳоят, қайнота Юнусхоннинг, қайнона Эсон Давлат Бегимнинг, куёв-қайлиқ Умаршайх Мирзо ва Қутлуғ Нигорхонимларнинг Оллоҳдан кутган онлари ҳам келди, орзу-умидлари рўёбга чиқди: ҳижрий 888 йил муҳаррам ойининг олтинчи кунида (мил. 1483 йил 14 февраль) тонг саҳарда чорбоғда йиғлаётган чақалоқ овози эшитилди - Қутлуғ Нигорхоним кўз ёрди - ўғил фарзанд кўрди. Катта ота Абу Саид Мирзо 14 йил илгари (1469) ўлиб кетган. Шунинг учун бу қутлуғ хушхабарни она томонидан катта ота Юнусхонга дарҳол етказиш керак. Эрта саҳар Андижондан хонга чопар кетди. Юнусхон - катта ота учун бу чақалоқ унинг узатган уч қизидан кўрган биринчи ўғил невара эди. ... Бир вақтнинг ўзида севинчли хабар билан Самарқандга ҳам чопар кетади ва “Ҳазрати Эшон”, яъни хонлар пири, устози Хожа Убайдулло Аҳрордан исм қўйиб беришни сўрайдилар. Хожа Аҳрор Валий ...Умаршайхга, Аллоҳ ниҳоят, ўғил зурёд ато қилганидан ғоятда хурсанд бўлиб, болага Заҳириддин Муҳаммад деб ном қўйиб беради. Барча шаҳарлардан Умаршайх Мирзога содиқ бўлган сардорлар-у, шаҳар ҳокимлари уни янги фарзанд билан табриклашга ошиқардилар... “Тарихи Рашидий” асарида ёзилишича ... Хожа Аҳрор Валий хушхабарни эшитгач, чақалоқ тушида аён бўлган ва унинг қулоғига номини қўшиб ғойибдан азон ҳам айтган” [2:53].

Сайфиддин Жалилов Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий” асарига асосланиб, Бобур номининг қўйилиш жараёнини қуйидагича тасвирлайди:

Биринчидан, мўғуллар - “саҳройилар”, яъни кўчманчи халқ бўлгани учун тиллари қўпол, китобий-исломий номлар талаффузига қийналишар эди. Шу сабаб “Заҳириддин Муҳаммад” исми уларга анча ёт эшитилган ва талаффуз қилиш уларга қийин бўлган.

Иккинчидан, уч ойлик чақалоқ шунчалик сергак, кўзлари порпираб ёниб турар эдики, бобоси ва у билан бирга Мўғулистондан келган меҳмонлар ҳам ниҳоятда завқланишган. Хурсандчиликдан Юнусхон Заҳириддинни “Бабр”-“Кичкина йўлбарс” деб эркалатган. Шу сабаб “Заҳириддин Муҳаммад Бобир” деб

аталган. Отаси Умаршайх Мирзо ўлгандан кейин Фарғона тахт вориси бўлгач, мана шу “Заҳириддин Муҳаммад Бобир” номига хутба ўқилган [2:55].

Бундан кўринадики, Заҳириддин Муҳаммад номини Хожа Аҳрори Валий, Бобур номини эса она томондан бобоси Юнусхон қўйган.

Бобур кўрган тушларидан бирини хотирлаб ёзади: “Туш кўрсам, ҳазрати Хожа Убайдуллоҳ келмишлар, мен истиқболларига чиқибман. Хожа келиб ўтирдилар. Хожанинг олдиларига бир оз одмироқ дастурхон солишибди. Бу сабабдан ҳазратга бир оз малол келганмиш. Мулло Бобо мен сари боқиб ишора қилади. Мен ҳам имо-ишора билан дедимки, бу ишда менинг айбим йўқ. Дастурхон солувчи хато қилибди. Хожа буни фаҳмлаб, бу узрни қабул қилди. Ўринларидан турдилар. Узатиб чиқдим. Ушбу уйнинг даҳлизида ўнг қўлимдан ё чап қўлимдан тутиб шундай кўтардиларки, бир оёғим ердан узилди. Туркий-ўзбек тилида дедиларки: “Шайх маслаҳат берди” [1-77]. Бобурнинг ўз маълумотларидан маълум бўлмоқдаки, у Хожа Аҳрор вафотидан кейин ҳам пиридан руҳий мадад олиб турган.

Бобур Хожа Аҳрорга самимий ихлос қўйганлигининг белгиси сифатида пирнинг “Рисолаи Волидия” асарини кўп ўқиб-ўрганади. У 1528-1529 йилларда бу насрий асарни туркий (ўзбек тили)га ўгириб, 245 байтлик назмий рисолага айлантиради. Ушбу рисола таржимасида Бобур Хожа Аҳрор тўғрисида тўхталиб:

“Хожалар хожаси ул Хожа Убайд
Ходим-у ҳокари Шиблий-йу Жўнайд.
Ҳолат-у мартабаси зоҳирдур,
Васф-у таърифида тил қосирдур” [3:4]

деб таърифлайди.

Тадқиқотчи Хуррам Барака “Тасаввуф” асарида: “Нақшбандийлик таълимотига юксак ихлос қўйганларнинг бири Заҳириддин Бобур Мирзо эди. У Бобурномада 50 марта Нақшбанд ва Хожа Аҳрори Валий номларини тилга олади. Бобурнинг набираси Шоҳ Акбар (1556-1601) эса нақшбандия таълимотига ўта ихлосманддир ва уни бутун Ҳиндистонга ёйишга, асосий қоидаларини амалда татбиқ қилишга уринган кишиларнинг биридир”, деб қайд этади [4:86]. Бу ва шунга ўхшаш бошқа жиҳатлар Хожа Аҳрори Валий ва Бобур ўртасида пиру-муршидлик алоқалари бўлганлигини кўрсатади.

Мавлоно Зоҳид Қутқу Муҳаммад Қози ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур муносабатлари тўғрисида қуйидаги маълумотларни келтириб ўтиш мумкин.

“Бобурнома”да: “Хожа Мавлоний Қозининг исми Абдуллодир. Бу ном билан машҳур бўлган эди. Ота тарафидан насаби Шайх Бурҳониддин Қиличга туташади. Она тарафидан Султон Илик Мозийга боғланади. Фарғона вилоятида бу табақа эл боши ва шайх ул-ислом ҳамда қози бўлиб келгандирлар. Хожа Мавлоний Қози ҳазрати Хожа Убайдуллоҳнинг муриди эди. Улардан тарбият топганди. Хожа Қозининг валийлигига менинг ҳеч шак-шубҳам йўқдир. Валийликнинг бундан ҳам яхшироқ далили бўладими: уларга қасд қилганлардан оз фурсат ном ва нишон қолмади. Хожа Мавлоно Қози ажойиб киши эди. Унда асло қўрқув деган нарса

йўқ эди. Ундайин юракли киши топилмайди. Бу сифат ҳам валийлик далилидир” [4:86], деб қайд этилади.

“Пирон тариқати” шажарасида 19-ўринда [5:3] ва “М.А.Жўшон ҳазратларининг силсилаи шарифларида” 20-ўринда [6:28] Мавлоно Муҳаммад Зоҳид номи қайд этилади.

Мавлоно Жалолиддин Хожаги Косоний Маҳдуми Аъзам ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур муносабатларида ҳам эътиборга молик жиҳатлар мавжуд.

Аввало, аъзамлар тўғрисида шуни қайд этиш мумкинки, ислом ва тасаввуф оламида учта буюк аъзамлар: Имоми Аъзам - “буюк имом” - Нўмон ибн Собит-Абу Ҳанифа, Ғавсул Аъзам - “буюк қутқарувчи” - Абдуқодир Гийлоний ва Маҳдуми Аъзам - “буюк маҳдум” - Жалолиддин Косонийлар яшаб ўтишган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Отамдан сўнг Хожа Қозининг қадами шарофатидан зоҳид ва тақводор бўлдим” [1:146], деб ёзади.

Профессор Б.Тўраев “Бутун Мовароуннаҳр ва Хуросонда, ҳатто Ҳиндистонда ҳам Махдуми Аъзамни “пиримиз” деб эъзозловчилар кўплаб топилади. Баъзи манбаларда Ҳазрати Махдуми Аъзам ҳақида “олтмишта авлиёни етиштирган муршид” (“Пири шасти”) деб таъкидланади. Кўпчилик маърифатпарвар олимлар, ҳукмдорлар, давлат арбоблари, шоиру уламолар Махдуми Аъзамга “қўл бериб” мурид бўлишган. Жумладан, жўйборий хожалардан Муҳаммад Ислом, шайбоний ҳукмдорлардан Убайдуллахон, Абдулазизхон, Жонибек Султон, темурийлардан Заҳириддин Муҳаммад Бобур мурид тушишган”, - деб таъкидлайди [7:6].

“Хожагон - нақшбандия тариқатига Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг умаролари ҳам катта эътиқод қилган эканлар. Чунки Ҳиндистонда Бобур Мирзонинг устига сон-саноқсиз душман лашкари бостириб келганда, ўз вазири Амир Дарвеш Муҳаммад маслаҳати билан Бобур нақшбандия тариқати муршидлари руҳу арвоҳларига жами девон мулозимларини тоат-ибодат билан мурожаат қилишларини буюрган экан. Хуллас, бундан огоҳ бўлган Маҳдуми Аъзам гўё ўз ғайриоддий қобилияти билан душманнинг икки юз минглик лашкарини заифликка (ривоятларга кўра, катта қўшин лашкарни ўртага олиб нобудлик ҳолига келтирган экан) учратган ва Бобур Мирзо фурсатдан фойдаланиб, душманни қириб ташлаган. Уруш Бобур ғалабаси билан тугагандан сўнг у Даҳбедга - Махдуми Аъзам олдига кўп инъомлар билан ўз махсус кишисини (Амир Қўзини) юборди ва унга икки рубоий битиб, Махдуми Аъзам қўлига топширишни буюради ва бу рубоийнинг бири қуйидагидир:

Нафс ҳавосини дебон ҳар қайдаким юргандамиз,
Дилда доим изтироб дил олдида шармандамиз.
Бир назар бул хастадил мухлисларинга ташлаким,
Хожогони қўйган эрдик, Хожагига бандамиз.

Шундан кейин Бобур подшоҳнинг Махдуми Аъзамга эътиқоди кучаяди, ўз навбатида Хожаги Аҳмад ҳам Бобурни навозишлар қилади, унга бағишлаб “Бобурия” деган рисола битади. Афсуски, Бобур Мирзо Махдуми Аъзамдан ўн икки йил олдин вафот этади (1530 йил; Махдуми Аъзам - 1542 йил, яъни у

Бобурдан 22 ёш катта эди) ва улар муносабатлари тўғрисида бошқа маълумот ҳозирча аниқлангани йўқ” [8:8].

Дарҳақиқат, Махдуми Аъзамнинг ҳам Бобурга ҳурмати баланд бўлган бўлиб, унга бағишлаб “Бобурия” деган рисола битади. Бу асар Бобур хатига жавоб хатидан иборат бўлиб, унда Хожа Аҳрорнинг “Рисолаи волидия” асари ҳақида мулоҳазалар баён этилган [9:57].

Юқоридаги маълумотлар асосида Бобур Махдуми Аъзамни ўзига пир деб билган, улар орасида устоз-шогирдлик муносабатлари ўрнатилган, дейиш мумкин. Шу билан бирга, Махдуми Аъзам нақшбандия тариқатининг Яъқуб Чархий, Хожа Аҳрори Валий, Муҳаммад Қозидан кейинги учинчи халифаси ҳисобланади.

Бобурнинг пирлари орасида Хожа Калоннинг ҳам номи ҳурмат билан тилга олинади.

“Бобурнома”да: “Туш кўраяпман: Хожа Калон - Хожа Яъқуб рўпарамга оқ-қора тусдаги отда, шундай от минган кўп отлиқлар билан келдилар. “...Ғам емангиз. Хожа Аҳрор мени сизга юбордилар”, дедилар. “Биз уларга Аллоҳдан мадад сўраб, подшоҳлик тахтига ўлтурғизганмиз. Ҳар ерда мушкул иш тушса, бизни назарига келтуруб ёд этсин, биз ўша ерда ҳозир бўлурмиз”, деб тайинладилар. Ҳозир ушбу соатда фатҳ ва ғалаба сизнинг томондадир. Бош кўтаринг. Уйғонинг, дедилар” [1:77] - деб эслайди муаллиф.

“Бобурнома”да бундан бошқа ўринларда: “Хожа Калонни чақиртирдик, чунки Хожа Калон суҳбатдош дўстим эди”, “Бажавр вилоятини Хожа Калонга иноят қилдик”, “Қолган бандиларга Хожа Калоннинг иффати билан гуноҳларидан кечиб, уларга аҳл ва аёллари қайтариб берилди”, “Хожа Калонга Кобулга жўнаб кетиш учун рухсат берилди”, деб бир неча бор қайд этилади [1:181].

Хулоса ўрнида айтганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобур бир умр ўз пирларининг ўгитларига, маслаҳатларига ва уларнинг меросига амал қилди ҳамда уларга ҳурмат назари билан қаради. Шундан бўлса керакки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ватанимиз ва жаҳон тарихига ўзининг шонли номини зарҳал ҳарфлар билан битиб кетди, Марказий Осиё ва Ҳиндистон тарихининг ёрқин саҳифаларидан бирига айланди. Шундан бўлса керакки Заҳириддин Муҳаммад Бобур улуғ мартаба ва даражаларга эришди. Бир неча аср ўтишига қарамай унинг ҳаёти, фаолияти илмий мероси халқимиз ва милатимиз томондан ардоқланиб, бот-бот мурожат қилинади. Ибрат ва наъмуна сифатида талқин ва тавсия этилади.

Адабиётлар:

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. -Т.: Ўқитувчи, 2008.
2. Жалилов С. Бобир ва Юлий Цезар. -Т.: 2001.
3. Ҳазрати Хожа Убайдулло Аҳрор. Рисолаи Волидия. -Т.: 1991.
4. Хуррам Барака. Тасаввуф. Самарканд, 1997.
5. Пирон тариқати. -Самарқанд: 2000. Буклет.
6. Жўшон М. Тасаввуф ва ислом ахлоқи. -Т.: 1999.
7. Тўраев Б., Муҳаммаджонова Ф.Сайиид Аҳмад ибн мавлоно Жалолиддин Хожаги Косоний Махдуми Аъзам. (Буклет) -Т.: Наврўз, 1995.

8. Ғозий И. Нақшбандия тариқатининг буюк сиймоси - Махдуми Аъзам. // Ғойиблар ҳайлидан ёнган чироқлар. -Т.: 1994.

9. Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фиҳристи. -Т.: Мовароуннаҳр, 1993.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг маънавий устозлари

№	Устозларнинг исми шарифи
1	Баҳоуддин Нақшбанд
2	Яқуб Чархий
3	Хожа Ахрор Валий
4	Мавлоно Зоҳид Кутку
5	Жалолиддин Хожаги Косоний Махдуми Аъзам
6	Хожа Калон (Хожа Яҳёнинг ўғли, Хожа Аҳрорнинг набираси)

BOBURNING ILMIY VA MA’NAVIY MEROSINI “TEMURBEKLAR MAKTABI” O‘QUVCHILARIGA O‘RGATISHNING DOLZARBLIGI



Ishmatova Nargis Murtazokulovna
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va faoliyatining “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilariga o‘rgatishning dolzarbligi haqida bahs olib boradi. Maqolada Boburning “Boburnoma” asari, ilmiy izlanishlari va shaxsiy fazilatlari yoshlarni o‘ziga jalb qilishi, ularga o‘ziga bo‘lgan ishonch, mehnatsevarlik, dovyuraklik va vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdirishi ta’kidlanadi.

Maqolada Bobur merosini o‘rgatishning “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilariga o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, chunki ushbu maktabda bo‘lajak vatan himoyachilari, tarbiyalanmoqda va ularga Boburning hayoti hamda faoliyatidan saboq olish juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: ma’naviy meros, “Boburnoma”, milliy g‘urur, o‘zlikni anglash, mehnatsevarlik, dovyuraklik, vatanga muhabbat, vatanparvarlik, diplomatik mahorat.

Abstract: This article discusses the relevance of teaching the work and activities of Zahiriddin Muhammad Babur to students of the “Temurbeklar Maktabi”. The article

emphasizes that Babur's work "Boburnoma", scientific research and personal qualities attract young people, instill in them feelings of self-confidence, hard work, courage and love for the homeland.

The article emphasizes that teaching the heritage of Babur is of particular importance to students of the "Temurbeklar Maktabi", because future defenders of the homeland are being educated in this school, and it is very important for them to learn from the life and activities of Babur.

Keywords: spiritual heritage, "Boburnoma", national pride, self-awareness, hard work, courage, love for the homeland, patriotism, diplomatic skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность преподавания творчества и деятельности Захириддина Мухаммада Бабура студентам «Темурбеклар мактаби». В статье подчеркивается, что произведение Бабура «Бобурнаме», его научные исследования и личные качества привлекают молодежь, прививая ей чувства уверенности в себе, трудолюбия, мужества и любви к Родине.

В статье подчеркивается, что преподавание наследия Бабура имеет особое значение для учащихся «Темурбеклар мактаби», поскольку в этой школе воспитываются будущие защитники Родины, и для них очень важно изучать жизнь и деятельность Бабура.

Ключевые слова: духовное наследие, «Бобурнома», национальная гордость, чувство идентичности, трудолюбие, мужество, любовь к Родине, патриотизм, дипломатические способности.

O‘zbek xalqining buyuk tarixiy shaxslaridan biri – shoh, shoir, tarixchi va olim Boburning ilmiy va ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy manba, balki o‘z davrining madaniy va ijtimoiy hayoti haqida chuqur tushuncha beradi. Ayniqsa, yoshlar uchun Boburning merosi o‘z o‘rnini topish, milliy g‘urur va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy yoshlar uchun tarixni o‘rganish, o‘z ildizlarini anglash va o‘tmishdan saboq olish muhimdir. Boburning ilmiy va ma’naviy merosi esa bu yo‘lda muhim yo‘lboshi bo‘lib xizmat qiladi. Uning "Boburnoma" asari, ilmiy izlanishlari va shaxsiy fazilatlari yoshlarni o‘ziga jalb qiladi, ularga o‘ziga bo‘lgan ishonch, mehnatsevarlik, dovyuraklik va vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdiradi.

"Temurbeklar maktabi" o‘quvchilariga Bobur ilmiy va ma’naviy merosini o‘rgatish bugungi kunda o‘ta dolzarbdir. Buning bir necha sabablari bor:

– Milliy g‘urur va o‘zlikni anglash: Bobur – o‘zbek xalqining buyuk tarixiy shaxsiyati. Uning hayoti va faoliyati, "Boburnoma" asari, ilmiy izlanishlari o‘quvchilarga o‘z tarixini, madaniyatini va ildizlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi.

– **Yetakchilik va jasorat namunasi:** Bobur – jasur jangchi, zukko siyosatchi va muvaffaqiyatli davlat arbobi bo‘lgan. Uning hayoti va faoliyati o‘quvchilarga yetakchilik fazilatlari, jasorat, qat’iyatlilik va maqsadga erishish uchun kurashish ruhiga o‘rgatishga xizmat qiladi.

– **Ilm-fan va madaniyatga muhabbat:** Bobur nafaqat siyosatchi, balki iste’dodli shoir, tarixchi va ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullangan shaxs edi. Uning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy manba, balki o‘z davrining madaniy va ijtimoiy hayoti haqida chuqur tushuncha beradi. Boburning ilmiy izlanishlari, madaniyatga bo‘lgan muhabbati o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga, bilim olishga va o‘z iste’dodlarini rivojlantirishga undaydi.

– **Jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasi:** Bobur – jahon madaniyatiga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk shaxs. Uning “Boburnoma” asari ko‘plab tillarga tarjima qilingan va dunyo bo‘ylab o‘qiladi. Boburning hayoti va faoliyati o‘quvchilarga jahon madaniyati bilan tanishish, boshqa xalqlar va madaniyatlarni tushunishga yordam beradi.

– **Zamonaviy dunyo uchun saboqlar:** Boburning hayoti va faoliyati zamonaviy dunyo uchun ham o‘ziga xos saboqlar beradi. Uning qat’iyatliligi, strategik fikrlash qobiliyati, diplomatik mahorati va xalq manfaatlarini himoya qilishga bo‘lgan sadoqati bugungi kunda ham dolzarbdir.

– **“Temurbeklar maktabi” o‘quvchilariga o‘rgatishning o‘ziga xosligi:** “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilariga Bobur merosi o‘rgatilishi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki ushbu maktabda kelajakdagi yetakchilar, davlat arbobi va jamiyatning faol a’zolari tarbiyalanmoqda. Boburning hayoti va faoliyatini chuqurroq anglash ularga o‘zlarini kelajakdagi yetakchilik vazifalariga tayyorlashga yordam beradi.

Shuningdek, Bobur merosi o‘quvchilarni vatanparvarlik, jasorat, mehnatsevarlik, bilimga intilish va boshqa ijobiy fazilatlarni shakllantirishga yordam berishi bilan bir qatorda ularning intellektual, ma’naviy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ma’naviy merosi deganda uning quyidagi sifatlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, vatanparvarlik sifati. Bobur o‘z vatanini sevgan, uning taraqqiyoti uchun harakat qilgan,

Ikkinchidan, jasorat va mardlik sifati. Bobur hayotida ko‘plab qiyinchiliklarga, janglarga va sinovlarga duch kelgan. Uning jasorati va mardligi hayotidagi muvaffaqiyatlarning asosi bo‘lgan.

Uchinchidan, mehnatsevarlik sifati. Bobur mehnatsevar inson bo‘lgan. O‘z vaqtini samarali tashkil qilgan. Ilm-fan bilan shug‘ullangan, hukmdorlik qilish bilan bir vaqtda shoir va yozuvchilk faoliyatini ham birga olib borgan.

To‘rtinchidan, insonparvarlik sifati. U insonparvarlikni targ‘ib qilib, hamisha adolatni ta’minlashga, xalqning manfaatlarini himoya qilishga harakat qilgan.

Bobur o‘zining botirligi, qo‘rqmasligi, halolligi, to‘g‘riso‘zligi bilan o‘z atrofidigi boshqa kishilarga ham namuna ko‘rsata olgan. Bunga bir necha ibratli misol ko‘rsatib o‘tamiz: Bobur harbiy yurish boshlagan paytda qattiq sovuq edi. Sovuq shunday zo‘r ediki, hatto Bobur armiyasidan bir necha kishi sovuqdan qotib o‘ladi. Shunda Bobur

ariqning muzini sindirib, 16 marta sho‘ng‘iydi. “Sovuq zarbi kuchli edi. Bu yerlarda Hodarvesh shamoli tinmaydi, hamisha qattiq esadi. Shu darajada sovuq ediki, o‘sha ikki-uch kun orasida ikki-uch kishi sovuqning shiddatidan o‘lgan edi. Menda g‘uslga ehtiyoj bor edi.Yoqalarini qalin muz qoplagan, suvning tezligi bois o‘rtasi muzlamagan bir ariqdagi suvga kirib g‘usl qildim. O‘n olti marotaba suvga sho‘ng‘idim. Suvning sovuqligi xiyla ta’sir qildi”[1] (Bobur, “Boburnoma”, 106-bet). Bobur bu bilan inson organizmi bardoshi cheksiz ekanligini o‘z jangchilari ko‘zi o‘ngida isbotlaydi. Natijada qo‘shin orasidagi umidsizlik o‘rnini o‘z sarkardalariga bo‘lgan ishonch egallaydiki, bu Boburning harbiy yurishlaridagi erishgan g‘alabalarning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Boburning birgina shu xatti-harakati orqali shijoatlilik, mardlik, qolaversa, jasurlik kabi xususiyatlarini “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari qalbiga jo qilsa bo‘ladi.

Boburning “Boburnoma” asarida uning diplomatik mahorati o‘z aksini topgan. Asarda siyosiy vaziyatlarni tahlil qilish, diplomatik aloqalarni o‘rnatish va saqlash, dushmanlar bilan muzokaralar olib borish va ittifoqlar tuzish kabi masalalarni batafsil bayon qiladi.

Siyosiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish vaqtida Bobur qon-qarindoshlik munosabatlarini unutmaydi va bu bilan xuddi ulug‘ bobosi Amir Temur Ko‘ragon yuritgan diplomatik siyosatdan namuna ko‘rsatadi. Bobur harbiy yurishlarini olib borayotgan vaqtda ukasi Axsida qoladi va akasi bilan siyosiy kurashga kirshmagan edi.

1496-yilda Bobur birinchi bor Samarqandni qamal qilib egallay olmaganda ham Jahongir mirzo akasiga qarshi isyon ko‘tarmagan va buning barobarida Bobur ham ukasiga nisbatan adovat ruhida bo‘lmagan. 1497-yilda 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqand Bobur qo‘shini tomonidan egallanib aholiga harbiy zaxira hisobidan ijtimoiy yordam berilgan, ammo bu Bobur a’yonlari orasida siyosiy bo‘linishga ham sabab bo‘ladi, shu sababli ular Boburdan Andijonni Jahongir Mirzoga berishni so‘rashadi. Bobur bu haqida quyidagicha yozadi “… el qochib u viloyatlarga borgan shunday bir paytda buyruq yo‘sinda bu talab qo‘yildi. Agar bu taklif burunroq oraga tushsa, balki o‘rinli bo‘lar edi.”[2] deydi. (Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” “Yangi kitob” nashriyoti. 2019-yil 56-57-betlar) Bu esa Boburning faqatgina ayrim siyosiy sabablarga ko‘ragina Andijonni ukasiga topshirmaganini ko‘rsatadi, bundan tashqari Bobur ular talab qilgan hududlarni bersa, uning siyosiy nufuzi ham pastlar edi va, albatta, bu uning tashqi va ichki siyosiy holatini yanada yomonlashtirar edi.

Ma’lumki, Bobur juda ham murakkab bir siyosiy davrda hokimyat tepasiga keladi hamda bu murakkab siyosiy voqelik ukalarini unga qarshi qo‘yadi, ammo shunga qaramay, Bobur mohirona siyosat yurgizib, ukalarini o‘zining atrofida biriktirishga harakat qiladi va qisman bu ishni uddalay oladi. Jahongir mirzoning Bobur qarorgohini tashlab ketishi uning o‘limi bilan tugagan bo‘lsa, Nosir mirzo oxir-oqibat akasining hokimyatini to‘la-to‘kis tan oladi[3. (“Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ukalari bilan munosabati” Komolov M., Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. 2023.)

Bobur faqatgina ukalari bilan emas, balki o‘z davrining ko‘plab siyosiy va harbiy rahbarlari bilan ham diplomatik munosabatlarni o‘rnatgan. Eng avvalo, temuriylar bilan,

qolaversa, Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Hind mahalliy hukmdorlari bilan ham yaxshi aloqalarni o‘rnatgan.

Aytish joizki, Bobur o‘zining diplomatik mahorati bilan ko‘plab qiyin vaziyatlardan chiqib ketgan va o‘zining hukmronligini mustahkamlashga erishgan. Uning diplomatik mahorati “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari uchun ham o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Bobur o‘z farzandlariga ko‘plab jihatlari bilan namuna bo‘la olgan. “Boburnoma” da ularga bergan tarbiyasi va nasihatlari batafsil aks ettirilgan.

Bobur o‘z farzandlariga yetakchilik fazilatlari, jasorat, qat’iyatlilik va maqsadga erishish uchun kurashish ruhiga o‘rgatgan. U o‘zining harbiy yurishlari va siyosiy kurashida ko‘rsatgan jasorati bilan ularga o‘rnak bo‘lgan. Shuningdek, ilm-fan va madaniyatga muhabbat bilan tarbiyalagan. U o‘zining “Boburnoma” asarini yozish bilan ularga tarixga, adabiyotga va madaniyatga qiziqish uyg‘otgan.

“Chunonchi, Bobur 1528-yili Humoyun o‘g‘il ko‘rganida Bobur farzandini tabriklaydi. Murabbiy va ustoz sifatida unga otalik nasihatlarini beradi. Huyomunga xatlaridagi imlo xatolaridan tortib, yurish-turishigacha yo‘l ko‘rsatib, mehribonlik qiladi”[4] (Adabiyot darsligi, 2003-yil, 177-bet)

“Xatlaringda, yolg‘izlik, yolg‘izlik deb yozibsan. Podshohlikda bunday deyish aybdir. Jahonga bog‘langan bo‘lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo‘l. Agar hech narsaga bog‘lanmagan bo‘lsang, yo‘lingdan qolma, ketaver. Hech bir band podsholik bandicha bo‘lmas. Podshohlik bilan yolg‘izlik muvofiq kelmas. Xatingni qiynalib o‘qisa bo‘ladi, lekin u juda chalkash. Bundan keyin takalluf qilma, ravshan va aniq so‘zlar bilan yoz. Senga ham, o‘qiguvchiga ham oson bo‘ladi”[5] (Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” “Yangi kitob” nashriyoti. 2019-yil 389-390-betlar) Ushbu fikrlar orqali Bobur farzandlariga mehribonlik va talabchanlikning ajoyib namunalarini ko‘rsatadi. Shuningdek, Bobur o‘z farzandlariga adolat va halollik bilan yashaydigan bo‘lishni o‘rgatgan. U o‘zining hukmronligi davrida adolatli hukmdor bo‘lishga harakat qilgan va farzandlariga ham shunday bo‘lishni nasihat qilgan.

Boburning o‘z farzandlariga bergan tarbiyasi va nasihatlari ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Uning farzandlari ham o‘z davrlarining buyuk shaxslari bo‘lib yetishgan. Bobur o‘z hayotining turli davrlarida ko‘rsatgan jasorati, diplomatik mahorati va adolatliligi bilan farzandlariga o‘rnak bo‘lgan

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy va ma’naviy merosi yoshlar uchun bebaho xazina bo‘lib, ularning tarbiyasi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Boburning hayoti va faoliyatini o‘rganish yoshlarga o‘z tarixini, madaniyatini va milliy g‘ururini anglashga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga, iqtidorlarini rivojlantirishga va jamiyatga foyda keltirish uchun intilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” “Yangi kitob” nashriyoti. 2019-yil 56-57-betlar
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” “Yangi kitob” nashriyoti. 2019-yil 389-390-betlar
3. “Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ukalari bilan munosabati” Komolov M., Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. 2023.
4. Adabiyot darsligi, 2003-yil, 177-bet

CLASSIFICATION OF GEOGRAPHICAL PLACES IN "BABURNAMA".

Islamova Kunduz
Chirchik State Pedagogical University
Faculty of Humanities

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asarini yoritib berishga harakat qilinadi. Geografik joylar tasnifiga alohida e’tibor qaratiladi. Ba’zi geografik joylarning .ta’riflari keltirib o‘tilgan. Asarning tarjima nusxalariga to‘xtalib o‘tiladi. Xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilish jarayonlari haqida ham ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar. Boburnoma, Erikson,Farg‘ona, Samarqand, Darg‘om, Kobul, iqlim, Movarunnahr, Xuroson

Абстрактный. В данной статье предпринята попытка пролить свет на произведение «Бабурнома», написанное Захириддином Мухаммадом Бабуром. Особое внимание уделено классификации географических мест. Даны описания некоторых географических мест. Переведенные экземпляры работы будут обсуждаться. Также представлена информация о процессах исследований зарубежных ученых

Ключевые слова. Бабурнома, Эриксон, Фергана, Самарканд, Даргом, Кабул, Климт, Моваруннахр, Хорасан.

Abstract. This article tries to shed light on the work "Baburnoma" written by Zahiriddin Muhammad Babur. Special attention is paid to the classification of geographical places. Descriptions of some geographical places are given. The translated copies of the work will be discussed. Information about the processes of study by foreign scientists is also provided.

Keywords. Baburnoma, Erikson, Fergana, Samarkand, Dargom, Kabul, Klimt, Movarunnahr, Khorasan.

“Boburnoma", which is considered one of the rarest masterpieces of world literature, is not only a great memoir, but also admirable for its accurate description of the political, economic, social, military and geographical information of its time.

No matter where Babur is, he pays great attention to the study of the inhabitants, nature, climate, fauna and flora of that place. We will witness this during the study of the work. One of the proofs of the worldwide recognition of "Boburnoma" can be understood from the growing interest in translating this work. At first, Europeans were more interested in it, but later it began to attract the attention of world scientists. Not only in Europe, but in the whole world, J. Leyden and W. Erickson published it in 1826 [1: 2]. While translating the work and sharing it with the people of the world, scientists began to introduce valuable information.

William Erickson, influenced by "Boburnoma", begins to write a separate work. The work "Babur in India" is written with great skill, it describes geographical places, people and events beautifully. First of all, he introduces the reader to the family of Babur, and then leads to the events of his accession to the throne. He gives the following information about the Fergana Valley: "Although Fergana is a small country, the soil of Fergana was very fertile and had a moderate climate. Although it was hot in summer and cold in winter, it was rich in grain and fruit, pears, pomegranates, almonds, and melons" [2: 10]. Erikson also describes the inhabitants of Fergana.

He also mentions the events of Samarkand and records the experiences of Babur. In the process of deeper analysis of the work, the classification and study of the information in it also began. When we analyze many isophical compounds in "Boburnoma" semantically, we can see that they are mainly divided into 6 thematic groups (such as place, time, cause, person, character) [3:47-50]. It has been determined that the most toponymic information is found in the categories grouped above. While describing each region, Babur notes its geographical classification, origin of place names, history, and population. In particular, from the beginning of "Boburnoma", he describes Fergana region, where he was born and raised, and writes:

"Fergana is in the fifth climate. Koshgar is in the east, Samarkand is in the west, Badakhshan is bordered by mountains in the south, and in the north there were cities like Almalyk, Almaty and Yangi. at the moment it is ruined, there is no work of improvement left at all".[4:29] It can be seen from the mentioned information that before Babur became a king, he acquired the most advanced knowledge for his time and was prepared to manage the state.

The young Babur, who ascended the throne in place of Umarshaikh Mirza, who died prematurely due to an unexpected accident, has been recording his experiences since 1494. The events of the work also begin from the time of his accession to the throne. The initial information and events take place in Fergana region. At that time, the city of Andijan was considered the central city of Fergana region and became one of the largest cities of Movarunnahr. Babur writes about Andijan: On the south side one of the cities - Andijan, located in the middle, is the capital of Fergana region. The grain will be abundant, the fruit will be many melons and grapes will be good. It is not a picture to sell melons at the beginning of the harvest season. There is no better breakfast than Andijan's breakfast. "After Samarkand and Kesh, there is no bigger fortress in Mowarunnahr." [5:29]

The rise of Andijan as a center dates back to the time of Umarsheikh Mirza. Due to the ongoing unrest in Mowarunnahr, there were few strong central cities like Andijan. Since Andijan's climate is very suitable for sugarcane crops, it produces sweet products during the harvest season. In the following narrations, it is also mentioned that Babur was surrounded by Andijan melons. It also describes geographically the cities of Margilan, Isfara, Khojand, Akhsi, Koson, among the larger cities of Fergana.

Like all the Timurids, Babur dreamed of capturing Samarkand, the capital of Azim, building a single centralized state, and restoring the kingdom of his great-grandfather Amir Temur. Although he managed to occupy Samarkand three times, he was forced to leave every time. As soon as he captured Samarkand, he began to study the city, record its population, geographical structure and nature.

He gives the following information about Samarkand: "There are fewer cities in the world where people live than Samarkand." The fifth is from the climate. The length of the symbol is 99 astronomical degrees, 56 minutes, and the width is 40 degrees and minutes. The city of Samarkand, the region is called Movarunnahr. Because no enemy can conquer it with anger and victory, they say "baldai mahfuz" - "protected city". Hazrat Amir ul-Mominin of Samarkand may have become a Muslim during the time of Osman. Qusam ibn Abbas of the Companions probably went there. His grave is outside the iron gate" [6:55].

He also writes that this city, appointed by Amir Temur as the capital, became a real city of honor during the time of his great-grandfather, and the thinkers and scientists who grew up in Samarkand. It describes the irrigation system of Samarkand with special attention. Describing the location and dimensions of the Dargom canal, he writes: "It flows from the south of Samarkand.

A sharia comes from Samarkand. Parks and neighborhoods of Samarkand, how many other districts are prosperous with this". [7:55]. In addition, he writes in detail about the monuments, madrasas, gardens and other structures built during the time of Amir Temur and Timurids in Samarkand.

Babur, who went to Kabul by the will of fate, established Kabul. begins to study the climate and geographical location. In the classification of Kabul, he writes: "Kabul region belongs to the fourth climate. The city is located in the middle of developed lands. To the east are Lamgonot, Purshovar, Hashnagar and some Indian regions. Karnud and Ghor are from those mountains. It is adjacent to the Indian Kush mountain in the north. Kunduz and Androb regions. South is Farmul, Nagar, Bannu and Afghanistan”[8:105]. He not only describes the natural conditions, but also touches on trade routes. For example, noting that it is one of the trade centers of Kabul, Kashgar,

He records the arrival of caravans from Ferghana, Turkestan, Samarkand, Bukhara, Balkh, Hisar and Badakhshan. It should be noted that Kabul is located at the intersection of important trade routes for its time. One of the main roads served to connect India and Khorasan. After Babur took power, he paid great attention to the security of trade caravans. Referring to the fruits of Afghanistan, he says that there are good grapes. In addition, oranges and lemons also note that they yield well. How Zahiriddin Muhammad Babur collected so much information during so many battles

makes one involuntarily think. The king, who spent most of his life fighting for victory in battles, describes the geographical classification of the Brogan region, its inhabitants, fauna and flora. That is why Babur's legacy is so huge that it still attracts those who seek it. During his trip to India, he recorded a lot of information. Describing the climate of India, he writes: "India is located in the first, second and third climates." It does not belong to the fourth climate. It is a very wonderful country. It is a completely different world compared to our lands. Mountains and rivers, forests and deserts, cities and regions, animals and plants, people and language, rain and wind - everything is different, not like ours [9:204].

While describing India, Babur notes that there are more differences than similarities with our country. He pays attention to every small detail and even takes into account the information received from the local people while writing individual images of the mountains and rivers of India. He is especially meticulous in describing the animal world. From this one can understand how skillful a hunter and how observant Babur was. While writing this great work, Babur harmoniously describes his inner experiences, introduction of historical figures, information about geographical places, and battles. We can fully imagine the atmosphere of that time in the case of a person. There is no doubt that this work will serve as a valuable resource for future historians, writers, politicians, and all people of science. Studying "Boburnoma" is a source of pride and responsibility for our generations. Because the priceless heritage left by our great ancestor will not lose its value not only for us, but also for the people of the world, on the contrary, it will increase its value over the centuries.

List of used literature.

1. Z. Khidirova. "Boburnoma" is a world-renowned work. https://cyberleninka.ru/article/n/boburnoma-jahon-tan-olgan-asar
2. U. Erickson. Babur in India. Tashkent. Cholpon Publishing House, 1995. Page 10.
3. I. Boltaboyeva. A valuable resource for studying "Boburnoma" toponyms. FDU scientific news. Fergana, 2005. N-3. Pages 47-50.
4. Z.M. Babur. Boburnama. Tashkent Teacher-2008. Page 29.
5. Z.M. Babur. Boburnama. Tashkent. Teacher-29, 2008 page.
6. Z.M. Babur. Boburnoma. Tashkent. Teacher-2008. Page 55.
7.Z.M.Babur.Boburnoma.Tashkent.Teacher-2008. Page 55.
8. Z.M. Babur. Boburnama. Tashkent. Teacher-2008. Page 105.
9. Z.M. Babur. Boburnoma. Tashkent. Teacher - 2008. Page 204.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BUYUK SARKARDA
ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР ВЕЛИКИЙ ПОЛКОВОДЕЦ
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR THE GREAT COMMANDER



Ibragimov San'at Muzaffarovich
dotsent, polkovnik, O'R QK Akademiyasi, katta o'qituvchisi
Ибрагимов Санъат Музаффарович
доцент, полковник, старший преподаватель
Академии Вооруженных Сил, Республики Узбекистан
San'at IBRAGIMOV
docent, Colonel, docent, Lieutenant Colonel, senior Lecturer of
the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiga bag'ishlangan. Boshqa Temuriy hukmdorlar singari Bobur o'z poytaxti Agrada taniqli yozuvchilar, shoirlar, musiqachilar va rassomlarni atrofiga to'playdi, shu bilan birga ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga hissa qo'shadi.
Kalit so'zlar: sarkarda, shoir, yozuvchi, musiqachi, rassom, fan, madaniyat.

Аннотация: Статья посвящена творчеству Захириддина Мухаммада Бабура. Как и другие тимуридские правители Бабур в своей столице Агре собирает вокруг себя немало выдающихся писателей, поэтов, музыкантов и художников того времени, тем самым, способствуя развитию науки и культуры.
Ключевые слова: полководец, поэт, писатель, музыкант, художник, наука, культура.

Annotation: The article is devoted to the work of Zahiriddin Muhammad Babur. Like other Timurid rulers Babur in his capital Agra gathers around him many outstanding writers, poets, musicians and artists of that time, thereby contributing to the development of science and culture.
Key words: commander, poet, writer, musician, artist, science, culture.

O'zbek xalqi insoniyat tarixiy taraqqiyotida o'zining munosib o'rniga ega xalqlardan biri hisoblanadi. Bizning o'tmishimiz ham buyuk insonlarning mehnatlari, say-harakatlari, bunyodkorlik ishlari bilan yaratilgan.

IX-XI asrlar davomida jahon sivilizatsiyasini yuksaltirishda yangi zamon fanlariga asoslagan va amalga oshirgan ishlari umuminsoniy darajaga ega bo'lgan M.Xorazmiy, A.Farg'oniy, A.N.Forobiy, A.R.Beruniy, Ibn Sino, Al-Buxoriy, At-Termiziy, A.M.Moturudiy, N.Kubro, B.Marg'inoniy, B.Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, A.Navoiy va Z.M.Bobur singari qator ajdodlarimizning ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat sohasida amalga oshirgan bunyodkorliklari, jahon ommasini fan va madaniyatga, ma'naviyat va ma'rifatga bo'lgan qiziqishlarini bir necha bora kuchaytirib bordi.

Amir Temur davri saltanati umuminsoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undan oldin o'tgan ancha buyuk sarkardalar A.Makedonskiy, Yu.Sezar, Chingizxonlar o'zlari yashab o'tgan davrda juda katta hududlarni bosib olib o'zlariga bo'ysundirishda harbiy nuqtai-nazardan yangi strategiyalar va taktikalarni ishlab chiqqanlar. Ammo bu harbiy yurishlarning barchasi insoniyatning hayotida biror bir ijobiy yangiliklarga olib kelmagan edi.

Amir Temur o‘z vatani ozodligi va obodligini ta’minlash orqali boshqa xalqlarni ham mo‘g‘ul bosqinchilari zulmidan ozod bo‘lishlariga va yangicha hayot qurishlariga katta imkoniyatlar yaratib bergani bilan boshqalardan ajralib turadi.

Amir Temurning Mironshoh o‘g‘lining farzandi bo‘lmish Sulton Muhammad Mirzoning farzandi bo‘lgan, Sulton Abusaid Mirzoning o‘g‘li bo‘lmish Umarshayxning farzandi bo‘lib 1483 yil 14 fevralda Andijonda dunyoga kelgan edi. Zahiriddin Muhammad Bobur onasi tomonidan o‘n to‘rt avlod orqali Chingizxon avlodi ham hisoblanadi. Uning onasi Qutlug‘ Nigor xonim o‘sha vaqtlarda Toshkent xoni bo‘lgan mo‘g‘ul xoni Yunusxonning qizi edi.

Unga Zahiriddin Muhammad degan ismni o‘sha zamonning buyuk insonlaridan hisoblanmish Xoja Axror Valiy qo‘ygan edi, bu ismning ma’nosi dinni qo‘llab-quvvatlovchi, dinning homiysi, panohi deganidir. Yoshlik chog‘laridan dovyuraklik va jasurlikning ma’lum jihatlari unda namoyon bo‘laboshagach unga “Bobur” deb murojaat qila boshladilar. “Barb” arabcha so‘z bo‘lib “yo‘lbars” degan ma’noni bildiradi.

Boburning otasi Umarshayx Mirzo 39 yoshida halok bo‘ladi. O‘shanda Bobur 12 yoshda bo‘lib, farzandlarning kattasi va valiahdligi sabab taxt o‘tirishga majbur edi. Yosh hokimning birinchi qilgan ishlari o‘zlini mavqeini ta’minlash uchun atrofidagi amaldorlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish, alg‘ov-dalg‘ovli zamonda qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida el-yurt tinchligini ta’minlash uchun davlat ishlarida intizom o‘rnatishi kerak edi.

Bobur yoshligidan ota-bobolari singari juda ham baquvvat bo‘lib o‘sdi. U jismonan va ruhan tetik va bardam bo‘lishini uning yon-atrofida sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar talab etar edi.

Yosh hukmdorning tajribasizligidan foydalanib qolish istagida Movarounnahr hukmdori Sultoni Ahmad Andijonga qo‘shin tortib keldi, tog‘asi bo‘lmish – Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxon Kosonni egallab, Axsi qal’asini qamal qildi. Qoshg‘ar xoni Abubakr dug‘lat Farg‘ona ulusiga bostirib kirib O‘zgadni qurshab oldi. Birin-ketin bo‘lib turgan hujumlarni yosh Bobur a’yonlari va xalqning qo‘llab-quvvatlashi bilan o‘ziga qarashli yerlarni saqlab qola oldi. Bu g‘alabalardan ruhlangan yosh hukmdor Amir Temur saltanatining poytaxti Samarqandni egallashni maqsad qilib 1495-1496 yillarda ikki marotaba qilgan yurishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shundan keyin yetti oy shaharni qamal qilib 1497-yil noyabr oyida poytaxtni qo‘lga kiritdi.

Zamonda taxt uchun bo‘lgan kurashlar va o‘zgarishlar tez-tez sodir bo‘lib turishi sababli Samarqand qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan edi.

Movarounnahrda taxt talashib yurgan temuriy shahzodalari noittifoqligidan foydalangan Muhammad Shayboniyxon yurtni birin-ketin shahar va qishloqlarini istilo qilib boshladi. 1499-yili Buxoro va Qorako‘l shaharlarini egalladi. 1500-yilda Samarqand aholisi va amaldorlari Boburga maktub yuborib uni Samarqandga taklif etadilar. Ammo u yetib kelgunicha yosh podshoh Sultonali Mirzo onasining gapiga kirib shaharni Shayboniyxonga jangsiz topshirganidan xabar keladi.

Bobur vaziyatni chuqur o‘rganib chiqib harbiy xiyla ishlatib, Shayboniyxon shahar himoyasi uchun qoldirib ketgan 600 kishilik qo‘shinni mag‘lub etadi. Buxoroga

joylashib olgan Shayboniyxon Samarqandda oziq-ovqat tugab ocharchilik boshlanganidan xabar topganidan so‘ng 1501-yil aprel oyida Boburga qarshi qo‘shin tortib keladi va uni mag‘lub etadi.

Bobur qo‘shinlari 1503-yil Shayboniyxon tomonidan Sirdayo bo‘yida tor-mor qilinadi. 1504-yilning iyun oyida un o‘z yurtini tashlab, begona yurtlarga chiqib ketadi.

1511-yil mart oyida Shayboniyxon Eron shohi Ismoil Safaviy tomonidan tor-mor etiladi. Ismoil Safaviy Shayboniyxonni bosh chanog‘idan sharob ichadigan kosa qildirib, undan sharob ichadi. Ismoil Safaviy yosh Boburni Samarqand taxtini egallashi uchun amaliy yordam beradi. Shia mazhabidan bo‘lgan Ismoil Safaviyning izmida bo‘lgan Boburdan sunniy mazhabidagi aholi va amaldorlar o‘rtasida keskin norozilik paydo bo‘ladi. Shunda Shayboniyxonning jiyani bo‘lgan Ubaydulloxon yurish boshlaydi va 1512-yil 28-aprelda Boburni mag‘lubiyatga uchratadi. Ismoil Safaviy yana qo‘shin yuborib uni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo 1512-yil 24-noyabrda G‘ijduvon jangida uzil-kesil mag‘lubiyatga uchraydi va Movarounnahrni qo‘lga kiritish orzulari sarobga aylanadi va Qobulga ketishga majbur bo‘ladi.

Bobur davlat ishlarida dono, kundalik hayotda xushchaqchaq ulfat, jismonan baquvvat, chopqir, mard va jasoratli bo‘lgani uchun ham qo‘shinga boshchilik qilganida qo‘rqmasligini va bahodirligini o‘z namunalari bilan ko‘rsatib turgan. Uni boshiga tushgan kunlar doimo jismonan va ruhan kuchli bo‘lishga o‘rgatgan edi.

Qobulga borib o‘rnashganidan keyin u Hindistonni egallash rejasi bilan yashay boshladi. 1507-yildan 1519-yilgacha bir necha marta yurishlar qildi, ammo barchasi mag‘lubiyat bilan yakun topadi.

Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiyning kitoblaridagi ma’lumotlarga qiyosan tahlil qilgan. Ayni paytda mualliflarning mavqei, shaxsi, iqtidori, e’tiqodi, shaxsiy uslubi haqida ham mushohada yuritish payida bo‘lgan. Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma’lum va mashhur qomusiy asari. Bu memuarda O‘zbekiston, Afg‘oniston va Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlari, o‘ziga xos xususiyatlaridan tortib, tabiati, geografiyasi, hayvonot va nabotot olami to‘g‘risida bebaho ma’lumotlar mavjud. Bu nodir manbaning turli tillarga tarjima qilingan nashrlarini qo‘ya turaylik, o‘zimizda mumtoz asarlari yuzasidan tuzilgan mukammal izohli lug‘atlar ham kamchilikdan xoli emas. Bugun “Boburnoma”ni nozik jihatlarigacha teran anglab, tadqiq eta oladigan boburshunoslar borligiga aminmiz. Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish; Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan yuqori sifatli media mahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilish; O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari, O‘zbek milliy madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini keng o‘rganish va targ‘ib qilishga bag‘ishlangan ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etish. Madaniyat va turizm vazirligi Tashkiliy qo‘mitaning ishchi organi etib belgilansin va mazkur qarorda belgilangan vazifalar bo‘yicha vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirib borsin. Andijon viloyati hokimligi tomonidan Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda Andijon shahrida “Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining bashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferensiya; Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman; Toshkent shahar hokimligi, Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan Toshkent shahrida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-badiiy anjuman; Madaniy meros agentligi va Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Andijon shahridagi “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyida Boburning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarning qo‘lyozma va nashr nusxalarining ko‘rgazmasi; Badiiy "Science and Education" Scientific Journal akademiya va “Hunarmand” uyushmasi tomonidan mavzuga bag‘ishlangan tasviriy san’at asarlari, miniatyuralar, xalq amaliy san’ati namunalari ko‘rgazmalari yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin. Zahiriddin Muhammad Boburning ibratli hayoti va boy merosini aholi orasida keng targ‘ib qilish maqsadida: Madaniyat va turizm vazirligi Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda: “Bobur merosi” xalqaro sayyohlik targ‘ibot dasturini amalga oshirilishi. 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va asarlari asosida yangi spektakllar yaratish, shoir g‘azallari bilan ijro etiladigan eng yaxshi qo‘shiqlar tanlovlari hamda “Nazm va navo” maqom kechalarini tashkil etishi belgilandi. Davlat buyurtmasi asosida Zahiriddin Muhammad Boburning

bolalik davriga bag‘ishlab suratga olinayotgan “Yo‘lbarsning tug‘ilishi” badiiy filmini yakuniga yetkazish uchun yana mukammal ishlash, tomoshabinga yetkazib bera oladigan darajada ishlash, yoshlarni jasur,mard, vatanga muhabbat, fidoyilik ruhida tarbiyalash lozimligi haqida bir qancha takliflar berildi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir “Bobur ensiklopediyasi”ning to‘ldirilgan uchinchi nashri, “Bobur” kitob-albomi, shuningdek, Bobur asarlari lug‘ati, Bobur devonining mukammal nashrini; “Boburnoma” asarining zamonaviy o‘zbek va qoraqalpoq tillariga tabdilini yaratish;“Boburga armug‘on” rukni ostida shoir asarlari, uning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy va ommabop kitoblar turkumini tayyorlash va chop qilish choralarini ko‘rish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan birgalikda:ikki oy muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy merosini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovini e’lon qilishi yoshlarimizni yanada xursand qildi. Bobur Mirzo hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarning o‘zbek tilidan xorijiy tillarga hamda xorijiy tillardan o‘zbek tiliga bosqichma-bosqich tarjima qilinishi va chop etilishini ta’minlasin. 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun tarix va geografiya yo‘nalishlarida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi ta’sis etilsishi. Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda mazkur davlat stipendiyasini tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlasin. Biz yoshlarga bo‘lgan e’tibor shuningdek yanada sifatli ta’lim olishimiz uchun qilinayotgan shartsharoitlar meni hamda butun O‘zbekiston yoshlarini o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish imkonini berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu maxsus stipendiya bilan Z.M.Boburning hayoti va ijodini o‘rganish, faoliyatini yoritish, ilmiy tadqiq qilish va targ‘ib etish yo‘nalishida izlanish olib borayotgan, adabiyot va kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yo‘nalishida alohida faollik

t ko‘rsatayotgan va konferensiyalarda (tanlovlarda) qatnashgan, mualliflik asosida nashr etilgan ishlari (asarlari) mavjudligi mezonlarga asosan har yili 20- mayga qadar institutda tahsil olayotgan 1-3 bosqich kursantlari rag‘batlantiriladi. “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomidagi ko‘krak nishoni nikel hamda tilla qoplangan mis qotishmasidan tayyorlangan bo‘lib, sakkiz qirrali tilla rangli yulduz shakliga egadir. Ko‘krak nishonining markazida havo rang emal bilan qoplangan, orqa tomonidan quyosh nurlari taralayotgan fonda Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va saltanat sohibi ekanligini anglatuvchi suvoriy qiyofasidagi oltin rangda bo‘lgan sur’ati joylashgan bo‘lsa, uning yuqori qismida ikki tomonidan qabariq sakkiz qirrali yulduz bilan ajratilgan qabariq harflarda «BOBUR» degan yozuv mavjud. Ko‘krak nishonining orqa tomonida esa Davlat gerbi tasvirlangan. Uning qadag‘ichidagi qizil, moviy, sariq ranglardagi shoyi lenta ham o‘z ma’nosiga ega bo‘lib, u Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan davlat bayrog‘ining ranglarini tasvirlaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar Zahiriddin Muhammad Boburning

ilmiyijodiy merosiga bag‘ishlangan ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitoblar taqdimotlari hamda shunga o‘xshash tadbirlar o‘tkazilmoqda. Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega. Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, shoir tug‘ilgan kun - 14-fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo‘ylab adabiyot va ilm-ma’rifat bayrami sifatida nishonlanmoqda. Bobur shunoslik sohasida ko‘plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o‘tkazilmoqda. Keyingi yillarda Toshkent va Andijon shaharlarida Bobur Mirzoning muazzam haykallari o‘rnatilgani, uning tug‘ilib o‘sgan yurti - Andijon shahrida Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi “Bobur va jahon madaniyati” kitob muzeyi faoliyat ko‘rsatayotgani, “Bobur ensiklopediyasi”, “Bobur kulliyoti”, “Babur. Baburidi. Bibliografiya” deb nomlangan salmoqli asarlarning nashrdan chiqarilgani, “Bobur va dunyo” jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida e’tirof Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga - Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta’sirini inobatga olib, Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniyat va turizm vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda jamoatchilik vakillarining 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi. Shuningdek bir hafta muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini nishonlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin. Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin: mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq obida va qadamjolarni, jumladan yodgorlik majmualarini ta’mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san’at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish;xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish; kabi ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichidagi bu katta yutuqlar O‘zbekistonni dunyo

bobur shunosligining markaziga aylanishiga xizmat qildi. Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma’nan yaqinlashdi. Barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga nisbatan qomus, ya’ni “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o‘zbek bobur shunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o‘rganib kelayotgan yaponiyalik bobur shunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga “butun dunyo bobur shunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi” deya baho berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Hasanov. Boburning «Risolayi aruz» asari. -T.:1986;

2. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996; "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 1189

3. G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta «Boburnoma». — T.:1996;

4. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.). — T.: 1997:

5. R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 1999.

6. Karimov I.A.,Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008y.

7. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz.-T.: O’zbekiston

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА ҲАРБИЙ САРКАРДАЛИК САБОҚЛАРИ
ЖИЗНЬ ЗАХИРИДДИНА МУҲАММАД БОБУРА И УРОКИ ВОЕННОГО РУКОВОДСТВА
THE LIFE OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR AND THE LESSONS OF MILITARY LEADERSHIP

Курбонова Г.
Низомий номидаги ТДПУ доценти
Талаба **Н.Ибрагимова**



Аннотация. Ушбу мақола Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва фаолияти, ҳарбий маҳоратини ўрганиш ва кенг миқёсда тарғиб этиш, илмий ва маънавий мероси, хусусан, “Бобурнома” ва бошқа асарларининг дунё миқёсида ўрганилиши, бобуршуносик йўналишидаги тадқиқотлар, таржимашунослик, Бобур меросинининг XXI аср фани ва маданиятига қўшаётган ҳиссасига бағишланган мақолалар киритилган.

Калит сўзлар: “Бобурнома, Агра (Қобул), «Бобурнинг «Боги вафо», султон, Амир Темур, Самарканд, лашкар, навкар, Андижон, мактуб,аскар,шайбонийлар, Мовароуннахр, сулола , Хиндистон, «боги Бобур».

Аннотация. Данная статья посвяена изучению и широкой пропаганде жизни и деятельности Захириддина Мухаммада Бабура, его воинского мастерства,его научного и духовного наследия, в частности, изучению “Бобурномы” и других произведений в мировом масштабе, исследованиям в области направления бабуроведения, переводоведения, вклада Бабуровского наследия в науки и культуру XXI века.

Ключевые слова: “Бобурнома”, Агра(Кабул), “Сад верности”Бабура, султан, Амир Темур, Самарканд, армия, навкары, Андижан,письмо, солдат, Шейбаниты, Мованауннахр, династия, Индия, “сад Бабура”.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг хаети ва ижоди. Буюк бобакалонимиз Амир Темурнинг сулоласи, узбек мумтоз адабиетининг йирик вакили Захириддин Мухаммад ибн Умаршайх Мирзо (1483-йил 14-феврал-1530-йил 26-декабр) Андижонда таваллуд топган. Бобур уз даврининг буюк шахсларидан бири эди.Унинг отаси-Умаршайх Мирзо Фаргона вилояти хокими, онаси-Кутлуг Нигорхоним Могилистон хони ва Тошкент хокими Юнусхоннинг кизи эди. Бобурнинг ешлиги Андижонда утган. Бобур барча Темурий шахзодалар каби махсус тарбиячилар, йирик фозил-у уламолар устозлигида харбий таълим , фикх илми, араб ва форс тилларини урганади, куплаб тарихий ва адабий асарлар мутолаа килади, илм-фанга, шеъриятга кизика бошлайди.Бобурнинг ижодий фаолдияти 18-19 ешларида рубоий ва газаллар еза бошлаган. Бобур Самарканддалигининг илк ойларида Алишер Навоий ташаббуси билан улар уртасида езишма бошланади. Умуман, давлат арбоби ва куп вакти жангу жадалларда утган саркарда сифатида ижтимоий фаолиятининг енг кизгин даврида хам, шахсий хаети ва давлати нихоятда мураккаб ва хатарли шароитда колган чогларида хам Бобур ижодий ишга вакт топа билган, илм, санъат ва ижод ахлини уз атрофига туплаб, хомийлик килган, уларни рагбатлантирган. Адабиёт ва тарих, мусиқа ва сан’атдан яхши хабардор бўлган, диний та’лимотга чин ихлос қўйган Бобур ҳар доим олим-у фозиллар даврасида бўлди, хусусан, ижод аҳлига, касб-у ҳунар соҳибларига самимий эҳтиром кўргазиб ҳомийлик қилди, уларни моддий ва ма’навий рағбатлантириб турди. Ижод ва сан’ат аҳлига бундай меҳрли муносабат асло бежиз бўлмаган. Бобур табиатан ижодкор эди. Бобур ижодида ишқ-муҳаббат, севги-садоқат, висол ва ҳижрон мавзуси ҳам салмоқли ўрин тутади. Унинг ғазал ва рубоийларида, туюқ ва маснавийларида ма’шуқанинг мафтункор гўзаллиги, беқиёс ҳусн-у латофати, шарқона одоб-у ахлоқи, ноз-у карашмаси енгил ва ўйноқи, мусиқий ва равон мисраларда катта маҳорат билан тараннум этилади. Йигитлик йилларидан бошлаб то умрининг охиригача самарали ижодий иш билан шуғулланди, ҳар қандай шароит ва вазиятларда ҳам ижоддан тўхтамади, натижада, ҳар жиҳатдан муҳим бой илмий ва адабий мерос қолдирди. Довюраклиги ва жасурлиги учун у ешлигидан “Бобур Шер” лакабини олади. Ҳозирда унинг 119 ғазали, бир масну ше’ри, 209 рубоийси, 10 дан ортиқ туюқ ва қит’алари, 50 дан ортиқ муаммо ва 60 дан зиёд фардлари аниқланган. Девони таркибида умумий ҳажми 270 байтдан иборат 8 маснавий ҳам ўрин олган. Унинг мумтоз шоир сифатидаги меъросини эътироф этган ҳолда шуни таъкидлаш жоизки, унга жаҳоний шуҳрат келтирган асар “Вақоъе” (Воқеъалар), кейинчалик “Бобурнома” номи билан машҳур асарининг кўплаб жаҳон тилларига қилинган таржималаридир. «Бобурнома» асари мемуар жанрнинг мукаммал намунаси, тарихий-бадиий манба ҳисобланади. Шунингдек, асар турли тилларда адабиётшунослар, тарихчилар, тилшунослар, санъатшунослар, этнографлар, ҳайвонот ва наботот соҳаси вакилларининг тадқиқот манбасига айланган.

«Бобурнома» да Захириддин Мухаммад Бобурнинг хаети билан боглик холда XV-асрнинг сунги XVI-асрнинг биринчи чорагида Мовороуннахр, Хуросон, Афгонистон ва Хиндистонда кечган тарихи-ижтимоий ходисалар, шунингдек

уз даврининг ижтимоий сиесий хаетида кузга курингган шахслар, уларнинг характери, эътикоди маънавий олдами, улар рухиятида кечган мураккаб холатлар, психологик жараенлар бадиий-психологик жиҳатидан бетакрор тарзда тасвирланган.

Бобурнинг харбий саркардалик фаолияти. Отаси Умаршайх Мирзо Ахсда бевакт, 39 ешида фожиали халок булгач, оиланинг катта фарзанди, 1494-йил июнда 12 ешли Бобур валиахд сифатида тахтга утиради. Бобурнинг дастлабки сиесий максади Амир Темур давлатининг пойтахти, стратегик ва географик жихатдан мухим булган Самаркандни эгаллаш ва Мовароуннахрда марказлашган кучли давлатни саклаш, мустахкамлаш хамда Амир Темур салтанатини кайта тиклашдан иборат еди. Бунинг учун у муттасил равишда курашади, лекин Темурий шаҳзодалар ўртасидаги тахт талашлар, маҳаллий бек ва амирларнинг исёнлари, Шайбонийхон босқини каби турли хил сабаблар, бу орзуни амалга ошириш имконини бермайди. Айнан шу воқеаларнинг батафсил тафсилоти Бобурнинг шоҳ асари, Мовароуннаҳр, Хуросон, Ҳиндистоннинг 1493-1529 йиллар тарихини ўзида акс эттирган “Бобурнома”да катта маҳорат билан ҳикоя қилинган.

Маълумки, Темурийларнинг ўзаро урушлари кучайган кезларда Шайбонийхон Мовароуннаҳрни истило қилишга киришади. 1500 йил темурийзода Султон Али Мирзо калтабинлик билан Самарқандни Шайбонийхонга жангсиз топширади. Бироқ, шаҳар аҳолиси ва зодагонларининг маълум қисми темурийлар ҳукмдорлигини тиклаш тарафдори эди. Улар Фарғона ҳокими Бобурга мактуб йўллаб, Самарқандни ишғол қилишга даъват этадилар. Бобур 1500 йил кеч кузида ўз қўшини билан Зомин ва Ёр-Яйлоқ орқали, яширин тарзда Самарқандга етиб келгач, аҳоли унга шаҳар дарвозаларини очиб беради ва бу ерда унинг ҳукмронлиги ўрнатилади. 1501 йил апрелда Зарафшон бўйидаги Сарипул қишлоғи яқинида бўлган жангда Бобур қўшинлари Шайбонийхондан енгилади. Бобур Самарқандга чекинади. Шаҳар яна қамал қилиниб, у тўрт ой давом этади. Қамалда қолган шаҳар аҳолисининг очликдан тинкаси қурийди, Бобур 1501 йилнинг иккинчи ярмида иложсизликдан Самарқандни тарк этади ва бу ҳақда шундай ёзади “…Суғднинг улуғ шоҳ-жўйлариға қоронғу кечада урунуб йўл ит-уруб юз ташвиш била тонг отқонда Хожа Дийдордин ўтуб, суннат вақтида Қарбуғ пуштасиға ёрмоштук. Қорбуғ пуштасининг шимолидин Худак кентининг оёғи била Илон Ўтини туслаб тебрадук. ...Кеч намози дигар Илон Ўтида тушуб, от ўлтуруб этини шишлаб, кабоб қилиб, отни лаҳза тиндуруб отландук”. Бобур канчалик акилли болмасин, кариндошларининг қўллаб-қувватламаганлиги сабабли ўз ватанини тарк этишга мажбур бўлади, 1504-йили, ўн тўққиз ёшдалигида Кобулни забт қилиб, у ерда қарор топади. Кобулдан туриб Мовароуннаҳрни олиш учун бир неча марта юришлар қилади, аммо муваффақият қозонолмайди. 1525 - йилда Бобур узоқ ва жиддий тайёргарликдан кейин Ҳиндистонга ҳарбий юриш қилади. Панипат шаҳридаги жангда деҳли султони Иброҳим Лўдийнинг ўз армиясидан тўрт

мартача ортиқ бўлган қўшинини тор-мор келтиради ва Деҳли ҳамда Органи эгаллайди, кейинчалик эса, Шимолий Ҳиндистонда ўз ҳокимиятини ўрнатади Бобур катта ҳарбий қобилиятга эга бўлиб, тадбирли, эҳтиёткор ва эпчил лашкарбоши бўлган. У ҳар эҳтимолга қарши олдиндан чора кўриб қўйиш, конкрет шароитга қараб иш кўриш, курашувчи кучларнинг нисбатини, уларнинг нимага қодир-у, нимадан ожизлигини ҳисобга олишни биладиган оқил одам эди. Шу билан бирга у узоқ йиллар давомида бой ҳарбий тажриба орттирган, кўпни кўрган, сиёсий тажрибаси зўр киши эди.

Бобурнинг Ҳиндистонда давлат ва сиёсий арбоб сифатидаги асосий хизмати шундан иборатки, у ба’зи бир ажойиб ўзгаришларга имкон берди, Ҳиндистоннинг тараққиёти учун зарур бўлган сиёсий бирликни кўп ҳолларда амалгам оширди, савдони ривожлантирди. Бу, улуғ мамлакатнинг кўп асрлик тарихида энг муҳим этаплардан бири бўлган, Жавоҳарлал Нерунинг та’кидлаши бўйича, ўзининг икки юз йиллик умри давомида Ҳиндистоннинг давлат мустақиллиги ҳисобланган, ҳинд миллий ҳодисасига айланиб кетган ва ўша давр шароитида мамлакатдаги ижтимоий ҳаётнинг деярли ҳамма соҳасининг ривожланишида ижобий рол ўйнаган империяга асос солди, шундай империяни бошлаб берди. Темур империясидан фарқли ўлароқ, Бобурийлар империяси тарихи 300 йилдан кўпроқ даврни ўз ичига олади. Бобур инсонпарварлик ва бағрикенглик сиёсатига таяниб, ўзининг марказлаштирилган ягона гуллаб яшнаётган давлат барпо қилиш ҳақидаги асосий мақсадини амалга ошира олди. Шунинг учун ҳинд халқи Заҳиридин Муҳаммад Бобурнинг ягона Ҳинд давлатини яратишдаги улран тарихий хизматларини чуқур ҳурмат-еҳтиром билан ёдда сақлаб келадилар. Ватандошимиз шахсига нисбатан хотираларнинг ёрқин намунаси сифатида Ҳиндистоннинг биринчи бош вазири Жавоҳарлал Нерунинг 1932 йил 3 сентябрда қамоқдан ўз қизи Индира Гандига ёзган 88 рақамли мактубини келтириш мумкин. У, Бобурнинг ягона Ҳиндистон давлатини шакллантиришдадаги бебаҳо хизматларини миннатдорчилик билан эслаб, жумладан, шундай ёзади: “Барча мавжуд омма орасида Бобур энг маданиятли ва дилбар одамлардан бири эди. У мансабпарастлик ва диний ақидапарастлик қарашларидан холи эди ҳамда аждодлари каби вайронагарчиликка йўл қўмаган”. Нерунинг сўзларидан аён бўладики, Бобур у ерда сан’ат ва ме’морчилик соҳаларида улкан ўзгаришлар қилиб, ислоҳотлар ўтказиб, халқ ҳаётини яхшиласга интилган.

Бобур империясининг ижтимоий-иктисодий, маданий ривожланиш асосларидан бири булган сиёсатининг узига хослиги ушбу сиесатда амалга оширилган миллий этник хослик багрикенглик, инсонпарварлик тамойилларида ва уни амалга ошириш унинг авлодлари томонидан давом еттирилганлигида эди.

Узбекистон Республикаси Президенти ва Куролли Кучлар Олий Бош Кумондони Шавкат Мирзиёев хам Куролли кучлардаги баъзи бир камчиликларга гувох булар экан , Президент хузуридаги Хавсизлик Кенгашидаги катор чикишларида буюк аждод саркардаларимиз булмиш Султон

Жалолиддин Мангуберди, Сохибкирон Амир Темур ва Захириддин Мухаммад Бобур ватандошларимизнинг харбий санъати, жангу- жадаллардаги жасоратларини оддий жангчи аскардан то генералларгача эгалламас эканлар,ватанга садокат рухи улар калбида уфуриб турмас экан хар кандай замонавий куроллар хам асло наф бермайди, дея такидлаган эди. Бу борада давлатимиз рахбари юз карра хак эди.

Бугунги кунда давлат ва жамият бошқарувида ўз ўрни ва тажрибасига эга бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Бобурийларнинг бошқарув усулини ўрганиш, илмий меросини тадқиқ этиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Зеро, ҳам шоир, ҳам давлат ва сиёсий арбобининг илмий меросини ўрганиш Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсини ўрганиш ва тадқиқ қилиш жуда муҳим саналади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлат бошқарувида жанговарлик, мардлик, мағрурлик, шахсиятидаги буюклик, улуғворлик, саховатпешалик, камтарлик, одамийлик, зукколик, зийраклик, нозик дид, яхшиликни қадрлаш, тадбиркорлик, узоқни кўра билиш каби ўз ижобий фазилатларини мужассамлаштирган ҳолда ҳукмронлик қилган. Бобурнинг жанговарликка бўлган иштиёқи уни тинчликни таъминлаш масъулиятидан узоқлаштирмаган. Ҳарбий ҳаракатлардан бўш пайтларида у ҳаётининг энг осуда кунлари деб ҳисоблар ва илм билан шуғулланар эди. Унинг натижасида бир қатор тарихий ва адабий асарлар мерос бўлиб қолган. Энг муҳим масала сифатида эса у ўз одатига кўра давлатни бошқариш ишини такомиллаштириш билан ҳам машғул бўлар ва аркони давлатни мустаҳкамлаш ва раиятнинг турмуш шароитини яхшилаш чораларини изларди. Давлат ва жамиятни бошқаришда шахсдан ақл-идрокка асосланиш талаб қилинади. Давлат бошқарувида юзага келган муаммоларни бартараф этиш жамиятни илмий бошқаришнинг ижтимоий-маданий технологияларини қанчалик жорий этилгани билан боғлиқ десак адашмаган бўламиз. Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлат бошқарувида мамлакат аҳолисини қайси дин вакили бўлишидан қатъий назар тенг ҳуқуқли эканлигига ва виждон эркинлиги тамойилларига амал қилган ҳолда бошқариш зарур эканлигини тушуниб етган. Чунки, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувлик давлат бошқарувида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Хулоса сифатида шуни айтиш керакки, Захриддин Мухаммад Бобурнинг жамиятнинг асосий соҳаларини қамраб олувчи Бобур асарлари ўзининг чуқур мазмундорлиги, жозибадорлиги ва бадиий равонлиги билан ажралиб туради. Элим деб, юртим деб ёниб ва куйиб яшаган , ўзи ёна туриб миллатга, халққа ёруғлик бера олган, ҳассос шоир ва давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илмий ва маънавий меросини янада чуқурроқ ўрганиш, уларда ўзининг юксак ифодасини топган. Бобокалонимизнинг довюраклиги, саркарда , жангчи эканлиги ва лашкарлари кам болишига карамай жасурларча галаба козгонганлиги билан дуне рекорд даражасига кирган буюк хукумдор хисобланади. Бизнинг бугунги кунда ва келажакда куйган максадларимиз аник, ватанга муҳаббат, элсеварлик, меҳнатсеварлик ғояларини ўсиб келаётган

ёш авлод онгига синдириш, улар таълим-тарбиясида кенг фойдаланиш, тадқиқ-у тарғиб қилиш ҳозирги даврда ҳуқуқий демократик давлат қуриш ва адолатли фуқаролик жамиятини барпо этишдек эзгу мақсадни амалга оширишда уз хиссамизни кушиш. Ёшларни ўз ватани тарихини ўрганиб, у билан фаҳр туйғуси ила яшашга ундаш. Бу эса, буюк аждодларга мос баркамол авлод бўлиб шаклланишга замин яратади деп ҳисоблайман.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Бобур. Бобурнома.-Тошкент:Юлдузча,1989.
2. Неру Джавахарлал. Открытие Индии.- М.:ИЛ, 1955.
3. SHavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” 2017. – B.146.
4. Ғофуржон Сатимов. Бобурийзодалар. Тарихий-маърифий рисола. Тошкент, “Шарқ”. 2016

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA MA’NAVIY VA AXLOQIY QARASHLAR



Maxmudov R.M., Bekchanova M.R.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta’minlash”kafedrasi professori, p.f.d.professor.
Jamoat xavfsizligi universiteti “Tabiiy fanlar”kafedrasi o‘qituvchisi, f.-m., f.b.f.d.(PhD)

Temuriylar sulolasining davomchisi Zahiriddin Muhammad Bobur jahon siyosiy taraqqiyotiga, ayniqsa madaniy hayotiga, shuningdek harbiy san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z Vataniga bo‘lgan buyuk muhabbatini, ezgu fazilatlarini , yuksak ma’naviyatini va go‘zal axloqini meros sifatida qoldirgani, bu hammamizga ayon. Besh asrdirki jahon ahli Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatiga va uning meroslariga juda katta qiziqish bilan qarab kelmoqda. Qomusiy olim, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, benazir shoir faoliyatini qayta - qayta o‘rganishni davom ettirmoqda, ma’naviy merosi qancha ko‘p o‘rganilsa shuncha ko‘p ochilmagan qirralari ochilmoqda.

Z.M.Boburning fe’l atvori o‘z zamondoshlari va tarixchilar tomonidan ko‘klarga ko‘tarib meroslari targ’ib qilingan. Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” kitobida “Z.M.Boburni juda ko‘p fazilatlar bezab turar va u behisob oliyjanob hislatlarga burkanib mardligi va saxovatpeshaligi hamma hislatlaridan ustun turar edi” degan [1].

Hindiston davlat va siyosat arbobi Javoharla’l Neru qiziga bag‘ishlab yozgan “Jahon tarixiga bir nazar” kitobida Z.M.Bobur haqida quyidagi fikrlarni aytgan: “Z.M.Bobur Samarqand taxtini egallaganida bor yog‘i o‘n bir yashar o‘spirin edi. Sening yurtdoshlaring bu yoshda maktabga borishadi. Sultonlik esa muskul vazifa. Har tarafdan uni dushmanlar qurshab olgandi. Unga shu yoshida muhoraba maydonlarida ot surishga, jang-jadal qilichini tutishga to‘g‘ri keldi. Taxtini yo‘qotib, o‘zining dolg‘ali

umr yo‘lidagi juda ko‘p sarguzashtlarni boshidan kechirib, yana qaytib oldi. Shunda ham nazmu-navo, san’at bilan oshnoligini qo‘ymadi.Qobulni fath etganidan so‘ng , Hind tog‘lari orqali Hindistonga kirib keldi.Qo‘shini oz sonli bo‘lsada, u o‘sha vaqtlarda Ovro‘pa va Garbiy Osiyoda urf bo‘layotgan o‘tochar qurollarga ega edi”.

Eng qizigi shundaki, S.Leyin Paul ya’ni ingliz tarixchisi Zahiriddin Muhammad Boburni “Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi” desa , nemis olimi Klaynpot “Bobur jasur, ulug‘vor, buyuk iqtidor egasi edi” deb e’tirof etadi.

Haqiqatdan ham Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati, siyosati, diniy va dunyoviy qarashlari butunboshli jamiyatga Z.M.Bobur tomonidan asos solinib 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi tomonidan bizga qolgan ulkan axloqiy meros muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Frantsuz olimi Jan Pol Ru: “Eng buyuk tarixiy siymolardan biri Bobur tarixda iz qoldirgan shaxslarning eng barhayotlaridandir” [2], deganida ulug‘ vatandoshimizning ijodiy merosi asrdan-asrga o‘tib, dunyo xalqlarining ma’naviyatiga hali-hanuz xizmat qilib kelayotganini ko‘zda tutgani tabiiy.

Z.M.Bobur she’riyatida inson kamolotidagi axloqiy va ma’naviy masalalarga keng o‘rin berilgan.U do‘stlik, birodarlik, vatanga sadoqat kabi sifatlarni olqishlaydi. Ota-ona bilan farzand o‘rtasida mehr - muhabbat , qadr-qimmat, ehtirom kabi insoniy fazilatlar barqaror bo‘lishini istaydi:

Otani chunki qibla deb turlar,
Qibla yanglig‘ anga nazar qilg‘il.
Ota og‘ritma, ey otam zinhor,
Ota ozoridin hazar qilg‘il.

Z.B.Bobur axloq-tarbiya masalasiga alohida e`tibor bergan.Shoirning ma’naviy-falsafiy qarashlarini va ijtimoiy mavzularga bo‘lgan munosabatini aniqlashda uning, ayniqsa, muammolarini o‘rganish katta ahamiyatga egadir:

Xulqingni rost qilg‘il har sorig‘akim borsang,
Ahsanta der bori el gar yaxshi ot chiqarsang[3].

Z.M.Bobur ijodida uning axloqiy qarashlar faqat g‘azallarida emas, balki ruboiylarida ham aks etgan. U boshidan o‘tgan kechinmalari asosida o‘quvchiga ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalar chiqaradi:

Eshitsa kishi bu sho‘ru shevan ne degay,
Doim bu tariq ichguni ko‘rgan ne degay?

Dushman so‘ziga kirma, eshit do‘st so‘zini,
Eshitmasa so‘zni do‘st, dushman ne degay?

Z.M.Bobur ijodi juda serqirra. Ayniqsa “Mubayyin” asari diniy-ma’rifiy,ilmiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy mazmunga ega bo‘lganligi bois muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Bobur

asarda farzandlari Humoyun va Komron mirzolarga bag‘ishlagan qismida quyidagi misralar uchraydi:

Bilgasen, ey xo‘jast-e farzand,
Jigarim birla jonima payvand.

Masalalarki ul zarur erdi,
Bilmasang diningga qusur erdi.

Ushbu satrlardan shuni anglash mumkinki, Z.M.Bobur o‘zining axloqiy qarashlarini o‘z farzandlariga ham nasihat tarzida keltirgan. Shoir e’tiqodni eng birinchi o‘ringa qo‘yib, ushbu asarning 1-qismini “E’tiqodiya “ deya nomlagan. Unda besh farz: iymon,salot,zakot,savm va haj haqida qisqacha ma’lumot beriladi.
Z.B.Bobur ijodining ma’naviy- axloqiy ruhda yozilgan asarlari juda ko‘p.

Andijonda tavallud topgan, butun bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan, ozbek millatining shon-shuhratini dunyomiqyosiga olib chiqqan - Zahiriddin Muhammad Bobur halqimiz uchun g‘urur va faxr timsolidir.

Xulosa qilib aytganda, Z.M.Bobur ijodini o‘rganish yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ayganidek, “Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga-Uchinchi Renesans davriga qadam qo‘yayotgan bir davrda Boburning bebaho merosini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.”

Adabiyotlar

1. Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy”. T, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2011 yil
2. J.Rahimov “Buyuk davlat arbobi, ulug’ sarkarda va qomusiy olim”. T, 2023yil
3. Z.M.Bobur “Boburnoma”. T, “Sharq” nashriyoti 2018 yil
4. Z.M.Bobur “Mubayyan”. T, “Hilol nashr”, 2021 yil

БОБУР ВА “БОБУРНОМА” ХОРИЖИЙ ТАДҚИҚОТЧИЛАР НИГОҲИДА



Матяқубов Халил Ҳайитбаевич
Низомий номидаги ТДПУ
Тарих фанлари номзоди, доцент.

Мамлакатимиз истиқлолга эришгач, ўтмиш тарихимиз, бадиий-илмий адабиётимизни ўрганишга тўғри ва холисона ёндошув устувор аҳамият касб этди. Коммунистик мафкура ҳукмронлиги шароитида туркий ўзбек адабиётининг буюк намояндаси Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодининг ҳам миллий ва умуминсоний аҳамияти камситилди. Хусусан, Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг 1986 йилда бўлган учинчи пленумида Бобур шахси таҳқирланиб, “маърифатли” золим деб тилга олиниши ушбу ёндошувнинг кульминацияси бўлган эди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг шоҳ асари бўлмиш “Бобурнома” ўрта асрлар даврининг асл мўжизаларидан бири саналади. У шубхасиз дунё адабиётининг ҳеч ўхшаши ва тенги йўқ бўлган дурдона асарларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам ушбу асар нафақат маҳаллий, балки хорижий тадқиқотчилар, тарих, адабиёт ва ўнлаб фан соҳалари билан қизиқувчиларнинг диққатини тортиб келади [1. 86-б.].

Ғарбда ҳарбий хотиралар ёзиш анъанаси Ктесий, Геродот, Ксенофонт, Юлий Цезарь, Квинт Курций Руф, Арриан каби антик даврнинг буюк тарихчи-файласуфлари ва давлат арбобларига бориб тақалади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз олдига таржимаи холини ёзишни мақсад қилиб қўяр экан, жуда камдан кам муаллифга насиб қиладиган ишни уддалаган.

Албатта буюк мутафаккир бобокалонимиз Бобур ва унинг ижоди, хусусан “Бобурнома”нинг жаҳонда тутган ўрни, аҳамияти ва қадр-қиммати ҳақида асар яратилгандан бери ўтган 5 аср мобайнида сон-саноқсиз эътирофлар, эҳтиромлару, ҳайрат-ҳаяжонлар бўлганлиги ҳаммамизга маълум.

“Бобурнома” ҳақида жуда кўп ва хўп ёзилган. Фикрлар билдирилган. Аммо уларнинг ичида худди марварид доналари каби ажралиб турувчи дуру-гавҳарлар ҳам борки, биз бундан хабардор бўлишимиз, яна бир карра жаҳон олимларининг “Бобурнома”ни ўқиб ҳайратга тушиш сабабларини қисман бўлсада билиб қўйишимиз фойдадан холи бўлмайди.

Тарихан автобиографик асар ёзиш Бобургача Осиёда ҳали урф бўлмаган. Марказий Осиёда эса бу анъана умуман мавжуд эмасди. Таниқли ҳинд ёзувчиси Амитабх Гош Бобур меросига баҳо бериб шундай деб ёзган эди: “Мен Ҳиндистон

атрофидаги барча давлатларда XIX асргача бундай услубда ёзилган ягона асарни биламан. У ҳам бўлса бир савдогарнинг ҳаёти ҳақида мухтасар ҳикоя қилади халос. Нима бўлишидан қатъий назар, “Бобурнома” давлат ишларининг ҳаққоний солномаси сифатида дунёга келган. Бундан қарийб 5 аср олдин ёзилган, муаллифнинг ўзини-ўзи кашф қилишга қаратилган бу асардаги ҳайратомуз ҳикоялари ҳали-ҳануз севиб ўқилмоқда”.

“Бобурнома” ўз давридаёқ Деҳли ва Агра саройларида жуда катта эътибор ва шухрат топади. Хумоюн тахтга чиққанидан сўнг бу китобдан ўз қўли билан нусха кўчиради. Акбаршох даврида бу асар форс тилига таржима қилинади. Бу ишни Хумоюн ва Акбаршох ҳукмронлиги даврида нуфузли мавқега эга бўлган Байрамхоннинг ўғли Мирзо Абдурахимхон амалга оширган эди. “Бобурнома”нинг 1586 йилда форс тилига қилинган бу таржимаси аслиятга энг яқинлиги билан ажралиб туради. Кейинги даврларда хорижий тилларда нашр этилган барча “Бобурнома”лар айнан мана шу форсча матнга асосланганлиги билан аҳамиятли.

“Бобурнома” 1705 йилда Витсен томонидан голланд тилига, 1826 йилда Жон Лейден ва Эрскин томонидан инглиз тилига, 1826 йилда Кейзер томонидан немис тилига, 1871 йилда Паве де Куртейл томонидан француз тилига, кейинроқ Партузов, Полеков, Вьяткин томонидан рус тилига айрим парчалари таржима қилинади. Россияда бирмунча мукаммал ҳолатдаги “Бобурнома” 1857 йилда Николай Ильминскийнинг сўзбошиси билан Қозонда таржима қилинади.

Бугунги кунда жаҳон қўлёзма жамғармаларида “Бобурнома”нинг форс тилидаги 68 та қўлёзмаси мавжуд. Уларнинг қарийб тенг ярми хорижда, Британия музейида, Лувр, Париж илмий кутубхонасида, Москвадаги Шарқ халқлари маданияти музейида, Англиянинг Виктория ва Алберт номидаги музейида, Америка Қўшма Штатлари ва Ҳиндистон музейларида сақланмоқда.

“Бобурнома”нинг Лейден-Эрскин таржимаси XIX асрдаёқ бутун дунё халқларининг диққат-эътиборини ўзига жалб этиб Оксфорд, Лондон, Эдинбург, Глазго, Копенгаген, Нью-Йорк, Торонто, Мельбурн, Кейптаун, Бобмей, Калькутта, Мадрас, Шанхай, Пекин сингари дунёнинг 8 мамлакати ва 14 та шаҳрида чоп этилди.

“Бобурнома”нинг инглиз тилидаги янада мукаммал вариантини яратиш иши тўхтамайди. 1905 йили Англияда бу асарнинг ишончли қўлёзма нусхаси топилиб, аслиятида нашр қилинади [2. 498 б.].

1921 йилда “Бобурнома”нинг янги инглизча таржимаси муфассал шарҳлар билан иккинчи марта чоп этилди. Бу таржимани Анетта Беверидж амалга оширди [3. 2-vols.]. Китобнинг бошида ўн беш бетлик сўз боши ва асар охирида мукаммал киши исмлари, география, қабила ва уруғ номлари кўрсаткичи берилган. Анетта Сузанна Беверидж хонимнинг бу асар бўйича олиб борган изланишлари фан учун ниҳоятда катта аҳамият касб этади. Унинг 100 дан ортиқ мақолалари, инглизларнинг нуфузли “Роял азиатик” журналида 1900-1923-йиллар мобайнида мунтазам босилиб турилди. Бу тадқиқотларда Беверидж хонимнинг “Бобурнома”нинг нодир қўлёзмалари ҳақидаги бир нечта илмий мақолалари ҳам

мавжуд. Булар бебаҳо асарни таржима қилиш борасидаги дастлабки уринишлар эди. Ушбу мумтоз асарни гоҳ аслиятдан, гоҳ форсий таржима орқали немис ва француз тилларига ҳам ўгириш ишлари бошланди. Бу борада биринчи навбатда Харольд Лэмбнинг “Бобур – йўлбарс”, австриялик немис адиби Фриц Вюртленинг немис тилида “Бобур – йўлбарс (Фарғона шаҳзодаси)” ва Вильям Рашбрукнинг “Ўн олтинчи аср бунёдкори” қиссаларини алоҳида кўрсатишимиз мумкин. Ушбу сўнгги асар 2011 йилда Ғ.Сатимов ва Х.Сўфиевалар томонидан ўзбек тилига таржима қилиниб нашр этилди [4. 208-б.].

“Бобурнома”ни 1980 йилда ЮНЕСКО шафелигида француз тилига таржима қилиниши катта воқеа бўлди. 2002 йилда эса Гарвард университети профессори, таниқли шарқшунос олима Аннемарие Шиммелнинг шогирди Уэллер Текстен томонидан асарининг мутлақо янгидан инглиз тилига ўгирилгани эса, жаҳон жамоатчилигида “Бобурнома”га бўлган қизиқишни яна бир карра уйғотди. “Бобурнома”нинг Оксфорд университети томонидан чоп этилган бу нашри ўша даврга оид кўплаб расмлар ва миниатюралар билан безатилган.

2004 йилда Мерсе Комас “Бобурнома”ни испан тилига, 2006 йилда Мажда Махлуф хоним араб тилига таржима қилдилар. Шу тариқа бугунги кунга келиб Испания ва бутун Жанубий Америка аҳолиси, шунингдек 26 та араб мамлакатлари китобхонлари ҳам “Бобурнома”дан баҳраманд бўлиш имкониятига эга бўлдилар.

Ғарб тадқиқотчиларининг фикрича, “Бобурнома”нинг майдонга чиқиши мусулмон дунёси ичида камдан кам учрайдиган ходисадир. Чунки бу асарда ўша давр воқеалари ҳамда халқнинг турмуш тарзи оддий, равон тил билан ҳаққоний акс эттирилган. Чиндан ҳам Бобурнинг давлат раҳбари, улкан сиёсатчи ва лашкарбоши, шунингдек фан ва маданият арбоби сифатидаги фазилати шундаки, унинг бу борадаги барча ҳаракатлари маълум бир мақсадга қаратилган ва албатта ижтимоий моҳият касб этган. Шу маънода “Бобурнома” фақат ўзбек маданияти тарихидагина эмас, балки ўша даврдаги бошқа кўпгина халқларнинг маданиятлари тарихида ҳам фавулодда бир воқеадир.

Буюк тарихий сиймо сифатида Бобур шахси Ғарб шарқшунос-тарихчи олимлари диққат эътиборини ўзига жалб этган. Инглиз тарихчиси Эдуард Холден, аввало, Бобурни машҳур Юлий Цезарь билан қиёслашни лозим топади: “Бобур феъл-атворига кўра Цезарга қараганда севишга арзигуликдир. Унинг манглайига юксак фазилатли инсон деб битиб қўйилган”.

Бежизга “Бобурнома”нинг умумий мазмуни ва унда акс эттирилган воқеалар ҳақида инглиз олими Моунстюарт Эфинстоун қуйидаги самимий сўзларни ёзмаган: “Бу мемуарда буюк турк подшосининг ҳаёти батафсил тасвирланган. Унинг шахсий ҳис-туйғулари ҳар қандай муболағадан, пардадан ҳоли, унинг услуби оддий ва мардона, шунингдек жонли ва образли, ўз замондошларининг биографияларини, уларнинг қиёфаларини, урф-одатларини, интилишларини, қилиқларини ойнадек тасвирлайди. Шу жиҳатдан “Бобурнома” Осиёда ягона чинакам тарихий тасвир намунасидир. Бобур ҳар бир одамнинг ташқи кўриниши, кийими, таъби ва одатини яққол ифодалайди. Мамлакатларнинг, уларнинг

иқлимини, манзарасини, хўжалигини, санъат ва хунармандчилик наъмуналарини бирма бир тасвирлаб беради. Бу ишда унинг шахсий характери муҳим аҳамият касб этади. Чунончи, Осиёда ўтган такаббур ва совуққон ҳукмдорлар орасида ўзининг болаликдаги дўсти жон берганда кўз ёши тўкиб, қайғуга ботганини ҳикоя қила оладиган подшох кам топилади" [5. 14-б.].

Ҳеч қандай муболағасиз айтиш мумкинки, Бобур ҳар бир мамлакатнинг тоғи, дарёси, жойлашуви, рельефи, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, ёҳуд у ёки бу ўлканинг у ёки бу қисмини тасвирлашда бизнинг кўз олдимизда ўз даврининг буюк географик олими сифатида гавдаланади. Бобур турли жойлардаги ўсимлик ва ҳайвонларнинг номини келтириш, турларини санаш билан чекланиб қолмайди. Балки, шу билан биргаликда уларнинг инсонлар учун аҳамияти, қандай фойда келтирилишини камида бир биолог сифатида батафсил баён қилиб беради.

Атоқли академик олим В.В.Бартольднинг асарларида Бобурнинг номи 152 марта қайд этилган. Олимнинг таъкидлашича, XV-XVI асрдаги Фарғона ва Самарқанд ҳудудларининг географиясини ўрганишда "Бобурнома" асари энг қимматли, энг ишончли ва тенгсиз манба саналади. Фикримизча, олим "Бобурнома"нинг имкониятлар кўламини бироз пасайтириб ёзган. Чунки "Бобурнома"нинг географик кўлами юқоридаги иккита вилоят билан чекланмаслигини бугун энг оддий ўқувчи ҳам яхши тушунади.

"Бобурнома"ни инглиз тилига таржима қилган Уильям Эрскин Бобур ҳақида шундай дейди: "Бобур характерининг энг ўзига хос жиҳати унинг бошқа ҳукмдорларникига ўхшамаслигидадир. Чунки Осиё тождорларидаги маҳобат, сунъий хулқ ўрнига бизнинг кўз олдимизда Бобурнинг феъл-атвори табиий, ҳаётий, ёқимли ва самимий бўлиб гавдаланади. Бобур тахтда ўтиришига қарамай, оддий турмушнинг гўзал туйғуларини ўзида сақлаб қола билган. Биз Осиёдаги ҳукмдорлар ичидан Бобур сингари каби истеъдод соҳибларини камдан кам учратамиз". Олим Бобурнинг болалик ва ўсмирлик йиллари ҳақида ёзган романида уни Осиё подшоҳларига қиёсан шундай баҳолайди: "Саҳовати ва мардлиги, истеъдоди, илм-фан, санъатга муҳаббати ва улар билан муваффақиятли шуғулланиши жиҳатидан Осиёда подшоҳлар орасида Бобурга тенг келадиган бирорта подшоҳ топилмайди"[6. 4-б].

Шу пайтгача дунёнинг энг зўр 100 та романи рўйхатидан жой олиб келаётган машҳур "Ҳиндистонга йўл" асарининг муаллифи инглиз ёзувчиси Эдуард Фостер эса Бобурни италян файласуфи Н.Макиавелининг "Ҳукмдор" асарига қаҳрамон бўлиш даражасига кўтариб шундай дейди: "Макиавелли "Ҳукмдор" асарига материал йиғаётган вақтда Ўрта Осиё тоғларида бир ёш йигит маслаҳатга мухтож бўлиб кезиб юрар эди. Унинг муаммоси Флоренцияда аллақачон муаммога айланган қиролларнинг кўплигию, қиролликнинг йўқлиги билан изоҳланар эди. Хўш, Макиавелли Бобур ҳақида бирон марта эшитганмикин? Эшитмаган бўлса керак, акс холда у ҳақидаги маълумотлар унга етиб келганида Макиавелли нафақат ҳайратга тушар эди, балки унинг беқиёс шахсидан лол қолган бўлар эди".

Дарҳақиқат, агар ўрта асрларнинг энг зўр 100 та асари рўйхати тузилганида эди, шубхасиз "Бобурнома" албатта бу рўйхатдан ўзига муносиб жой эгалларди.

Чунончи, дунё адабиётида “Бобурнома”га тенгдош асарлар кўп яратилган. Аммо уларнинг кўпчилиги вақт синовига дош беролмай аллақачон унутилиб юборилган. Бироқ “Бобурнома” ҳали ҳануз ўзининг қадр-қимматини йўқотгани йўқ. Аксинча, бу асарнинг жаҳон миқёсида XXI асрда ҳам қайта-қайта таржима қилинаётгани айни фикримизнинг исботидир. Зеро буни инглиз адиби Форстернинг қуйидаги сўзлари ҳам тасдиқлайди: “Бобурнома” соф ва самимий асар ўлароқ, одамда бетакрор ва нафис таассурот қолдиради. Биз беихтиёр муаллифнинг кўнглидаги ишонч дунёсига кириб қоламиз. Чунки, айни битикларнинг ўта самимийлиги, кучлилиги, таъсирчанлигига яна Бобурнинг қалб қўри ҳам қўшилади. Шу тариқа ўқувчи марҳум ва тирик ҳукмдорлар орасида ўзига кам учрайдиган ҳамроҳ топади”.

Француз олими Жон Пол Ру Бобур ҳақида асар ёзар экан ўзига ўзи “нега Бобурни танладим?” – деб савол беради ва ўзи жавоб қайтаради: “Чунки унинг адабий мероси бизга ҳамма нарсани тухфа этади. Тўғри унинг кундалик ҳаёти камчилик ва ютуқлардан холи эмас, аммо одатда у айнан шу хусусиятлари билан беихтиёр сизнинг ўзингизники бўлиб қолади”.

XIX аср ўрталарида Англиянинг “Ост Индия” компанияси муҳандиси генерал-майор Чарлз Вадингтон Фарғона ва Бухоро харитасини тузар экан бу иккала ҳудуднинг харитасини яратишда ҳаётдан олинган маълумотлар, географик ўлчовлар билан баробар “Бобурнома”да келтирилган аниқ кузатишлар, жой номлари ва бошқа маълумотлардан ҳам фойдаланган. Зеро Бобур ўзи таваллуд топган Андижондан то Ҳиндистонгача фавқулодда катта масофани босиб ўтган ва ўз йўлида кўзга кўринган ҳар бир детални қоғозга туширган. Чарлз Вадингтон ўзи қўлга киритган ҳисоб-китоблар билан уларни муқояса қилади ва шундай дейди: “Аниқ кузатишларга кўра мен Самарқандни 64 даражаю 53 узунликда, 39 даражаю 40 кенгликда чизганимдан кейин бошқа жой ва юртларни аниқладим. Менинг маълумотларимга кўра берилган ўлчовлар кейинчалик Бобур берган маълумотлар билан қиёслаганда жуда ҳам тўғри ва мос келганлиги мени қувонтирди”.

Бундан ташқари Бобур ўз асарида ўзи яшаган анча нотинч ва беқарор давр тарихи ва ҳаётининг турли жаҳатлари ҳақида бой маълумотлар беради. У элатлар ва халқлар ўртасидаги турли зиддиятлар ва можаролар ҳақида гапирар экан, шу билан биргаликда Ўрта Осиё ва Жанубий-шарқий Осиёнинг ўзи қадам қўйган янги ерларнинг аҳолиси ва уларнинг турмуш тарзи ҳақида ҳам батафсил тўхталади. Айниқса Бобурнинг Ҳиндистон ҳақидаги тарихий маълумотлари ўзининг географик, сиёсий ва маънавий аҳамияти билан бу халқ вакиллари томонидан юксак эътироф этилади. Жумладан, атоқли давлат арбоби Жавахарлал Неру ўзининг “Ҳиндистоннинг кашф этилиши” асарида “Бобур дилбар шахс, уйғониш даврининг типик ҳукмдори, мард ва тадбиркор одам бўлган. У санъатни, адабиётни севарди, ҳаётдан ҳузур қилишни яхши кўрарди” деган таърифи бугун барчамизга фахру-ифтихор бағишлади [7. 4-б.].

Ҳиндистоннинг яна бир сиёсий арбоби Раджив Ганди ўз асарларидан бирида “Бобур Ҳиндистон маданияти ва иқтисодиётини юксалтирган Ўрта Осиёнинг

машҳур олими, ҳинд донишмандлари ва ҳунармандларининг бой тажрибасига суянган холда оқилона давлат сиёсатини юргизиб катта ютуқларга эришган буюк тарихий шахсдир” деганида унинг Ҳиндистон тарихида улкан ишларини назарда тутганлиги шубхасиз.

Дарҳақиқат, дунё сиёсатида Бобур шахси ва унинг “Бобурнома” асари улкан эҳтиром ва чуқур илтифот билан тилга оланади. Унинг шахсий хусусиятлари, амалга оширган эзгу ишлари юксак мамнуният билан қадрланади. Зеро, Бобур ҳаёти ва ижоди асрлар оша ўз илмий аҳамиятини йўқотмайдиган башариятнинг ўлмас маданий меросидир.

Адабиётлар рўйхати

1. Отажонов Н., Муҳитдинов М. “Бобурнома” жаҳон кезади. -Тошкент: 1984. Адабиёт ва санъат. -230 б.

2. Beveridje Annette S. The Babar-Nama. -Vol /1/ - (Babar. – PP/1/ xii l). -Leuden-London, 1905. -498 p.

3. Babur-nama. English tr. A.S. Beveridge. Memoirs of Babur. 1922. London. 2 vols.

4. Рашбрук В. Ўн олтинчи аср бунёдкори // масъул муҳаррир Х.Султонов. -Т.: “Шарқ”. 2011. -208 б.).

5. Сингх Н.К., Ванержи А.У. Ҳиндистон тарихи. 2004**.** 14-б.

6. “Бобурнома”. -Т.: “Ўқитувчи”. НМИУ. 2008.

7. Неру. Ж. Жаҳон тарихига бир назар. Бобур. // М. Султонов таржимаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1989. 10-ноябр.

AVRANGZEB OLAMGIR – QUDRATLI BOBURIY HUKMDOR, MADANIYAT HOMIYSI

Madraximov Zoxid Sharofovich,
Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Hindistonda salkam uch yarim asr hukm surgan boburiylar saltanati tarixining yarim asrlik davri Avrangzeb Olamgir hukmdorlik qilgan-yillarga to‘g‘ri keladi. Boburiylar sulolasida Avrangzeb beshinchi avlodga mansub (oltinchi hukmdor) bo‘lib, ular orasida bobokaloni Akbarshoh singari Hindiston qit’asidagi bu ulkan imperiyani yagona markazdan boshqariladigan yaxlit bir davlat sifatida 50-yil (1658 – 1707) mobaynida boshqarib kelgan tarixiy shaxsdir.

Avrangzeb buyuk boburiy hukmdor Shoh Jahon (1627 – 1658) va malika Mumtoz Mahalbegim[•] ning to‘rt o‘g‘lining uchinchisi[•] bo‘lib, u 1618-yilning 24-oktyabrida (ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, 4-noyabrda, hijriy-qamariy hisobda zulqa’da

[•] Mumtoz Mahalbegim (1594-1631) Shoh Jahonning eng sevimli malikasi bo‘lib, uning asl ismi Arjumandbonu. To‘liqroq ma’lumot uchun qarang: Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: А.Қодирий, 1994.

[•] Shoh Jahon va uning rafiqasi Mumtoz Mahalbegim nikohidan to‘rt o‘g‘il dunyoga kelgan: Doro Shukuh, Shoh Shujo‘, Avrangzeb va Murod Baxsh.

oyining o‘n beshinchisida) Hindistonning Ujjayin viloyatidagi Dohad (Duhad) shahrida dunyoga kelgan [1. 42-43-betlar].

Avrangzeb Olamgir nomi bilan butun dunyoga tanilgan boburiy hukmdor va sarkardaning asl ismi Abu Muzaffar Muhyiddin Muhammad (Birinchi Olamgir ham deyishadi) bo‘lib, uning taxallusidagi forscha “Avrangzeb” so‘zi “toj-taxt bezagi” [2. 494-c.] ma’nosini bildirsa, “Olamgir” nomi esa arabcha-forscha – “olamni zabt etuvchi”, “jahon fotihi” ma’nosidadir.

Shoh Jahon ancha zakovatli va ziyrak uchinchi o‘g‘lining ta’limi haqida jiddiy qayg‘urib, buning uchun yurtdagi eng mashhur olim va ustozlarni saroyga taklif etadi. Bola sakkiz yoshida Qur’oni karimni yod oladi, hadis va fiqh ilmlaridan chuqur tahsil oladi. U rasmiy davlat tili bo‘lgan forschadan tashqari arab, hind-urdu, bobokalonlari tili bo‘lmish turk (chig‘atoy) tillarini puxta bilib oladi. Katta bobosi Bobur kabi adabiyotga katta mehr qo‘ygan, o‘zi ham g‘azallar bitib turardi. Avrangzeb xattotlikka ham qiziqib, bu sohada ham ancha yutuqlarga erishadi, arab xatining nasta’liq va shikasta usullarida mohir xattotlardan qolishmasdi. Uning xattotlik san’ati namunalari hozirgacha saqlanib qolgan.

Yosh Avrangzeb saroydagi hasham, mol-dunyo va mansab fitnalariga qiziqmas, aksar vaqtini kitob mutolaasi va harbiy san’atni o‘rganish bilan o‘tkazar edi. U qurol ishlatish va harbiy mahoratini oshirishda ham katta natijalarga erishib, bu narsa uning keyinchalik boshlagan harbiy yurishlarida nihoyatda qo‘l keldi. U keyinroq Markaziy Osiyo va Qandahorga qilgan yurishlarida, Gujarot va Dekkon o‘lkasining to‘rt viloyatida hokimlik qilib turgan paytlarida harbiy sohada katta tajriba orttirdi va uning bu tajribasi saltanat taxti uchun olib borgan kurashlarida uning foydasiga ishladi [3. 11-12-betlar.].

XVII asrning ikkinchi choragida Boburiylar davlatida Shoh Jahon (1627 – 1658) davrida boshqaruvning izdan chiqishi, islohotlarning tartibsiz amalga oshirilishi imperiyada asr boshidan ildiz otgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy inqirozni yanada kuchayishiga olib kelgan. Markaziy hokimiyatdagi parokandalik oqibatida saltanatni idora etishda sustkashlikka yo‘l qo‘yildi, o‘zaro ichki urushlar, millatlararo va dinlararo qarama-qarshiliklar kuchayib, markaz bilan mahalliy boshqaruv tizimi o‘rtasida aloqa uzilgan. Mamlakat bo‘ylab xalq qo‘zg‘olonlari avj olgan, ba’zi viloyatlarning markaziy hokimiyatdan mustaqil bo‘lib ajralib chiqishi jarayoni kuchaygan. Ushbu sharoitda boburiy shahzodalar o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanib ketgan. Shoh Jahonning to‘rt o‘g‘li: Doro Shukuh, Shoh Shujo‘, Avrangzeb va Murod Baxshlar o‘rtasida keskin qonli kurashlar kechgan.

XVII asr o‘rtalarida Shoh Jahon og‘ir kasallikka chalinib, davlat va siyosat ishlaridan yiroqlashib qolganidan keyin hokimiyatni katta o‘g‘li Doro Shukuh ishonib topshirgan. Bu esa o‘zini undan ko‘ra ko‘proq taxtga munosib bilgan boshqa shahzodalarning qarshiligi sabab bo‘lib, aka-ukalar o‘rtasida o‘zaro urushlarga sabab bo‘lgan. Mazkur hokimiyat uchun kechgan shiddatli kurashlar yakunida Avrangzeb Olamgir g‘alab qozonib, 1658-yilda mamlakat poytaxti Dehlini egallagan va o‘zini Boburiylar saltanati hukmdori deb e’lon qilgan [1. 43-bet.].

Avrangzeb hukmronligi davrida mamlakatda davlatchilik asoslarini mustahkamlashga harakat qilgan. Kuchli armiya tuzgan, qo‘shinini zamonasining eng yaxshi qurollari bilan ta’minlagan. Hindiston janubida mavjud bo‘lgan mustaqil sultonliklarni markaziy hokimiyatga bo‘ysundirish, yagona imperiyani barpo qilish uchun to‘xtovsiz urushlar olib borgan. Biroq, ko‘p hollarda urushlardan ko‘ra qurbonlarsiz kelishuvlarni afzal ko‘rgan, bu borada aksar hukmdorlarga xos gij-gijlashlar, dushmanlarga qarshi ularning raqiblarini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘llar bilan harbiy-strategik xiylalar ham qo‘llagan. Davlatchilikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri – tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yishda muhim ishlarni amalga oshirgan. Bobakaloni yurti – Turkiston bilan, bu yerdagi Xiva va Buxoro xonliklari bilan do‘stona munosabat o‘rnatgan. Yevropaliklarning kirib kelishi jarayonida g‘arb savdo kompaniyalariga qarshi tinimsiz kurash olib brogan.

Persival Spiar qalamiga mansub “Hindistonning muxtasar tarixi” asarida Avrangzeb shaxsiyati va davlatchilik faoliyati nisbatan ijobiy baholangan: “Avrangzeb davlat sarhadlarini xiyla kengaytirdi. U qattiqqo‘l bo‘lganidan emas, balki yo‘lboshchilik tajribasi va boshqaruvning samaradorligi tufayli muvaffaqiyat qozondi... Uning mahalliy aholiga munosabati Akbarning murosasozligidan farq qilsa-da, uning “murosasizligi” haqidagi tasavvurlar Banoras ibodatxonasi o‘rnida barpo etilgan masjid voqeasiga asoslangan edi, xolos”.

Avrangzebni tarixchilar saltanatda ilm-fan, madaniyat, me’morchilikning sahovatli homiyi sifatida tilga olishadi. Uning ayniqsa bobolari tili bo‘lmish turk (chig‘atoy) tilining ravnaqi yo‘lida xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. Hindistonda forsiy va hind tillari ustun bo‘lsa-da, Avrangzeb turkiy (Chig‘atoy- o‘zbek) adabiyot rivojini qo‘llab-quvvatlaydi, turkiy til lug‘atlari tuziladi. Bobosi Boburdek adabiyotga havas qo‘ygani hamda g‘azallar yozgani, shuningdek, xattotlik va xat-yozuvda mohir bo‘lgani ham uning savodli bo‘lganligidan dalolat beradi. Avrangzebning qizi Zebunnisobegim• ham iste’dodli shoira, tasavvuf falsafasi bilan shug‘ullangan yetuk olima, tanbur sozandasi hamda qobiliyatli xattot sifatida nom qozongan.

Shoh Jahon hukmronligi davrida ma’lum darajada o‘z mavqeyini yo‘qota boshlagan chig‘atoy turkiy tili Avrangzeb davriga kelib qayta tiklangan. Chunki turkiy tilni tadqiq va tashviq qilishda Avrangzebning o‘zi ham muayyan hissa qo‘shgan, bevosita uning ko‘rsatmasiga binoan Muhammad Yoqub Changiyning turkiy til grammatikasi masalalariga bag‘ishlangan o‘n besh qismli “Kelurnoma” yoki Kasaban Barbalaning shu an’ana ruhidagi “Haft axtar” asarlari yozilgan [3. 77-bet].

Hind tarixchisi Jadunath Sarkorning ma’lumotiga ko‘ra, Avrangzeb arab va fors tillarida durustgina yoza olgan. U hind tilida gapirganida, o‘sha kezlari keng tarqalgan hikmatli so‘zlardan erkin foydalangan. Balx va Qandahordagi aksar o‘rta osiyoliklardan tashkil topgan qo‘shinda xizmat qilganidan bo‘lsa kerak, u ayniqsa chig‘atoy turkiysini puxta bilardi.

• Zebunniso begim (1639-1702) – Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning pannevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb (taxtbezagi) Olamgirning qizi. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozxonning qizi bo'lib, Boburning Gulbadan begim ismli qiziga borib tutashadi. Qarang: Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: А.Қодирий, 1994. // Зебуннисо бегим.

Mamlakatda ilm-fanga, madaniyatga berilayatgan e’tibor samarasi o’laroq, Sharq xatto, G’arb mamlakatlaridan ham ko’plab ilm-fan vakillari Hindistonga kelib, o’z faoliyatlarni davom ettirganlar. Xususan, bu davrda Hindistonda 12 yil yashab, 9 yil boburiylar Avrangzeb saroyida tabiblik qilgan fransuz sayyohi Fransua Bernye (1625–1688) o‘zining “Buyuk Mo‘g‘ul davlatidagi so‘nggi siyosiy to‘ntarishlar tarixi” nomli noyob asar yaratadi [5. 220 c.].

Mamlakatdagi adabiy jarayon borasida Mavlono Ibrohim Hisoriy, Mun’im Samarqandiy, Mulla Mufid Balxiy, Mirsaid Jalol, Nosir, Shamim va Saodatga o‘xshash movarounnahrlik olim va shoirlarning Hindistonga kelganlarini qayd etish mumkin. Hali hayotligidayoq O‘rta Osiyo, Hindiston, Eron va Ozarbayjonda chuqur xurmat va e’tibor qozongan mutafakkir va mutasavvif shoir Mirzo Bedil• ham mazkur davr adabiyotining yorqin siymosi edi.

Avrangzebning boburiylar bobokaloni Amir Temur maqbarasini ta’mirlash maqsadida xazinadan mablag‘ ajratib, bir necha bor Buxoro xonligiga elchilarni jo‘natgani aloqida ahamiyatga molikdir. Uning bu harakatlaridai bobosi Boburshoh singari tarixiy Vatani Turkistonni ardoqlaganini ko‘rish mumkin. Bulardan tashqari, Avrangzeb qarbiy va davlat boshqaruvi bilimlarini ham yoshligidan yaxshi o‘rganib, aka-ukalariga nisbatan ancha uddaburon va qobiliyatli bo‘lib voyaga yetgan edi [3. 79-81-betlar].

Boburiy podshohlar hukmronligi tarixida hukmdorning dinga munosabati borasida Avrangzeb Olamgir davri alohida ahamiyat kasb etdi. Avrangzeb yoshligidanoq, o‘ta xudojo‘y, taqdvodor musulmon, kamtar inson edi. Shariat qoidalariga va Qur’oni Karim talablariga qat’iy rioya qilardi. Yeydigan taomlari va kiyadigan liboslari ham juda sodda bo‘lib, ortiqcha hasham va zeb-u ziynatlarni yoqtirmas edi. Umrida biron marta ham kayf qiladigan ichkilig-u giyohni totib ko‘rmagan taqvodor inson edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayollar bilan bo‘ladigan ishratlardan ham o‘zini chetda tutardi. Uning xotinlari bir vaqtning o‘zida turtadan ortmagan. Bor-yog‘i bittagina kanizak saqlar edi. Uning musulmonlikka e’tiqodi shunchalik kuchli ediki, L.P.Sharmaning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyo o‘lkalariga qilingan harbiy yurishlar davomida bo‘lib o‘tgan shiddatli janglardan birida, jang keskin tusda davom etib turgan paytda otdan tushib peshin namozini o‘qigan, so‘ng yana janga kirib ketgan ekan [6. 30-bet.].

Hukmdorning yurtda olib borgan obodonchilik, me’morlik sohasidagi ishlari ham sezilarli ravnaq topgan. Avrangzeb Olamgir temuriy bobolaridek qurilish va me’morchilik ishlarini davom ettiradi. Uning bu sohadagi xizmatlarining yaqqol dalili bo‘lgan me’morchilik durdonasi Badshohiy (podshoh) masjidi hisoblanadi.

Pokistonning Lahor shahridagi “Podshoh masjidi” boburiy hukmdor Avrangzebning buyrug‘i bilan 1673 – 1674-yillarda qurib bitkazilgan. Sakkizta minorasi bor: to‘rttasi masjid binosiga qo‘shilgan, to‘rttasi masjidni o‘ragan devor burchaklarida qad ko‘targan. Tashqi minoralarning balandligi 62 metr. Bu yerda paytning o‘zida oltmish minggacha musulmon ibodat qilsa bo‘ladi [7. 15-bet.].

• Mirzo Abdulqodir Bedil – 1644 – 1721-yillarda yashab ijod qilgan shahrisabzlik ijodkor, ashtarxoniylar davlatidan Dehliga borib shu yerda ijod qilgan.

Bu masjid uch asrdan ko‘proq vaqt davomida jahonning eng katta masjidi sanalib keldi. Badshohiy masjidi bugungi kunda ham ana shunday maqomga ega. Dehli va Loxurda ham yirik jome’ masjidlari qurib bitkazildi.

Avrangzeb o‘zining nomi bilan atalgan, keyinchalik saltanat markazlaridan biri bo‘lgan Avrangobod shahrida ham keng ko‘lamda qurilish va obodonchilik ishlarini olib borgan. Avrangzeb va uning o‘g‘li A’zam Shohlar bu shaharda temuriy bobolaridek Avrangzebning suyukli rafiqasi Dilrasbonu begimga (A’zam Shohning onasi) atab mashhur Bibika maqbarasini qurdiradi. Bu ajoyib me’moriy yodgorlik hajmi va unga ishlatilgan qimmatbaho toshlarni hisobga olmaganda buyuk Toj Mahalning aynan nusxasidir [3. 78-bet.].

Professor Najmiddin Nizomiddinov “Avrangzeb: kamol va zavol” maqolasida yozganiday: “Muarrixlarning aksariyati boburiylar sulolasining tanazzulga yuz tutish sabablarini, avvalo, ichki siyosatning diniy murosasozlikdan yuz o‘girishida ko‘radilar. Agar masalaga faqat ana shu jihatdan qaralsa – to‘g‘ri, Akbar hukmronligi vaqtida mamlakat yuksalishni boshdan kechirgan. Ammo yaxlit tarixiy davr nuqtai nazaridan, boburiylar saltanati, Mahatma Gandi ta’riflaganidek, “bir millat – ikki e’tiqod”dan iborat yangi hind davlatchiligi shakllanishida yetakchi omillardan biri bo‘ldi. Shu bois Hindistonda shaklan va mazmunan yangi, na hindlarniki va na musulmonlarmiki bo‘lgan hind-musulmon madaniyati tugal qaror topdi” [6].

Avrangzeb Olamgir 1707-yili (“Maosiri Olamgiriy”ga ko‘ra, Juma kuni erta bilan, bir ming bir yuz o‘n sakkizinchi hijriy yili yigirma sakkizinchi zulqa'daga muvofiq bo‘lgan ellik birinchi yili, bomdod namozidan keyin) 89 yoshida Ahmadobod shahrida vafot etdi. U Avrangobod yaqiniga dafn etildi. Soqiyning qayd etishicha, marhum o‘zining vasiyatiga muvofiq, ulug‘ din peshvosi Shayx Zayniddin mozori sahnida, hayotlik vaqtlarida o‘zi qurdirgan maqbarada, xalq tilida “Xiladobod”, ya’ni “jannatmonand joy” degan nom olgan makonda qaror topadi [9. 409-bet.]. Keyinchalik uning jasadi Davlatobodga ko‘chirilib, hashamdor maqbaraga emas, marmar lavh qo‘yilgan oddiygina qabrga qo‘yildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyoni tebratgan buyuk sarkarda, adolatli podshoh Avrangzeb Olamgir hukmronligi Hindistonda boburiylar saltanatining tarixida eng yuqori cho‘qqi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сотимов Ғ. Бобурийзодалар. – Т.: Маънавият, 2003.

2. Ванина Е. Ю. // Анкилоз – Банка. – М.: Большая российская энциклопедия, 2005.

3. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Аврангзеб Оламгир: Бобурий ҳукмдор ва маърифат ҳомийи. – Т.: Qaqnus media, 2017.

4. Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: А.Қодирий, 1994.

5. Бернье Ф. История последних политических переворотов в государстве Великого Монгола. Пер. с. фр. – М.Л., 1936.

6. Низомиддинов Н. Аврангзеб: камол ва завол. // “Тафаккур”. – 2015. – №1. / http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/avrangzeb-kamol-va-zavol.html

SHAYBONİYLAR DAVLATİDA QO’SHİN TUZİLİSHİ VA SARIPUL JANGI XUSUSIDA (Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari misolida)

Mirzayev Bekzod Nuraliyevich,
tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori,
“University of business and science” Toshkent filiali
Ijtimoiy gumanitar va tillar kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shayboniylar sulolasining hukmronligi, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida shayboniylar davlatida qo’shin tuzilishi haqida qisqacha ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Movarounnahr, Turkiston, Dashti Qipchoq, shayboniylar, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Ko’chkunchixon, harbiy taktika, qo`shin, kutubxona.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa yo’nalishlarda izchil olib borilayotgan islohotlar mustaqillik poydevorini mustahkam qurishga asos bo’lmoqda. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan ishlar ibratlidir. Milliy ma’naviyatimizni har tomonlama yuksaltirishda asosiy omillardan hisoblangan ma’naviy meros, qadimiy boy qadriyatlarimizga, o’tmishimizga munosabatning ijobiy tomonga o’zgarishi, bu borada xolis nuqtai nazarning qaror topishi tufayli XVI asrda yashab ijod qilgan bir qancha mutafakkir-shoir, adib va siyosat na’moyondalaridan Muhammad Shayboniyxon, Mahdumi A’zam Ahmad Xojagi Kosoniy, Poshshoxoja, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Ubaydullaxon, Bayramxon, Zayniddin Vosifiy va boshqalarning nomlari tiklandi, ularning hayot va ijodi o’rganilib, asarlarini turmushga tatbiq etish orqali barkamol avlodni tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Zero, O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tariximiz haqida quyidagi- “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.[1,13].

Shayboniylar sulolasiga mansub xonlar va sultonlar o‘zlarining barcha rejalarini amalga oshirishda Dashti Qipchoqda yashayotgan ko‘plab o‘zbek urug‘larining harbiy majburiyatlar asosida zarur hollarda tez to‘planadadigan ko‘p sonli qo‘shiniga tayanar edi. Buxoro xonligida qo‘shinni tashkil etish tartibi, askarlikga qabul qilish qonun-qoidalari, jangchilar yoshi, kiyimlari, harbiy o‘quv mashg‘ulotlari, xonlik hududida qo‘shinning taqsimlanishi va joylashtirilishi, harbiy islohotlar va yangi turdagi harbiy bo‘limlarning tashkil etishi singari bir qator masalalar doimo kun tartibida turgan.

Bu borada jolabon deb yuritilgan solchilar guruhi qo‘shinni suvlardan o‘tkazishga mas’ul bo‘lganligi va yana naqibchi - qal’a devori tagidan naqb (laxm) kovlab, devorga rahna soluvchilar kabi lavozimlarni ko`rsatish mumkin. Manbalarda ushbu ta`kidlangan lavozimlarning vazifalari quyidagicha tasvirlanadi: 1507-yilgi Ixtiyoriddin qal’asi

qamalida “elchilarning bordi-keldisidan natija chiqmagach, hamma bajarishi shart bo‘lgan farmon chiqarilib, unga ko‘ra temir changalli yer qazuvchilar lahm qazishga tushdilar[2,122]. Uch-to‘rt kun ana shunday yer kovlash ishi bilan mashg‘ul bo‘lingach, qo‘rg‘onning shahar bog‘i tomonidagi burj-minorasining tagi kovaklashib bir tomonga og‘gancha, qulab tushishga moyil bo‘ldi”. Ular belchilar deb ta’riflanib, sarkub va okoplar qazish singari vazifalarni bajarganligi aytiladi. Bundan tashqari, kuxbur (toshkesar) deb atalgan guruh ham bo‘lib, ular qal’a devorlariga otiladigan toshlarni tayyorlash yumushi bilan mashg‘ul bo‘lishganligi[3,78] haqida bayon etiladi.

Ichki va tashki xavfni bartaraf etishla, yangi yerlarni zabt etish uchun uyushtiriladigan istilochilik yurishlarida qo‘shinning soni, uning harbiy tayyorgarligi, qo‘shin boshliqlarining qo‘mondonlik mahorati katta ahamiyat kasb etardi. Mansablarga tayinlash boyicha alohida dastur va qatiy belgilangan nizomlar mavjud bo‘lmagan. Shuningdek, har bir mansab egasining hukmdorga yaqinligi va shaxsiy qobiliyatining yuqoriligi darajasiga bo‘lik tarzda u egallagan mansabning nufuzi va funksional vazifalari ortib borgan.

Qo‘shin asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan.Sardorlarning deyarli barchasi chingiziylar sulolasi vakillari bo‘lishgan. O‘rta asrlarda Movarounnahr jangchilar mohirligi va jasurligi bilan nom qozongan.

Muhammad Shayboniyxon armiyasida unga hali qaram bo‘lmagan hududlardan ham turli toifadagi jangchilar bo‘lgan[4,85-86].

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, 1501-yil Saripul yaqinida Shayboniyxon va Zahridin Muhammad Bobur o’rtasida jang bo’lib o’tadi. Bobur jangdagi mag’lubiyatning asosiy sababi yordamchi mo’g’ul askarlarining xiyonatlarda ko’rsada, bundan boshqa sabablar ham borligini inkor etib bo’lmaydi.

Darhaqiqat, tarixda jasur sarkarda, odil hukmdor sifatida nom qozongan Zahiriddin Muhammad Bobur ilm-fan va san’at homiysi, boy adabiy hamda ilmiy meros qoldirgan betakror shoir, olim hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi, faoliyatini o’rganish har doim o’zbek olimlarini e’tiborini o’ziga tortgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o’rganish, ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin yuksak pog’onaga ko’tarildi. Xususan, o’zbek olimlari Abdugafurov A., Qudratullayev H., Voxidov R., Nuriddinov M., Ibrohimov A., Nuritdinov M., Fayziyev T., Zoxidov.V., Abdullayeva M., Qodirov P., Azimjonova S. va boshqalar Bobur hayoti, faoliyati va ijodining tarixiy, adabiy, sarguzashtlik hususiyatlari haqida izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati bilan bog’liq tatqiqot ishlarinii olib borgan A.Abdugafurov o’zining “Navoiy va Bobur (Buyuk beshlik saboklari)” nomli monografiyasida nafakat Zahiriddin Muhammad Bobur balki she’riyat mulkining sulton Alisher Navoiylarning ijodlari haqida bo’libgina qolmay bir so’z bilan aytganda temuriylar davri madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va qisman siyosiy hayoti tarixini ham yoritib o’tgan [2, 26-bet].

Zaxiriddin Muhammad Bobur o’z davrida Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o’ziga xos o’rin egallagan adib, shoir, olim, yirik davlat arbobi, geograf, tarixchi bo’lishi bilan bir qatorda fidokor o’g’il va jonkuyar ota ham bo’la olgan. Bobur hayoti ichki ziddiyatlarga to’la bo’lgan. XV asrda Xurosonda Qarindoshlar o’rtasidagi

hokimiyat uchun bo’lgan kurash Boburni ham chetlab o’tmagan. Shunday tahlikali qiyin davrda ulkan iste’dodini namoyon qila olgan va o’zidan munosi farzandlar qoldira olgan. O’sha davrda Bobur kurashga shunchalar sho’ng’ib ketgan, bu kurashlar uni shu darajada qaritib qo’yga ediki, uni ko’rishga Qunduz shahriga kelgan Xonzodabegim ukasini ko’rganda uni taniy olmagan ekan. Uni 18-19-yoshlarida oxirgi marta ko’rgan Xozodabegim yelkalari turtib chiqqan, soqol mo’ylovi tarshlangan holda kirgan Boburni xizmatkor deb o’ylagan ekan [5,371-bet]. Lekin Bobur juda matonatli inson ediki turmush, saltanat tashvishlarining sovug’iga ko’krak kerib tura olgan. Bobur farzand tarbiyasida ham yuqori cho’qqilarni zabt etgan otadir. U eng avvalo kechirimlilikni ilgari surgan. Ma’lumki o’sha davrdagi taxt uchun janglarda jigar bir-birining qonini to’kishgacha borganlar. Lekin u har qanday bo’hton uydurmalar oldida jizzakilik qilmagan va vazminlikni saqlay olga holda muammolar yechimini izlagan. Bobur bunday hiyonatkor jigarlar qarshisida ham oqilona qarorlar chiqara olgan. Bunday xislatlarni davomchisi Humoyun hayoti davomida ham uchratish mumkin. Boburnig bu boradagi fikrlariga e’tibor qaratadigan bo’lsak, “Ulug’lar ko’tarmlilik bo’lg’aylar “deya e’tirof etgan [6,251-bet]. Xonzodabegim tomonidan Humoyunga eslatma qilingan Boburning bu gaplarining mazmuni shunday ediki, o’zini ulug’roq hisoblagan kishi kechirimli bo’ladi. To’rt aka-uka Qobulga kelib, baland tepalik ustidagi Bobur maqbarasi ko’tarilib, ota ruhi oldida ahllikni buzmaslikka ond ichishadi. Shohlikning o’ziga tortar dilrabosi baribir og’a-inilar orasiga sovuqchilik soladi. Oradan ikki yil o’tar o’tmas Mirzo Askariy Humoyunga qarshi bosh ko’taradi. Humoyunga ota me’ros vazminlik uni kechirishga majbur qiladi. Mirzo Askariyga hajga bormoqqa imkon beriladi. Ammo Mirzo Askariy haj yo’lida vafot etadi. Aka-ukalar orasidagi bitimni birinchilardan bo’lib Kamron Mirzo buzgan deyiladi [6,290-bet]. Bundan anglash mumkinki, Humoyunning tabiati, hayot va saltanat tizginidagi qarorlari barcha-barchasida otasi Boburning nafasi, Boburning insonparvarligi, Boburning ishonuvchanligi, Boburning rahmdilligi, Boburning kechirimliligi ufurib turadi.

1501-yil Saripul yaqinida Shayboniyxon va Zahridin Muhammad Bobur o’rtasida jang voqeasi tafsiloti esa shundan iboratki, har ikki tomon 5-6 kun davomida bir-birining qarshisida jangsiz holatda turgan va turli harbiy taktikalar rejasi bilan mashg'ul bo'lishgan. Bobur esa ataylab jangni kechiktirishga uringan. Bunga sabab, Hirotdan Husayn Boyqaro tomonidan yuborilgan Qanbar Ali boshchiligidagi ikki ming atrofidagi yordamchi kuchlar Keshga yetib kelgan bo'lib, ikki kunda Boburga kelib qo’shilishi kerak edi[3,79-80]. Boburning tog'asi Sulton Mahmudxonning Sayyid Muhammad boshchiligida yuborgan bir ming besh yuz atrofidagi yordamchi kuchlari ham ertasi kuni tongda yetib kelishi kerak edi. Shunday vaziyatda masalaga munajjimlar aralashib, shu kunda sakkiz yulduz oraliqda turganligini, agar bir kun o'tsa, fursat boy berilib, so’ngra ikki hafta davomida sakkiz yulduz dushmanning orqasida bo'lishi, shu boisdan yulduzlarning ayni holati kechiktirmay jangga kirish va g'alaba qozonish lozimligini anglatishini bashorat qilib Boburni yordamchi kuchlarni kutmasdan, jangga kirishga da 'vat etishgan. Ikkinchi sabab esa, Boburning harbiy strategiyadagi xatosi va Muhammad Shayboniyning bu boradagi ustomonligida ko’rinadi. Jang oldidan Bobur qo’shinni odatdagidek safga tizib, eng sara sarkardalari,

ichkilar (yaqin mulozimlar) va mohir jangchilarni qo'shinmng irovul (qo’shinning oldi qismida boruvchi bo’linma) qismida joylashtiradi. Shayboniyxon esa qo'shin qanotlariga tajribali sarkardalar Mahmud sulton. Hamza sulton va Mahdi sulton rahbarligidagi kuchli otliq qismlarni joylashtirgan. Jang boshlanishi bilan, Shayboniyxonning qanot qismlari Bobur qo’shinining barong'or va javong'orini ortga surib tashlab, markaz qismning orqasidan yorib kirgan. Natijada,, qo'shinning chindovul (orqa qism - arergard) qismida turgan Bobur asosiy qismdan ajralib qolgan va qurshovga tushib qolmaslik uchun, chekinishga majbur bo’lgan. Bobur bu jangda faoliyatidagi eng yirik va alamli mag'lubiyatga uchragan. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamalga olinib, u to'rt oydan ko'proq davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisini ochlikdan tinkasi quriydi. Noiloj qolgan Bobur 1501 -yilning ikkinchi yarmida Samarqandni tark etib Toshkentga tog'asi Mahmudxon huzuriga yo’l oladi. Shayboniyxon Samarqandni ikkinchi marotaba egallaydi. Zarafshon Qashqadaryo vohalari yana Shayboniyxon tasarrufiga o’tadi. Shayboniyxon bu g’alabasidan so’ng Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlarini qo’ga kiritish uchun bir necha yo’nalishda janglar olib bordi. Bu vazifani bajarishda tajribali sarkardalar Mahmud sulton, Ubaydulja stilton, Hamza sulton, Ko’chkunchixon, Suyunchxo’jaxonlar katta rol o’ynadilar. Xususan, 1501-1502-yilIarda Mahnud sulton boshchiligidagi qo'shinlar Dizzaq (Jizzax), (O’ratepa, Shosh, Shohruxiya, Sayram kabi shahar va qal 'alar egallanadi[7,720].

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning harbiy salohiyati tarixini o’rganish yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg’usini uyg’otishda alohida ahamiyatga ega. Binobarin, millatimizning harbiy tarixi deyarli o’rganilgan emas. Mustaqil Vatanimiz taraqqiyotiga o’z hissalarini qushadigan, qushayotgan barkamol yoshlarni tarbiyalashda, tinchlik, demokratik jamiyat qurish uchun kurashayotgan, bir so’z bilan aytganda, salohiyatli, qobiliyatli xalqimiz farzandlari o’tmish merosimiz hamda o‘z tariximizni o’rganishda dasturul amal vazifasini o’taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. B.13
2. Mir Muhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma. O’zbekiston tarixi.Xrestomaniya.XVI-XIX asrlar.T. “Fan va Texnologiya” 2010.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллахўжаевалар табдил қилишган. – Т,: Ўқитувчи, 2008.
4. Zamonov A. Buxoro xonligining qo’shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi.T.2018.
5. П. Қодиров “Юлдузли тунлар” Тошкент, Наврўз, 2019.
6. П. Қодиров, “Авлодлар давони” Тошкент, Ёшлар, 2018.
7. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихий Рашидий / Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова, Масъул муҳаррир: акад. Азиз Қаюмов // Т.: “Шарқ”, 2010.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УНИКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В ВОСПИТАНИИ ЛИЧНОСТНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ ЗАПАСА

Медетова Раушан Мамадияровна,
заведующая отделом Национального института педагогики воспитания,
доктор педагогических наук, старший научный сотрудник,
Анорбоев Абдулла Абдухакимович, старший преподаватель
Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доцент, подполковник

Величайшее наследие представителей Второго Ренессанса до сих пор представляет особую важность, поскольку уникальное наследие мыслителей и просветителей Востока и сегодня весьма актуально. Одним из ярких представителей периода возрождения был Захириддин Мухаммад Бабур. Его роль в национальном воспитании учащейся молодёжи бесценна, особенно, это касается будущих офицеров запаса. Современные военные кадры должны осознавать роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности, образования и культуры.

Из истории известно, что Захириддин Мухаммад Бабур был писателем, поэтом, ученым, занимавшим особое место в культуре, литературе и поэзии Средневекового Востока, а также крупным государственным и полководческим деятелем. Захириддин Мухаммад Бабур своим широким кругозором и совершенным умом основал династию Бабуров в Индии и прославился как государственный деятель в истории этой страны, а также занял достойное место среди известных историков мира со своим произведением «Бабур-наме».

Захириддин Мухаммад Бабур, будучи, справедливым правителем и великим поэтом оставил неизгладимый след в истории духовной культуры нашего народа как историк, лирик и ученый, внесший вклад в решение социальных проблем своими знаменитыми произведениями. Его элегантные газели и рубаи являются одними из редчайших шедевров национальной поэзии.

Захириддин Мухаммад Бабур известен всему миру как ученый-энциклопедист и государственный деятель, оставивший немеркнущий след в истории нашей страны.

Историко-литературное наследие Бабура многогранно, обширно и богато. Прозаические произведения сначала были собраны в «Кабульском диване» (1519), затем в «Заднем диване» (1529-30). Он написал более 10 произведений в жанрах восточной прозы. Творчество поэта описывается через его неповторимый литературный стиль и мастерство, умелом использовании наиболее выразительных средств тюркского языка.

Сегодня Бабур своими известными произведениями занимает достойное место в истории духовной культуры нашего народа как историк, лирический поэт и ученый, внесший свой вклад в решение социально-экономических проблем. В

таких его произведениях, как «Бабурнаме» и «Мубайин», особое значение придается образованию учащейся молодёжи, социально-экономическим изменениям в обществе. Кроме того, в «Бабурнаме» полностью описано развитие страны посредством удовлетворения потребностей населения.

В поэзии Бабура особое место занимают стихи о Родине и тоска по родному краю, в своих произведениях он призывает людей к доброте, справедливости, человечности, ценить высокие человеческие качества: патриотизм, любовь и преданность Родине, великодушие, толерантность, благородство, ответственность. Обращаясь к молодому поколению, Бабур пишет: «Желанной цели должен ты добиться, человек. Иль ничего пускай тебе не снится, человек. А если этих двух задач не сможешь ты решить – Уйди куда-нибудь, живи, как птица, человек!» [1] Эти слова выражают духовное богатство личности, величайшего поэта, мыслителя и ученого Востока, достойного продолжателя дела своего великого прадеда Амира Темура.

Бабура, рожденного 14 февраля 1483 года в городе Андижане в семье главы Ферганского улуса, с детства готовили к особой миссии – стать правителем. Он получил прекрасное образование, разбирался в искусстве, каллиграфии, поэзии, географии, этнографии, истории, военном деле и государственном правлении. В 11 лет его провозгласили правителем Ферганы b его политическая карьера с того момента была направлена на создание централизованного государства.

З.М.Бабур объединил враждовавших раджей и заложил фундамент великой Бабуридской империи в Индии, которая по своей мощи и культуре стала величайшей в своем роде и могла соперничать с Римской. «Бабур – неординарная личность, – писал с восхищением Джавахарлал Неру. – Он выдающийся правитель, смелый и предприимчивый человек эпохи Ренессанса, любивший искусство, литературу, умевший наслаждаться красотой жизни»[2].

Бабур был не только умелым полководцем и великим государственным деятелем, справедливым правителем, но и прекрасным композитором, ученым, историком и поэтом[3]. Он автор огромного количества лирических стихов, трактатов по мусульманскому законоведению, поэтике, музыке, военному делу, многие из которых до сих пор не найдены.

С раннего детства Бабур проявил поэтические способности и на протяжении жизни находил время для их развития. По существующей на Востоке традиции Бабур начал деятельность как поэт-лирик. Кстати, учился он и у более опытных литераторов: из истории известна его переписка с Навои незадолго до его смерти. Традиционное образование, которое получил Бабур, включало, кроме других дисциплин, обязательное изучение основных правил стихосложения – аруза (заучивал с детства наряду с грамматикой).

Творчество Бабура плодотворно и разнообразно. Например, сокровищем всего человечества признаны два дивана: первый – «Парижский» (единственный экземпляр хранится в Национальной библиотеке Франции), второй – со стихами, написанными по приезде в Индию (находится в музее города Рампур). В целом сохранилось свыше 200 рубаи, туюгов, а также месневи и фардов. Большое место

в поэзии Бабура занимает тема родины, которую он любил всем сердцем, всегда тосковал по любимой Ферганской долине, страстно желал вновь встретиться с ней. При этом ни одно из сочинений не идет в сравнение с автобиографическим произведением «Бабурнаме», прославившим на весь мир автора и классическую узбекскую литературу – живое свидетельство истории великих потомков Темуридов. В Институте востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана хранится более десятка рукописных вариантов произведения, которое неоднократно сравнивали с «Записками» Юлия Цезаря.

В современнқх условиях интерес к творчеству Захириддина Мухаммада Бабура усиливается с каждым годом. Причина в уникальности исторической личности и самой книги, которую смело можно назвать энциклопедией. По богатству и разнообразию материала, языку и стилю «Бабурнаме» выше любой исторической хроники, составленной придворными летописцами того времени. Именно поэтому в разные времена данный труд привлекал внимание ученых всего мира. Подтверждением этому являются переводы произведения под эгидой ЮНЕСКО в Париже.

Со времени написания «Бабурнаме» прошло свыше 500 лет. Поменялся язык, появились новые слова, однако оно понятно и доступно поныне. По мнению специалистов, секрет заключается в легкости авторского изложения, даже несмотря на большое количество употребляемых в тексте слов арабского и персидского происхождения. Важно и то, что в Индию, куда Бабур повел войско по настоянию эмиров и беков, стремившихся к новым владениям и богатствам, он пришел не только как завоеватель. За короткое время правления содействовал стабилизации политической ситуации в стране, развил торговлю, организовал строительство библиотек и караван-сараев, поощрял посадку садов. Впоследствии в Индии произошли большие изменения в искусстве и архитектуре. Апогеем стал Тадж-Махал. До последних дней жизни Бабур мечтал вернуться на родину. Тоска по отчизне, безмерная любовь к ней, ностальгические нотки присутствуют во многих произведениях великого потомка Амира Темура: «Когда мы разделили ковун, привезенный из Ферганы, в моих глазах стояли слезы», – вспоминал великий предок в «Бабурнаме»[4]. Бабур умер в 48 лет. Найдено и переведено завещание, в котором он дает наставления сыну Хумаюну: уважать братьев, местные законы и обычаи, не поощрять межэтнические распри, прибегать к советам старших.

Изучение уникального наследия Захириддина Мухаммада Бабура особенно важно для будущих офицеров запаса, поскольку оно способствует национальному воспитанию личностно-профессиональных качеств военнослужащих.

Литература

1. Абдуллаева М.С. Формирование патриотической культуры у военной молодёжи в современных условиях на примере жизнедеятельности З.М.Бабура: https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8757

2. https://china-uz-friendship.com/?p=47657

3. Медетова Р.М. Научно-педагогические основы патриотического воспитания подростков на материалах краеведения: Дис. … канд. пед. наук. – Т., 2005.

4. https://yuz.uz/ru/news/chelovek-epoxi-renessansa

BOBUR VA BOBURIYLAR MEROSI MUZEYLAR EKPOZITSIYASIDA.

Murodova Risolat Davron qizi
O‘zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi
Rahimova Munojat Batuyevna
O‘zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi mutaxassisi

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI boshlari vatanimiz tarixida unutilmas voqealarga boy bo‘lgan yangilanish va uyg‘onish davri bo‘ldi. Chunki bu davrda mo‘g‘ullar hukmronligi va feodal tarqoqlik davri tugatilib, farovonlik, bunyodkorlik va rivojlanish davriga asos solindi va Amir Temur va Temuriylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Shu sababli tarixda bu davr uyg’onish nomi bilan atala boshlandi. Chunki bu davrda ilm-fan, madaniyat va san’atda kamolot bosqichiga chiqdi va madaniy, ma’naviy va iqtisodiy yuksalish yuz tutdi[5-344].

Buyuk Temuriylar sulolasining avlodi Zahiriddin Muhammad Bobur ham Temuriylar sulolasining davomchisi sifatida nafaqat qadimgi Movarounnahr va hozirgi Afg’oniston, Pokiston va Hindistonning madaniyatiga va ilmga oshno bo‘lgan shoh bo‘lgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biriga ko‘ra “Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega” ma’rifatparvar inson bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning pannevarasi bo‘lib adib, shoir, olim yirik davlat arbobi va sarkarda sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Bobur 1483-yilning 14- fevralida Andijonda tavallud topdi. 1494-yili otasining vafotidan keyin 12 yoshida Farg‘ona hokimi etib tayinlangan. 1519-1527-yillarda qilgan yurishi natijasida u hozirgi Afg'oniston, Pokiston va Hindiston yerlarini egallab, Boburiylar sulolasiga asos soldi. [7]. Hozirgi kunga kelib Bobur va Boburiylar merosini asrab-avaylash va uni yetishib kelayotgan avlod vakillariga tanishtirish hamda yetkazish bosh masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu boisdan 2023-yil 25-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-20- sonli qaroriga binoan “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning tavalludining 540 yilligini nishonlash to‘g’risida” qaroriga ko‘ra muzeyshunoslik sohasiga doir quyidagilar belgilanib olingan: Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san’at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish; Xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda yashagan davrga oid noyob qo’lyozma asarlar va boshqa madaniy

boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish; Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish. [8]

Bobur va Boburiylar sulolasi Hindistonda 332 yil hukmronlik qildi va ular hukmronligi natijasida jamiyatda, madaniyatda, san’atda va me’morchilikda tub burilish yasaldi. Umuman olganda, Boburiylarning barcha a’zolari madaniyat va san’at sohasiga katta ahamiyat qaratgan va buning natijasida jamiyatda yangilanish vujudga kelgan va Hindistonda astronomiya, adabiyot, me'morchilik va san'at sohalarida katta yutuqlarga erishildi.

Hunarmandchilik sohasida zargarlik, kulolchilik, temirchilik, to‘quvchilik singari turlari rivoj topgan va yangicha uslublar bilan boyitilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha hunarmandchilik turi hisoblangan gazlama ishlab chiqarishda boburiylar davrida 100 ga yaqin nomi keltirilganligi aynan bu davrda to‘quvchilik taraqqiy etganligiga guvoh bo‘lamiz.[7]

